
TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

VENGER ADABIYOTI NAMUNALARI

100

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

VENGER ADABIYOTI NAMUNALARI



"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.511.141-3
KBK 83.3(2Ros=Veng)
V 41

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton — hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi

G'ayrat Majid

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va *mutafakkirlarining asarlari kiritildi.*

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8721-7-2

© **"O'zbekiston" nashriyoti, 2022**

ILDIZLARI MUSHTARAK XALQLAR

Shunday so'zlarni eshitganman, yozilgan so'z o'tda yonmaydi, suvda cho'kmaydi. Shoirlar aytganidek, qalam bilan yozilganni bolta bilan chopib bo'lmas, deydilar. Bu so'zlarning haqiqat ekanligiga istagancha misol keltirish mumkin. Aytaylik, asrlar suronini yengib bizga qadar yetib kelgan yetuk asarlar, agar yozilmaganida bugun, biz kitobxonlar, ulardan bahramand bo'larmidik?! Albatta, yo'q. Shu bois ham qo'liga qalam olib, ezgu so'z aytish ishqida zahmat chekkan, chekayotgan odam ham baxtli, uning yozganlarini o'qib bir olam zavq va ruh olgan inson ham baxtli. Negaki pok niyat, toza maqsad bilan bitilgan asarlar kishi qalbining tozarishiga ham, hayotda o'z o'rnini topishiga ham ko'makchi bo'ladi. So'z kishilarni haqiqiy insoniy hayotga da'vat etib, ellarni, xalqlarni, mamlakatlarni bir-biri bilan do'stga aylantiradi. Shu bois ham adibning qaysi millatga mansubligi emas, uning qanday asar yozganligi hamisha muhim bo'lib kelgan. Nazarimda, bu qoida abadulabad o'zgarmasa kerak. Demak, ijodkorning yozgani kishilarni ezgulikka, halollikka, poklikka undar ekan, u asar qaysi tilda yozilganidan qat'i nazar, har bir millat-u elatga bir xilda tegishli bo'laveradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, adabiyot millat-u xalqlarni bir maqsad-u maslak yo'lida birlashtiradi. Alhol, Tangrining yerdagi xalifasi bo'lmish insonning tinchlik, farovonlik, ozodlik, pok e'tiqoddan boshqa yuksak orzusi bo'lmas. Ildizlari turkiy xalqlarga borib taqaladigan mehnatkash va oliyjanob venger (hungar, hun er) xalqi bilan mard-jasur, shijoatli zahmatkash o'zbek xalqining bir-biriga bo'lgan yuksak hurmat va ehtiromi ana shu mezonlar bilan mushtarakdir.

Moziyga nazar tashlasak, bu munosabatlarning shakllanishi o'tmishda venger olimlari va sayyohlarining O'rta Osiyoga qilgan safarlari orqali boshlangani oydinlashadi. XIX asrda Shandor

Kyoryoshi Choma, Arminiy Vamberi, Onodi Bertalan, Yenyo Zichi, Dyord Almashi, Aurel Shteyn singari mashhur sharqshunos olim-u sayyohlar yurtimizning boy tarixi, hayotini o'rgangan va asarlarida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirishgan. Tarixchi olim, tilshunos va sayyoh Arminiy Vamberining "O'rta Osiyo bo'ylab sayohat", "Buxoro tarixi" kabi tarixiy asarlarining noyob ilmiy manba deya e'tirof etilishi bejiz emas. Nazarimizda, ayni o'sha kezlardan e'tiboran, o'zbek va venger xalqlari o'rtasida adabiy aloqalar boshlagan. Ana shunday ezgu ishlarning boshida turganlardan biri, o'zbek xalqi madaniyati va adabiyotining chinakam targ'ibotchisi, shuningdek, venger adabiyotining ilk tarjimonlaridan biri Is'hoq Ibrohimdir.

Gapning rosti, "Turkiy adabiyot durdonalari"ning yuzinchi — venger adabiyotiga bag'ishlangan jildini tayyorlash asnosida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning "Hamkorlik solnomasining yangi davri" maqolasida keltirilgan ma'lumotlar orqali Is'hoq Ibrohimni takror kashf etdim. Salkam o'ttiz yil davomida Vengriyada yashab, Mulla Is'hoq, Mulla Sodiq nomlari bilan tanilgan, Xiva xonligining Qo'ng'irot bekligida tug'ilib o'sgan vatandoshimiz Is'hoq Ibrohim Hoji Rashid afandi nomi bilan O'rta Osiyoga safar qilgan Vamberi bilan hamkor-u hamsafarligining o'zi bir katta badiiy asarga mavzu bo'ladi. Maqoladan iqtibos keltiraman: *"Is'hoq Ibrohim Vengriya Fanlar akademiyasining kutubxonasida ishlab, sharq qo'lyozmalarini tadqiq etish va tarjima qilishda faol ishtirok etadi hamda venger mutaxassislariga o'zbek tili, O'rta Osiyo tarixi bo'yicha asarlar yaratishda yordamlashadi, sharq tillaridan dars ham beradi.*

Is'hoq Ibrohim o'zbek xalq maqollari, ertak va topishmoqlarini venger tiliga o'girib, ilmiy jamoatchilikning e'tiborini qozonadi. U atoqli venger shoiri Shandor Petyofining do'sti, 1865–1879-yillarda Vengriya Fanlar akademiyasining bosh kotibi bo'lib xizmat qilgan Aron Yanosh bilan tanishadi va uning "Ajoyib suyg'unning hikoyati" degan asarini o'zbek tiliga tarjima qiladi. Tarjima Vengriyadagi "Kosoru" jurnalining 1865-yil 9-sonida chop etiladi. Olis o'tmishda qadimgi venger va xunlarning Sharqdan — bizning bugungi mintaqamizdan chiqib, Yevro-

paga kelib o'rnashgani haqidagi rivoyat tasvirlangan bu doston biz uchun asliyatdan o'girilgan va venger adabiyotidan o'zbek tiliga tarjima qilingan ilk asar sifatida ham qadrlidir".

Oqqan daryo oqaveradi, deydi xalqimiz. Is'hoq Ibrohimning haqiqiy ma'nodagi izdoshlari — tarjimon adiblarimiz uning xayrli ishlarni davom ettirishmoqda. Allohga shukur, hamisha ilm-ma'rifat, adabiyot va san'atini, kitobni yuksak qadrlab keladigan xalqimiz bugungi kunda ham mahoratli tarjimonlar tufayli venger adabiyotining eng sara namunalarini o'z ona tilida mutolaa qilmoqda. Bu asarlar kitob va to'plamlar holida, shunimgdek, turli adabiy gazeta va jurnallarda muntazam chop etilayotgani barchamizni quvontiradi.

So'zlarimiz quruq bo'lib qolmasligi uchun bir-ikkita misol keltirib o'tilsa, albatta, maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zbekiston qahramoni, Xalq shoiri Abdulla Oripov atoqli venger dramaturgi, shoir, jurnalist, produser, tarixchi, muharrir, siyosatchi Yenyo Xeltaining "Soqov ritsar" she'riy dramasini katta mahorat bilan o'zbek tiliga o'girgan. Pok insoniy muhabbat, sadoqat, g'urur, orni tarannum qilgan bu asarni mutolaa qilar ekansiz, venger adibi o'zbek tilida yozgan bo'lsa kerak, degan kechinma dilingizga nur-ziyo bag'ishlab turadi. Peter Agardi va Seliyaning ajoyib muhabbat qissasi sizni maftun etadi, deb o'ylaymiz.

Shandor Petyofi venger xalqining iftixori va milliy she'riyati asoschisi hisoblanadi. Venger adabiyotshunoslari shoirning adabiyotda tutgan o'rnini Pushkin va Shevchenko bilan tenglashtirishsa, asarlarining g'oyasini Beranje, Geyne ijodi, ijtimoiy qirralarini Nekrasov she'riyati bilan yonma-yon qo'yishadi. Uning she'rlarini shoir va tarjimon Davron Rajab tarjimasida mutolaa qilishingiz mumkin. Bundan tashqari, Davron Rajab Layosh Kashshek, Keray Chex, Yanosh Sentmartoni she'rlarini ham o'zbek tiliga o'girgan.

Mashhur venger adibi Aron Tamashi 1897–1066-yillarda yashab ijod etgan. 1925-yilda uning ilk asarlar to'plami "Ruhim yo'lga otlandi" degan nom bilan nashr etilgan. Aron Tamashi asarlari Vengriyada dong taratib, o'zi iste'dodli adib sifatida tanilgan. Mamlakatning Baumgarten nomli nufuzli muko-

foti bilan taqdirlangan. Hayoti davomida Tamashi o'nta hikoyalar to'plamini nashr etgan. Aron Tamashi Vengriyaning oliy mukofoti — Koshut mukofotiga sazovar bo'lgan. Yozuvchining badiiy yuksak asarlari dunyoning ko'pgina tillariga tarjima qilingan. Ushbu to'plamga uning O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoir Rustam Musurmon tarjima qilgan "Ildiz bilan yovvoyi gul" deb nomlangan qissasi kiritildi.

Mashhur venger adiblari Laslo Byoti va Laslo Krasnaxorkailarning asarlarini taniqli o'zbek adibi Olim Otaxon o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

Imre Kertes — Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan venger adibi. U o'z asarlarida, asosan, odamning jamiyat oldida qanchalar ojizligini tasvirlaydi. 1975-yilda dunyo yuzini ko'rgan "Qismatsiz" romani Vengriya adabiyotining ko'plab tanqidchilarning e'tirofiga sazovor bo'lgan nodir durdonalaridan. 1990-yilda dunyoning o'nta tiliga tarjima qilingan ushbu roman — xolokost, ya'ni Ikkinchi jahon urushi davrida yahudiylarning ommaviy qirg'ini haqida oshkora hikoya qiladi. Olti milliondan ortiq odamning fojiali o'limi, boz ustiga, ular orasida ayollar-u bolalarning bo'lgani qalblarni larzaga soladi. Bu faqat "Qismatsiz"da emas, balki "Tug'ilmagan bolaga aza" asarida ham tilga olingan. Biroq bu asarlar hali o'zbek tiliga o'girilmagan. Ishonamiz, yaqin kelajakda tarjimonlarimiz ushbu asarlarga ham murojaat etishadi.

Imre Kertesning Nobel mukofotini olish chog'ida so'zlagan nutqini Shahnoza Rahmonova tarjima qilingan. U ham kishi e'tiborini xuddi badiiy asar kabi jalb etadi. Shu bois ushbu to'plamga uni ham kiritishni lozim topdik.

Venger adabiyoti namunalari bo'lgan yana boshqa ko'plab asarlar ham o'zbek tiliga o'girilgan. Ta'kidlanganidek, bu ezgu ishlar izchil davom etadi va kitobxonlar yangi-yangi adabiyot sarchashmalaridan bahramand bo'lishadi.

G'ayrat Majid,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

NAZM

ARON YANOSH

(1817–1882)

Aron Yanosh — shoir, Vengriya Fanlar akademiyasining a'zosi va bosh kotibi.

U 1817-yilda Nadsalontada tug'ilgan. Xalq og'zaki ijodi va klassik adabiyotni ota-onasidan o'rganib, so'ngra she'r yozishni boshlagan. Debretsen shahridagi mashhur protestant (kalvinist) kollejining talabasi bo'lgan. U yerda ham tahsil olgan, ham maxsus darslar bergan. Bir qator tarjimalar qilgan va she'rlar yozgan.

1836-yili kollejdan ketgan, chunki u aktyor yoki rassom bo'lishni orzu qilardi. Keyinchalik bir ko'chma aktyorlar guruhiga qo'shiladi, lekin faqirona hayot tarzi unga to'g'ri kelmagani uchun guruhni tark etib, oilasi bag'riga qaytadi. Nadsalontada muallim va mansabdor, so'ngra notarius bo'lib ishlaydi. 1840-yilda Yerssei Yulianna bilan turmush qurib, undan ikki farzand ko'radi.

1846-yilda Kishfaludi jamiyati tomonidan mukofotlangan. "Toldi" nomli dostoni tufayli mashhur bo'lgan. 1848–49-yillarda yuz bergan Venger inqilobi va milliy ozodlik urushida qatnashib, Arad qasridagi qamalda Nadsalonta askarlari orasida bo'lgan. Undan so'ng ichki ishlar vazirligida xizmat qilishni boshlagan. Buning uchun dastavval Debretsenga, keyin esa Budapeshtga ko'chib ketgan. Rus va Avstriya imperiyalaridan mag'lubiyatga uchraganidan so'ng yashiringan va keyin Nadsalontaga qaytgan.

1851-yildan 1856-yilgacha Nadkyoryoshdagi kalvinist o'rta maktabida o'qituvchilik qilgan, 1856-yildan yana yozuvchilikni boshlagan. 1858-yili Vengriya Fanlar akademiyasining a'zosi, 1860-yildan boshlab esa Kishfaludi jamiyatining rahbari bo'lgan. Aron Yanosh ikki jurnalning asoschisidir ("Kurgusal kuzatuvchi" va "Gulchambar"). 1865-yildan Vengriya Fanlar akademiyasi-

ning kotibi, 1870–79-yillar orasida esa uning bosh kotibi bo'lgan. 1868-yildan boshlab sog'lig'i yomonlashib, ko'p kasal bo'lgan. 1882-yilda Shandor Petyofi haykalining ochilish marosimida qattiq shamollagan va bir necha kun o'tib vafot etgan.

Aron Yanosh venger adabiyotining muhim bir siymosi edi; u adabiy tarjimalar, she'rlar, dostonlar (eng mashhuri "Toldi" trilogiyasi) hamda bir qancha balladalar muallifidir. Venger xalqining o'tmishi hikoya qilingan "Ajoyib suyg'unning hikoyati" nomli dostonini 1863-yili yozgan.

(dr. Shyutyo Lindadan olingan)

AJOYIB SUYG'UNNING HIKOYATI

Shoxdan shoxga uchadi qushlar,
Og'izdan og'izga boradi so'zlar.
Go'rlarning ustiga chiqadi o'tlar,
Turar, so'z eshitib, yeridan pahlavonlar.

Enaning o'g'illari chiqdilar ovga,
Ovlarni qochirib tushdilar dashtga.
Hunor, Major degan ikki polvondir,
Menrotning o'g'lidir ikki birodar.

Har biri ellik-ellik odam oldilar,
Yaxshisini olib ham yomonini qo'ydilar.
Har biri u qadar yarog' oldilar,
Yarog'ni ko'rganlar hayron qoldilar.

Ularning zarbidan ov qocha bilmadi,
Kiyik va suyg'unlar qonga bulandi.
Nechasini o'ldirib, nechasini yiqdilar,
Nechasini tutolmay ortidan quvdilar.

Bir suyg'unni quvlab-quvlab yurdilar,
Achchiq dengiz yonidagi dashtga bordilar.

Ayiq, bo‘ri bo‘lsa ham yo‘ldan ozibdir,
Uning kabi yomon dashtga boribdir.

Ammo yo‘lbars bilan arslon oh urdilar,
Ohining sadosi dashtdan o‘tdilar.
Sariq qoplon unda bola tug‘adi,
Hech bir zot topmasa bolasini yedi.

Uchadi qushlar, chiqadi so‘zlar,
Go‘zal Enaning ikki o‘g‘lidan.
Yaxshi sayrar qushlar shoxdan shoxga,
Yaxshi yaxshi so‘zlar og‘izdan og‘izga.

Endi quyosh botar yeriga bordi,
Quyoshning shu’lasi bulutga urdi.
Kun bor vaqtda suyg‘un quvlab yurdilar,
Kun botgan so‘ng hech bir narsa ko‘rmaslar.

Kech bo‘lgan so‘ng yura-yura keldilar,
Qur* suvni ko‘rdilar, unga tushdilar.
Qur* suvning yonida yaxshi o‘tlar bor edi,
Yaxshi o‘tlar ko‘rib otlar yer edi.

Aytadi Hunor “tushaylik” deb,
“Rohat etaylik otlarga suv berib”.
Major so‘z aytdi: “Tong otgandan so‘ng,
Qaytaylik hammamiz yana u yerga”.

Ey botirlar, ey polvonlar,
Nechuk ko‘rasiz bu yerlarni?
Kun botadi bu tarafda,
Hayron bo‘ldik bu yerlarda.

So‘zladi polvonning yana birisi:
Kunning botgan yerini ko‘rdim qiblada.
Inonmayman kun qiblada botdi deb,
Bu tog‘lardan qizil shafaq ko‘rdim men.

Oqar suvning yoqasiga tushdilar,
Otlarga suv berib rohat etdilar.
Maslahat etdilar hammasi birdan:
"Azonda ketaylik uylarimizga".

U ertada bo'ldi ayoz to'polon,
Kun shu'lasi qizil bo'lib ko'rindi.
Suyg'un ketdi kiyik kabi sakrab,
Suvning u yonida ko'rdilar uni.

Uchadi qushlar, chiqadi so'zlar,
Go'zal Enaning ikki o'g'lidan.
Yaxshi sayrar qushlar shoxdan shoxga,
Yaxshi-yaxshi so'zlar og'izdan og'izga.

Ey yigitlar, yaxshi g'ayrat etinglar!
U suyg'unni g'ayrat bilan tutinglar!
Nechasi istab, nechasi istamay,
Ko'p xayollar bilan ketdi suyg'unga.

Qur suv degan suvga tushib suzdilar,
Yomon dashtlar u tarafda bor edi.
Yomon cho'ldir u dashtlarning orasi,
Na o't bordir, na suv bordir u yerda.

Yerning yuzi qalqib bunday ko'rindi,
Sho'r yerlar suv bo'lib taqir bo'lindi.
Buloqning suvlarin ichib bo'lmaydi,
Gugurt kabi issiq u suvlarning bug'lari.

Yog'lar chiqar buloqlardan qaynab,
Ham yonadi, ham oqadi u yog'lar.
Oqshom yoqqan qorovulning o'tidek,
Elaslab-elaslab har yonga charpidi.

Har oqshomda ko'p-ko'p xafa bo'ldilar,
"Suyg'un tutmoq ne lozimdir?" — dedilar.

“Ne uchunki ko‘p mashaqqat tortamiz?”
Karbalo dashtidek yomon dashtlarda.

Bunday necha pushaymonlar etsa ham,
Tong otgan so‘ng u suyg‘unga ketdilar.
Yel uchirgan kamalak kabi quvdilar,
Qarchig‘a qushning soyasidek yilpildab.

Uchadi qushlar, chiqadi so‘zlar,
Go‘zal Enaning ikki o‘g‘lidan.
Yaxshi sayrar qushlar shoxdan shoxga,
Yaxshi-yaxshi so‘zlar og‘izdan og‘izga.

Don labida yomon dashtda ovoz etdilar,
Ovoz shovqinlar Meyot dengizga yetdilar.
Uyma-uyma ko‘llarda yomon botqoq bor edi,
Mashaqqatlar tortib orollarga o‘tdilar.

Bir yerlarga kelganda suyg‘un ma’lum bo‘lmadi —
Olddadir, yo ortda; havo bo‘g‘iq bo‘libdir.
Ko‘zlar ochib yumguncha yo‘q bo‘libdir, bilmadik,
Bunday g‘oyib bo‘lgandan bular hayron bo‘ldilar.

“Quv-quv suyg‘unni, ne yerdadir u suyg‘un?”
Biri aytdi: “Kelinglar, bu yerdadir u suyg‘un”.
Boshqa biri aytdilar: “Bunda ko‘rdim suyg‘unni”,
Yana biri aytdilar: “Hech bir yerda ko‘rmadim”.

Har bir soyni, har bir pastni ko‘rdilar,
Har butaga nayza, qilich urdilar.
Kaklik qo‘rqib, kaltakesaklar qochdilar,
Ammo suyg‘un u yerlarda yo‘q turar.

Aytdi Major: “Ne yerda yuribmiz?
Yo‘llar qayda — oldindami yo ortda?
Falak doim har tarafga aylanar,
Enam, enam, mehnat tortib o‘larsan!”

Hunor aytdi: “Endi bunda qolarmiz,
Manzil etib bu yerlarda bo‘laylik.
Ipak kabi o‘tlar bor, asal kabi suvlar bor,
Og‘ochlarning kovagidan bollar tomib turibdi.

Ko‘k suvlarning ichida yaxshi rangli baliq bor,
Qizil rangli hayvondan yaxshi tomoq yasarmiz.
Sariq yoylar tarangdir, o‘qlarimiz ildamdir,
Ko‘p shovqinlar etaylik, ko‘p o‘ljalar toparmiz”.

Uchadi qushlar, chiqadi so‘zlar,
Go‘zal Enaning ikki o‘g‘lidan.
Yaxshi sayrar qushlar shoxdan shoxga,
Yaxshi-yaxshi so‘zlar og‘izdan og‘izga.

O‘tira-o‘tira bezikib ko‘p xafalar bo‘ldilar,
Baliqlarni ko‘p olib, kiyiklarni ko‘p tutib.
Bu ashyoni yeb, ko‘p boshqa ashyoni istadi,
Boshqa ashyoni topmay, dasht tarafga ketdilar.

Yomon taqir dashtlarda uyon-buyon yurdilar,
Tun yortisi bo‘lganda bir so‘z — ovoz eshitdi.
Nog‘ora nayning ovozin bular — hamma eshitdi,
Ovozlari uning ko‘klar kabi gurullar.

U tarafga yurganda pari qizlarin ko‘rdilar,
Ko‘p pari qizlar u yerda o‘yin-majlis quribdir.
Tutun kabi zotlardan yopilibdir chodiri,
Bunday chodir ichida vaqtixushlik etdilar.

Hammalari qiz turar, hech bir erkak yo‘q turar,
U qizlardek go‘zal qiz bu dunyoda yo‘q turar.
Belarning, Dulning qizlari ular,
U yerlarda bu qizlar jin hunarin o‘rganar.

Eng yaxshidir ikki qiz — Dul podshohning qizidir,
O‘n ikkisi bu qizning Belar shoxning qizidir.

Hammalari bu qizning yuz ikkidir hisobi,
Pari bo‘lmog‘in istab bulay hunar etarlar.

Ko‘p mashaqqat ishdir nochor erkak o‘ldirmoq,
Mashaqqatdir to‘qqiz yigit sehrlamoq.
Ko‘p noz bilan, g‘amza bilan sevintirmoq,
O‘zlarini sevintirar, boshqalarni sevmaslar.

Hunarlar o‘rganar bunday ajoyib,
Ko‘ngillar sindirar bunday g‘aroyib.
Har oqshomda “Ne o‘rganding?” dedilar,
Ulardan so‘ng xushvaqtchilik etarlar.

Uchadi qushlar, chiqadi so‘zlar,
Go‘zal Enaning ikki o‘g‘lidan.
Yaxshi sayrar qushlar shoxdan shoxga,
Yaxshi-yaxshi so‘zlar og‘izdan og‘izga.

Bir ovozni eshitib ketdi shimol tarafga,
Oqshom qorong‘isida yorug‘ tarafga yurdi.
Ko‘p ehtiyot etib pinhon yerdan ketdi,
Kamalakni tutmoqqa ko‘p usullar kerakdir.

Major aytdi: “Og‘a, nayning ovozi,
Vujudimda paydo yetti gijiklik”.
Hunor aytdi: “Yurak-bag‘rim qon bo‘ldi,
Qizlarning yurishini bunday ko‘rgandan”.

Ey yigitlar, bu qizlarning oldiga!
Har biringiz bir-birdan quchoqlang!
Xotin etib o‘zlaringga olinglar!
Shamollar yo‘q etar izlarimizni!

Otlarni ko‘p qistab tepangi urdi,
Yuganni bo‘sh qo‘yib, ko‘p chopib ketdi.
Qizlarni o‘rtaga olib yigitlar,
Hamma qizlar o‘rtada, ham quchoqda bo‘ldilar.

Uchadi qushlar, chiqadi so‘zlar,
Go‘zal Enaning ikki o‘g‘lidan.

Yaxshi sayrar qushlar shoxdan shoxga,
Yaxshi-yaxshi so‘zlar og‘izdan og‘izga.

Eng yaxshisi qizlarning — Dul podshohning qizlari,
Hunor bilan Majorning xotinlari bo‘ladi.
U yigitning hammasi yuz yigitdir hisobi,
Har birlari bir-birdan u qizlarni oladi.

Takabbur u qizlar bo‘yinlarini urdilar,
Xotin bo‘lib qizlar gunohlarini kechirdi.
Istamadi bu qizlar uylariga ketmoqni,
Eri bilan do‘st bo‘lib bolali bo‘ldilar.

Ko‘l ichida orolga ko‘p olishdi bu qizlar,
Chodirlari bularning yaxshi uydek bo‘ldilar.
Yotoqlari bularning yaxshi yerdek bo‘ldilar,
Boshqa yerga ketmoqni bular qabul etmadi.

Manglaylari bir qarich botir o‘g‘il tug‘dilar,
Yaxshi qizlar tug‘dilar parilarning qizidek.
Bir quvvatli toifadan yaxshi zurriyot qoldilar,
Go‘zal qizlar qoldilar enasining yerida.

Botir-botir o‘g‘illar har biridan ikkisi,
To‘rt o‘g‘illar bo‘ldilar ikki buyuk vazirdan.
Har birini bularning bosh etdilar toifalar,
Bu odamlar kullisi yuzda sakkiz bo‘ldilar.

Hunordan bo‘lgan bolalar Hun toifa bo‘ldilar,
Majordan bo‘lgan bolalar Major toifa bo‘ldilar.
Bulardan bo‘lgan zurriyotlar ko‘p jamoat bo‘ldilar,
Bular ko‘p xalq bo‘lgandan u orolga sig‘madi.

Skif xalqning yeriga bular kelib yoyildi,
Skif xalqning yerlari Dul podshohga mulk bo‘ldi.
Ikkingizning ismingiz u zamondan ham beri,
Uchadilar og‘izga xabarlardan xabarlar.

TARJIMON VA TARJIMA HAQIDA SO‘Z

MULLA SODIQNING QABRI VENGRIYADA

Oltmishinchi yillarning o‘rtalarida men o‘rta maktab o‘quvchisi edim. Har hafta Budapeshtning Vesheleni ko‘chasidagi kutubxonadan uch-to‘rtta kitobni qo‘ltiqlab uyga qaytardim. Dastlab kutubxonachi men katta-katta kitoblarni rostdan ham o‘qiymanmi-yo‘qmi, tekshirib ko‘rardi. Men venger yozuvchisi Yokaining hamda Jyul Vern, Vamberi asarlarini ko‘proq o‘qishni xohlardim, lekin butun kutubxonada Vamberining bittagina “Darvesh qiyofasida O‘rta Osiyo bo‘ylab” nomli kitobi bo‘lar, har gal uni katta qiziqish bilan o‘qir edim. Kitobga ilova qilingan atlas va suratli albomga boqib, Vamberining jasurona sarguzashtlarini o‘qib, o‘zgacha hissiyotlar og‘ushida qolardim. Bu tuyg‘ularni avvallari faqat qadimiy venger balladalari va hikoyalarini mutolaa qilganda his etganman. Suratlarda tasvirlangan manzaralar bizning qadimiy vatanimizga o‘xshar edi.

Bir necha yillar o‘tgach, ya’ni to‘qsoninchi yillar boshida “Atilla, Xudoning qilichi” nomli operamni yozayotib qadimiy Venger tarixiga oid manbalarni o‘rganar ekanman, xuddi ota-bobolarimiz so‘zlari qulog‘im ostida jaranglagandek, o‘sha yoshligimdagi hayajonli hissiyotni tuydim. O‘sha vaqtda yana Vamberi va uning hamrohi Mulla Sodiq (Is’hoq) bilan uchrashdim. Mulla Sodiq Aron Yanoshning “Ajoyib suyg‘unning hikoyati” asarini ona tiliga tarjima qilgan. Hun-turk xalqlarining Venger dashtida uyushtirilgan Qurultoyida, Lakitelek shahrida joylashgan Qo‘ng‘ir Ishtvan Mandoki nomidagi kollejda va butun “Sharqni kashf etish” siyosiy dasturini qo‘llab-quvvatlaydigan davralarda Vamberining “tatar hamrohi” Mulla Sodiq yoki Is’hoq nomi tilga olinadi. Uning qabri Vengriyadagi Velense shahrida joylashgan bo‘lib, Velense Kalvinist cherkovi, Lakitelek kolleji va Milliy forum hamkorligida restavratsiya qilindi. 2011-yil 1-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining

20 yillik bayrami munosabati bilan o'zbek elchisi va bir qancha venger mulozimlari birgalikda Mulla Sodiqni xotirladilar.

Go'zal hikoyamiz bo'lmish "Ajoyib suyg'unning hikoyati"ni tarjima qilgan Mulla Sodiqning xotirasi abadiy bo'lsin. O'zbeklar va bizning xalqimizning kelib chiqishi bir ildizga borib taqaladi, oramizda ishonch va ehtirom bor.

Lakitelek, 2016-yil 9-mart

Lejak Shandor,
yozuvchi, Vengriya Parlamenti vitse-spikeri

MULLA IS'HOQ

(vengercha ismi: Csagatáj Izsák)

(1836–1892)

Tug'ilgan joyi: Qo'ng'irot (O'zbekiston, Qoraqalpog'iston).
Vafot etgan joyi: Velense (Vengriya, Feyer viloyati).

Mulla Is'hoq 1863-yili mashhur turkshunos Arminiy Vamberi O'rta Osiyodan Vengriyaga qaytayotganida unga hamroh bo'lib kelgan. Vamberi 1864-yili ingliz tilida yozilgan "O'rta Osiyoga sayohat" (inglizcha: Travels in Central Asia) nomli kitobining bir bobida "tatar" do'sti haqida yozgan. Lekin Mulla Is'hoq aslida tatar bo'lmagan, Vamberi shunchaki O'rta Osiyodagi va Kichik Osiyodagi turklarni bir-biridan farqlash uchun shunday nomlagan. Ruslar Oltin O'rda (Jo'ji ulusi)ning ba'zi xalqlarini, jumladan, Volga (Edil) daryosi bo'yida va Qrimda yashagan turkiylarni ham tatar deb ataganlar. Biroq O'rta Osiyodagi turkiy xalqlar boshqacha nom bilan atalgan: o'zbek, qirg'iz, qoraqirg'iz, turkman, sart kabi. Aslida Mulla Is'hoq Xorazm turkiylaridan edi. Ushbu etnos Sovet Ittifoqi tuzilganidan keyin o'zbek millatining bir qismi bo'lib qoldi.

Vamberi Mulla Is'hoq bilan Xivada tanishgan. Is'hoq o'sha vaqtda haj qilish uchun Makkaga borish niyatida bo'lgan. U Makkadan qaytadigan hojilarga va Rashid afandiga, ya'ni darvesh qiyofasidagi Vamberiga hamrohlik qilgan. Rashid afandi musulmon avliyosi Bahouddinning qabrini ziyorat qilishni xohlagan. Buxoroga borishidan oldin Mulla Is'hoq Orol dengizi yaqinida joylashgan Qo'ng'irot shahriga oilasi bilan xayrlashgani borgan.

Qo'ng'irot Xiva singari Amudaryoning chap qirg'og'ida joylashgan (Xivadan avtomobilda yo'lga chiqsangiz, 290 kilometr). Orol dengizining oldingi qirg'og'i — Mo'ynoq shahri Qo'ng'irotdan 87 kilometr uzoqlikda joylashgan. Lekin hozir dengiz qurigan. Xiva Amudaryodan 50 kilometr uzoqda bo'lgani uchun Vamberi oldin Yangi Urganchga borgan. Oxunbobo qabrini ziyorat qilgach, u yerda Mulla Is'hoq bilan kemaga o'tirib, daryo orqali Qo'ng'irotga borgan. Gurlan, Xo'jayli va Nukus orqali hozirgi O'zbekistonning Qoraqalpog'iston Respublikasi chegarasigacha yetib borganlar. Keyinroq Amudaryo bo'yidagi Ho'kizketgan yeriga sayohat qilib, beshinchi kuni Mulla Is'hoqning ona shahri bo'lmish Qo'ng'irotga yetib borganlar. Qaytishda Ko'hna Urganch va Toshhovuzdan otda yo'lga chiqqanlar.

Mulla Is'hoq Rashid afandiga sadoqat bilan hamrohlik qilgan. Biroq Vamberi Mashhadda (Sharqiy Eron, Xuroson) bir ingliz ofitseri bilan tanishib, u bilan bemalol ingliz tilida suhbatlashganidan keyin "Vamberi darvesh bo'lmasa kerak", deb undan shubhalana boshlagan. Tehronga borib Vamberi o'zining aslida kim ekanini oshkor qilgan, lekin, shunga qaramasdan, Is'hoq Istanbulgacha unga hamrohlik qilgan. So'ngra Mulla Is'hoq Istanbuldan Makkaga qaytishni xohlagan. Ammo Yevropa (Farang) Is'hoqni qiziqtirib qo'ygan va u Istanbuldan to'g'ri Vamberi bilan Budapeshtga kelgan. Vamberi bir yillik muddatga Londonga ketganida mashhur venger olimlari Siladi Aron hamda Budens Yozef Mulla Is'hoqqa g'amxo'rlik qilganlar. Vamberi 1864-yili Londondan qaytganida, Is'hoq allaqachon yevropacha kiyinib, hattoki venger (major) tilini ham o'rganib olgan edi.

Keyinchalik Is'hoqni Vengriya Fanlar akademiyasining kutubxonasiga ishga olishgan va Vamberining maslahati bilan o'z

ismini Csagataj Izsak (Chig'atoy Is'hoq) deb o'zgartirib, so'ngra bir venger ayol bilan turmush quradi.

Mulla Is'hoq na tatar, na chig'atoy millatiga mansub edi. Chig'atoyxon Chingizxonning ikkinchi o'g'li bo'lib, otasidan meros sifatida Turkiston uning qo'liga o'tgan. Ammo u yerlarda muloqot qilingan tilni va xalqni hech qachon chig'atoy deb atamaganlar, ularning ona tili turkiy til bo'lgan. Turkologiyada O'rta Osiyoda yashaydigan turklarga xos deb o'rganiladigan chig'atoy-turk nomini Vamberi fanga olib kirgan.

Mulla Is'hoq hayotining so'nggi damlarida bir venger beva ayoli bilan Velense shaharchasiga ko'chib ketgan va 1892-yil 56 yoshida shu shaharchada vafot etgan.

Uning haqiqiy ismi Is'hoq bo'lishiga qaramasdan, qabrtoshida Mulla Sodiq deb yozilgan (Mulla Sodiq o'rta osiyolik bir tasavvuf olimidir).

• Ajoyib suyg'un

Mulla Is'hoq venger shoiri Aron Yanoshning "Ajoyib suyg'unning hikoyati" asarini Vengriya Fanlar akademiyasi Sharqiy kutubxonasida ishlagan paytida tarjima qilgan. Tarjimani lotin yozuviga asoslangan venger alifbosida tayyorlagan. Uning nusxasi hozirgacha Budapeshtdagi Sharqiy kutubxonada saqlanadi. Nusxaning so'ngida shunday yozilgan: "Ajoyib suyg'un haqida bir hikoya, o'zbek tilida, tarjimon Chig'atoy Is'hoq, Vamberining "tatar hamrohi". Men 2015-yili Kelemen Andrash yordamida nusxaning PDF variantini oldim. Asl matnni kompyuterga kiritib, Aron Yanoshning she'ri bilan solishtirdim. Shunda aniq bo'ldiki, tarjima to'liq emas. Chunki Mulla Is'hoq uning ba'zi qismlarini tushirib qoldirgan ekan. Matnni bugungi o'zbek adabiy tiliga mosladim. Ayrim shevaga xos so'zlarni, imkon boricha, hozirgi o'zbek tilidagi ba'zi so'zlar bilan almashtirdim. Ba'zi joylarda esa asl so'zlarni qoldirib, faqat fonetika va morfologiyasiga qarab ayrim joylarini o'zgartirdim. AQSHda istiqomat qiluvchi o'zbek olimi Akrom Habibulla matndagi xatolarni tuzatib berdi.

Tarjima haqida shuni bilishimiz kerakki, Mulla Is'hoq Sovet davrida qoidalari Toshkent lahjasi asosida ishlab chiqilgan (Andijon lahjasi nazarda tutilmoqda (nashriyot)) hozirgi o'zbek adabiy tilini bilmagan. U Xorazm shevasida gapirgan. Bu sheva turkiy tillarning o'g'uz lahjasidagi turkman tiliga yaqinroq. Shuning uchun o'zbek tilining o'g'uz shevasi deb ham ataladi. Bundan tashqari, Mulla Is'hoq Vamberidan Usmonli turk tilini ham o'rgangan, buning natijasida u Xorazm shevasiga Kichik Osiyodagi turk tilining so'zlarini ham aralashtirib yuborgan. Matn tushunarliroq bo'lishi uchun o'zbek tilida bo'lmagan Usmonli turk so'zlari ham tarjima qilingan edi. Shunday bo'lsa-da, Mulla Is'hoq tarjimasining 90 foizi bugungi o'zbek tiliga ozgina o'zgartirishlar bilan mos keladi. O'zgartirilgan qismlarni yulduzcha bilan belgiladim.

Dr. Shomfai Kara David,
turkshunos,
Vengriya Fanlar akademiyasining ilmiy xodimi

SHANDOR PETYOFI

(1823–1849)

Shandor Petyofi Venger xalqining iftixori va milliy she'riyati asoschisi hisoblanadi. Venger adabiyotshunoslari shoirning adabiyotda tutgan o'rnini Pushkin va Shevchenko bilan tenglashtirishsa, asarlarining g'oyasini Beranje, Geyne ijodi, ijtimoiy qirralarini Nekrasov she'riyati bilan yonma-yon qo'yishadi.

Uning ilk she'rlar to'plami 1844-yili dunyo yuzini ko'rdi. Petyofi shakl va mazmun jihatidan venger she'riyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Ona vatani ozodligi haqida baralla kuylagan yosh shoir Avstriya imperiyasi istibdodiga qarshi olib borilgan 1848–1849-yillardagi janglarda yo'lboshchilardan biri sifatida kurashdi va yigirma olti yoshida qahramonlarcha halok bo'ldi. Shoirning "Qishloq bolg'asi" (1844), "Pahlavon Yanosh" (1844), "Shamollar" (1845–1846), "Pishta Silay" (1846), "Shalgo" (1846), "Havoriy" (1848) to'plamlari hamon qo'lma-qo'l o'qiladi. Yevropaning bir qancha shaharlaridagi ko'cha va xiyobonlarga shoir nomi berilgan.

YANA KUZ KELDI

Nur bag'ishlab, mening umrimga
Yana kuz keldi, yana afsun.
Biroq kuzni sevaman nega,
Hamon undan topaman mazmun.

Tikilaman olis ufq sari,
Qiyama tog' chimzorlar aro,
O'tiraman xazonni tinglab,
Shitirlashi qalbimga oro.

Zamin uzra quyosh jilmayar,
Tikiladi sokin nur tashlab,
Ona kabi asta tebratar,
Farzandini beshikka belab.

Zamin uzra tovlanar asli
O‘lim emas, uyqu lavhasi.
Yo‘q, u pari o‘z xobgohida
O‘lmayabdi, kelar uyqusi.

Yoyibdi u yon-atrofiga,
Yechib qo‘yib ko‘rkam libosin,
Chunki cho‘chib qolsa daf’atan,
Birdan yana kiyar hayosin.

Uxla, xushro‘y, tanti tabiat,
Uxla, bahor kunlarigacha.
To kelguncha shu iliq kunlar
Shirin tush-la tin ol ungacha.

Titrab barmoq uchlari bilan
Ushlaydirman parimni asta.
Sokin shivir taralar birdan,
Tushlariga u meni undar.

O‘tir, do‘stim, men-la salqinda,
Sukut saqla, gapirmagin hech.
Tovush so‘nar suvning sathida,
Go‘yo shamol shivirlagandek.

Agar dillar bo‘sa istasa,
Sal tegsa-da lablariga lab,
Uyg‘otmasin shu onda bo‘sa
Orom olsin farishtam uxlab.

ERKAKMISAN ERKAK BO‘L...

Erkakmisan, erkak bo‘l,
Minba’d bo‘lma — qo‘g‘irchoq,
Taqdiringni kimlardir
Qilmasinlar o‘yinchoq!
Jasurlarni qo‘rqitmas
It hurgandek taqdirlar, —
Demak, sen taslim bo‘lma,
Darhol unga peshvoz chiq!

Erkakmisan, erkak bo‘l!
Erkni sevgin, so‘znimas.
Gapga chechan bo‘lish-chi,
Bil, axir senga ishmas!
Yemir, sindir, bo‘l dadil,
Tor-mor qil yovlaringni,
Ko‘kragingni tut adl,
Ishga sol dovlaringni!

Erkakmisan, erkak bo‘l!
Haqiqatga bo‘l qalqon,
Sen haqsan va bo‘l tayyor,
Arzir unga to‘ksang qon!
Yaxshisi, sen yuz bora
Issiq joningdan kechgil,
Baxtsiz bechora bo‘lib
Yashashni sen or bilgil!

Erkakmisan, erkak bo‘l!
Erkak emas shundaylar —
Dunyo va boylikni deb
O‘z erkini berganlar!
Razildir manfaat-chun
Ona yurtin sotganlar!
“Faqirman, lek ozodman!” —
Bo‘lsin sening shioring.

Erkakmisan, erkak bo‘l!
Jasur bo‘l jangda, inon
Va na taqdir, na odamlar
Senga yetkazar ziyon!
Bamisli azim eman —
Dovullarda mag‘rur bo‘l,
Tursa hamki qismat,
Qaddingni tik tutib o‘l!

MUHABBAT VA ERK

Muhabbat va erk —
Menga shuning o‘zi yetadi!
Jonni fido qilib
Ishqni toparman
Va erk uchun uni yana
Qurbon qilarman!

AGAR QIZLAR SEVMASALAR

Agar qizlar sevmasalar,
Ich, og‘ayni,
Va tushingda shaydo etursan
Sen barchani.

Pul bo‘lmasa cho‘ntagingda,
Ich, og‘ayni,
Va uxlasang ko‘rmabdilar
Sendek boyni.

Agar boshga kulfat tushsa,
May ich, og‘a,
Va tutundek tarqaladi
Boshdan g‘alva.

Barchasidan ayrildim, lek
Dard-la to‘qman,
Achchiq dardlar amr etadi:
Ichmay bo‘pman!

VENGRIYA

Senga, mening aziz yurtim,
Ega bo‘lish buyurmagan:
Yo tepadan boshlanar zax,
Kuyib borar yo ostidan.

Mo‘l-ko‘l yashar baxtlilari
Bo‘ksa-da, hech tiymas nafsin,
Bu vaqt esa faqirlari
Non topolmay o‘lar ochdan!

•

QAYG‘U

Qayg‘u — bu ulkan dengiz,
Shodlik — undagi marvarid.
Biz uni doim — essiz!
Chiqarib olguncha ezamiz.

SEN NIMA YEB QO‘YDING, ZAMIN?

Sen nima yeb qo‘yding, zamin,
javob ber savolimga, bebosh,
Nega buncha qon ichasan va
yana shuncha ichasan ko‘zyosh?

LAYOSH KASHSHAK

(1887–1967)

Vengriyaning taniqli shoir va rassomi Layosh Kashshak 1887-yil 21-martda Ershekuyvar shahrida tavallud topdi. U venger san'atidagi "Avangard" oqimining iste'dodli yetakchilaridan biri bo'lgan. Adib adabiyot va rangtasvir sohasida bab-baravar ijod qilgan. 1921-yil Venada chop etilgan "Yangi rassomlar kitobi" Layosh Kashshak ijodining cho'qqisi hisoblanadi.

Ijodkor 1967-yil 22-iyulda Budapeshtda vafot etgan. Budapeshtdagi Zichi saroyida Layosh Kashshak muzeyi tashkil etilgan. O'zi tug'ilib o'sgan shaharga uning haykali o'rnatilgan.

GULBARGLAR TO'KILAR

Meni
ko'pdan beri
bezovta qilar
sevgi emas,
o'limning yaqinligi.
Men qanday ovutay
yuragi ostida
tirik niholdek qimirlayotgan
xotirasi bor
ayollarni.

Qanday yuvaman gunohimni
tunlarda niqob taqib
kunlar aro esa o'zimning
ezgulik va tozalik haqdagi
va'zgo'yligimni.

Bunga chidab bo‘lmas,
bo‘yinbog‘im bo‘g‘ib qo‘yishidan
qo‘rqaman.

Menga imkon bering
oppoq to‘shakda nafas rostlashga,
to‘xtatib qo‘ying boshim uzra
o‘limim vaqtini
intiqlik bilan kutayotgan soatni.

UZILGAN RISHTA

Qayerdadir
shu yerlarda, olisdamas
maqsadim tanlangan tavakkal.

Biroq ufq
qochaverar
oyog‘imning ostidan.

Shamol ovozidan,
nafasidan bulutlarning,
o‘ziga tortayotgan oyga chalg‘ib
yo‘ldan adashaman.

Yana chiqib qolaman
Rangi unniqqan
O‘ziga tortuvchi chiroqlari bor
Notanish o‘lkalardan.

Yo‘lning oxiri yo‘q
va bo‘lmaydi.
Oy yo‘q boshim uzra,
yo‘qdir mening yulduzim.

Beqiyos taqdirni
o‘zim bilan
chamalayman.
Vatanni tark etib,
Izlayman o‘z qabrimni.

ATILLA YOJEF

(1905–1937)

Atilla Yojef (1905–1937) venger adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri. U Vengriyada qora kuchlar hokimiyatni egallab, oddiy xalq azob-uqubatda kun kechirayotgan paytda yashab ijod qildi. Shoirning "Go'zallik gadosi" (1922), "Baqirayotgan men emas" (1925), "Ota-onasiz" (1929), "Kapitalni ag'dar" (1931), "Shahar chekkasida tun" (1932), "Ayiq o'yini" (1934), "Jon azobi" (1936) she'riy to'plamlarida yo'qsillar, ishchi va dehqonlarning og'ir ahvoli tasvirlangan, boy zodagonlar zulmiga, fashizm istibdodiga qarshi kurashga da'vat etilgan. Reaksion kuchlar tazyiqiga uchrab, och-nahor kun ko'rgan shoir 1937-yilning dekabrida o'zini poyezd tagiga tashlab halok bo'ladi.

SEN UCHRAB QOLDING-U ...

Sen uchrab qolding-u, quyoshning nuri
Yanada yorqinroq bo'lib quyuldi,
Hatto bulbullarning chug'ur-chug'uri
Butunlay boshqacha — yangroq tuyuldi.

Biroq yoqut misol labingda sukut,
Evoh, tabassumdan asar yo'q yuzda!
Qayrilib boqmading men bechoraga,
Labing muhrlanib qoldi-ku ko'zda.

Sen uchrab qolding-u yashil tus olib,
Muattar hidlarga to'ldi dalalar.
Qir-adir bag'riga poyandoz solib,
Gulxanlar yoqishdi yoqut lolalar.

Axir, shunchalar ham bag‘ritoshmisan,
Yoki yuragingda muz bormi sening?
Vujudim butunlay o‘t ichra qoldi,
Sensiz o‘rtanadir yuragim mening.

Menga o‘sha mahal mangu bahorni
Uchratib qolganday tuyuldi nogoh.
Buncha dilozormi, qutulish bormi
Bu jodu qafasdan? — deb o‘ylayman goh.

Qalbim qushi senga talpinar, erkam,
Netay, iztiroblar o‘rtaydi meni.
O‘larman bir kuni, so‘nggi damda ham
Pichirlab aytarman nomingni sening!

O‘SHANDA...

Qarsilladi qaldiroq,
Jala quydi o‘shanda.
Bir alamli iztirob,
Bag‘rim o‘ydi o‘shanda.

O‘shanda men uyga ham
Kirmay yurdim tentirab.
O‘zimni qo‘yarga joy
Topolmay qoldim, yo Rab...

Yalinib-yolvordim-ey,
“Ne ko‘rgilik ey, Xudo!”
Ming xayolga bordim-ey,
Dedim: “Hayot — alvido!”

Ne qilay, alamimdan
Yig‘ladim to‘yib-to‘yib.
Axir, gulday bir qizni
Keldik qabrga qo‘yib...

HAQIQAT IZLAB

I

Yo‘llarning ko‘pligi tufayli
Yurishdan toliqsak ham mayli.
Haqiqat axtarib chopamiz,
Va lekin qayerdan topamiz?

Yukimiz unchalik zil emas,
Bittasi: — Hoy o‘zing kim? — demas.
Kambag‘al sho‘rlikning qalbin ham
Olganmi yo iblis muttaham?
Tangri ham unchalik xush ko‘rmas,
Qamchilab turadi basma-bas!

Qish payti sovuqdan qotamiz,
Uy-joysiz qayerda yotamiz?
Agar-chi, muzlasa tanamiz,
O‘tkir so‘zdan tez uyg‘onamiz!
Boshpana degani yo‘q bizda,
Orzular lovullar cho‘g‘ bizda.
Yo‘llar chorlab turarkan mudom
Ushlab qololmaydi xotin ham!
Qachongacha biz och yashaymiz,
Qashshog‘-u yalang‘och yashaymiz?

II

Yog‘sa hamki yomg‘ir va do‘l
Kurash yo‘li — bizlarning yo‘l!
Dilni g‘amga o‘ramaymiz,
Xayr-ehson so‘ramaymiz.

Ochlikdan sillamiz qurib —
Qaytish yo‘qdir yengmay turib.
Yangi dunyo bo‘lar panoh
Ozodlik — bizga sajdagoh!

Oyog‘imiz dadil, chaqqon,
Nigohimiz o‘tkir boqqan,
Bormoqdamiz ko‘tarib bosh,
Bizga tanish har bitta tosh.

Ba’zan kechuv kelmasa qo‘l,
Qo‘shiq bilan ochamiz yo‘l:
Och va yupun birodarlar,
Yuragida o‘ti borlar,
Ko‘rsatinglar birlik kuchin,
Kurashing haqiqat uchun!

KAMBAG‘AL O‘G‘RILAR QURSHOVIDA

Kambag‘al o‘g‘rilar qurshovidadir,
Lekin qo‘rquv bilmas u, Xudo haqi!
Nimaga qo‘rqadi? Axir, yuragi
Dahshatga sololsa misoli chaqin.

Kambag‘al o‘g‘rilar qurshovidadir,
Yo Rabbim, bandangni o‘zing qo‘llagin!..
Uyida sigiri bo‘lgan chog‘da ham,
Bolalashi gumon, omad yo‘llagin.

Kambag‘al o‘g‘rilar qurshovidadir,
Hatto omochga ham o‘zi dastadir!
Yashashdan maqsadi shu erur uning,
Dunyoni haydashga kamarbastadir.

BAHOR

Bahor, bahor, g‘aroyib damlar,
Yelkan kirar Dunay tushiga.
Yengil epkin esadi mayin,
Bahor hidi yoqar kishiga.

Bahor guli — nafis boychechak!
Kel bag‘rimga bosayin seni.
Bir yayraylik sof havolarda,
Ey malagim, erkala meni.

Qara, qanday musaffo osmon,
Uzoqlarga qish qadam tashlar.
Mening qalbim — bahor niholi,
Kurtak yozib hid taray boshlar.

KO‘CHAMIZDAN SEN O‘TGANDA

Kecha ko‘chamizdan sen o‘tgan mahal,
Hamma birdaniga bo‘lib qoldi lol.

Sening oyoqlaring qo‘yganda qadam
Ko‘chamiz tuprog‘i changimadi ham.

Go‘yo butun shahar bitta ko‘z bo‘lib,
Qarab turar edi senga termilib.

Odamlar ko‘z uzmay boqishardi lol,
Qanday keldi deya, bu sohibjamol?

Men bo‘lsam qo‘rqardim tashvishim ortib,
Olib qo‘ymasa deb, bittasi tortib.

Ehtiyotsizlik qilib birov nogahon,
Ozor bermasaydi senga shu zamon...

Vo ajab?! Hasadlar chekinib turdi,
Sen o‘tgan joylarda quvonch barq urdi.

Yashnab ketgan edi shu kuni atrof,
Dunyo ham o‘zingday edi go‘zal, sof.

O‘LIK O‘LKA

Ko‘l ustida o‘rlaydi bug‘,
Cho‘l bag‘rida qamish mudrar,
Osmon yuzi oppoq parda
Qoplangancha yog‘moqda qor —
Xuddi oq par.

Quyuq zulmat qoplab kelar,
Mudrayotgan ko‘l yuzini.
Qayerdadir suzar qayiq.
Ko‘rib bo‘lmas na izini —
Na izini.

O‘rmon ingrar. Muz qoplabdi,
Qirov bosgan har bir nihol,
Novdasining uchigacha
Qahratonda qiziq bir hol —
Qayin behol.

Uzumzorda tok zanglari
Poxol bilan o‘ralgan zich.
Chollar uchun hassa bo‘lur
Qator ketgan sanoqsiz sinch —
Saflari tinch.

Bu — boy kenti. O‘ngda esa
To‘zg‘ib yotar past kulbalar.
Xas-xashakdan yopilgan tom
Uzra shamol hushtak chalar —
Xor shunchalar.

Qiyshiq eshik lang ochiq deng,
Har burchida yel qilar do‘q.
Bo‘sh katalak: na don, na dun,
Mol-u jondan asar ham yo‘q —
Quppa-quruq.

Bu uylarda ochlar yashar,
Chekishgani qoraqiyoq.
Umidi yo‘q kelajakdan,
Ko‘ngil xira, dili siyoh —
Yurakda oh.

Ulargamas, boyga bari:
Atrofdagi tokzordan to
Bug‘doyzor-u ko‘l tubida
Mudrab yotgan laqqa, hatto —
Boyga ato.

BUG‘DOY

O‘tloqlar ustida shamol yeladi,
G‘amingiz olay deb shoshib keladi,
Yerlar g‘uvullaydi, bug‘doy shovullaydi,
shovullar bug‘doy.

Rosa ishlaganmiz botgancha terga,
Peshana terimiz qorishib yerga,
Endi bo‘liq boshoq bo‘lib yetildi,
shovullar bug‘doy.

Bug‘doyzor shovullar! Bug‘doy jarangi,
Oltin jarangiga aylanayotir,
Bo‘lib taralish-chun aks sado yangi,
shovullar bug‘doy.

Ehtiyoj o‘sadi donga qo‘shilib,
Qayg‘u-g‘am ko‘paydi fashizm kelib.
Dunyoni egallash uchun shoshilib,
shovullar bug‘doy.

Men o‘sgan bu diyor — hurlar vatani
Orangizda botir qoldimi, qani?!

Sho‘rlik, ojizlarni quvvatlagani —
shovullar bug‘doy.

Hoy, ishchi! Mashina, traktorga jon,
Kosasi oqarmay o‘tirgan hoy dehqon,
Birlashishga yetdi vaqt allaqachon —
shovullar bug‘doy.

ISHONMAGIN BOYLARGA

Ko‘zi qursin! Boyning ko‘zi to‘ymaydi,
Bir so‘m uchun o‘ldirishdan toymaydi.
Avvaliga bulutni ham pullar u,
So‘ng yeringni tortib olmay qo‘ymaydi.

Qora kunda pullaydi o‘zingni ham,
Sadaqaga pulni ko‘zi qiymaydi.
Bor-budingni shilib olar, ustiga —
Kambag‘alni uning jini suymaydi.

Ko‘p ham ishonmagin boylarga, oshna,
Boylar ichra yaxshilarning o‘zi yo‘q.
Qahratonda yursang hamki gezarib,
Achinmaydi, qarab turar ko‘zi lo‘q.

Kambag‘alga uning parvoyi falak,
Issiq xonasidan chiqmas, o‘zi to‘q.
Xonimlar-la bazmi jamshid quradi,
Kalimaga kelmas tili — so‘zi yo‘q.

Sen o‘tin tashiysan yerto‘lasiga,
U bo‘lsa hammomda o‘zini toblar.
Kambag‘alni qanday talashi haqda
Ko‘rayotir hozir ajoyib xoblar.

— Tuni bilan sira uxlaganim yo‘q,
Siz haqda qayg‘urib chiqdik, arboblar.

Qashshoqlar dardiga biz ham sherikmiz, —
Deya u o‘zini g‘amxo‘r hisoblar.

Qanchalar mashaqqat chekib yashaysan,
Hayot ko‘zlaringga ko‘rinadi dor!
Kelib qo‘shil sen ham ochlar safiga,
Haqiqatni topmoq istasang agar.

Do‘st kim-u, dushman kim — bilib olarsan,
Dilingdan ariydi g‘am bilan kadar.
Va jannat bog‘lari degan xayoldan
Voz kecha olasan shunda, birodar!

FLORA

Toqatlarim toq bo‘ldi, sensiz vujudim betob,
Baxt bo‘lmaydi qilmasang men tomonga nazzora.
Tunda chiqib qilarman men yulduzlarga xitob:
“Azizam Flora,
Jonim Flora!”

Sen bo‘lmasang, ochig‘i, odam bo‘lishim qiyin,
Bu bedavo dardimga bormi yo biron chora?
Sensiz menga hayot yo‘q, sensiz yashash betayin,
Azizam Flora,
Jonim Flora!

Jon ofati jamoling, o‘tga tashlar jonimni,
Bir nazar aylab menga, rahming kelsaydi zora.
Ko‘zlaring to‘ymasmi yo o‘rtab xonumonimni,
Azizam Flora,
Jonim Flora!

Uchqur otning belida olislarni ko‘zlab sen,
Ko‘rinmasdan ketasan ko‘zimga bora-bora.

Ayt, qaylarga borayin izlaringni izlab men,
Azizam Flora,
Jonim Flora!

Ishq yo'lida toldim men, sarson bo'lib qoldim men,
Yurakkinam yo'lingda bo'ldi-ku pora-pora.
Aziz noming nazmga mehr bilan soldim men,
Azizam Flora,
Jonim Flora!

KAROY CHEX

(1952–2013)

Vengriyalik shoir Karoy Chex 1952-yili tug'ilgan. 1970-yildan boshlab dastlabki she'rlarini yoza boshlagan. To she'riyat bo'stoniga qadam qo'yguncha u o'qituvchilik qilgan.

Ilk izlanishlari ijobiy natija bergach, butun umrini shoirlikka bag'ishladi. Xalq orasida Karchi taxallusi bilan tanilgan Karoy Chex bir qator rus shoirlarining she'rlarini o'z ona tiliga tarjima qildi.

ANTIK BAHOR

Yangi ming yillik ohanglaridan,
go'yo emizikli ona ko'ksining
har yog'idan bo'rtmacha bo'rtib chiqadi
shunday, bu beozor ishmas,
zoriqqan zaminga samoning tuhfasi.
Va unga, go'yo yangi tug'ilgan chaqaloqdek,
o'sha erta bahor bosh urishga tayyor.
Jarangdor tarnovchalarda suv emas,
qushlar sayrog'i oqib tushar,
nechog'lik tomlar to'la sayroq bilan,
garchi sayroqi qushlar hamon
tepada o'ynayotgan sovuqdan junjikar.
Ularning yo'lboshchisi esa shafaq nazarimda,
ranglari ko'ngilni va ko'zlarni
muzlatib yuboradigan
rang-barang qirg'ovulga o'xshaydi,
biroq u ertaga tong bilan uyg'onar
va o'sha ranglarning cho'g'i
bilan hayratlantirar.

SAMOVIY QABRISTON

Unda hamon yog‘du sochayotgan
Yulduzlar dafn etilgan,
Yodgorlikdek ularning nuri,
Qabr toshidek o‘ziga qo‘yilgan.

Dafn etilgan unda bolalik —
Yuz yildirki, so‘ngan mana u,
Biroq bizda uning nurlari —
Xohlamaydi hech ham so‘nishni.

YANOSH SENTMARTONI

(1975-yil tug‘ilgan)

Ayni kunlarda Vengriya she’riyatida faol qalam tebratayotgan adiblar avlodiga mansub Y. Sentmartoni 2000-yili Budapesht universitetining Filologiya fakultetini bitirgan. Sakkizta she’riy va esselar to‘plami muallifi.

ITAKA

Yelkam kabi qotdi machta,
Kim ham undan etar xalos?
Dengizlardan parilarni
Qaytarishga bormi asos?

Itaka hamon olisda,
Eh, olislardan olisda!
Bari uyqash, neki aziz,
Va suzmoqda u qarshimda.
Qayerdasan, meni bilgan yurt,
Har go‘shasi qo‘nim bo‘lgan?
Tunlardagi pari qani,
Mening uchun shivirlagan?

O‘z taqdirim meni shildi,
Qo‘rqdim, unga bu hamon kam:
Shu tun meni, po‘rtana-la
Xumga solib qo‘ydi mahkam.

Endi Itaka olisda.
Qayda xotira? Ertakmi ro‘yo?

Ul notekis suv sathida
Pari yuzi niqobdek go'yo.

Azob berma menga og'riq,
Kimman men va qayerlikman?
Yurtim o'ti nigohimda,
Mavjlar o'ynar, men o'likman.

Endi uyga qaytolmasman,
Cho'kdi o'tmish shu girdobga.
Biroq qaddimni tutganman,
Ketmayman qazosiz xobga.

MENING SHE'RIM

Bugun she'r sukutda, savalagan kabi
Kimdir huvullagan xiyobon ichra.
Uning ko'zlarida yulduzlar aylangandek,
Mening ko'zlarimda ham yorishib borar.
Shunda men uni quchib tortdim o'zimga,
Ha, dardni anglash-chun shunday qilinar.
U shu on yorishdi va turdi o'rnidan,
Go'yo u do'zaxdan qochgan hurdek ko'rinar.
U zinapoya bo'sag'asiga kelib o'tirdi,
Buni qayerdadir o'qigandim bir vaqtlar.
Holi aftoda edi, kamgap va bejur'at,
Go'yo bir-birimizga o'xshardi qalblar.
Qanday shamol olib keldi uni bizga
Va ko'ylakdek uchirardi uning qalbidan?
U, balki, shunday savolga javobdir:
Ertaga ne bo'lar? Biroq zamin xokidan
Berilganmi samoviy ma'nini anglash?
Bizga bundan o'ttiz tanga yaqinroq.
Allaqachon taniganmiz ona Zaminni,
Qachondir zurriyodini xo'rladik biroq.

Va u kechirdi, mayda ishni unutib,
O‘sha, tavba neligini bilmas kaslarni.
Va shunday sen ham jimsan, mening she’rim.
Eh, boshqacha bo‘lsaydi sening taqdiring,
Unda men seni tortmasdim o‘zimga!
Davolayman tubsiz yaralaringni,
Sening yuzingga qarab, eshitarman
O‘zimning — zaminning cheksiz yolg‘onin.

XO‘RSINISH

“Mana, men topdim o‘z vatanimni...”
— Yomon bo‘lmasdi shunday she’r yozsam,
Shundan so‘ng esa o‘lmay uzoq yashasang.

DRAMA

YENYO XELTAI

(1871–1957)

Venger dramaturgi, shoir, jurnalist, produser, tarixchi, muharrir, siyosatchi Yenyo Xeltai 1871-yil 11-avgustda savdogar oilasida tug'ilgan. U ilk she'ri matbuotda e'lon qilingan paytda 14 yoshida bo'lgan. Budapesht komediya teatrida rejissor-dramaturg, "Ateneum" nashriyotida adabiy direktor, Vengriya dramaturglari ittifoqi prezidenti kabi lavozimlarda faoliyat yuritgan. U goh o'z ixtiyori, goh turli tazyiqlar sabab vatanidan olis yurtlar — Parij, London, Vena, Berlin, Istanbul shaharlarida yashagan.

U qayerda yashagan bo'lmasin, bir dam ham ijod qilishdan to'xtamadi. Ayniqsa, dramaturgiya sohasidagi ijod namunalari unga shuhrat keltirdi, nomini butun dunyoga mashhur qildi, desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Uyg'oq qalbli ijodkor jamiyatdagi turfa illatlar, ba'zi kishilardagi ikkiyuzlamachilikni "Tunderlaki go'zallari", "Yuzlar va niqoblar" kabi komediyalari orqali ochib berdi.

Yenyo Xeltaining "Soqov ritsar" asari dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan. Ushbu asarni O'zbekiston qahramoni, Xalq shoiri Abdulla Oripov o'zbek tiliga o'girgan. Adib umrining so'nggi yillarida I. Nestroy sujeti asosida "Yovuz ruh Lupmatsivagabundus" pyesasini, venger xalq ertaklari asosida "Dunyodagi eng go'zal" komediyasini yozadi. Yenyo Xeltaining komediyalari tilining jozibardorligi, xalqchilligi bilan ajralib turadi. Ijodkorning xizmatlari davlat tomonidan munosib e'tirof etilgan, Koshut nomidagi davlat mukofotiga sazavor bo'lgan.

U 1957-yil Budapeshtdagi Kerepeshi qabristoniga dafn etilgan.

SOQOV RITSAR

(she'riy drama)

Qatnashuvchilar:

Peter Agardi
Seliya
Beppo
Karlotta
Monna Mea
Janetta
Matyash
Petro
Jonglor
Beatriche
Nardella
Marsio
Taribi
Ruhoniy
Zindonbon
Dahshatli Layosh
Jallodlar

Birinchi ko'rinish

Monkoleridagi Seliya saroyining ikkinchi qavatdagi zali. Zal to'rida ulkan dub eshik — asosiy kirish yo'li. O'ng tomonda ham shunday eshik. Chap tomondagi uch zina yopiq, keng ayvonga olib chiqadi. O'rtadagi deraza lang ochiq. Ayvonda mo'jaz stol, kreslo. Zal o'rtasida katta stol. Atrofida stullar. Chap devor tomonda kattakon sandiq. Ulkan cho'yan qandil, shamlar... Zalni quyoshning qirmizi nurlari yoritib turibdi. 1481-yil, ammo zal bezaklari ancha qadimiy. Devorda avliyolar portreti hamda Seliyaning marhum eri surati osig'liq. Xonaning saranjomligi bu uy bekasining durustgina dididan darak beradi. Seliya va uning dugonasi Monna Mea zalning o'ng burchagida kamin oldida kashta tikib o'tiribdilar. Karlotta bekasi qoshida, o'rindiqda o'tirib, kalava chuvatadi. Janetta ayvondagi kresloda ko'chani kuzatmoqda. Qisqa jimlik.

Seliya *(kashtadan bosh ko'tarib)*
U hali ham shu yerdami?

(Hamma Janettaga yuzlanadi.)

Janetta *(bosh irg'ab, mavhum)*
Qaydam!
Karlotta
Tongdanoq
Kelishini kanda qilmas, Xudo bermish kun
Tura berish joniga ham tegmaydi mundoq.
Janetta
Soya kabi rosa o'jar, iqboli nigun.
Karlotta;
Qayda bo'lmay hozirdir u, tayyordir u ham,
Ta'qib etar erta-yu kech qadam-baqadam.
Xonanishin o'tirmasam chora yo'q bo'lak.
Monna Mea
Ibodatga chiqmaganding! U aybdor demak!
Seliya
Va chiqmayman bundan buyon.
Bilarsiz, axir,
Soya kabi ergashar u izimdan tag'in.
Uyat, nomus degan narsa yo'q unda taqir.
Tangriga u muhabbat deb yolborar horg'in.
Ne degan gap uning uchun najotkor Iso,
Men azobda qovrilaman, u-chi yonimda.
Men beozor tilovatni boshlayman, ammo
U termilib g'alayonlar qo'zg'ar jonimda.
Xoch qoshida yukinaman bukib tizlarim,
U-chi, mendan uzmaydi hech suqli ko'zlarin.
Xochning g'amgin suratidan uzaman nigoh,
Hayajonim qachongacha yashiraman, oh.

(Qorong'i cho'ka boshlaydi.)

Monna Mea *(xo'rsinib)*
Hasad degan balodan men yiroq erurman,
Ammo shundoq ta'qibni men havas qilurman.

Janetta *(hamon deraza oldida)*
Kun ham botdi, oshiq esa kutmoqda hamon.
Seliya *(biroz hovliqib)*
Tura bersin!
Kun botishin kuzatgay hayron,
Nega endi sen ishqiboz!
U menga oshiq.
Bas, Janetta, tura berma balkonda ortiq.
Karlotta
Balkon tagin makon qilgan ertadan to shom,
Qo'llarini qovushtirib tura beradi.
Oh chekadi, voh chekadi, maftun batamom,
Ishq otashin og'ushida yura beradi.
Ko'zlari ham nigorondir...
Seliya *(qat'iy)*
Karlotta, bas qil!
Karlotta
Ko'zlari-chi, shundoq yaxshi, shundoq maftunkor,
Shahlo ko'zlar, nazar solsa — hasrating bekor.
Sho'rlik ritsar azob tortar...
Seliya
O'z ishingni bil!

(Karlotta jim bo'ladi, icha boshlaydilar.)

Janetta
Erta-yu kech shu yerda u, bechora oshiq,
Birorta so'z aytmoqlikka qilolmas jur'at.
Bardoshi ham mahkamlikda marmardan ortiq.
Seliya
Chidolmayman, yuzlarim ham lovullar, uyat!
Chidolmayman, qachongacha, o, Parvardigor,
Iskanjaga olar meni nomus bilan or.
Monna Mea
Qahringni men tushunaman.
Seliya *(lovullab)*
Yo'qsa netayin!

Qayda bo‘lsam u ham kelar, albatta, tayin.
Janetta *(qaytib tushadi)*
Tashvishini qilyapsanmi?
Seliya *(jerkiganday)*
Uningmi?
Aslo!
Oliyjanob o‘z nomimni o‘ylayman faqat.
Odamlarning topganlari g‘iybat va ig‘vo,
Ishontirish mumkin emas ularni hech vaqt.

(derazaga ishora qilib)

U hali ham shu yerdami?
Daf bo‘lsin tezroq!
Monna Mea
Kimligini bilmaysanmi?
Seliya
Bilishni ham istamayman!
Monna Mea
U ritsar biroq.
Janetta
Unchalik ham qari emas, oti, ha, oti...
Karlotta
U Agardi Peter erur, majordir zoti.
Monna Mea
Neapolning qo‘shinida yoshlikdan askar,
Qo‘rquv nima bilmagan u qonli janglarda.
Janetta
Shamshirlarning jarangidan zavq olgan aksar.
Karlotta
Qutlug‘ yerga ketmoqchiydi,
Ketmas, agarda...
Seliya
Tilingni tiy!
Xabar topsa ulfat bekalar
Malomatga qolurman men!
Mulzam etarlar!

Karlotta
Malikamning irodasi men uchun qonun.
Janetta
Shahrimizda yashaguvchi har bir fuqaro
Bokira, pok ayollarni bilgay mutlaqo.
Sen ularning orasida eng bokirasi,
Daxlsizdir sening noming, gapning sirasi.
Iso uchun qurol tutib ering ham, axir
Majusiylar bilan jangda bo'lgandi halok.
Hayotingda yo'qdir, xullas, zarra g'ubor, kir.
Monna Mea
Parvardigor mehri bilan qalbing erur pok,
Ibodatdan bo'shamaysan, sofsan hamisha.
Janetta
Italiya sening bilan faxr etar har choq!
Karlotta
Farishtasiz!
Monna Mea
Farishtasan!
Chindan farishta!
Bilib qo'ygin, bu dunyoda faqat sen uchun
Qaytmagayman kerak bo'lsa o't va suvdan ham!
Seliya
Quloq soling, aytsam sizga gapning to'g'risin,
Bordir mendan afzallar ham.
Janetta
Sen tanho sanam!
Seliya
Shundoq esa, men emasman bunga sababkor.
Janetta
Faqatgina bir narsani tushunmam, bekach,
Shuncha sehr-u malohatni jam etgan dildor
Ishq otashin zuhur etmay yashasa yakkash?
Seliya
Xoli chog'lar varaqlayman
Injilni bot-bot,

Unda aytgan, kim yengolsa vasvasni agar,
Madad bergay va qo'llagay Tangri — qodir zot!

Karlotta

Dilingizni faqat sevgi bezdirmasin sal,
Bevalikda bo'sh to'shakni bilursiz afzal.

Janetta

Bunaqangi bokiralik narxi qimmatmas,
Marhum ering hurmatin ham bajo etding, bas.

Monna Mea

Mening erim bor-u, qiyin u bilan yashash.

Janetta

Yonamiz biz er qoshida mum shamga o'xshash.
Birdan ma'shuq paydo bo'lsa — ne qilamiz, xo'sh.
Tilovatdan ko'ra bo'sa lablar uchun xush...

Seliya *(jirkanib)*

Voy-voy! Nima demoqdasiz! Uyat-ku, uyat!

Monna Mea

...Ajoyibsan, qattiqqo'llik qilmagin ammo.
Bir narsaga sira shubha etmasman faqat,
Kim oshiqdir — kechirgaydir Tangri taolo.

(Qo'ng'iroq ovozlari. Ayollar cho'qinadi.)

Janetta

Qorong'i ham tushdi butkul.

Monna Mea

Tikishim ham bas,
Qorong'ida kashtaga hech ko'zlarim o'tmas.

Seliya *(o'rnidan turib)*

Darhaqiqat, tun yoyildi, qorong'i har yoq.

(Karlottaga)

Fursat bo'ldi, bora qolgin, fonarlarni yoq.

(Karlotta chiqadi.)

Xush qolingiz, endi chiqib ibodat qilay,
Xudoyimdan siz uchun ham marhamat tilay.

(xonasiga chiqadi.)

Monna Mea
Ibodatga chiqdi yana!
Yo tavba!
Tavba!
Janetta
Tilovatga mukka ketgan!
Misoli telba!
Yer bilan ko'k orasida masofa uzoq.
Bizning qilgan ibodat-u munojotga to,
Evaz uchun bir mukofot berguncha samo
Juda uzoq muhlat kerak,
toqat bo'lar toq.

(Deraza yoniga boradi.)

Monna Mea
Ketmabdimi?
Janetta
Yo'q, ketmabdi, o'sha-o'sha hol!
Monna Mea
Yo'qsa unga ishora qil, ishora darhol,
Ro'molchangni silkita qol.
Janetta
Evoh, tun og'di,
Ro'molcha ham qorong'ida ko'rinmas chog'i.

(Karlotta sham ko'tarib kiradi.)

Karlotta
Mana, mana, shamni ushla, sham tut u yonga!

(Janetta shamni ko'taradi.)

Karlotta
Balandroq tut, mana bunday.
Monna Mea
Ko'rdingmi?
Xo'sh?
Janetta *(zinadan tushayotib)*
Ha!

Monna Mea *(ko'ksiga qo'lini bosib)*
Oh, g'alati bo'lyapman!
Nahot bir balo
Yuz bersa-ya...
Biz haqmizmi, nohaqmizmi yo?
Janetta *(yelkasini qisib)*
Nima bo'pti?
Oshiqqa men yordam qilurman,
Garchand menga oshiqmas ul, buni bilurman.
Karlotta
Bundoq xolis xizmatlardan daromad katta,
Shoyi bilan qimmatbaho mato-ku tayyor.
Monna Mea *(ko'rsatadi)*
Marjon mana...
Mana uzuk.
Janetta
Karlotta
Hozir, albatta,
Xizmatkorni kiritsak gar,
yuz tanga ham bor.
Janetta
Xizmatkorga eshikni och,
Karlotta, tezroq!

(Karlotta chiqadi.)

Yurak yutib kirolsa bas xizmatkor ahmoq,
Qolgan gapni o'zi bilar, bizlar chetdamiz.
Monna Mea
Seliyaning dili zora erib batamom
Nish ko'rsatsa yuragiga bizlar ekkan don
Va to'y bo'lsa!
Janetta
Bizlarga ham mo'l sovg'a-salom!
Hozircha jim, og'zimizga solaylik tolqon.

(Karlotta bilan savdogar kiyimida sandiqcha ko'targan Beppo kiradi.)

Beppo
Oh, naqadir go‘zal hamda sarishta dargoh!
Karlotta
Sekin!
Sekin!
Ovozingni chiqarma nogoh!
Bilib qo‘ygin, bizning bekach shovqinni suymas,
Shovqinda u samovotning hislarin tuymas.

(eshik tomon yurib)

U ibodat qilayotir!
Chiqsa-ya shu zum.
Beppo
Men g‘oyatda ziyrakdirman. Javobgar o‘zim!
Sizga xolis yordam uchun tashakkur katta.
Karlotta
Xizmat qildik, ha, aziyat chekdik, albatta.

(Janetta, Monna Mea eshikni poylaydi.)

Beppo
Sizni rozi qilajakmiz, tashvish tortmang hech,
Xo‘jam — oltin hadya qilgay, men esa o‘pich.
Bu xamirning uchidan bir patir.

(o‘padi)

Yomonmas!
Karlotta *(cho‘chib, tisariladi)*
Bilasan-a ne yoqishin, balosan, nokas!
Beppo
Bekachingga yoqmoqqa ham yetadi kuchim,
Ming-ming latif so‘zlar bilan to‘ladir ichim.
Janetta
Ko‘p safsata sotaverma!
Og‘irroq bo‘l, hoy!
Beppo *(qo‘lini siltab)*
Ayol zotin bilaman men — misli besh barmoq!
Ayol zotin eng zo‘ri ham maqtasang qittay,

Gaplaringga, hech shubhasiz, solgaydir quloq.
Ayol zotin ko'ngli bordir faqat maqtovga,
Maqtov uni osmonlarga ko'tarar, hatto.
Ko'ngil berar ayol zoti, hatto merovga,
Maqtasang bas — lablaringda shirin, xush sado.
O'zida yo'q xislat uchun gerdayar agar
Xudo urgan bukurni ham go'zalsan desang.
Yuvoshgina farishta de bo'lsa u makkor,
Ahmog'iga — aqling oftob misolsan desang,
Beso'naqay ayolga-chi, xushbichimsiz de,
Xarsangtoshday zil-zambilin bol-u par degan.
Buzuqisin uchratsang gar axloqin maqtab
Pokizalik bobida sen yaksarsan degin.
Kar, soqovin ko'rsang agar — gapirmay maqta,
Ko'rlariga shivirlagin: "O, ko'zi chaqnoq",
Ipirisqi ayolni sen go'zal deb ata,
Rostgo'ysan de uchrasa gar yolg'onchi ahmoq.
Qaddi shamshod deb atagin bukur kampirni,
Yengiloyoq xotinlarni degil vafodor,
To ko'zguga boqib o'zi yechguncha sirni
Men juftakni rostlagayman, ish besh, ne g'am bor.

Monna Mea

Ammo bizning Seliyamiz aqlli, ziyrak,
Yolg'on-yashiq gaplaringga uchmaydi aslo,
Maqomiga ko'nikmakka majbursan beshak.

Janetta

Dargohidan quvlaydi u seni shu asno!

Karlotta

Ha, samoga qaratilgan bekam har so'zi,
Nainki u yolg'onlaring eshitib tursin.

Beppo

Faqatgina non emasdir inson rizq-ro'zi,

(sandiqchani shapatlab)

Bekang manov sandiqni bir ochsin-da, ko'rsin!

(sandiqchani ochadi. Ayollar yutoqib boqadi.)

Janetta
Bebaho-ku!
Karlotta
Tuyulmoqda menga ham shundoq!
Monna Mea
Venetsiya tuhfalari!
Janetta
Oh, durlar porloq!
Monna Mea
Marjon, uzuk...
Taqinchoqlar.

(ochko'zlik bilan)

Karlotta
Janetta
Bir-biridan soz!
Yoqutlari yarasharkan mening sochimga,
Ammo ular menikimas, omad yo'q biroz.
Karlotta
Manov toshda yetti xil rang jamuljam bo'lmish,
Bundaqa rang yo'q, hattoki kamalakda ham.
Beppo
Buning bari bekangizga nisor etilmish,
Shunaqangi saxiy erur sohibim, xo'jam,
Lekin aytsam bular hali zakalot, xolos.
Janetta
Qabul qilib olsa hali!..
Beppo
Shundoq ham olsin!

(sandiqchani yopadi.)

Ibodatin tugatsin-chi, vaqt o'tsin birpas.
So'ngra manov gavharlarga nazarin solsin.
Turli shubha-gumonlardan bo'lay to uzoq,
Bir-ikki bor so'king meni, keyin sarbasar
Takrorlang-chi qani bir bor, men kimman, chiroq,
Kasbi korim nima o'zi?

Karlotta *(o'rgatishgani bo'yicha)*
Sizmi? Savdogar.

(Beppo ma'qullaydi.)

Har xil buyum tarqatasiz uyma-uy yurib.
Monna Mea *(Eshik tuynugidan qarab, birdan tisariladi)*
Jim bo'lingiz!
Ana xolos!
Seliya kelar!
Janetta
Monna Mea!
Seliya *(Beppoga xo'mrayib)*
Kim bu odam?
Javob bering baqraymay turib!
Karlotta
Buyumlari xo'p sifatli!
Savdoni bilar,
Turli tilla bezaklari ko'rsatdi bizga.
Uzuklari ham bor ekan...
Seliya *(qat'iy)*
Aytganman sizga.
To bu uyga ruxsatimsiz kimsa kirmasin,
Buyrug'imni bekor qilmoq bo'ldingmi yo sen?
Karlotta
O'ylovdimki...
Beppo
Bilasanmi, xonim afandim,
Bu borada u gunohsiz, faqat men aybdor.
Senga turli buyumlarni etmoq-chun nisor
Eshikni och, deya bunga o'tinch qilgandim.
Bir qaragin, sandig'imda bor ekan nima?
Javohirlar!
Yarmin sotdim!
Bu — yarmigina!
Janetta *(ishora qilib)*
Seliya, bir qaragin, g'alat unsurlar!

Seliya
Ne bo‘lsa ham, bular bari qaqir-qu̇qurlar!

(Karlottaga)

Iblis bizga jo‘natibdi surbet elchisin,
Haydab chiqar uni tezroq, haydà buni sen.

(Karlotta Beppoga yaqinroq yuradi.)

Beppo *(yolborib)*
To‘qqiz oy-u to‘qqiz kunkim tinmay yo‘l bosdim,
To‘qqiz oy-u to‘qqiz kunkim manzilga shoshdim.
Florensiyada bo‘ldim,
Neapol,
Rimda,
Bola-chaqam qolib ketdi qutlug‘ Turinda.
Matolarim olgin, mayli, ko‘p so‘ramasman,
Olmasang ham ixtiyoring, hech qistamasman.
Turin esa hali uzoq, ilhaq xotinim,
Shoshmoqdaydim huzuriga bilmay hech tinim.
Qiynab qo‘ydi meni ammo yo‘l xarajati,
Boz ustiga, boshimda bor qarzning kulfati.
Bovar qilgin, oh, bekachim, shafqat qila qol,
Mayli, yarim narxin so‘ray, sotib ola qol.
Seliya
Savdogarning odatdagi avrashlari bu.
Ko‘tar qaqir-ququringni!
Janetta
Uqmadingmi, ho‘... Jo‘na bundan!
Beppo
Mayli-ku-ya...
Monna Mea
Dahanaki jang!
Beppo
Balki, sizga baxt berardi bu toshlar, attang...
Karlotta
Arzimagan narsa, balki, buning toshlari,
Gar foydasi bo‘lmasa ham yo‘qdir zarari.

Seliya *(jozibali)*
Balki, bular qiziq sizga — xizmat ahdiga,
Kerak emas, tupurdim men buning bariga.
Monna Mea
Ko'z tashlasang bo'larmidi bir qur, azizam,
Bu toshlarning har bittasi — san'at chinakam.
Beppo *(hovliqib)*
Go'zalligi bir o'lkaning gultoji bo'lgan,
Senga emas, tag'in kimga keltiray molim.
Sen jannati bir ayolsan, mulki Italyan
Senday zotni ko'rmagan hech, komil imonim.

(sandig'ini ochadi.)

Qara, bekam:
uvol bo'lmas nazaring aslo,
Zumrad rangin ko'zlaringga qiyos etgin, o,
Qaysi birin rangi o'tkir?
Bosforlik zargar
Shakl bergan bu zumradga.
Seliya *(ko'z tashlab)*
Toshingni ko'tar!
Ma'nisi yo'q maqtovlaring dovdiratolmas.
Beppo *(bosh irg'ab)*
O'lay agar, manov uzuk, mana bu olmos
Narxi seni cho'chitmasin, so'rovim arzon.
Seni botir, qo'li ochiq derdilar, ishon!
Dovdirading toshlarga bir nazaring tashlab,
Muhtojlikda nochor qolgan yo'qsilga o'xshab!
Seliya
Dono odam muhtojlikni chetlab o'tajak,
Ko'p xomtama bo'laverma, esim but, xullas,
Behudaga vaysamaklik kimga ham kerak.
Sandig'ingni qo'ltiqla-yu, jo'na endi, bas!
Karlotta *(uni turtib)*
Bo'ldi endi.

Beppo
Mayli, ammo nega turtasan?

(Qoqilib yiqiladi, javohirlar to'kiladi.)

Uchovlon xotin sarosima ichra ovozlari chiqqach, Beppoga ters turgan Seliya qayrilib qaraydi.

Janetta
Voy Xudoyim, voy Xudoyim!
Lat yemadingmi?
Beppo *(ingrab, bazo'r turib)*
Yo'q, o'rnimdan bir amallab tura oldim-ku!
Boyliklarim sochilibdi har yonga, o'hho'.
Yig'ib olay, balki, siz ham qarashvorarsiz.
Uchovlon ayol engashib, toshlarni yig'a boshlaydi.

Seliya hayrat va hayajon bilan toshlarga nazar soladi.

Seliya
Hammasini topdingizmi?
Beppo *(sanab)*
Yigirma va bir,
Ammo qayda barchasidan yirik javohir?!
Seliya *(toshni oyoq uchida surib)*
Ol toshingni, endi ortiq kutmasman, battol,
Toshlaringni yig'gan bo'lsang tezroq jo'nab qol.
Beppo *(tiz cho'kib)*
Mening manov javohirim baridan qimmat,
Vujudidan qon oqadi misli jarohat.
Dilimizga Erot solgan yara-chi, biroq
Qolgan barcha yaralardan erur og'irroq.
Javohirning bu qirrasi — qiz nazaridek,
Bunisi-chi, hayo bilan boqqan paridek.
Bunisida tong shu'lasi turibdi porlab,
Bu qirrada sharob rangi, bunda aqiq lab.
Monna Mea
Ol, azizam, tezroq uni sotib ola qol!
Janetta *(hayajoni ortib)*

Ola qolgin!
Sotib olgin mayli hammasin,
Baland emas deyapti-ku narx-u navosin,
Omad kelgan payti-ku bu, qo'yib yuborma.

(shivirlab)

Manov aqiq toshni ammo berib yuborma.
Keyin uni pullash mumkin.

Monna Mea

Foydasi bilan.

Janetta

Qaniydi, oh, pulim bo'lsa...

Seliya

Qani, ne deysan?
Olsammikan?
O'ylab ko'rsam — yomon tosh emas.

Janetta

Ola qolgin!

Seliya

Shu yoqutni olaman, mayli!

Monna Mea

Bamisoli olov kabi yonadi bu la'l.

Janetta

Feruza-chi?
Osmon rangi, toshlarning asli,
Buni ham ol,
Yo'qsa ilib ketishar tugal.

Karlotta

Yomon emas, nazarimda, mana bu zumrad.

Monna Mea

Bu uzuk-chi?

Seliya *(qulog'ini bekitib)*

Istamayman eshitishni ham.
Olay mayli shu yoqutni!
Qancha to'layin?

Beppo

Ola qolgin!

Narximi... xo‘sh, men senga aytsam,
Yarmi, yo‘q, yo‘q, to‘rtdan biri.
Savdo shart emas.

Seliya

Narxini ayt?!
Javobini kutib turibman.
Qancha deysan?

(Beppo yelkasini qashiydi.)

Gapir qani, xo‘sh?

Beppo *(Ayollarga ko‘z qisadi. Ular uzoqlashadi.)*

Olti, yetti, sakkiz, to‘qqiz...
Yo‘q, bu ketmaydi,
Hisobdan ham chalg‘ib ketdim,
ish hech bitmaydi.
(atrofga qarab)
Biz bu yerda ko‘pchilikmiz...

Seliya

Ular do‘stlarim,
Bekitgulik sirim yo‘qdir ulardan aslo.

Beppo

Biz-chi, ya’ni savdo ahli saqlaymiz irim,
Xufiya ishni xush ko‘raman men ham doimo.

Karlotta *(mug‘ombirona)*

Ko‘zlaringni o‘yib olmay, hoy sen, lo‘ttiboz.

Monna Mea

Vaysab olsin bu savdogar, mayliga biroz.

Seliya

Sen, Karlotta, hamyon keltir.

Karlotta

Hozir-da, bekam!

(Uchovlon ayol Seliya xonasiga kirib ketadilar.)

Seliya

Narxini ayt! Qancha to‘lay?

Beppo

Tekinga!

Seliya
Yolg‘on!
Mug‘ombirlik qilmoqdasan yana sen, shayton.
Beppo
O‘lay agar, gaplarim rost, toshlarni senga
Chin yurakdan tortiq qilgum, ya’ni tekinga.
Seliya
To‘xta, to‘xta!
Tushunmadim, bu nechuk savdo!
Zumrad, yoqut bir-biridan afzal va a’lo.
Sen esingni yeb qo‘ygansan!
Yo men garangroq.
Saxiylik — bu toshqin hisli qalblarga xosdir.
Savdo ahli bunaqa ish qilmaydi, biroq,
Bu yerda bir hiyla bordir!
Beppo
Sen meni kechir,
Tortiq bergan men emasman.
Seliya
Shundoqmi hali!
Beppo
Boz ustiga — men o‘zim ham o‘zimmas mutloq.
Seliya
Sen bo‘lmasang, kim ekan u vallomat, qani?!
Ha, tushundim!
Beppo
Fahmlading!
Agardi Peter —
Xo‘jayinim, major yigit, xo‘p azamat er,
Sovg‘a-salom bilan meni senga yubordi,
Bir nigohing u yigitning hayoti, dardi.
Seliya
Oh, yaramas,
Xudo urgan surbet qo‘shmachi,
Qandoq jur’at qilib kelding!
Qani, shoshma-chi.

Hoy odamlar!

(eshikni ochadi)

Seni burda-burda qildiray!
Qayoqdasiz, dugonalar, azizlarim hoy,
Keling tezroq, keling tezroq!
Sharmanda bo'ldim.

Beppo *(beparvo)*

Aytilganki, yumshatingiz g'azabni doim.

Seliya *(g'azabkor)*

Sen hali ham shu yerdami, oh, ibliszoda!

Beppo *(tiz cho'kib)*

Rahm qilgil, qasam ichay yorug' dunyoga.
Rahm qilgil, menga emas, mengamas aslo!
O'sha major yigitiga rahming kelsin, o!
Sening bitta nigohingga zor bo'lgan bir zot,
Hajring bilan o'lib ketar, achingil, hayhot!

(Janetta ayollar bilan kiradi.)

Janetta

Chaqirdingmi?

(Petro boshqa eshikdan kiradi.)

Petro

Ne gap, bekam?

Seliya *(birdan ikkilanib)*

Kerakmas yordam!
Chiqa bering.

(Ular chiqadilar.)

(hanuz tiz cho'kib turgan Beppoga)

Tur o'rningdan.

(Beppo turadi.)

Ket endi sen ham!
Bundan buyon na cherkov-u, ko'chamda bir dam
Qorasini ko'rsatmasin anovining!

Beppo *(toshlarni yig'ib)*

Attang!

Shundoq go'zal, yosh yigitga achinmoqdaman,
U jon-dildan sevar seni.

Seliya

Qanchalik ishim!

Beppo

Qani, ayt-chi, bilasanmi, u zot o'zi kim?
Seni Pavel cherkovida ko'rgandan buyon
Judo bo'ldi oromidan mutlaqo, inon!
Ishq dardini qanday qilib yengsin bechora,
Kechalari uyqu nima, sira bilmaydi,
Uvoliga qolajaksan, o'ladi sho'rlik.

(toshlarni yig'adi)

Seliya *(kiftni qisib)*

Bo'lmagan gap!

Beppo

Qiyo boqsang, qoladi tirik.
Moviy, ajib shafaqlarga boqib kechalar,
Takror etar sening noming necha-nechalar,
Faqat sening yoding bilan qarshilar tongni,
Shafaqqa-yu gulga qiyos aylar chehrangni.
Ehtiroslar olovida qovrilib juda
Visolingga talpinadi, ammo behuda.
Shunday ekan bechoraning achchiq qismati,
Unga nasib qilmayotir sevgi nusrati.
Seni sevsa naylasin u?
Qayda ixtiyor,
Anovlarni sevsinmi yo?..

(ayollar turgan xonani ko'rsatadi)

Yo Parvardigor,
Loyiq emas bular uning muhabbatiga,
Undan ko'ra tushgan afzal do'zax qatiga.
Har jihatdan o'zing go'zal, oliyjanobsan,
Marhamat qil, bechoraga ko'rgiz insof san.
Faqatgina bitta so'zing unga to'tiyo,

Faqatgina bitta so‘zing.
Seliya *(jahl bilan)*
Qandoq behayo?!
Faqatgina bir so‘z deysan,
U-chi yaltiroq
Toshlar berib g‘ururimga qo‘ymoqchi oyoq.
Ayol mehrin qitmirlikka ko‘rmasmiz ravo,
Sening vaysaq gaplaringda hikmat bor, ammo
Halollikning qoshida gar qolsak betamiz
Tustovuqqa turli toshlar hadya etamiz.
Laqqa tushar, shuning bilan ishlar bitadi,
Mingta gapdan sovg‘a ko‘proq ta’sir etadi.
Beppo
To‘g‘ri, lekin xo‘jayinim unaqa emas,
Uning dili pokizadir, ishq bilan payvast.
Manov toshlar tavajjuhdan belgi, shunchaki,
Ol, mana bu yoqutni ol, bir chechak kabi,
Biror narsa tama qilmas evaziga u,
Muhabbatin izhor etish — undagi orzu.
Ko‘ngli uchun bir so‘z desang nima qiladi?
Sen uchun ham ikki karra savob bo‘ladi:
Tanholikda hech qursa bir muloqot qilgil,
Gaplarimga ishon, bekam, gunoh bo‘lmas, bil.
Ko‘ksidagi alamlari to‘kilsin bir bor,
Etajaksan yo‘l oldidan uni baxtiyor.
Seliya
Gunoh ishga qo‘l urganim bila turib ham
Oliyjanob yo‘l tutaymi?
Beppo
Rosti gap, bekam,
Ko‘ngilchanlik borasida gaplaring yolg‘on.
Sadaqani gunoh demas hech kim, hech qachon.
Beshafqatlik birla sharaf qo‘shilib nahot
Bir kimsani mahv etsa?
Odil samovot
Tangri bir kun so‘rar sendan uning jonini,

Nima derdim, xayr, bekach!

(sandiqchani yopadi.)

Seliya *(xursand)*
To‘xta! Aytgin-chi.

(Beppo darhol to‘xtaydi.)

Gaping demak...
Beppo
Sevadi beshak!
Seliya
Boshqa gapni aytmoqchiman.
Uning yuragi,
Demak, mutloq pokizadir!
Yolg‘iz tilagi —
Azbaroyi ko‘ngil ishin etmoqlik bajo,
Sovg‘alardan, demak, faqat shuldir muddao?
Beppo *(ko‘kka qo‘l cho‘zib)*
Qasam ichib aytamanki, xuddi o‘shandoq!
Madonnalar haqqi, seni sevadi mutloq!

(gapini bo‘lib)

Seliya
Takror aytay, muhabbat bu havoyi narsa,
Xayrixoh bir so‘z kutmoqda mendan u esa.
Mayli, unga oq yo‘l tilab qolsam bo‘ladi.
Beppo *(xursand)*
Ishontirib aytamanki, hozir keladi.

(sandiqchaga yaqinlashib)

Qaytarmassan har nechuk sen xolis sovg‘ani.
Seliya *(biroz ikkilanib)*
Qaytarmayman! Lotta, qani, hamyonni keltir!
Karlotta

(kulib)

Buyuring, bekam!

Seliya *(Beppoga hamyonni ber deganday)*
Ol, seniki.
Beppo *(mug'ambirona)*
Ololmayman.
Seliya
Olgin-u yashir.
Karlotta *(shivirlaydi)*
Tilla hamyon.
Beppo
Bekam, tashakkur!
Dil tug'yonim orom topdi, shukr haytovur.

(Beppo hamyonni Karlottaga irg'itadi, yashirib qo'y, deya ishora qiladi. Karlotta kulimsirab hamyonni yashiradi. Beppo Seliya etagini o'padi.)

Seliya *(kinoya bilan)*
Bemoringga bergin, to u topshirmasdan jon.
Beppo *(quvnoq)*
Hozir, hozir!
Unga malham eturman ehson!

Parda

Ikkinchi ko'rinish

O'sha yerda. Qandillar yonib turibdi. Derazada og'ir darparda. Sahna kimsasiz. Sahna tubidagi eshik ochilib, Petro kuzatuvida Peter va Beppo kiradilar.

Peter
Buyuringiz, ammo-lekin kutgaysiz birpas,
Kelganingiz haqida men xabar berayin.
Peter
Xo'p!

(Petro ta'zim qiladi, Seliyaning eshigini qoqadi).

O'ljasini kutgan kabi tozilar besas,
Bular uni qo'riqlaydi!

G‘oyatda marg‘ub!
Italiya osmonida topgan baxtim u.
Beppo
O‘zingni bos!
Bo‘laverma ko‘pam serg‘ulu!
Chiqib qolar dilbaring ham!
Peter
Ko‘rajakman, oh!
Beppo, o‘zing ahvolimdan bo‘lib tur ogoh.
(uni quchadi)
Nahot uning saroyida turibman hozir?!
(qisqa pauza)
Tezroq chiqsa qani edi!
Tipirlar yurak!
Beppo

(yelka qisib)

Bo‘laversin, mayliga deb mehmon muntazir,
Yasan-tusan bilan xonim band bo‘lsa kerak!
Peter
Makkorlikni yig‘ishtir, hoy!
Valdirama ko‘p.
Beppo
Xudo haqqi, ushbu holdan xursandman g‘oyat!
Peter
Ya’ni dilbar malikamiz g‘oyatda mahbub,
Ammo ayol — xush yoqishni xohlar nihoyat!
Beppo
Oh, seviklim!
Beppo
Ammo-lekin ayollar ayyor.
Musofirsan bu shaharda — majorsan, ya’ni.
Chalg‘itarlar —
bo‘lmagin sen qanchalar hushyor.
Suv ichkizmay qaytararlar daryodan seni.
Ba’zilari qasamni ham yo‘yar hazilga,
Sen bo‘lsang-chi, laqqa tushib yurasan.

Peter
Aslo!
Men yosh bola emasman, yo‘q, ishon gapimga,
Umrimda men ko‘rmaganman qanchalar savdo!
Qasrlarni zabt etib va dushmanni qurshab,
Qayralgandir kurashlarda mening shamshirim.
Tumtaraqay xalq har yonga qocha boshlar zap,
Uylar esa yona boshlar, qizlar — asirim!
Tanish menga bunaqangi o‘lja mazasi.
Goho-goho sevganman ham, bo‘lganman jazman.
Ammo ushbu holatimning yo‘qdir qiyosi,
Samoviy his qarshisida butkul ojizman.
Ko‘rgan chog‘i tillarimda qotar kalomim,
Olmos kabi sevgi yonar qalbda tamomi.
Beppo
Ammo seni ogoh qilib qo‘yayin, janob,
Sen mutlaqo to‘g‘rigo‘ysan, sen oliyjanob.
Bu yerda-chi, hayot boshqa, ehtiyot bo‘lgin,
O‘z oyog‘ing o‘zing chalib, bo‘lib qolma qul.
Xonimning men fe’lin ko‘rdim, baytalday asov,
Yumshatguncha, rostin aytsam, o‘lib bo‘ldim-ov!
Peter *(qo‘l silkib)*
Hasratlarim aytib solsam — erib ketadi!
Erkak zotin ko‘rgan chog‘i rangi o‘zgarib,
Qizarguvchi qiz bolaning yo‘rig‘i boshqa.
Bu-chi, ayol es-hushini ololgan yig‘ib,
Makkor va quv!
Gaplaringga uchmaydi laqqa!
Eng rasvosi — u bevadir!
Juda xatarnok.
Allaqachon bitta erning boshini yegan,
Sendan nima tilaydi u — bilmadim biroq.
Beppo
Unga bo‘lsin bor bisotim, deganim-degan.

(Eshik ochiladi.)

Bas qil, o‘zi kelayotir.

Beppo
Mayli, men ketdim,
Pastda seni poylab turay, omading kulsin.
Faqatgina shoshilmagin, shoshilma, inim,
Azongacha seni poylab turganim bo'lsin.

(Ketadi.)

Petro eshikni ochadi, Seliya ikki ayol bilan kirib keladi.

Peter *(ta'zim qilib)*
Malikayi muhtarama...

Seliya Peter sovg'alariga muhtoj emasligini ko'rsatmoqchiday nihoyatda bezanib olgan.

Seliya
Salom, bahodir!
Kin yo'q aslo yuragimda, kuttirgan bo'lsam.
Janetta
U ibodat qilib oldi.
Seliya *(ayollarni ko'rsatib)*
Tanishing, lutfan.
Peter va ayollar o'zaro ta'zim qiladilar.
Dovrug'ingiz borasida nimaiki bilsam
Eshitganman men mana shu dugonalardan.
Xonadonim qoidasi ancha qatag'on,
Qiblagohim — erim qazo qilgandan buyon —
Shu ongacha biron erkak biror-bir nafas
Mening yuksak ostonamdan o'tolgan emas.
Xohishlarim tinglay olgan faqat to'rt devor,
Sizni darhol qabul qilish edi ko'p dushvor.
Peter
Hamisha ham intizorman, har qachon kutgum,
Sizning ushbu marhamatga ta'zimlar etgum,
Janglarda men botir edim, hozircha faqat
Jur'at eta olurmanmi...

Seliya *(quvvatlab)*
Etursiz jur'at!

(Peter bir zum kalovlanadi)

Xo'sh, dil sirin ochingiz-chi, quloq ilarmiz.
Monna Mea
Balki, bizlar...
Janetta
Bir majorga ko'rik qilarmiz.
Peter
Sizning piching borib yetar aniq nishonga,
Ammo undan ne ta'sir bor majruh bu jonga,
Men og'irroq bir jarohat olganman, axir.

(buriladi, jimlik)

Monna Mea *(Seliyaga)*
Balki, bizlar ketsak bo'lar?
Seliya
Ketmang, to'xtab turing!
Ritsar endi so'zlayajak turfa xil gaplar,
Shunchaki bir guftigo'ylik bo'lmasa agar,
Agar uning gaplariga bovar qilsak biz,
Nega uning munojotin tinglamaysiz siz?
Shundaymasmi, aziz ritsar?
Peter
Shundoq, malikam!
Turfa so'zlar orasida eng a'lo, ko'rkam,
Oddiygina sening isming, noming bo'ladi.
Ruxsat etsang, takrorlasam ko'nglim to'ladi.
Janetta
O'lay agar, ritsarimiz gapga ko'p chechan!
Peter *(Seliyaga)*
Eng pokiza, sof tuyg'ular kimda mujassam?
Bari-bari senda erur, senda, azizam!
Seliya
Xo'sh, ritsarim, bir-birimiz tanib ham oldik.

(ayollar o'tirishadi)

Eshitdimki, yuragingda hasrat va og'riq,
Izhori dil etsang menga bo'larmish malham,
Ammo buning chorasi hech bormikan, qaydam!
Xristian burchimizni etaylik ado,
Baholi qudrat dardlaringga izlaylik shifo.
So'zla, qani!

Peter

Oh, so'zlashdan nomusdir zo'rroq
Va so'z demak sukunatdan ko'ra og'irroq.
Mening chashmi selobimga bovar qilsayding,
Ko'zyosh to'ksam dilim bo'shar, agar bilsayding.
Uyqu nima, orom nima — bilmayman sira,
Faqat yolg'iz yosh to'kaman yostig'im uzra.
Aytay desam hasratlarim, gapning sirasi,
Ko'zlaringda porlar muzday rad ishorasi.
Axir, aytmoq chorasi yo'q, dilimda ne bor,
Seni qanday sevishimni etolmam izhor.

Seliya

Yetar, yetar!
Alahlash, ha, shu bo'lsa kerak.
Muhabbatdan so'z ochdingmi?

Peter

U — oliy, yuksak!

Seliya

Ha, muhabbat!
Mening uchun havoyi bir so'z...

Janetta

Uning gapin tinglasang gar — anglaysan, shaksiz.

Seliya

Kerak emas!
Peshlayverma, bari befoyda,
Mening bitta javobim bor har zum, har joyda:
Muhabbatim go'rda yotar allaqachonlar,
Bu ahdimdan qaytarolmas hech kim, hech qachon,
G'ulu solmas yuragimga o'tli giryonlar,

Hasratimga begonadir sevgi, hayajon.
Mening botir Orlandomni bilgansiz, albat?
Monna Mea *(suratga qarab xo'rsinib)*
Oh, qanchalar oliyjanob edi-ya u zot!
Seliya
Ritsar edi! Avayladi meni umrbod!
Janetta
Yetti odam og'iz soldi — rad javob oldi,
Ulardan so'ng yana biri topilib qoldi.
U Nerino!
Monna Mea
Uncha-muncha yigitmas, ammo!
Janetta
Rad javobin olib ketdi o'sha ham, ammo!
Peter
Muhabbatga dargohing och hech qursa bir bor,
Nahotki ishq xotirasi — misli zindonbon
Erkak zotin huzuringda etsa buncha xor?
Xotira deb sovib ketsa nahot qaynoq qon?!
Seliya
Og'zingni yum, haddan oshma, takabbur odam!
Peter
Xotiralar soyasida yashaysan, ammo
Chinakam baxt, halovatdan bo'lib mosuvo?!
Seliya
Erkaklarning har gapida bir murod ayon,
Kerak emas gunoh to'la u shirinzabon.
Yangilikmi siz so'ylagan sevgi izhori
Yoki yuzlab izhorlarning bitta takrori?
Yolborish-u avrashlarga usta baringiz,
Daryo bo'lib oqar paqqos ko'zyoshlaringiz.
Peter
Marhamatli xonim, buncha shafqatsiz bo'lmang,
Mening yurak rishtalarim besabab yulmang.
Biz, muhabbat ritsarlari, ishqqa fidoyi,
Taqdir yuki yelkamizda bordir kiroyi.

Har qandayin g'animlarga berurmiz barham,
Vatan qadar biz sodiqmiz muhabbatga ham,
Ular uchun qayta-qayta jangga kirurmiz,
Sevishni ham, o'lishni ham loyiq bilurmiz,
Umidvormiz ammo-lekin, yorishgay osmon,
Biz intilgan nurli shafaq porlar begumon.
Qancha yiroq bo'lmasin yo'l axiyri bir kun
Noil bo'lgay muhabbatning xayri biz uchun.

Seliya

Tugatdingmi?

Peter

Biz ritsarlar gapga ham dovmiz,
Ammo sizning qoshingizda ko'proq soqovmiz.
Gapirishni agar menga aylasang taqiq,
Sukunatga bandi bo'lib turgumdir ortiq.

Seliya

Aybdor kim?
Sen-ku, axir, qiziqqon va yosh,
Abadiy tund bir muzlikka urmoqdasan bosh.
Sen izimdan yurding sevib, qadam-baqadam,
Men-chi, senga tashlamadim, hatto nazar ham.

Peter

Seni sira ayblamasman, sevaman faqat,
Haqsan: vijdon oldida men gunohkor minba'd.
Sen bo'lsang-chi, yosh boladay toza, beg'ubor,
Mening esa kamim yana ko'paydi bisyor.
Suhbatingga mushtoq bo'lib kelgandim bunga,
Netay, seni yo'qotgayman endi manguga!
Nega, axir, ko'rsatganding avval ruxsoring,
Tuzatmaysan shafqat bilan bergan ozoring,
Porloq chashming umid tunin yoritdi nega?

(qisqa pauza)

Yorim bo'lsang, oh, turmushga chiqsayding menga.

Seliya

Nahot gapga tushunmasang, menga hech kimsa,

Demak, sen ham kerakmassan, o‘z holimga qo‘y.
Javohirmas, menga faqat tanholik bo‘lsa,
Rahmim keldi, shu boisdan ko‘rsatgandim ro‘y.
G‘ayri inson kabi senga tuyulsam nahot?
Dunyo kengdir, ko‘pdir unda ne qaddi shamshod,
Mendan ko‘ra go‘zallar ham oz emas, ishon.

Peter

Alalabad yuragimda qoldi shu armon,
Boshqa narsa kerak emas menga mutlaqo.
Sen hammadan go‘zalroqsan, gapim bor, ammo:
Agar xunuk bo‘lganingda, bukur va battar
O‘shanda ham sevar edim seni muqarrar.

(Xayrlashuv ishorasini qiladi.)

Xudo o‘zi panohida seni asrasin.

Seliya

Senga rahmim kelar, aytsam gapning sirasin.
Qo‘lga olgil o‘zni endi, dadil bo‘l chunon,
Tangri o‘zi mushkulingni aylasin oson.
Unut meni, Xudo o‘zi yor bo‘lsin senga!

Peter

Shukr deyman, sen marhamat aylading menga,
Huzuringda bo‘la oldim loaqal bir bor,
Biroq endi bir shafqating ayama, dildor!

Seliya

Tilaging ne?
So‘z beraman — aylamasman rad,
U dardingga davo esa — topilmas minba’d!

Peter

Pyemontda bir odat bor, juda qadimdan,
O‘zi juda jo‘n bo‘lsa ham, g‘oyat ta’sirchan.
Mehmon bilan xayrlashib qolarkan mezbon,
Uy bekasi chin yurakdan, bir singilsimon
Mehmonining lablaridan oladi bo‘sa,
Sevgi yashar mening sho‘rlik qalbimda esa.
Sening porloq o‘ying bilan dilni o‘rayman,
Ketayotib faqat bitta bo‘sa so‘rayman.

Seliya

(cho'chib)

Bilmay qoldim, bunday holda ne qilmoq lozim?

Janetta *(tez)*

Afv etgaysiz, rost, chindan ham qadimdan qadim
Shunaqangi bir odat bor.

Monna Mea

Monkaler, Turin
Viloyatlar tan oladi shu odat turin.
Ajdodlarning udumlarin yodga olingiz,
Rioyasin ikkovlashib yecha qolingiz.

Janetta

Intiq bo'lib so'rayapti, o'pich bera qol,
Rad qilsang, bil, anchağina gunoh bo'ladi.
Yaxshi emas urf-odatni etmoqlik poymol,
Bunday gunoh ko'p falokat boshlab keladi.

Monna Mea

Unchalik ham jiddiyat-la boqma bu ishga,
Qaytib kelmas o'pichingni qaytib berishga.

Janetta

Urf bo'yicha o'pishmoqlik gunohmas aslo,
Xo'shlashganda ro'molchani silkishday go'yo.
Anov-manov narsani u so'rayotganmas,
Tilagani bitta o'pich, bitta o'pich, bas.
Xayrlashgin uning bilan va lekin dastlab
Uning qaynoq lablariga qo'yajaksan lab.

Monna Mea

Gaping to'g'ri!

Seliya

Ha, so'z berdim, buni odat der!
Bo'sa uchun men tayyorman, Agardi Peter!

(Ayollarga ishora qiladi. Ular chiqib ketadi.
Peter Seliyaga yaqin boradi. Ammo Seliya uni to'xtatadi.)

To'xta bir zum, ehtirosing olgil jilovlab,
Allaqachon bo'salarni unutgandir qalb.
Men tayyorman aylamoqqa marhamat-shafqat,

Ammo bordir menda ham bir talab, ya'ni shart!
Peter
Men u-bu deb o'tirmayman!
Talabingni ayt!
Seliya
Mudhish talab qo'ysam-chi men?
Ehtimol, u payt
Istagingdan qaytajaksan berolmasdan dosh.
Qaydam, ritsar, etarsanmi shartimga bardosh?
Peter

(jilmayib)

Qani, ayt-chi, qanaqa shart?
Seliya
O'ylab ko'r avval,
Hanuzgacha o'tgan gaplar ermakdir tugal.
Aylantirmoq bo'lib, hatto mening boshimni
Behudaga ishga solding turli toshingni.
Endi bir shart qo'yayinki, u senga sinov,
Bundan ortiq sovg'a ham yo'q, yo'q ortiq sinov.
Peter
Sening uchun bor bisotim, hayotim kafil,
Faqatgina bo'sa shartin ochiq bayon qil.
Seliya
Qasam ichgil!
Peter
Ma'bad haqqi, qasam ichaman.
Qasamimda turmasam gar, jondan kechaman.
Mayli, halol jang paytida shamshirim sinsin,
Mayli, meni g'anim taraf boylab, qul qilsin.
Bo'g'izlashsin, mayli, meni bamisoli mol,
Mayli, ajal panja ursin, kelmagay malol.
Faqatgina buzmagayman ichgan qasamim,
Sharting aytgin, bajarmoqlik qasamim manim.
Seliya
So'z berdingmi!

Bo‘ldi endi!

(Peterning bo‘yniga osilib, ikki bora o‘padi.)

Peter *(bo‘shashib, xirillab)*
Talabingni ayt!
Seliya
Bundan buyon, mayliga, sen qayda yurasan —
Uch yilgacha so‘z demaysan, soqov bo‘lasan.

(Peter qaltirab ketadi.)

Lablaringga bosdim hozir qaynoq labimni,
Muhrladim demakki men aytar gapingni.
Uch yilgacha biror so‘z deb ochmassan og‘iz,
Uqdingmi, xo‘sh?

(Peter ta’zim qiladi.)

G‘am-u kulfat kelsa ham shaksiz,
Orzu bormi,•armon bormi, ne bor dunyoda,
So‘z bilan sen etmagaysan fikring ifoda.
Qahqahang ham, bo‘zlashing ham botin bo‘lg‘usi,
Sabr-toqat va bardoshing metin bo‘lgusi.
Besas, bedil, bamisoli tungi zindon bo‘l,
Tashlandiq bir quduq kabi g‘aflat makon bo‘l.
Sukunatning zimistonday mozori bo‘lgil,
O‘z tilingning jallodi bo‘l, tund zori bo‘lgil.
Hozirgina, oh, ritsarim, turib yonimda
Qasam ichding, aytgan so‘zing turar yodimda.
Payti keldi va boshlandi dahshatli fursat,
Bo‘sa so‘rab huzurimda chekding ko‘p hasrat.
Muhabbatim darvozasin sen ochmoqchiyding,
Do‘stlaringga buni aytib maqtanmoqchiyding.
Ana, endi og‘zingda qulf chorang yo‘q bo‘lak,
Qasam va urf nimaligin sen bilsang kerak.
Turli-tuman boylik bilan o‘rading meni,
Hatto dadil xotinlikka so‘rading meni,
Mening laziz lablarimdan bo‘salar olding,

Ammo mudhish qasamga sen bog'lanib qolding.
Uch yil chida, uch yilgacha chiqarma sado,
Siylagayman bu uch yillik sukutni, ammo!
Rozimisan?
Chidaganga chiqargan, ritsar.

(Peter so'zsiz ta'zim qilgach, chiqa boshlaydi.)

To'g'ri javob qilding, shovvoz!

Parda

Uchinchi ko'rinish

O'sha joyda, bir yildan so'ng. Quyoshli bahor kuni. Seliya, Janetta, Monna Mea va Karlotta qadimiy bir qo'shiqni o'rganmoqdalar. Ularning ovozi parda ko'tarilguncha eshitiladi. Ular hamishagidek so'zana ustida engashgan, zerikkan bir holda.

To'rtovlon *(kuylaydilar)*
Yurak yig'lar, ko'ksimda g'am,
Dilimda bir tug'yon bor.
Seliya *(ularni to'xtatib, quloqlarini bekitadi.)*
Eh, yolg'onga ko'p ustasiz!

(Ular qo'shiq aytishdan to'xtaydilar.)

Monna Mea
Qanaqa yolg'on?
Seliya
O'rganolmay ovoramiz anchadan buyon.
Kuyi bo'lsa iztirobli.
Janetta
Nerino, hay-hay,
Neapoldan olib kelmish sen uchun atay.
Karlotta
Terimni shil, o'lay agar, o'rganolmadim.

(kulishadi)

Seliya
Quloq bormi?
Karlotta
Bor!

(Uning qulog'ini Seliya ushlab ko'radi.)

Monna Mea *(bo'ysungan holda)*
Qaytadan boshlaymiz tag'in.
Seliya
Sizlar mening ishoramga qiling e'tibor,
To'rtalamiz bab-barobar boshlaymiz takror.
To'rtovlon *(kuylaydilar)*
Yurak yig'lar, ko'ksimda g'am,
Dilimda bir tug'yon bor.
Ketdi yiroq aziz hamdam,
Undan darak yo'q zinhor,
Qaytarsanmi, do'sti najot?
Sensiz menga yo'q hayot...

(kuladilar)

Seliya
Endi sal-pal o'xshayotir.
Janetta
U ko'hlik yigit!
Musiqada jo'r bo'lsaydi — yaxshi chiqardi.
Karlotta *(entikib)*
Shirin yigit!
Monna Mea
Jozibador.
Seliya *(tund, jahldor)*
Haddan oshmangiz!
Hud-behuda valdirashib, bo'lmang gunohkor.

(tikishni ko'rsatadi)

Ip chuvatib imillaymiz bir yildan buyon,
Ko'rmaysizmi, tikishimiz bitmaydi hamon.

Janetta
Rostin aytsak jonga tegdi shu ishlar bari.
Monna Mea
Monastirning hujrasida yotgan misoli.
Janetta
Ertadan kech uy ichida, xonanishinmiz.
Karlotta
Xayol qilsak, biror fursat boshqa narsani,
O‘ylaymanki, Parvardigor aybga buyurmas.
Janetta *(derazadan qarab)*
Yayrab yursang, chamanzorlar bag‘rida, qani,
Olam bahor og‘ushida, yashnagan, sarmast.
Biz bo‘lsak-chi, tikish bilan ovora tun-kun,
O‘ynab-kulish begonadir, evoh, biz uchun.
Karlotta
Qartayganda men xudojo‘y bo‘larman, balkim,
U payt otash nafas bila isitmas hech kim.

(Ko‘chadan go‘s nog‘ora ovozi eshitiladi.)

Janetta
Ko‘chalarda sayr etmoqda sevgi, muhabbat,
Sen esa-chi, xona ichra so‘lg‘in va karaxt.
Derazani lang ochaylik, bahor — ishq demak,
Ocha qolay, a,
Seliya.
Seliya *(uncha qarshilik qilmay)*
Yopsang-chi, tentak!

Janetta derazani ochadi. Xonaga quyosh nuri, musiqa quyiladi.

Karlotta *(qiziqib)*
Kim ekan u chalayotgan?
Janetta
Jonglor, omadsiz!
Ammo-lekin ohanglari mayindir, shaksiz.

Jonglor *(kuylaydi)*
Major ritsar bor edi
Botirlardan botirroq.
Keldi Majoristondan
Italiyaga bir choq.
Oshiq edi bechora,
Yuragi tilka-pora.

(ayollar kuladilar)

Sho'rlik musofir oshiq,
Chorasiz yurar edi.
Yor eshigin tagida
Tun-u kun turar edi.
Bamisoli yarim oy
Ko'ngli siniq, hoynahoy.

(Ayollar bir-birlariga qarab olishadi.
Seliya o'zini noqulay seza boshlaydi.)

Shavkatli ritsar bir kun
Aytdi: "O, sohibjamol,
Bitta bo'sa so'rayman,
Sharting bo'lsa ayta qol.

(Ayollar daf'atan cho'chib tushadilar.
Seliya derazani tez yopishga ishora qilgadi.)

Sening bir bo'sang uchun
Ne tilasang berayin".
Yoshgina beva esa...

(Janetta derazani bekitadi.
Musiqa tinadi, jimlik.
Ayollar bir-birlariga qaraydilar.)

Seliya
Mening nomim bulg'amoqchi bo'lgan kim, axir,
Karlotta, tez o'sha badbaxt Jonglorni chaqir.

Monna Mea
Tilla bilan og'ziga ur, bas bo'la qolsin.

Janetta
Hikoyasin so‘zlab berar, u kela qolsin.

(Karlotta tezgina chiqadi.)

Seliya *(Janettaga qarab)*
Bulbul kabi kuylaydigan muhabbatmi yo
Sharmsizlik ifodasi — tuyg‘u behayo?

(ters buriladi)

Monna Mea *(kinoya bilan)*
Qaydam, qo‘shiq sen haqingda emasdir, balkim.
Seliya
Yosh beva der! Xo‘sh,
yosh beva men bo‘lmasam, kim?
Janetta *(u ham kinoya aralash)*
Ajab emas, favqulodda o‘xshab qolsa gar.
Seliya
Derazamning naq tagida kuylar darbadar.
Yor demayman, Xudo deyman kunduzmi-tunmi,
Katta-kichik masxaralab kulsin uchunmi?

(O‘yga tolib o‘tiradi.)

Monna Mea
Kelgan edi bu yerga u bir yil muqaddam.
Janetta *(u ham fikrchan)*
Yovqur sarboz, fazilatlar unda mujassam!
Iztiroblar darvozasi qoshida besas
So‘nggi bo‘sa olgan edi.
Seliya *(boshini ko‘tarib)*
Qiynamangiz, bas!
Janetta
Yuragingdan urganmidi?
Qo‘msarsan biroz.
Seliya
O‘shanimi?
Bir martaba ko‘rganman, xolos.
Monna Mea
U haqida eshitmading, demak, hech xabar?

Seliya
Yo‘q.
Monna Mea
Va lekin bilib qolmish Jonglor darbadar.
Seliya
Qismatidan bexabarman uning mutlaqo,
Qayoqlarda yuribdi u?
Keng erur dunyo.
Tirikmi u?
Kim biladi?
Topdimi ajal?
U haqda men o‘ylamayman,
ishon, hech mahal.
Janetta
Yana qayta kelib qolsa ritsar mabodo
Uni qanday qarshilarding?
Monna Mea
O‘shandoqmi, yo...
Seliya *(fe’li aynab)*
Yo‘q, esimni yemas edim ikkinchi marta,
Bo‘sani u joriy etgan elga, albatta.
Yo‘qsa daydi Jonglor uni bilmasdi, axir,
Eshitmagan bo‘lardingiz sizlar ham hozir.

(Eshik ochilib, Karlotta va Beppo kiradi.
Beppo cholg‘u asbobi bilan, juldur kiyimda.
Ayollar dastlab uni tanimaydilar.)

Janetta, Monna Mea
Beppo?
Beppo *(ta’zim qiladi)*
Ya’ni xuddi o‘zim,
Beppo bus-butun.
Seliya
Bu — senmisan?
Masxaraboz, chayqovchi, maymun.
Lo‘ttiboz-u quv, hiylagar, dog‘uli, ayyor,
Tayini yo‘q ashulachi, senmisan, makkor?

Beppo *(o'zini oqlab)*
Afv etgaysiz, men shunchaki arvoh erurman,
Oh, avvalgi holatimga qandoq kelurman.
Xo'jam bilan ko'rdik qancha janglarki, qattol,
Chap qo'limni yaraladi majusiy dajjol.

(ko'rsatadi)

Bundan boshqa jarohat ham ancha-muncha bor.
Karlotta
Voy, Xudoyim!
Janetta
Rostdanmi, a?
Monna Mea
Keyin-chi? Keyin?
Beppo
Undan keyin ikkov qoldik, jang bo'ldi qiyin.
Monkveverni tark ayladik, olishdik chunon,
G'anim bizga, biz g'animga bermadik omon.
Seliya
Faqat ikkov qoldingizmi?
Beppo
Ikkovlon edik,
Lekin xo'jam mehringizga zor bo'ldi, sho'rlik.
Seliya
Ishq dardidan xalos bo'lib, xo'jang baxtiyor,
Sen-chi, meni doston qilib yuribsan, g'addor.
Beppo
Bir haftaki, bu joylarda sarson yuribman,
Kechir meni, daydilarga sherik bo'libman.
Odamlarning e'tiborin tortmoqlik uchun
Qo'shiq to'qib, buni chaldim yetgancha kuchim,
Endi esa cholg'u-polg'u menga ne kerak?!

(Cholg'usini sindiradi.)

Seliya
Sen bu yerga madad so'rab kelgansan, demak?

Beppo
Iltifot yo marhamating menga nozarur,
Men yepiskop Ransanoning tilmochi edim.
Qochib qoldim yepiskopni chalg'itib bazo'r,
Ota-onam yashar bunda, ko'rgani keldim.
Endi esa xo'jayinga borayin ildam,
Aytay, yashnab ketganingni avvalgidan ham,
Karlotta
Maqtovlarni kelishtirar Beppo, albatta!
Seliya *(jilmayib)*
Unga biroz aqcha bergin — pul ber, Karlotta.
Beppo
Yo'q, kerakmas, gar etigim yirtiq va yamoq,
Sadaqani ep ko'rmasman o'zimga biroq.
Qarzlarimni qaytarishar, bordir pulim ham,
Sohibimga yordam bergin, yaxshisi, bekam.
Seliya
Yana qayta boshladingmi?
Xo'jang qaydadir?
Beppo
Tevtonlarni qiyratmoqda!
Uzoq joydadir.
Hayratomuz erur uning jasoratlari,
Qarshisida zir titraydi osiylar bari.
Qiyratadi va ayni vaqt kutadi ajal,
Uni bo'sang mahv aylagan chunki bir mahal.
Monna Mea
Makr to'la gaplardir bu!
Janetta
Quruq safsata!
Seliya
Sohibingning ahvolini o'rtaga solib,
Balki, mening yuragimni yumshatmoqchisan?
Jangchi ekan, o'q yeydi-da mag'lubmi, g'olib,
O'ladi ham — modomiki yollangan ekan.

Beppo

(kulib)

Kim yollangan?
Nima deding?
Mening xo‘jam-a?

Janetta

Ha-da.

Beppo

Yo‘q-yo‘q, mening xo‘jam eng jasur askar.
U bor joyda uncha-muncha botir hech nima,
Qirol bilan ulfatchilik qiladi aksar,
Janglarda ham, kengashda ham qirol yo‘ldoshi,
Matyash bilan o‘yinlarda, bazmda birga.
Yiroq-yiroq o‘lkalarga dovrug‘i oshdi,
Huzurida, hatto Turchin qaraydi yerga.

Seliya

Shundoq ekan, nima uni qiynaydi, axir?

Beppo *(baqirayozib)*

Gap shundaki, soqov bo‘lib qoldi sohibim,
Oti — Peter Agardimas, Soqov Peterdir.

Seliya *(qo‘rquvda, titrab)*

Soqov!

Janetta

Soqov?

Karlotta, Monna Mea *(bir-biriga shivirlab)*

Soqov emish, sho‘rlik, bezabon!

Seliya

Qaysi jangda tilidan u ayrilib qoldi?
Karaxtlikdan.

Beppo *(boshini chayqab, uyni ko‘rsatib)*

Ushbu uyda bo‘lgandi mehmon,
O‘sha mahal... bir yil burun, tili yo‘qoldi.
Uning tilin izlab keldim Majoristondan,
Sohibimning zabonini so‘rayin kimdan?

Seliya *(tund)*

Qolgan bo‘lsa uning tili bu uyda agar,

Marhamat qil, axtarib ko‘r, marhamat, axtar!

Beppo

Xo‘jayinim ushbu uyga kirdi-yu birrov,
Soqov bo‘lib qoldi sho‘rlik, chinakam soqov!

Seliya

(qoniqish bilan)

Qandoq azob!
Soqov bo‘lib qolmish Agardi!

Beppo

Juda og‘ir, juda og‘ir ritsarning dardi,
Gapirmaydi u, vassalom, chiqarmas sado!

Seliya

Mening aybim nima, axir?

Beppo

Gap shundaki, o,
Bo‘sadan so‘ng soqov bo‘lib qoldi ritsarim.

Karlotta

Bas qil, Beppo, bormi senda hayo va sharm?

Janetta

Bo‘sa totli bo‘lgan edi, o‘zingda gap bor!

Seliya

Ablah!
Qaysing bu ig‘voni to‘qiding, ayt-chi,
O‘zingmi yo xo‘jayining?

Beppo

Kechirgin, zinhor!
Tushunmading, qayta boshdan takror etayin,
Mutloq soqov bo‘lib qolgan, soqov xo‘jayin!
Soqov odam qandoq qilib seni ayblaydi.
Oh, qaniydi senda ham qalb, yurak bo‘lsaydi!
Xo‘sh, u holda ne bo‘lardi?
Ayt diling yorib.
O‘zing borib davolarding, yoniga borib.

Seliya

O‘zim borib?

Beppo
Ha, borarding Pannon tomonga,
Qolaversa, uzoqroqqa,
Majoristonga!
Janetta
Sen esingan yebsan butkul!
Monna Mea
Tabibmas-ku u,
Bemorni to davolasa tayyorlab doru?
Beppo
Gaping to‘g‘ri,
unga teggan g‘aroyib kasal,
Tabib yordam qila olmas unga, filmasal.
Janetta
Qanaqangi dard ekan u?
Seliya
Qanaqa dard, xo‘sh?
Beppo
Xafaqonlik, hasrat uni qiynaydi noxush,
O‘ylaymizki, uning dardin davolash mumkin!
Ammo qandoq dori darkor?
Ammo qay yo‘sin?
Kasalmi u yo ataylab ichganmi qasam?
Soqovligin boisi ne?
Mutlaqo mubham!
Janetta
(Seliyaga nisbatan birmuncha shubha aralash)
Birozgina sirli ekan kasali...
Seliya
Shundoq!..
Beppo
Kimki uni davolasa, shu lahza, shu choq,
Qirolimiz berajakdir bir etak oltin,
Matyash — ya’ni bizning qirol ko‘p saxiy lokin.
Janetta
Hazil gapmas shuncha boylik.

Seliya
Kattakon siylov!
Karlotta
Uddalolsam, davolardim men uni darrov.
Monna Mea
Topilsaydi biror chora...
Beppo
Oh, qismat zolim,
Bosh qotirdi qancha-qancha bekalla olim,
Ignalarin ko'tarishib do'xtirlar keldi,
Ne-ne folbin, mahmadona uchqurlar keldi,
Kelib ko'rdi Yevropadan tabib — po'rimlar,
Qolmadi hech qilinmagan irim-sirimlar.
Hunarini ayamadi munajjimlar ham,
O't ham, suv ham bo'lolmadi dardiga malham,
Ritsar besas, ritsar soqov, sado chiqarmas.
Seliya
Shifo topib bo'larmikan dardiga, xullas!
Beppo
Oh, malikam, tuzalar u, gapning ochig'i,
Kerak unga muhabbatning shirin qichig'i.
Sevgi unga qismat erur, senga-chi ermak,
Ritsar sevar faqat seni, sen — shifo demak.
Seliya
Gapni buncha oshirmasang.
Beppo
Istasang darrov
Tilga kirib ketar edi qahramon soqov.
Seliya
Bo'lmagan gap!
Janetta
Gar kulgili bo'lsa ham, zinhor,
Bekam, uning gaplarida mutlaqo jon bor.
Beppo
Bahodirni davolasang — bahukmi taqdir,
Qirol Matyash nazariga tushasan, axir.

Italiya bo‘ylab sening shoning taralgay,
O‘ylab ko‘rgin, shuhratingga imkon yaralgay.

Seliya

Eplarmanmi?..

Beppo

Ha, eplaysan!

Seliya

Monna Mea

Janetta

O‘rningda bo‘lsam,
Tavakkal ish tutar edim o‘ylamay hech ham,
Ritsar uchun emas, balki iltifot uchun,
Baxt-saodat keltiruvchi mukofot uchun.

Seliya

Eplasam-ku durust-ku-ya.

Beppo

Eplashing mumkin.
Malikaga singil bo‘lib qolajaksan so‘ng.
Pannoniyada yashar go‘zal qirolichamiz,
Malikamiz, ya’ni tengsiz Beatrichemiz.
Ko‘p hurmatli bo‘lajaksan, balki, saroyda.

Seliya

Hunaringni qilolmaysan, iblis, bu joyda!
Qani, ayt-chi, eplolmasam agar daf’atan,
Bosh ko‘tarib, nima degan odam bo‘laman?

Beppo

Modomiki ishonmaysan o‘zingga, bekam,
Aytib qo‘yay, darhaqiqat, oqibatni ham!

Seliya

Xo‘sh, xo‘sh,
qanday oqibatni aytmoqchisan, xo‘sh?

Beppo

Shartga boshing uzib tashlar
Dahshatli Layosh!

Seliya

Layoshing kim?

Beppo
Jallodlarning kattasi, zo‘ri.
Janetta
Nega avval aytmaganding, oh, yovuz bo‘ri?
Seliya
Nega endi qatl etadi?
Beppo
Ajabmas aslo,
Qirolimiz jondan to‘ydi endi mutlaqo.
Qaysi tabib eplolmasa ritsarni agar
Qirol aytdi, boshi ketar shaksiz, muqarrar.
Seliya
Shafqat yo‘qmi?
Beppo
Shafqat bor-u, boylarga faqat.
Seliya
Xo‘sh, qancha pul afv uchun bo‘lar inobat?
Beppo
Tirik qolay desang agar — yigirma besh ming.
Seliya
Darhaqiqat, bir kallaga arziydigan narx.
Janetta
Arziydimi, yo‘qmi — senga baribirmasmi?
Seliya *(shunchaki)*
Ana, endi bu ish meni qiziqtirmoqda.
Janetta *(qo‘rquv bilan)*
Es-u hushing joyidami?
Seliya
Qo‘rqma mutlaqo!
Jon chekmasang biror zafar kelibdi qachon,
Jasurlarga kulib boqar omad begumon.

(Beppoga)

Ayt, qo‘limdan kelarmikan uni davolash?
Beppo
Ishonaman, uddalaysan!

Seliya
Men o‘zim yakkash,
Tilga solib yuborgumdir soqov ritsarni
Va shuhratim taralgaydir asrlar osha.
Qirolicha Beatriche qoshida, ya’ni
Martaba ham orttiraman shunga yarasha.
Faqatgina o‘jar ritsar tilga kirsa, bas!
Eplarmanmi?
Monna Mea
Eplarsanmi?
Janetta
Yo‘qsa, ne bo‘lar?
Seliya *(yelka qisib)*
Ne bo‘lardi?
Jallod Layosh kallamni olar,
Yigirma besh ming tillani to‘layman yoki.
Hamroh bo‘lib borajaksan, Karlotta, menga,

(Janetta va Monna Meaga)

Siz ham birga borajaksiz Pannoniyaga.

(Karlottaga)

Tayyor bo‘lsin kareta va ikki xizmatkor!
Tangri qo‘llar, kimki bo‘lsa gar ehtiyotkor,
Ogoh bo‘lgil, yo‘lto‘sarlar uchrar, ehtimol.
Ehtiyotdan yana uch-to‘rt qo‘riqchini ol.
Janetta *(qo‘rqib ketadi)*
Voy Xudoyim, qachon, axir, yo‘lga chiqamiz!
Seliya
Otlanguncha biror hafta o‘tadi so‘zsiz.
Monna Mea
Bugun qay kun?
Janetta
Bugunmi, ha, dushanba!
Seliya
Demak,
Yakshanbada tayyor bo‘lib, jo‘nasak kerak.

Karlotta
Qaroqchilar bor emish, oh, hamma tomonda.
Janetta
Qo'rqayapman!
Karlotta
Oh, yo'qolib ketsak yomon-da!
Monna Mea
Yetamizmi yo yetolmay tamom bo'lamiz?
Karlotta
Uchovlon ham yo'lda balkim...
Janetta
Halok bo'lamiz.
Boz ustiga, qahraton qish u yerda hokim.
Beppo
To borguncha kelib qolar bahor ham, balkim.
Seliya *(daf'atan, qat'iy, o'z-o'ziga)*
Ha, darvoqe, yiroq safar oldidan tayin,
Hazrat Pyotr duosini olib qaytayin.
Tangri o'zi madad bersin, qo'llasin g'affor.

(Beppoga)

Sen-chi, nokas, qulf solasan og'zingga zinhor.
Beppo *(qasam ishorasini qilib)*
Oramizda qolar bu gap, ishoning, bekam!
Seliya
Toki, ritsar borishimni bilmasin hech ham.

(qat'iy)

Ishonaman meni ko'rgach hasrati tarqar.

(Beppoga)

Saqlaysanmi ushbu sirni, javob ber, ovsar?
Beppo *(ta'zim qilib)*
Ishonaver, o, malikam, shu qasam garov.
Sohibimdek men ham bo'lgum butunlay soqov.

Parda

To‘rtinchi ko‘rinish

Avstriyadagi Xaynburg qasri. Qirol qabulxonasi. Hashamni yaxshi ko‘radigan injiq italyan ayoli Beatriche nimqorong‘i bu xonani o‘z didiga mos bezagan. Devorlarda avliyolarning suratlari. Gilamlar. Keng yozuv stoli, qalayi siyohdon, patqalam, kumush qo‘ng‘iroq, qog‘ozlar. O‘ng va chapda yotoqxona eshiklari. Uy to‘rida balkon, ikkita zina. Kattakon darpardalar, qirolichaning enagasi Nardella darpardalarni suradi. Kechki shafaq xonani yoritadi. Uzoqdan organ sadolari eshitiladi. Oldinda qirol masxarabozi Tiribi turk stoli yonidagi o‘rindiqda o‘tirib oshiq o‘ynamoqda.

Nardella *(darpardani surayotib)*
O‘yin jonga tegmadimi, hoy, masxaraboz...
Tiribi *(oshiq tashlab)*
Suyagingni chumolilar aylasin pardoz.
Eshitdimki, sen emishsan imonsiz so‘tak,
Mijozingga yoqar emish begona erkak.
Nardella
Erim bor-ku.
Tiribi
Nega endi gap chuvatasan,
Ering qurchoq —
har maqomda jilpanglatasan.
Marsio *(chap eshikni sekin ochib)*
Ruxsat eting!

(kiradi)

Nardella *(xursand)*
O, Marsio, aziz hamshahrim,
Ko‘p xursandman...
Tiribi
Xush kelibsiz, mirzoyi pirim.
Marsio
Meni qabul qilmoqchiydi qiblagoh qirol.

Tiribi
Janob hozir kapellada.
Marsio
Kutgayman, alhol.
(o'tiradi)
Tiribi
Oh, g'ijjakning ovozi soz.
Nardella
Eshit yaxshiroq.

(Eshiklarni ochadi,
musiqa ovozi aniqroq eshitila boshlaydi.)

Marsio *(hayratda)*
Organmi bu?
Xaynburgda yangilik mutloq!
Nardella
Pannoniyadan keltirilgan...
Xullas, bari soz.
Malikamiz himmatidan saroy qo'shiqboz.
Marsio
Shundoq bizning qirolicha.
Nardella *(tantanavor)*
O'zimga rahmat!
Marsio
O'zing uni ulg'aytirgan, chekkansan zahmat.
Nardella *(hanuz tantanavor)*
Ko'kragimni olganlari esimda hamon,
Aylansami chaqaloqqa malika shu on.
Tiribi
Va sen qayta emchak bersang.
Marsio *(Tiribiga)*
Opqochasan-a,
Qanday yangi gaplar bor,
Xo'sh, so'yla rosmana?!
Tiribi *(oshiq tashlab)*

Hammasi ham oldi-qochdi.
Marsio *(oshiqni ko'rsatib)*
Ko'rib turibman.
Tiribi
Avstriyani quvladik va Xaynburg sarson.
Marsio *(qo'l siltab)*
Senga aytsam, bekor yurib gap sotish oson.
Tiribi
Darvozasin ochsa Vena — bizniki zafar.
Marsio
Eh, Venani qo'yib turgin, u koni xatar.
Tiribi
Qirolimiz masalani hal qilar beshak,
Sen azamat jangchilarni ko'rmabsan, demak.
Yo'qsa hozir boyqush kabi taqillamasding,
Olib bo'lmas Venani deb vaqillamasding.
Aytib qo'yay hozir senga, bo'lay har nima,
Xaynburgda tursak hamki, bir qadam Vena.
Marsio
Xo'sh, qirolning kayfi qalay?
Bilarsan sirin.
Tiribi
Qirolimning kayfiyati sirkadek shirin...
Marsio *(tashvishlanib)*
Yo'g'-e, yo'g'-e, ko'p oshirma.
Tiribi
Azizim, mana.
Gap olmoqchi bo'layapsiz mendan rosmana.
Nardella
Nimani ham bilarding sen!
Tiribi
Orbanni ko'rdim.
Marsio
Yepiskop Derskiyni-ya?
Tiribi
Xazinador, u bilan men suhbat ham qurdim.

Gap shundaki, senga bugun chaqa ham tegmas,
Askarlar ham moyanasiz qolibdi, xullas.

(Marsio boshini chayqaydi.)

Modomiki, ahvoling voy, cho'ntak qup-quruq...
Demak, har xil suhbatlarning hojati ham yo'q.

Marsio

Meni qabul qilmoqchiydi qiblagoh qirol.

Tiribi

(ogohlantirib)

Gap ortiqcha!

(Marsio jim qoladi.
Xos kiyimda muhrli noma ko'targan holda Peter kirib keladi.)

Peter

(Tiribi va Galeottolarga bosh irg'ab,
Nardellani ko'rib to'xtaydi.)

Tiribi

Qiblagohga salom uchun kelding, hoynahoy?

Peter

(Tasdiqlab bosh irg'aydi.)

Nardella

Musiqani tinglash bilan band, sohib, saroy,

Peter *(ikkilanib turadi)*

Keyinroq bir xabar olgin.

Tiribi

Senga baribir...
Jim o'tirib kuta bergin, soqovsan, axir,
Suhbatlashar kelib qolgach qirolning o'zi.

Peter

(bosh chayqab qo'lidagi
nomani stolga qo'yishini anglatadi.)

Nardella

Bilasan-ku bu safar ham odatdagidek,

Stolga qo'y, to ilg'asin qirolning ko'zi.

Peter

(hammasini aytilgandek bajarib,
Marsio, Tiribi va Nardellaga ta'zim qilib,
chiqib ketadi.)

Marsio

Bu garang kim?
U dunyodan kelganga o'xshar!

Nardella

U — Agardi Peter!

Tiribi

Ya'ni Matyashga askar,
Soqov Peter!
To'g'rirog'i, soqov bahodir.

Marsio

Bu — o'shami?

Tiribi

Xuddi o'zi!

Marsio

Italiyadan
Soqov bo'lib qaytgan ritsar,
demak, o'shadir?!

Tiribi

Xuddi o'zi deyapman-ku, doston har ishi,
Har ishini doston qilgan — qaytmas qilichi.

Marsio

Mo'jizalar ko'rsatgan u soqov holida...

Tiribi

Tig' dovrug'i she'r, qo'shiqdan baland hamisha.

Marsio

Nahot sho'rlik to o'lguncha soqov qolsa-ya!

Tiribi

Kim bilar, u — italyancha kasal bo'lsa-ya.

(irg'ib turadi)

Oh, Nardella, ichib kelay biror qultum may.

Nardella
Mayxo‘r zoti turarmikan bir lahza ichmay.

(Tiribi kiradi.)

Tiribi
Uzum shaffof, sharobi-chi, undan yaxshiroq,
May ichishga tayyorman men, Marsio, o‘rtoq.
Marsio
Xudo seni yorlaqasin.

(Tiribi ketadi.)

Nardella
Ichar o‘tirib,
Qirolicha major emas, o‘zga millatdan
Deyishgacha borib yetgan bular quturib.
Marsio
Hay, qo‘ya qol bu gaplarni, jonim enagam,
Qirollardan so‘z yuritmoq bizlarning ishmas.
Siyosatda boyonlarning o‘zlari hakam.

(ehtiyotkor)

Boshqa gap bor ikkalamiz so‘zlashsak agar.
Nardella *(qiziqib)*
Qanaqa gap?
Marsio
Malikadan o‘zing boxabar enagasan,
U ham seni yomon ko‘rmaydi.
Nardella
To‘ppa-to‘g‘ri, garchi biroz befarq malikam,
Lekin mendan yuz burganmas, illo burmaydi.
Marsio
Shu kunlarda mehmon keldi Italiyadan,

(boshqa ohangda)

O‘zing, axir, italyansan...
Nardella
Beshubha, chindan!

Marsio
Esa gala majorlarning orasida biz,
Bir yurtdoshga yordam bersak savob bo‘ladi.
Nardella
Xo‘sh, nima ish qilay, aytgin?
Marsio
(uzukni olib)
Mana buni ol,
Sovg‘a hali mo‘l bo‘ladi, kelmasin malol.
Nardella *(uzukni taqib)*
Nechun buncha mulozamat?
Marsio
Rimdan mehmon bor.
Ayol kishi, hurmatini qilmog‘ing darkor.
Nardella
Qandoq hurmat? Tushunmadim?!
Marsio
Xullasi kalom,
Malikaga ro‘baro‘ qil uni, vassalom!
Nardella
Biror huquq yo imtiyoz tufaylimi, yo...
Marsio
Sen cho‘chima!
Kerak emas imtiyoz aslo,
O‘zim borman, qolgan ishga men o‘zim peshkash.
U ayolni sen bilmaysan, u juda dilkash,
Yarim dunyo bojin berar u ayol uchun,
Undan maktub olasan va topshirasan so‘ng.
Malikaga esa bugun uchrashtirmoq shart.
Nardella *(hayajonda)*
Hammasini bajaraman, kelsin, unga ayt!
Faqatgina tezroq, tezroq!
Marsio
(nozik tabassum bilan)
Shu yerdadir u,
To‘g‘rirog‘i, o‘ng tomonda, xiyobon yoqda,

Xos ma'buda haykalining qoshidadir u.
Nardella
Qimmat haykal!
Marsio
Joriyalar bilan bechora
G'ussa chekib, Xudoyimdan so'raydi chora.
Nardella
Sho'ri qursin, oh, mushtipar italyan ayol.
Marsio
Bilasanmi, eng yaxshisi, o'zing bora qol
Va toskancha lahja bilan ko'tar ko'nglini.
Nardella *(borayotib)*
Nima deb gap boshlayin, xo'sh, ko'rganda uni?
Marsio
Sal keyinroq yana qayta kelaman, deb ayt.
Nardella
Mayli, ketdim!
Ammo-lekin o'rningdan jilma,
Bu ishlarga burun tiqib, fikrimni bo'lma!

Nardella chiqadi. Jimlik. Marsio eshik tomon borib musiqa tinglaydi, eshikni ochadi, o'ngga burilib, birdan ta'zim bilan qotib turadi. Matyash va Beatriche kuzatuvchilarsiz kirib keladi.

Beatriche *(erkalanib)*
Yoqdimi, xo'sh, hamyurtlarim san'ati qalay?
Matyash *(sertakalluf)*
Nihoyatda jozibador, rostini aytay.
Sen sababkor — yashnab ketdi Xaynburg qasri.
Yuraklarni qisadigan tund edi asli!
Beatriche
Endi esa ko'ryapsanmi?..
Matyash
Boshqacha mutloq,
Qon to'kilgan maydonlarda chechaklar porloq,
(Marsioga ko'zi tushib)
Marsio ham shu yerda-ku?

Hoy Galeotto!
Marsio *(oldinga chiqib, ta'zim qiladi)*
Meni qabul qilmoqchiydi qiblagoh qirol.

(Beatrichega ta'zim qiladi)

Va qirolicha!
Beatriche *(xurram)*
Xursandman g'oyat.
Matyash
Qanday qabul?

(kulib)

Bo'shab qolgan chiqar hamyoning!
Marsio *(ma'yus)*
Mehmon bo'lib kelgan edim.
O'tdi qancha vaqt.
Kutayotir Ferrarida xotinim, qizim.
Italiya tomon ketay, bersangiz izn.
Matyash
Har bir ishning fursati bor, sabr qil biroz.
Marsio
Davlatpanoh!
Matyash *(nomani o'qib, chetga uloqtiradi)*
Bilib qo'ygin, sen Budaga borasan darhol,
Boshimizda esayotir yoqimsiz shamol.
Papa faqat pul cho'z deydi, xo'sh, pul qayoqda?
Xudoyimning o'zi nazar solsin biz yoqqa!
Soliq tushmas, boj tushmaydi, xazina bo'm-bo'sh,
Qiroliga pul berishga hech kimda yo'q xush,
Mana, hozir keltirmishdi Agardi xabar,
Cho'ntagida bir chaqa yo'q, norozi askar.
Hatto otga beray desak yemish, xo'rak yo'q,
Nomimiz ko'p ulug' erur, supra-chi quruq.
Xazinangda pul bo'lmasa, urush urushmas,
Har qadamda bitta g'alva, ishing yurishmas.
Va'da berdim biroq senga, aziz Marsio,
Ora yo'lda qoldirmasman.

Beatriche *(tabassum bilan)*
Qolmassan, aslo.
O'z haqingni olajaksan Budada beshak,
Qirol seni aldamaydi, xizmating yuksak.
Matyash
Parvardigor, o'zi bizga marhamat qilgay!
Marsio *(ta'zimda)*
Oh, shundoq bo'lgay.
Matyash
Omon-eson to Budaga bormog'ing uchun
Karvon bilan qo'riqchilar berilar senga,
Soqov Peter shaylar seni, buyurdim unga!
Marsio
Sizga o'zi panoh bo'lsin Qodiri G'affor.
Beatriche
Senga esa oq yo'l bersin.
Marsio

Ta'zim qiladi. Pauza. Beatriche uning izidan tund qarab qoladi. Matyash Beatricheni kuzatib turadi.

Matyash *(xo'rsinib)*
Sho'rlik Marsio...

(Beatriche tetiklashadi)

Jining suymas, bilaman.
Beatriche
Yurtdoshlarim orasida yagona o'sha
Tinch boshimga solib yurar turli xarxasha.
Matyash
Nahot senga g'anim bo'lsa?
Beatriche
Ochiq-oydin gap.
Shahzodaning asabini yuradi qayrab.
Matyash
U boshqa gap!
O'g'lim Yanosh insofli, toza!
Bordir unda istiqbolga loyiq andoza.

Beatriche
Sening o‘g‘ling!
Qirolicha tug‘magan lekin.
Matyash *(faylasuflarcha)*
Eng muhimi — otasi men!
Etganman bunyod.
Yolg‘iz o‘g‘lim!
Merosxo‘rim, yagona zuryod.
Bo‘lak kimga qolar edi Italiya taxti?
Chor atrofda fikri buzuq, ochko‘z boyonlar
Bamisoli xira pashsha, o‘tkazar umrin,
Tagi-zoti g‘ar, buzuqi, noma’lum jonlar.
Xo‘sh, o‘zingning otang-chi,
xo‘sh, o‘zingning otang?
Alfonsning zotdor o‘g‘li, o‘ynashdan bo‘lgan,
U ham qancha harom farzand yasab ulgurgan.
Demoqchiman,
Yanoshni siz yuzimga solmang,
Ishtoni yo‘q boshqalardan kulsa yaxshimas.
Beatriche
Xaynburgni zulmat qoplab kelmoqda tag‘in,
Baxtsizman, oh, sochmoqdasan qahr-g‘azabing.
Matyash *(yumshab)*
Unday dema, bir lov etib so‘ngra o‘chaman,
Sening dilbar xayolingga tag‘in ko‘chaman.
Eng yaxshisi, gaplashmaylik bu haqda, jonim,
Engash menga.
Beatriche *(jilmayib engashadi)*
Qulluq, qirolim.
Matyash *(peshonasidan o‘padi)*
Hukm sursin osoyishtalik.

(Ichkaridan Nardella chiqadi.)

Kim ekan u?
Enagami?
Xo‘sh, nima kerak?

Nardella *(kalovlanib)*
Hazrat...
Beatriche
Nega kelding?
Nardella
Nima edi... Haligi... ha.
Beatriche
Shoshmasdan gapir!
Matyash
Qopqondagi tulki kabi dumingni burma,
Nega kelding?
Eshitaylik!
Aytib ber, axir!
Germanmi,
Turk — qaysi biri jo'natdi seni?
Nardella
Yo'q, yo'q!
Hech kim jo'natganmas,
men o'zim keldim!
Matyash
Muroding ne?
Nardella
Qabulingda musofir ayol,
Hasratini so'ylamoqchi, himmat qila qol!
Beatriche
Erta kelsin!
Matyash
Nega endi qarab turibsan?
Nardella
Bir zarurat tufayli u sarson bo'libdi,
Qabul qilgin, atayin u Rimdan kelibdi.
Beatriche *(qiziqib)*
Rimdan?
Balki, italyandir?
Matyash
Maqsadi nima?

Nardella
Malikamiz izidan u bechoragina
Otlanibdi Nojon tomon Budadan chiqib,
Va axiyri Xaynburgga kelibdi yetib,
Yonida bor qo'riqchisi, joriyalari,
Ko'p xatarli yo'llar oshib, kelmish siz sari.
Rahm qiling, qo'llaganni, axir, qo'llapti,
Pir hazratim sizga undan maktub yo'llapti.
Beatriche
Bizni g'oyat quvontirar bundayin maktub.
Matyash
Uni ayol keltirgani faqat nomatlub.
Modomiki, sen xohlaysan.
Beatriche
Rimdan kelibdi,
To'xtamasdan, biz tomonga atay yelibdi.
Aytgin, kirsin!

(Nardellaga)
(tantanavor)

Italiya, senda erur doim xayolim,
Sening moviy ko'rfazlaring tushda ko'rarman.
Sog'inch bilan, umid bilan so'nar majolim,
Vatanim, deb sening uchun yoshlar to'karman.
Mening sog'inch gullarimni dengizlar mavji
Eltsin endi u qadrdon diyorga, hayhot.
Neapolda qirolicha edim, endi-chi,
Qaytolmasman,
ayri tushdim yurtdan umrbod.
Matyash
Qirolicha erursan-ku Majoristonda,
Bordir, axir, buning ham sal ahamiyati.

(Seliya kirib ta'zim qiladi.)

Matyash
Beriroq kel, beriroq kel, muhtarama zot.

Beatriche
Italyanmisan?
Seliya
Siz singari, xonim.
Beatriche
Dadil, jasur so'zlarkansan — menga yoqadi.
Sen begona emas menga.
Matyash
Kimsan sen o'zi?
Seliya
Sizga some, ismim esa Seliya erur.
Qarshingizda tiz cho'kishdan hayiqmagayman.
O'tinchim bor oddiygina, aniq, jo'ngina,
Hazratimning maktubini bermoqqa shayman.

(ta'zim bilan nomani uzatadi.)

Matyash
Pir hazratim elchini ham topibdi o'zi.
Seliya
Ushbu noma — kaminaning yo'lchi yulduzi.
Beatriche
Tashvishlanma, kimki o'psa hazrat qo'lini,
Gullar bilan bezagayman uning yo'lini.

(Nomani ochib o'qiydi, jimlik!
Noma tizzasiga tushadi.)

Voy, Xudoyim!
Matyash
Nima bo'ldi? Senga ne bo'ldi?

(Beatriche javob bermaydi.)

Rangingda rang qolmadi-ku, yashirma, ne sir?
Beatriche

(o'ziga kelib)

Eng bebaho maktubdir bu!
Nomayi baxtdir!

Matyash
Nimalarni yozmish papa?
Beatriche *(baxtiyor, entikib, nomani uzatadi)*
Aniq mo'jiza!

(Jimlik. Matyash nomani o'qiydi.
Seliya bosh egib ularni kuzatadi.)

Matyash *(to'ng'illab)*
Senmisan shu?
Seliya *(qat'iy)*
Ha!
Matyash *(qat'iy)*
Boshing ketar, qo'rqmaysanmi?
Seliya *(beparvo)*
Davolayman!
Qo'rquvim yo'q shu sababdan ham.
Menga eski tanish erur Peter Agardi.
Dargohimda mehmonim ham bo'lgandi bir dam,
Meni ham tinch qo'ymayotir ritsarning dardi.
Bir jasorat his qildim-u o'zimdan o'zim,
Davolayman deya keldim, shul erur so'zim.
Matyash *(masxaraomuz)*
Sen-a? Sen-a? Davolaysan?
Seliya
Davolayman, ha!
Matyash
Bilib qo'ygin, yuzlab tabib bo'ldi sharmanda!
Seliya *(xotirjam jilmayib)*
Men olgumdir soqovlikning mash'um tamg'asin.
Matyash
Boshqalar ham shunday degan.
Seliya
Bilmam boshqasin!
Gap shundaki, men ulardan ko'ra qobilroq!
Beatriche
Axir, uni jo'natibdi papaning o'zi,

U alkimyogar emas, axir!
Ko‘zboylog‘ich ham emas.
Imoni bor banda ekan, rost bo‘lsa so‘zi,
Karomatin zohir etsa, sira ajabmas.
Matyash
Karomatchi bo‘lsang agar — madadkoring kim
Va o‘zing kim?
Seliya
Menmi? Ayol!
Matyash
Bor-yo‘g‘i shumi?

(masxaraomuz)

Ayollarning puch gaplari orasida, rost,
Yolg‘iz bir so‘z haqqoniydir: “ayolman”, deding.
Qanday go‘zal kalomdir bu!
Etgumdir e’zoz!

• *(unga qaraydi.)*

Seliya *(noz bilan)*
Nima derdim!
Kafillikka yetadi shu ham!
Matyash
Bekinmachoq o‘ynayapsan — g‘azabim yomon!
Seliya
Men qo‘rqmayman!
Matyash
Seni kutar jallod boltasi,
Laqillatgan erkak bo‘lsa — dordir jazosi.
Hech qanday shart kerak emas, tovlamachilar
Sarkardani laqillatdi!
Firibgar ular.
Undaylarga toqatim yo‘q mening hech qachon,
Jazosini berajakman, qat’iy beomon.
Yetar endi, chidab keldi ritsar bariga,
Tabiblarning ko‘p bema’ni qiynoqlariga.

Azoblarga bermam endi bahodirimni,
Har bir ishga ham mohir-u ham qodirimni.
Kim davolab uddasidan chiqmasa agar
So'zim bitta: qatl etilar unday firibgar!
Uqdingmi?

Seliya

Ha!

Beatriche

Uringandi ba'zi soxtakor,
Hammasi ham eplayolmay chekindi nochor.

Matyash

Tirik qolay desang, bil'aks, gap indallosi,
Yigirma besh ming tillodir — boshing bahosi.

Seliya

Tonmagayman!

Beatriche

Xotirjamsan, qoyilman!

Matyash

Biroq
Shunday go'zal boshdan judo bo'lish xunukroq.
Ayagayman na muhabbat, na baxtingizni,
Ritsarga ham aytdim buni, gapimga yo'q shak,
Uddasidan chiqolmasang — o'lasan beshak!

Seliya

Chaqir, Soqov Peterni tez, muhtaram qirol!

Beatriche *(tantanavor)*

Sen italyansan, shundoqmi?

Seliya *(ta'zim qilib)*

Qulluq!

Matyash *(qo'ng'iroq chaladi, Seliyaga)*

Omadingni bersin-da, o'jar.

Seliya

Bir so'rovim bor!

Matyash

Nima edi?

(xizmatkor kirib, eshikda to'xtaydi)

Mayli, keyinroq.

(xizmatkorga)

Qirolicha chorladi de, ritsar Agardi
Kirsin bu yon.

(xizmatkor ta'zim bilan chiqadi)

Beatriche *(Seliyaga)*
Dilingda hech darding bormi, yaqinroq kel, ayt.
Seliya
Bor!
Matyash
Xavotirdasan?
Seliya
Tabiblarning samarasiz ishidan keyin,
Agardining ishonishi menga ham qiyin.
Matyash
Ammo azal tanishing u?
Seliya
Hamma gap shunda,
Qaysarligi tutmasa deb qo'rqaman juda.
Beatriche
Nega endi?
Seliya *(yolg'on aytadi)*
Mening boshim asramoq bo'lib,
Haydab solar, balki, tanib, g'azabga to'lib.
Matyash
Jodularing o'tmaydimi?
Seliya
Faqat ikkingiz
Menga madad bermoqlikka yetar kuchingiz.
Unga meni yoshi qaytgan, kampir deb ayting,
Rim papasi qasamingni bekor qilmoqqa
Senga atay jo'natgan bir tabib deb ayting.
Matyash *(sovuqqon)*
Majoriston qiroliman, masxarabozmas!
Rim shaytoni!

Laqillatmoq bo‘lasan abas!

Beatriche

Aziz qirol, jahl qilma, shaytonga ber hay,
Axir, uni hazrat papa jo‘natgan atay.

Seliya *(tezgina)*

U maktub ham bergan mendan.

Matyash *(gapni bo‘lib)*

Qirolicha nima derkin?

Beatriche

Roziman shoyon!
Balki, Peter hayotingni tilab ham olar!

Matyash *(Seliyaga)*

Yo‘q, mutlaqo!
Umring garov!
Gap kuchda qolar!

Seliya

Tashakkurlar bo‘lsin sizga, shonli hukmdor!

(xizmatkor kiradi.)

Xizmatkor

Ostonada hozir bo‘ldi Agardi — ritsar!

Matyash

Olib kiring!

(Seliyaga)

Sen darparda orqasida tur.

(Xizmatkor ketadi. Seliya parda orqasiga o‘tadi. Peter kiradi.)

O, shavkatli ritsarimsan, Agardi Peter,
Qirolicha taklif etgan seni bu yerga.

Beatriche

Kelmish bizga Xudoyimning o‘zidan payg‘om,
Tilga kirgay, inshoollo,
soqov batamom!

(qisqa jimlikdan so‘ng)

Tashrif etdi, xullas kalom, eng mashhur olim.

Peter

(Hayrat ichra bezovtalanadi.
Baribir foydasi yo'q-ku, deganday boshini egadi.)

Beatriche *(yupatib)*

Nokaslar ham kelgan edi, bu bizga ma'lum,
Bunisi ham o'shalardan biri dersan-da.

(Peter jilmayadi.)

Beatriche

Yo'q, bu boshqa!
Rim papasi jo'natmish maxsus,
U haqiqiy olim ekan, davolar, shaksiz.
U shu yerda, ritsar, endi xursand bo'la ber.

(Peter jilmayadi.)

Beatriche

Faqatgina jilmayasan, sinov, qiynoqqa
Yana bir bor chidaysan-da, Agardi Peter!

(Peter yo'q deganday bosh chayqaydi.)

Beatriche

O'tinib men so'rasam-chi...
Iltimos qilsak...

(qirolga qaraydi.)

Matyash

Ha, iltimos, umidvormiz bu safar g'oyat.

Beatriche

Xo'p deya qol, so'zim yerda qolmasa shoyad!

(Peter bu gaplar nimaga kerak,
deganday ishora qiladi.)

Beatriche

O'z-o'zingni bunchalar ham qiynama, ritsar,
O'ylaymanki, boshqalardan bu tabib behtar.

(Peter sal-pal yumshaydi.)

Beatriche

Ne bo'lsa ham rozi bo'lgum, etmagil parvo.

(Peter rozilik bildirib, ta'zim qiladi.)

Beatriche *(shoshib)*

Rahmat senga!

Matyash

Men ham xursand, ayni muddao!
Quloq solgin gaplarimga, azizim, ritsar,
Agar davo topolmasa o'sha jodugar,
O'z qo'lingga topshirgayman, o'zing bilgaysan.
Ya'ni loyiq jazosini o'zing bergaysan.

(Peter fig'oni chiqadi.)

Beatriche

Fursat yetdi, farmoningni e'lon et, qirol!

(Matyash chapak chaladi, xizmatkorlar kiradilar.)

Matyash *(xizmatkorga pardani surishni buyuradi)*

Shifokorni chaqir, qani!

Beatriche *(yukinib)*

Parvardigorim,
Rahm qilg'il, kushoyishin o'zing bera qol!

(Hamma sukut ichra kutadi.)

Seliya zinadan tushib keladi, Peterga sekin yaqinlashadi. Peter Seliyaga hayrat bilan boqadi, dastlab uni tanimaydi.

Seliya *(unga yaqin kelib)*

Unutganing yo'qmi meni, bahodir yigit?

(Peter hayajonda, jimlikdan so'ng ta'zim qiladi.)

Beatriche *(ibodat qilib)*

O'zing qo'lla, iloyim!

(Matyashga tikiladi.)

Matyash *(yupatib)*

Qaltirama, o'zingni tut, og'irroq bo'lgin!

(Peter Matyash va Beatrichega, Seliya bu yerga qanday qilib kelib qoldi, degan ma'noda qaraydi.)

Matyash *(Peterga)*

Nega endi hayron bo'lib qarab turibsan?
Bilib qo'ygin, tush emas — o'ng, neki ko'ribsan.

Xaloskoring aytmoqdaki, tanish emishsiz,
Tilga solib yuborarmish u seni so'zsiz!

(Seliyaga qaraydi, u bosh irg'ab, jilmayadi.)

Beatriche
Biz sen uchun duo qilib turaylik, ritsar,
Tabib esa o'z ishiga kirishsin.
Matyash
Mard bo'l!

(Peter tasdiqlaydi. Matyash va Beatriche duoga ibodat qila boshlaydilar, Seliya qimtingan holda Peterga yaqinlashadi.)

Seliya
Yer yuziga dong'i ketgan shonli Agardi,
Sen tufayli olis yo'lga otlandim, bilsang,
Yo'l azobin yengib keldim, o'zingga endi
Bir mahallar aytgan so'zing qaytarib bersam...

(Peter titrab ketadi.)

Neapolning xos elchisi bu yerda bo'lmish,
Do'st orttirib, sizlar bilan o'ynamish, kulmish.
Sening shonli ishlaringni doston etmish u,
Shonli ritsar, senga atab she'rlar bitmish u.
Ammo bir sir sirligicha qolmish dostonda,
Chunki sening darding faqat menga ayon-da!
Bir yil sobit, un chiqarmay, sukut saqlabsan.
Demak, bergan o'z so'zingni shoyon yoqlabsan!
Lablaringga bosgan muhrim etgayman bekor,
So'zla, kuyla, baqir-chaqir, senda ixtiyor.

(Peter jim turadi.)

Seliya *(shoshib)*
Nega endi jim turibsan?
Uqmadingmi yo?
Qatag'onni bekor qildim!
Had yo'q mutlaqo!
Gapira ber!

Tilga kirgin!
Qasamni unut!

(kutadi)

(Peter jim turadi.)

Seliya *(bezovta bo'lib)*
Vo ajabo!
Nima bo'ldi?
Bu nima sukut?
Tiling soqov, quloqlaring chindan ham karmi?
O'z tovushing o'zingga ham yoqmas, battarmi?

(Jimlik. Matyash va Beatriche bu holni bezovta kuzatadi. Matyash gapirmoqchi bo'ladi, ammo Beatriche ro'yixush bermaydi.)

Seliya *(ortiqcha betoqatlanib)*
Nechun jimsan?

(Peter jim turadi.)

Seliya *(Matyash va Beatrichega xavotirli qarab)*
O'z-o'zingni qiynama bekor.
Tanbeh bo'ldi o'tgan gaplar!
Unutmoq dushvor,
Qaltis bo'ldi o'yinimiz, ko'p qaltis hazil,
O'tinaman, unut endi, endi unutgil.
O'zim kelib turibman-ku qoshingga, axir,
Tavba bilan tazarruga bo'lganman asir.
Yo'q avvalgi o'jarligim, yutqazdim tugal,
Olib qo'ygum lablaringdan muhrni bu gal.
Gapira qol!
Tilga kirgil!
O'jarlikdan qayt!
Hech bo'lmasa, "afv etaman" degan so'zni ayt!
So'zla, axir!
Peter *(jim)*

(Matyash o'rnidan turib ketadi,

Beatriche uni tinchlantiradi.)

Seliya
Yolboraman, biror nima de!

(Peter yo'q deganday bosh chayqaydi.)

Seliya
Yolborishim behudami?
Gapirmaysanmi?
Bilib qo'ygin, irodangga bog'liqman to'liq.

(Qattiq hayajonda Matyash va Beatrichega qaraydi. Peter qo'llarini ko'ksida chalishitirgancha tund, qat'iy turaveradi.)

Matyash *(Seliyaga sovuqqon)*
Tongdan buyon kutmoqdaman!
Chiqmas ovozi!
Angladimki, yaxshi emas bardoshning ozi.
Seliya *(noqulay ahvolda)*
Yana birpas, shafqatpanoh!
Matyash
Tez bo'l deyman!
Laqillatma, bas.
Beatriche

(Seliyaga qo'rquv bilan)

Nahot, tamom!
Chora topilmas?
Seliya
Yo'q, undoqmas, qirolicha!

(Peterga)

To'g'rimi gapim?!

(Peter javob bermaydi.)

Seliya *(Beatrichega)*
Ritsar bilan men yuzma-yuz kelganim mahal,
Rostin aytsam, yo'qotgandim o'zni dastavval.
Mana endi, qo'rquv o'tdi, keldim o'zimga,

Uni tilga solish yo‘lin... topdim... esimda...
Matyash
Uddasidan chiqolmasang...
Seliya
Muhlat so‘rayman!
Matyash
Qancha?
Seliya *(mavhum)*
Umidvorman sabr-toqat yor bo‘lsa agar,
Tonggi shafaq yongunicha so‘zlar muqarrar.
Matyash
Bir kun fursat so‘raganding, tugadi muhlat,
Ritsar bo‘lsa o‘sha-o‘sha, o‘tayotir vaqt.
Seliya
...Yana sal-pal...
Beatriche
Sahargacha chidagin, Matyash!

(Seliyaga)

Yulduzlarga qaradingmi, burjlar qanaqa?
Yaxshilikmi, yomonlikmi aytar samovot?
Tun og‘ganda yulduzlarning o‘rni ham boshqa,
Shul sababdan, vaqt o‘tmasin, bo‘lgil ehtiyot...
Seliya *(fikr qilib, dadillashadi)*
Esim qursin, qay jin urib, faromush qoldim,
Chalkashtirib yuboribman shifo usulin,
Ruxsat ayla, o‘tinaman, aziz qirolim,
Qo‘llab ko‘ray davolashning eng asil yo‘lin;
Ko‘rinmasin kunduz-u tun, hattoki osmon,
Sukunatda davolayman, bo‘lsin tinch har yon.
O‘tinaman, ruxsat bergin...
Beatriche *(yolborib)*
Matyash, qirolim!
Matyash *(Peterga)*
Rozimisan uning g‘alat sinovlariga?

(Peter o‘ylab turib, rozilik bildiradi.)

Seliya

(xursand)

Oh!

Matyash *(Seliyaga)*

Sen aytgancha bo'la qolsin.

(Beatricheni ko'rsatib)

Bular tufayli tun seniki!

Seliya *(ta'zim qiladi)*

Qulluq, qirol!

(Peterga)

Senga ham qulluq!
Yarim kecha meni kutgil.

(Peter Matyash va Beatrichega ta'zim qiladi.)

Matyash *(Seliyaga)*

Unutma biroq,
Sehr-u jodung ish bermasa, oqibat agar
Tilga kelmas ekan endi shavkatli ritsar,
Bilib qo'ygin, o'zing uchun go'r qazarsan sen,
Afv yo'qdir, mahv bo'larsan, yutqazarsan sen.
Men — majorlar hukmdori, zotman beshafqat,

(Peterni ko'rsatib)

Tilga kirg'iz yoki tildan qolgaysan abad!

Parda

Beshinchi ko'rinish

Xaynburg qasri, Peter huzurida. Hovli. To'rda devor. Devorda tuynukli minoralar. Ulkan darvoza ko'rinib turibdi. Devor bo'ylab gullar, maysalar o'sgan. Bibi Maryam haykali oldida shamlar miltirab turibdi. Nariroqda kattakon tosh quduq. Chap tomonda tuynukka olib chiqadigan zinalar. Sahna qorong'ilashgach, faqat mi-

nora ichi yallig'lanib, goh-goh fonar va mash'allar ko'rinib qoladi. Yulduzli osmon. Keyinroq oy ko'tariladi. Sahna kimsasiz. Keyin darvoza orqasidan ovozlar eshitiladi. Seliya, Monna Mea, Janetta, Karlotta va Beppo chiqadilar. Seliya Bibi Maryam haykaliga yaqinlashib hayajon bilan yukina boshlaydi. Boshqalar hayajonda.

Beppo *(fonar tutib)*
Tez, bu yoqqa!
Karlotta
Voy Xudoyim, bu qanaqa joy!
Qandoq yurt bu?!
O'lib ketsak kerak, hoynahoy!
Monna Mea
Balchiqmi bu, nima balo?!

(og'riqdan qichqiradi)

Botdim-ku qonga.
Janetta
Egnim yupqa, tun sovug'i azobdir jonga.
Beppo
Italiya iliqroqdir, seviklim, biroq,
Bizni uncha isitmadi uning quyoshi.
Monna Mea
Qop-qorong'i, zulmat bunda...
Janetta
Darvoza, ravoq...
O'lay dedim, boshmidir bu yo soyning toshi.
Karlotta
Xo'jayining qayda o'zi?
Beppo
Qayerda?

(fonarni baland ko'tarib)

Qara!
Karlotta
Ko'ryapman, ko'ryapman!
Juda ajoyib!

Beppo
Garchand uning manzilgohi emasdir sara,
Lekin uning o'ziga mos, jimjit, g'aroyib.
Uyingizda tildan qolib bo'lgandi soqov.
Monna Mea
Bizlar uni davolashga kelganmiz atay!
Beppo
Yuztalikdan yuzta tanga — sizlarga siylov!
Karlotta
Bizga siylov kerak emas.

(Beppoga)

Hu, battol malay,
Erta-yu kech topinadi xonim serfiroq,
Hammasiga sening o'sha ritsaring sabab.
Janetta
Bas qil, Beppo!
Ana, o'chdi ravoqda chiroq,
Burg'u yangrar, kelayotir kimdir biz taraf.
Karlotta
Voy Xudoyim!
Tinchlikmikan?
Janetta
Burg'u chalindi.
Hoy, Seliya.

(Seliya javob bermaydi.)

Eshitdingmi?
Burg'u ovozi yana yangraydi.
Monna Mea
Ovozi o'chdi!

(Uchinchi bor burg'u ovozi eshitiladi.
Zinani xira fonar yoritadi. Peter paydo bo'ladi.)

Allanechuk bo'lib ketdim!
Nima bu?

Beppo
Burg'u!
Visol payti yetganini e'lon qildi u!
Janetta
Tun ham yarim bo'lib qoldi!
Monna Mea
Yetar, Seliya!
Ibodating tugata qol!
Seliya *(Ibodatni tugatib, Beppoga kibrli qaraydi.)*
Roppa-rosa o'n ikkiga taklif etilgan,
Qani mening ritsarim, xo'sh?
Men keldim!
U-chi?
Beppo *(atrofga alanglab)*
Mana, mana, ma'zur tuting, ritsar ham kelgan!

(Peter avval Seliyaga, keyin boshqa xonimlarga ta'zim qiladi. Boshqalar shivir-shivir qila boshlaydilar.)

Karlotta
O'zgarmabdi!
Janetta
Jindak ozibdi.
Monna Mea
Sochiga oq oralabdi!
Janetta
Rangini ancha oldiribdi.

(Seliyaga)

Ketaveraylikmi?
Monna Mea
Qolaylikmi yo?
Karlotta
Qaysi ma'qul, buyuring, xonim!
Seliya va Peter bir-biriga so'zsiz qarab qoladilar.
Beppo *(ayollarni chetga tortib)*
Qani, ketdik, huv u joyda ajib go'sha bor,

Ko‘zalarda qaynab yotar may ham ko‘p xumor.
Boshlab boray.

(to‘xtab)

Ammo-lekin sizlar uchovlon.

(Gitarasini chalib)

Oh, gitaram, yordam bergin menga, qadrdon.

(Beppo ayollar bilan darvozadan chiqib ketadi. Jimlik. Seliya va Peter bir-biriga qaraydi. Seliya yengil nafas olib, Peterga sho-shib yaqinlashadi.)

Seliya
Yolg‘iz qolib sening bilan endi, xayriyat,
Suhbat qilib olajakman, ushaldi niyat.
Tepamizda miltiragan yulduzli osmon,
Tegramizda savlat to‘kkan haybatli qo‘rg‘on —
Faqat ular gapimizga shohiddir, xolos.
Ikkimizga ayon faqat yurakdagi roz
Va bul gapdan voqif faqat Qodir egamdir,
Qodir egam dargohi keng, tanho hakamdir.
Yuragimni ochay dangal, bo‘layin iqror.
Peter *(bosh irg‘aydi.)*
Seliya *(o‘zini oqlab)*
Men ayolman!
Ayol qalbin tushungil zinhor.
Katta ketdim!
Maqtanchoqlik qildim, rosti gap,
Go‘yoki men qo‘yadigan har qanday talab —
Sening uchun qat’iy qonun bo‘ladiganday
Va boshqalar bundan qoyil qoladiganday,
Endi esa, hammasini anglab turibman,
Menga qattiq saboq bo‘ldi, fahmlab turibman.
Peter *(jim turadi.)*
Seliya *(gapga solib)*
Qorong‘i tun, suhbatimiz birov eshitmas,

Gapira qol!
Tilga kirgil!
Gapira qol, bas!

(chidamay)

Uch yil soqov bo'lurman deb ichganding qasam,
Ikki yili qolmish yana!
O'ylab qarasam,
Yuragingda muhabbatning o'chgandir cho'g'i.
Demak, bundoq ahd-paymonning boridan yo'g'i.
Boshqa birov uchun, axir, soqov bo'lmassan?
Peter *(jilmayadi.)*
Seliya *(tik qarab)*
Ha, o'zingga so'z bergansan, ichgansan qasam!
Soqov sensan, qo'rqqan-chi, men!
Nimadir sabab?
Yengilgana zafar edi mendagi matlab!
Qirolingning tavajjuhin qozonmoq uchun,
Bir harakat qilmoqchiydim, yetgancha kuchim.
Xudbinligim so'ng o'zimni qafasga soldi,
G'olib chiqding — umrim sening qo'lingda qoldi.
O'jar inson, meni buncha qiynamoq nega?
Nega ortiq malomatlar qilursan menga?
Gapni ham qo'y, faqat bir so'z ayta qol shu payt,
Muhabbating izhor ayla, "sevaman" deb ayt!
Voy Xudoyim, uyat ichra lovullar yuzim,
Yo talabing kattaroqmi?
Peter *(bosh irg'aydi.)*
Seliya *(battar g'ulg'ula bilan)*
Bersin-da to'zim!
Meni qatl etishlarin xohlaysanmi yo?
Qizil qonga bo'yalsinmi tongda hamma yoq?
Xudo haqqi, bisyor etma dilda alamni,
Toptamoqqa tayyormisan tongda murdamni?
Lablaringdan, mayli, g'azab so'zlari uchsin,
Quloqlarim ovozingni, lekin eshitsin.
Mayli, yomon so'zlar bilan haqorat qilgil,

Tilga kirsang men yashayman, sen yaxshi bilgil.

(kutadi)

Aytgan o'sha so'zlaringni eslayman hamon:
Vaysamoqdan sukut menga deganding oson.
Ayt-chi, shundoq deganmiding?
Peter *(ma'qullab bosh irg'aydi.)*
Seliya *(ma'yus)*
Esingdami, a?
Peter *(bosh irg'aydi.)*
Seliya
Kulfat, yupanch, xursandchilik, hasrat va gina —
Barchasini unutmasdan yuribsanmi yo?..
Peter *(ma'qullaydi.)*
Seliya *(dili yorishib)*
Mening bo'sam yodingdami?
O'sha bo'sa, o...
Peter *(titrab ketadi.)*
Seliya
Qismatimga to bevalik tushgandan buyon
O'sha bo'sa ilk, birinchi bo'lgandi, ishon.
Bo'sa sharti qimmat bo'ldi, g'avg'osi talay,
Lekin o'pdim jur'at bilan seni, harqalay.
Mening qaynoq o'pichlarim bahosi baland!
Hozir esa iqror bo'lgum chin dilim bilan:
Sendan bo'sa olmoqlikka tayyorman mutloq.

(bir qadam oldinga yuradi.)

Qani, aziz bahodirim, kelgil beriroq!
Bo'sa bilan muhr bosdim labingga bir bor.
Bo'sa bilan endi uni qilgumdir bekor!

(yaqinlashadi.)

Peter *(rad qilib, qo'llarini ko'taradi. Uzoqdan Beppo gitarasining ovozi eshitiladi. Qisqa jimlik.)*
Seliya *(sirli bir holatda Peterga yaqinlashadi.)*
Pyemontda shunday odat bordir azaldan;
Xonadonga kelib qolsa xush ko'rgan mehmon.

Ostonadan o‘pich bilan qarshi olamiz,
O‘pich bilan kuzatamiz xayrlashgan on.
Men uzoqdan keldim bunga, riyozat chekdim,
Qaytib ketgum kelmas bo‘lib tongda, ehtimol.
Har qanday qarz go‘zal erur to‘lovi bilan,
Mening o‘sha o‘pichimni qaytargil darhol.
Peter *(sal ikkilanib turgach, avval sekin, so‘ng qizg‘in bo‘salar oladi.)*
Seliya *(xursand)*
Sevarkansan meni hamon!
Ishqing barhayot,
Quchog‘ingga bosding qattiq, shod, haddan ziyod.
Uvolimga qolma endi, tilga kirsang-chi,
Sevaman, deb hech bo‘lmasa shivirlasang-chi!
So‘zlaringni eshitmasin, hattoki shamol,
Aqalli lab pichirlatib, “sevgum” deya qol.
Qani, aytgil!
Aytgil, qani...
Peter

(o‘ziga kelib,
Seliyani qo‘yib yuboradi va chekinadi.)

Seliya *(dahshat ila)*
Hukmim bekormi?
Gapirishdan bosh tortasan mutlaqo demak?!
Bilmay qoldim, endi nima qilmog‘im kerak.
(quduq boshida, engashib tag‘in)
Parvardigor, o‘zing menga ko‘rsata qol yo‘l,
Ne qilarim bilmay qoldim, ahvolim mushkul.
Qanday talab qo‘ysa hamki mana bu soqov
Bajargumdir hammasini, shubhasiz darrov.
Modomiki bo‘sa unga kamlik qilibdi,
Unga nahot mening boshim kerak bo‘libdi?
Mag‘rur edim, unga talab qo‘ygandim ortiq,
Bugun esa ortiq talab o‘zimga tortiq.

(alam bilan Peterga)

So‘yla, ritsar, bag‘ring nahot shuncha tosh bo‘lsa,
Nahot mehring shuncha qisqa, tez odosh bo‘lsa?
Etganmisan yoki meni o‘limga mahkum?
Peter *(jim turadi.)*
Seliya
Qachon ijro bo‘larkan, deb kutmoqdasan zum?
Peter *(jim turadi.)*
Seliya
Xohlaysanki, boshim kessin jallod beomon,
Sho‘rlik kallam yumalasin tirqiratib qon?

(titrab)

Peter *(jim turadi.)*
Seliya *(yolborib)*
Faqatgina tiling emas — diling ham qotmish,
Sening qalbing shafqat hissin nahot yo‘qotmish?
Yolboraman, rahm aylagil, o‘lib ketmayin,
Oh, iblisday boqasan sen, parvo qilmayin.

(kutadi)

Sening soqov bu holating unutilgan dard,
Sen chorlading va men keldim, qonuniy minba’d.

(alam bilan)

Shafqat qilmay, yerga urding meni va lekin,
Sevganmiding asli meni?

(qo‘l siltab)

Sevmagansan sen!

(Yuzlarini yashiradi,
ammo barmoqlari orasidan Peterni kuzatadi.)

Peter *(Seliya tomonga ikkilanib bir qadam tashlaydi.)*
Seliya *(darhol uning yoniga keladi.)*
Ana endi gapirgaysan!
Shafqatsiz beg‘am,
Neki gunoh qilgan bo‘lsam qoshingda yuvgum.

Muzaffarsan!
G'olib chiqding, Agardi Peter,
Yarim kecha, bajara qol diling nima der!
Bundan bo'lak mukofotim, siylovim bo'lmas.
Nima qilsang qilavergin, senikiman, bas!
Senikidir aqiq lablar, sumbul sochlarim,
Senikidir bari-bari, g'am, quvonchlarim.
Rafiqam bo'l degan eding menga bir zamon,
So'zlaringni pisand qilmay tinglovdim, ishon!
Hozir esa tun seniki va tun ichra men,
Ado etgum so'zsiz, beshak, ne xohlasang sen.
Asiram de, mahbubam de, senda ixtiyor,
Qarg'a, urish — nima desang bo'ysunay zinhor.

(Peterning pinjiga kiradi.)

Peter *(hirs bilan Seliyani quchadi.)*

Seliya *(Bo'saga labini tutadi.)*

Quchgil, o'pa qol!

Peter *(uzoq bo'sa oladi.)*

Seliya

Yana, tag'in!
Aql-u hushdan ketgunimcha o'p,
Muhabbat deb yolborarding!
Endi o'zim zor!

Peter *(birdan tisariladi.)*

Seliya *(qo'rquv bilan unga ergashib)*

Keragi yo'q!
Qo'y gapirma!
O'zim borurman!
Sen hammadan kuchli, g'olib, tengsiz botirsan!
Kel, bo'la qol!
Senikiman!
Yurgil, chiqaylik,
Tungi visol sharobini birga ichaylik.

Peter uni ko'tarib, qasrga chiqib ketadi.

Parda

Oltinchi ko‘rinish

Xaynburgdagi turma. Xonalardan biri. O‘ngda — burchakda temir panjarali eshik. Ichkarida uzun dahliz yo‘lagi. Eshikdan turma xonasiga uch-to‘rt zina olib chiqadi. Sahna to‘rida skameyka, ustida bir juft adyol. Stolda ko‘zacha va qumsoat. O‘ngda, yuqorida temir panjarali tuynuk. Undan quyosh nuri tushib turibdi. Sahnada keksa ruhoniy chol, qarshisida taqdirga tan bergan Seliya bosh egib, tiz cho‘kkancha o‘tiribdi. U sokin. O‘rindiqda Karlotta yuzlarini qo‘li bilan bekitib jim yig‘laydi. Eshikda ruhoniy va uning oldida fonar turibdi.

Ruhoniy
Bovar qilgil, Xudoyimning dargohi katta,
Tavba qilgil, rahm aylagay Tangrim, albatta!
Yod etaylik payg‘ambarning ezgu kalomin,
Xudo o‘zi yorlaqasin seni ham, omin!
Seliya
Oliyjanob so‘zlaringiz eshitgan zamon
Ko‘ngil yumshar: bilaman-ku, lekin, otaxon,
Gunoh kosam lim-lim to‘lgan, bahaqqi Xudo,
Ayon erur dilimdagi o‘zimga, ammo.
Tiriklikning savdosini tugatmoqdaman,
Pokman deya endi o‘zni yupatmoqdaman.
Nazar solsam o‘z qalbimga — kelmas xo‘rligim,
Yo‘qolgandir kibr-u havo, takabburligim.
Necha ming-ming jonzotlarning safida joyim,
Meni ham sen yaratgansan, qodir Xudoyim.
Yolg‘iz senga havoladir ovora bu ruh,
Ont ichaman: jon topshirgum senga beanduh.
Karlotta *(ingrab)*
Shafqat qilgil, Parvardigor!
Seliya
Yetar, yig‘lama,
Qismatimga tan berganman, bag‘rim tig‘lama!
Ruhoniy

Qismat deya to‘g‘ri aytding, oh, ona qizim,
Irodasiz ojizlarga kulfatdir dunyo.
Xo‘sh, kimlarning irodasi ojiz bo‘ladi?
Imonsizda, ha, iroda bo‘lmaydi illo!
Samoga boq, nazar tashla shomgi shafaqqa,
Zamindanmas, samovotdan nur taralmoqda.

Seliya

Ming shukrkim, imonim but, ishoning, hazrat,
O‘limimni qarshi olgum cho‘chimay minba’d.

Karlotta *(iztirobda qo‘llarini qayirib)*

Ammo hayot qanday go‘zal!
Yashash qanday soz!
Yosh, xushro‘ysan, yashnab turar umring sarafroz.

Ruhoniy *(Karlottaga)*

Sen bo‘ldi qil!
O‘rganishib qolgansan bunga,
Shu sababdan anglamaysan gap mohiyatin.
Barchamizning taqdirimiz Tangri izmida,
Hech bir banda rad etolmas uning niyatin.
Yaxshisi, sen jasur, botir bekaching bilan
Vidolashgil, tila unga samodan makon.
Shundoq qilib bu dunyoga xayr degaymiz,
Qutqazadi bizni faqat samovot, osmon.

(Seliyaga)

Bu dunyodan ko‘nglingni uz, sig‘in falakka,
Iltijo qil yo‘l boshlovchi qodir malakka.
Har balodan asraguvchi yolg‘iz Xudodir,
So‘ngra tanho panohimiz hazrat Isodir.

(Ruhoniy ketadi. Zindonbon temir eshikni bekitib, fonarni ko‘tarib chiqadi. Qorong‘ilik!)

Seliya *(sekin kuylaydi, tilovat ohangida)*

Qahr chog‘i, intiho payti,
Mahv bo‘lar hayot daraxti.
Ostonada poylaydi hakam,
Qarab turar o‘lim chinakam.

Sanab turar har o'tgan zumni,
Kimga aytay nochor so'zimni.

(Karlotta ingraydi. Unga qarab Seliya boshqa qo'shiq boshlaydi.)

O'zing qo'lla, Parvardigorim,
Havoladir o'zingga zorim.
Madad bergin so'nggi daqiqa...

(Birdan to'xtab, eshitilayotgan qadam tovushlariga quloq sola boshlaydi.)
(Fonar miltillaydi — zindonbon keladi.)

Kim u?

Karlotta *(yig'lab, hiqillab)*
Kelayotir, ana, zindonbon,
Balki, seni... olib ketadi...

Seliya *(turadi)*
Bo'ldi, umid soatim bitdi,
Umid qilgan fursatim o'tdi,
Janettadan bo'lmadi darak —
Ritsardan gap chiqmagan beshak,
U — g'azabdan quyilgan haykal!

(Turma eshigi ochilib, niqobdor Beatriche va Nardella kiradi.)

Karlotta *(shivirlab)*
Mana, enaga...

(Seliya uni tanib, yengil tortadi.)

Nardella *(Karlottaga)*
Keta qol sen bu yerdan.

Beatriche *(Nardellaga)*
Sen bizni qo'riqlab tur, enaga,
Xabardor bo'l, hech kim kelmasin.

(Ular chiqib ketadi. Beatriche Seliyaga yaqin keladi.)

Beatriche
Senga ishonch bildirgandik qirol ikkimiz.

Seliya
Ha, tonmayman,
lutf etdingiz g‘oyat ikkingiz.
Beatriche
Poymol qilding biroq bizning ishonchni, makkor.
Nahot bizni laqillatding ataylab, beor?
(Seliya bosh egadi.)
Mustahiqsan ana endi oliy jazoga,
Gunohingni so‘rab so‘ng bor yolbor Xudoga.
Seliya
Rozidirman har qandayin malomatingga,
Iltimosim...
Beatriche
Hali shafqat kutasanmi yo?
Seliya
Noil bo‘lay so‘nggi bora sharofatingga.
Katafalkka yotqizingiz, shuldir muddao,
Tiriklarga qilmaydigan marhamatni siz,
Men singari marhumadan darig‘ tutmassiz.
(Qisqa jimlik.)
Beatriche *(maktubni ko‘rsatib)*
Nardella... enaga... xatingni berdi.
Seliya
Naylay, qismat ekan, bo‘lak chora yo‘q.
Beatriche
Yozganlaring yolg‘onmasmi?
Gunohing ortgay.
Seliya
Yolg‘on emas!
Dilda borin yozdim yashirmay!
Beatriche
Bo‘sang uchun so‘z olgansan sukut saqla, deb.
Shundoqmi, xo‘sh?
(Seliya tasdiqlab bosh irg‘aydi.)
Ushbu sirni tag‘in kim bilar?

Seliya
Faqatgina sen...
Go'rga olib ketajakmiz bizlar bu sirni.
Beatriche
Ammo oshkor bo'lgan sirning narxi bir chaqa!
Seliya
Yuragimni ochgim keldi kimgadir, axir,
Soxta g'urur shu'lasidan ko'zlarim so'qir.
Yengaman deb o'ylagandim ritsar, zolimni,
Sen — ayolsan, tushunasan mening holimni.
Beatriche
Qani ayt-chi, biz tomonga shuncha yo'l bosib,
Xatarlarni chetlab o'tib, gohi adashib
Nechun kelding?
Faqat xudbin maqsad uchunmi?
Yo'qmidi hech yuragingda sog'inch, muhabbat?
Erishishmas — yengish uchun keldingmi faqat?

(Qisqa jimlik.)

Qirol juda oliyjanob, bosiq juda ham,
Demoqchiman, xayrixoh u senga chinakam.
Aytdiki u, hakam bo'lgay soqovning o'zi,
Oh-vohlaring eshitsin to qulog'i bilan.
Seliya
Yig'lamasman, oh chekmasman!
Beatriche
Noshukur inson,
Rad etasan har qandayin imkoniyatni,
Aqling bilan ko'rinasan go'yo sovuqqon.
Yashirasan dilingdagi asl niyatni.
Yuragingda muhabbatning o'ti yashirin,
Yig'lamaysan, pinhon saqlab sevgining sirin.
Seliya
Neapolning hashamisan, tanho yulduzi,
Seni menga yo'llamishdir samoning o'zi.
Izn bergan, jon topshiray beg'alva, sokin.

Beatriche *(yumshab)*
Istaymanki, tirik qolgin, yashagin to sen.
Yordam bermoq uchun keldim, axir, atayin,
Qirol ancha yumshab qoldi, senga aytayin.
Mening xalqim shu kunlarda g'oyatda xurram,
Zafar tomon yuz burmishdir qo'shinlar ildam.
Hamma yoqda xursandchilik bo'lgan bir paytda
Mahkum bo'lib turaversang, xunuk, albatta.
Qiroldan men so'rab oldim umring bir yo'la,
Yigirma besh ming tillani tezlikda to'la!
Uqdingmi, xo'sh?
Javobing ayt!
Seliya *(tund)*
Bu kecha men yutqazganman, o'lishim aniq.
Beatriche
O'lish shuncha osonmikan?
Seliya
Nomus ichra qovrilishdan osonroq, balkim.
Baribir ham tirikmasman, suratman faqat,
Chizig'imdan yurmadi hech ritsar beshafqat
Va men o'ldim!
O'zing ayt-chi, dahshatli Layosh,
Bir o'lganni yana qayta o'ldirarmi, xo'sh?
Kechir meni, qirolicha, rozi bo'l mendan.
Beatriche *(ta'sirlanib)*
Men roziman, men roziman, ko'ngling to'q bo'lsin,
Hay, Nardella, bu yoqqa kel...

(Galereyada jonlanish. Beatriche Seliya bilan vidolashadi. Seliya tiz cho'kib, qirolichaning qo'lini o'padi.)

Beatriche *(Seliyani turg'izib peshonasidan o'padi.)*
Alvido!

(Zindonbon eshikni ochadi. Nardella ko'rinadi.)

Nardella
(qirolichaning yelkasi osha Seliyaga shipshiydi)

Zudlik bilan shu xabarni yetkaz dedilar;
Do'stlaringni ritsar hozir qabul qilibdi,
Keltirgaylar do'stlar senga endi xushxabar!

(Seliya yengil tortadi. Qirolicha va Nardella chiqadi. Seliya eshikka qarab turadi. Shoshgancha Janetta Va Monna Mea paydo bo'ladi.)

Seliya *(Janettaga, shoshilinch)*
Qanday xabar keltirdingiz?
Aytingiz tezroq!
Janetta
Boshin irg'ab qo'ya qoldi, og'iz ochmayoq.
Tuyg'u degan narsa o'zi unda yo'qdir-ov!..
Monna Mea
Yig'lab-siqtab yolbordi-yu
Janetta ancha.
Janetta
Ta'sir etmas gaplarimiz chivin chaqqancha!
Nazarimda, kulayotir sening ustingdan.
Seliya *(baxtiyor)*
Baribir u keladi!
Janetta
Tomoshaga keladi u, sen uchun emas!
Seliya
Men o'laman, mayliga, u tomosha qilsin.
Janetta
Sen o'lasan, ammo dunyo bo'lmagay abas,
Chamanzorlar yashnayverar, nainki so'lsin.
O'z-o'zingga jabr qilma, sho'rlik, mushtipar,
Yigirma ming tilla tanga to'lasang agar,
Senikidir hamma narsa — ozodlik, hayot,
Tiriklikdan o'sha aqcha qimmatmi, nahot?!
Tiriklikdan yoki ko'ngling sovib bitganmi?
Ruhing yo'qlik dunyosiga hijrat etganmi?
Hayotmi yo bisotmi deb menga qo'ysa shart,
Men hayotni tanlar edim, hayotni, albat!

Monna Mea
Uyda esa qallig'ing bor — badavlat, puldor,
Har bir ishga qurbi yetar Nerina shunqor.
Janetta
Italiya tuprog'ida bahor gullaydi,
Qushlar sayrar, gullar yashnar, shamol guvlaydi.
Surmaysanmi o'sha joyda xush davr-u davron,
Mol-bisotdan ming martaba shirin erur jon.
Seliya *(ularni eshitmay, go'yo o'z-o'ziga)*
U keladi!
Qayta-qayta yuziga boqay,
So'ng jon beray...
Monna Mea
Bizning oh-voh, tilovatlar shungami hali,
Biz nimaning dardida-yu, o'laman der bu.
Seliya
Xudo sizni yorlaqasin, ortiq g'am chekmang,
Motam tutmang!
Keta qoling.
Bo'ldi dedim-ku.
Janetta, Monna Mea (titrashib)
Oh, Seliya!
Karlotta *(tiz cho'kib)*
Oh, bekachim!
Seliya
Ko'z yoshi ham, oh-u voh ham kerakmas zarra,
Vidolashib olay, mayli, eng so'nggi karra.

(Ular bilan o'pishib, ortga buriladi.)

Janetta *(titroq ovoz bilan)*
Yilt etgan bir umid qoldi, bil'aks, alvido!

(Ular sarosima bilan chiqa boshlaydi.
Dahlizdan, ayni vaqtda, qadam tovushlari eshitiladi.)

Karlotta
Kelishmoqda!..
Seliya *(yengil tortib)*

Hozir kirar Agardi Peter!.. *(Eshikka qarab turadi.)*

(Qirmiz libosda, ikki yordamchisi bilan Dahshatli Layosh kiradi va yuqori zinada to'xtab, uchov ayolga chiqib keting, deya ishora qiladi. Ayollar chiqayotib, ortiga bot-bot burilib, iztirob bilan yig'laydilar.)

Seliya *(bo'shashib)*
Yo'q! Faqatgina u...
Dahshatli Layosh *(zinadan tushadi, to'xtaydi.)*
Fursat yetdi!
Seliya *(o'ziga kelib, vazmin)*
Kimsan?
Dahshatli Layosh
Dahshatli Layosh!
Seliya
Yuzingga bir qarab olay, o'ldirgil so'ngra.
Dahshatli Layosh
Qarayvergin, so'ng iloji bo'lmaydi sira.
Seliya
Xursandmisan?
Dahshatli Layosh
Xafamassan sen ham unchalik,
Bu yaxshilik alomati, to'g'risin aytsam,
Sendek esli odamlarni yoqtiraman men,
Yordamimni ayamayman ulardan hech ham,
Ya'ni qandoq jon berganin bilmay qolarlar.
Seliya
Marhamat qil, yordam bergil menga ham shundoq,
(hamyon tashlab)
Yuz taler bu — xizmatingga!
Titrama biroq!
(hayajonda)
Ayt-chi, bolta ko'targanda titraganmisan?
Dahshatli Layosh
Turli-tuman ig'volarga ishonmagin sen.

Kundaga bosh qo'yganing dam uzaman shartta,
Avval ko'rgin, aytdi dersan so'ngra, albatta!
Ana endi izimdan yur.

Seliya

Shoshmay tur, jallod,
Dilimdagi sohir hisga etay xayrbod.

Dahshatli Layosh

Vaqt bo'ldi!

Seliya

Qani ayt-chi, bahaqqi vijdon,
Bormi senga aziz hamda suyukli inson?!

Dahshatli Layosh

Bo'lsa-chi?

Seliya

Anglagaysan unda mening munojotimni.

Dahshatli Layosh

Ha, tushundim.

(jimlikdan so'ng)

Ayt-chi, ering kim?

Seliya

Men bevaman!

Dahshatli Layosh

Kuyov-chi, kuyov?

Seliya

Kuyov ham yo'q!
Ammo-lekin meni, har holda,
Yupatguvchi odamim bor, bor, axir, birov.

Dahshatli Layosh

Jazmaningmi?

Seliya

Aytish shartmi hamma narsani.

Dahshatli Layosh

Chiroyingga boqib ko'nglim buzilayotir,
Rostin aytsam, kam kesganman bunday kallani.

Seliya

Aldayotgan emasmisan?

Dahshatli Layosh
Daf'atan, magar
Bo'lsam edim senga maftun, oshufta ritsar.
Balogardon bo'lar edim kulfatga, bilsang,
Seniki-chi kelmayotir, eh, attang, attang.
Seliya *(hayajon bilan)*
Aqcham ham yo'q.

(birdan, qat'iy)

Mana buni, uzugimni ol!

(uzugini uzatadi.)

Sukut saqla, ritsarni kut, u kelar, alhol!
Dahshatli Layosh
Kelmasa-chi?
Seliya *(ikkinchi uzugini uzatadi.)*
Ol, ola qol bunisin ham, bedavo dajjol.
Dahshatli Layosh *(uzuklarni taqib)*
Oh, uzuklar-ku!
Yoqut ekan, zo'r!
Ayni mening barmog'imga mos kelganin ko'r!
Seliya *(ma'yus jilmayib)*
Jallodliging aytgulikmas — toshing yengilroq.
Dahshatli Layosh *(o'zi bilan o'zi ovora bir holda)*
Sen bekorga ishonasan — odamlar ahmoq!
La'natlaydi ular doim mening kasbimni,
Ammo-lekin bilmaydilar ichim — aslimni.
Ayollarni va bahorni sevaman men ham,
Oftob chiqsa ochiladi mening ham chehram.
Ochiq aytsam, agar sabab bo'lmasa zinhor,
Odam tugul pashshaga ham bermayman ozor.
Ishim nozik, sohamizda xursandchilik kam,
Yashay deyman hayot mehrin ardoqlab, xurram.
Oyboltani sira-sira ko'rmasam deyman,
Kun kechirsam tinchgina o'z oilam bilan.
Xotinimni erkalatsam yomon bo'lmasdi,
Xudo bizga chiqargan-ku sevgini asli.

Qurg‘oqchilik, urush, kulfat huda-behuda,
Sho‘ring qurg‘ur odamlarni qiynaydi juda.
Boshpana yo‘q.
Asal kam-u, ayiq ko‘p ammo,
Dilim shoir, kasbim jallod,
mushkul muammo.

Seliya
Ha, hayoting og‘ir ekan, sho‘rlik jallodim,
Achinaman...

Dahshatli Layosh
Oh, qaniydi dilda faryodim!
Aql esa o‘ldir deya beradi buyruq,
Ha, buyruqni bajarmasdan o‘zga choram yo‘q.

Seliya *(yolborib)*
Sabr qilgil, aziz jallod, sabr qil biroz,
Tayyormasman, beriroq kel,
dilda qoldi roz.

Dahshatli Layosh
Ilojim yo‘q!

Seliya *(yolborib)*
Vidolashib olay, axir, seviklim bilan.

Dahshatli Layosh *(bo‘shashib)*
Sevganing kim?

Seliya
Rosti, avval yashirar edim,
Men aytganim o‘sha ritsar, kelaman, degan.

Dahshatli Layosh
Kelmasa-chi?

Seliya *(jilmayib)*
Agardining gapi bitta!
Kelmog‘i aniq.

Dahshatli Layosh
Agardi?
Agardini sevganmisan?

Seliya
Ha!

Dahshatli Layosh
Agardining o'zi bo'ldi bu ishda hakam,
U g'oyat tund!
Boz ustiga, gapirmaydi ham.
Seliya
Har holda, u muhabbatga loyiq bir inson.
Dahshatli Layosh
Modomiki xabardordir muhabbatingdan,
Nega seni u o'limga buyurdi ekan?
Seliya *(xo'mrayib)*
O'zim aybdor, undan xafa bo'lmoqlik bekor,
Chunki aslo bilganmas u — dilimda ne bor.
Va o'zim ham o'z ko'nglimni bilmasdim uncha,
Bilmas edim sevgi hissin tatib ko'rguncha.
Urf-odatni har narsadan yuksak qo'yar u,
Ha, mendan ham qasamyodin afzal bilar u.
Mening baland g'ururimni yengdi azamat,
Endi undan yolborib men so'raymi shafqat!
Agardini seva turib berajakman jon,
To'g'risini aytsam, Layosh, sen yaxshi inson,
Ammo faqat oddiygina jallodsan, xolos,
Kishi dilin tushunmaysan...
Dahshatli Layosh
Tushunmayman, rost,
Sevarkansan, nega unga ayon etmading?
Va o'zingni o'shal chog'da yaqin tutmading!
Balki, hamon yaxshi ko'rar?
Seliya *(bosh chayqab)*
Yaxshi ko'rmaydi.
Dahshatli Layosh
Lekin avval sevgan-ku seni.
Seliya
U mahalda yuragimda ishq edi pinhon,
Bo'sa bilan ritsar dilin zabt etdim, biroq
Qasam ichib qo'ygandi u.
Dahshatli Layosh

Bilaman!
Seliya *(hayrat bilan)*
Qaydan?
Dahshatli Layosh
Ha, Nardella aytib qo'ygan, qaydan bo'lardi!
Agardini ayblab bo'lmas, rost bo'lsa shu gap.
E'tiborga loyiq, ammo sening ham darding,
Ritsarni deb balolarga duch kelgansan zap.
Hayotingni ochiq-oydin qimorga tikib,
Makkorona bo'sa berib, ritsarni o'pib,
Xo'p tantana qildim deya o'ylagansan-da!
Muhabbatning mas'ulligi bo'lmagan senda.
O'z sevgingni yashirgansan ataylab pinhon,
Oshkor qilging kelmas uni, aytsang shu zamon.
Seliya
Bo'ldi, jallod, fursat yetdi!
Dahshatli Layosh
Ritsar kelganda...
Muhabbating ochiq-oydin aytsang agarda...
Seliya
Yo'q!
Mutlaqo!
U baribir endi ishonmas.
Quchog'ida yotganda ham tongan edim, bas!
Oshkor qilgim kelmadi hech muhabbatimni,
O'z-o'zimda ixtiyorim bo'lgani paytda.
Endi esa oyboltaning zarbidan qo'rqib
Sevgim deymi?
To'g'ri kelmas endi, albatta.
Dahshatli Layosh
Kimki tiyrak tuyg'ularin yaqin birovga
Ochmas ekan, aytmas ekan, u qo'rqoq erur.
Ayt-chi, soqov bahodirni kutasan nega?
Modomiki yuragingni ochmasang bir qur.
Nahot senga kerak emas oila, hayot,
Hali yoshsan!

Xohlamasang yashashni nahot?
Menga, axir, dilingdagin aytmog'ing kerak.
Seliya
Yo'q, yo'q, jallod!
Dahshatli Layosh
Yo'qsa qoning oqadi, beshak.
Vaqt o'tmoqda, tugab bo'ldi soatdagi qum.

(Qum soatni ko'rsatadi, uzoqdan qo'ng'iroq jaranglaydi.)

Seliya *(titrab)*
Yupatguvchi sadolar bu.
Dahshatli Layosh
O'liming yaqin.
Bittagina so'z aytsang-ku, olam guliston!
Seliya
Qo'rqayotganim yo'q!
Dahshatli Layosh
Bittagina so'zni aytsang qolasan omon.
Seliya
Avrama ko'p!
Mei hech kim yordam berolmas,
O'z imni kamsitgandan o'limim afzal.
U sevmaydi, menga yupanch hayot kerakmas,
Dahshatli Layosh
Qoning oqsa, yaxshimi, xo'sh?
Seliya *(mag'rur)*
Mayliga, oqsin!
Modomiki, gunoh ishga yuz burdim qo'rqmay,
Jon ham beray kerak paytda endi hayiqmay!
Titramasman, titramagin sen ham, ey jallod!
Dahshatli Layosh
Kelib qolsa-chi?
Seliya
Foydasi yo'q!
Muhabbatim haqida endi
Senga iqror bo'lajakman, jallod, nachora!

Dahshatli Layosh
Yetkazaman.
Seliya
U hammadan yoqimliroq, aziz, jonajon.
Ketdik endi.
Dahshatli Layosh *(kaftiga urib)*
Qani, ishga, hoy jallodlar!

(Ichkaridan jallodlar chiqadi.)

Ko'zini bog'lang! Olib chiqing!

(Jallodlar Seliyaning ko'zini bog'lab olib chiqadi. Dahshatli Layosh niqobini oladi.)

U — Agardi Peter edi.

Parda

Yettinchi ko'rinish

Sahna aylanadi. Jallodlar Seliyani galereyadan olib o'tadilar. Qo'ng'iroq va organ ovozlari eshitiladi. Galereya kengaygan joyda, burilishda Janetta, Monna Mea, Karlotta nafasi ichida, qisinishib turibdilar. Seliya sokin, vazmin. Uni charog'on hovliga olib chiqishadi. Sahna to'xtaydi. Sahna ichkarisida butxona peshtoqi.

Seliya
Yetib keldikmi?

(Peter kirib, ishora qiladi, jallodlar butxonaga kirib ketishadi. Jimlik.)

Seliya
Sukunat!
Ovozlar tindi!
Agardidan darak bo'lmadi.
Senmisan, Layosh!
Peter
Menman!
Va sen mening qo'limdasan!

Seliya
Ko'zimni och!
Peter
Qo'rqmaysanmi?

(orqadan kelib, boshini ushlaydi.)

Seliya *(boshini chayqab)*
Yo'q, qo'rqmayman!
Ajab, sening ovozing tanish,
Bamisoli soqov tunda taralgan xonish.
Mening uchun aziz zotning ovoziday u,
Boshimni kes, qo'llaringda jon bermoq ezgu.
Peter
Ayt-chi, mendan ginang yo'qmi?
Seliya
Afv etaman, o'zing bo'lgil mening jallodim!
Peter
Haqsan!
Men ham seni kechirdim!

(ko'zidan bog'ichni oladi.)

Seliya *(burilib qarab, shodlikdan yayrab)*
Oh, senmi bu?
O'zingmisan?

(atrofga qarab)

Layosh qayoqda?
Peter
U o'z burchin o'tab bo'ldi!
Tanidingmi, xo'sh?
Jallodingman, esingdami, yollagan eding,
Qimmatbaho uzuk emas, ammo yollagan...

(uzukni ko'rsatadi.)

Seliya
U senmiding!
Demak, senga gapiribman...

Peter
Ha!
Jallodgamas,
gapirganding menga, ha, menga!
O'sha edi, o'sha edi ovozing, o'zing,
O'sha edi menga aytgan iqroring, so'zing!
Lablarimdan ko'z ilg'amas kishanni olding,
Bilib qo'ygin,
Layosh ham yo'q, soqov Peter ham,
Qasamni ham, odatni ham bosib o'toldim,
Men sevaman, bilib qo'ygin, sevaman, erkam.

(quchadi)

Yurakkinang duk-duk urar, axir, bilaman...
Hukm, jallod va oybolta... zuhur qilaman,
Ahvolingga qarab men ham ezildim, ishon,
Kechir meni, boyoqishim,
qiynalding chunon.
Seliya *(uning bag'riga bosh qo'ygancha)*
Gapiraver, jonim, gapir!
Azoblar o'tdi!
Peter
Bu sinovni uyushtirgan qirolning o'zi,
Nafsilambr, loyiq eding shundoq jazoga!..
Seliya
Loyiq edim!
Peter
Va sinovdan o'tding juda soz!
Seliya
O'tdim, ammo sevasanmi?
Sevishing rostmi?
Peter
Rost!
Ilohasan mening uchun, samoviy zotsan.
Ammo sen-chi, sevasanmi?
Jonginam, ayt sen?!

Seliya
Qulog‘ingga shipshigandir, axir, jallodim...
Peter
Bu haqda gap ochmasam ham bo‘lardi, balki
Bilar edim allaqachon...
Seliya

(Seliya hayratda)

Qachondan buyon?
Peter
Tunda seni quchog‘imga bosdim, hayotim,
Ganji umrim, topolganim mulki bebaho!
Seliya
Biror so‘z ham demading, ammo!
Peter
So‘z demadim, lekin ko‘zim ochiq edi-ku!
Meni u choq zabt etgandi eng oliy tuyg‘u.
Qaynoq-qaynoq bo‘salarning taftida u dam
Erib ketdi jozibali g‘ururing, erkam...

(Seliya yuzini yashiradi.)

Peter *(davom ettirib)*
Ehtirosing olovida lov-lov yonardim,
Musichaday latif eding, men-chi, qonardim.
Seliya
Bo‘ldi, jonim.
Peter
Yo qaytadan soqov bo‘laymi?
Seliya *(cho‘chib)*
Yo‘q, yo‘q, gapir.
Gapiraver, shovqin sol, mayli!
Sen hammadan bahodirsan,
hammadan a’lo!
Tun o‘rniga kunduz keldi — ayni muddao!
Peter
Sevgimizga hayot o‘zi panoh va makon,
Sevging bilan gurkirasin zamin-u osmon.

Seliya
Ta'kidlashim shartmi mening — go'zaldir hayot.

(Janetta, Monna Mea, Karlotta Seliyaga nikoh liboslarini olib kiradilar. Ikki shogird jallod — Beppo va Tiribi Peter yelkasiga mantiya tashlaydilar. Hamma butxona tomonga yo'l oladi. Sahna aylanadi, Butxona to'rida mehrob. Keksa ruhoniy va ikki xizmatkor bolakay. Oldinda Matyash, Beatriche, Marsio, Nardella. Seliya va Peter ta'zim qiladilar.)

Peter
Qirol, hazratim...
Matyash *(jilmayib)*
Shon-u shuhrat tojining siz bezak hashami,
G'oyat boysiz latofatga, chiroyga, xonim.
Beatriche
Jallod seni o'ldirganmas, tiriksan, ya'ni
Tiriklik soz, shundaymasmi...
Matyash
Hiylakor ayol!
Kechirmaslik kerakmidi seni, ehtimol.
Yarash payti yetib keldi, o'tding sinovdan,
Chekinmading qiyinchilik, mashaqqat, dovdan.
Mening shonli ritsarimning tili ham burro,
Yuzta yuzlik tillaga ham loyiqsan, ammo.
Shifo topgan bahodirim o'zingga tortiq.
Xotinlikka olasanmi uni, Agardi?
Peter
Jonim bilan, hazratlari.
Matyash *(Seliyaga)*
Irodam shul: nikohiga kirasan lutfan.

(Agardiga)

Bilib qo'ygin, bir umrlik asirang bo'lsin,
Xohishingga amal qilib, gunohin yuvsin,
Demak, senga xotindir bu.

Peter
O‘lgunimcha to!
Matyash
Yarashingiz!
Ikkingiz ham oqil va dono!
Ancha qattiq sinadingiz bir-biringizni,
Goh yashirib, goh oshirib dil siringizni.
Sevgi bilan goh mashaqqat yonma-yon keldi,
Sinov dami gohi pinhon, goh ayon keldi.
Lekin sizning bahsingizda bo‘lmadi zo‘rlik,
Bo‘lgan emas tahqir, qarg‘ish, noo‘rin xo‘rlik,
Ikki yurak yashab bitta muhabbat bilan,
Kulfatlarni yengoldingiz matonat bilan.
Ojizlikka ikkingiz ham bo‘lmadingiz qul,
Bir-biringiz sinadingiz erinmay nuqul.
Yig‘ishtirib qo‘ying endi kibr-u havoni,
Totuvlikda gashtin suring go‘zal dunyoni.
Sizni baxt va muhabbatga hukm etgum shodmon,
Kuyov, boshqa kelinchakni mehrobga tomon!

(Organ sadolari yangraydi.
Agardi Seliya bilan mehrobga yaqinlashadi.)

Matyash *(Marsioga)*
Sen — Marsio,
odamlarga yetkaz nomani,
Kitobingga bitib qo‘ygin bul hangomani.
Bezab tursin yilnomangani necha asrlar,
Soqov Ritsar haqidagi quvnoq satrlar.

Parda

DYULA URBAN

Dyula Urban 1938-yilda Sekeshfexervar shahrida tug'ilgan. 1963-yili Pragadagi Karlov universitetini tamomlagan. "Havorang kuchukcha" nomli ertagi muallifga katta shuhrat keltiradi. Ushbu asar asosida 1976-yil rejissor Yefim Gamburg suratga olgan multfilm ham bolajonlarning sevimli tomoshasiga aylanadi. Dyula Urban qalamiga mansub qator pyesa va kinossenariylar venger teatr va kino dramaturgiyasining e'tirofli asarlari hisoblanadi.

PISHLOQXO'RLAR

Ikki parda, o'n ko'rinishli pyesa

Ishtirok etuvchilar:
Lidi, Marton — *kulrang sichqonlar.*
Shoma — *ularning o'g'li.*
Albin, Violetta — *oq sichqonlar.*
Fruji — *ularning qizi.*
Paskal — *ya'ni Buyuk sehrgar mushuk.*

BIRINCHI PARDA

Birinchi ko'rinish

(Pishloqxona burchagi: plita, pishloq pishiriladigan qozonlar va boshqa shu kabi asbob-anjomlar. Barcha ashyolar bu yerda yashovchi sichqon oilasiga nisbatan juda katta tuyuladi.

Lidi — semiz, beso'naqay, lekin judayam serharakat sichqon u burchakdan bu burchakka bezovta yugurib yuribdi. Uning boshida oq qalpoqcha.

Marton — ustiga kalta adyol yopilgan, adyol tagidan shippakli oyoqlari ko'rinib turibdi, xurrak otgancha kattakon pishloq bo'lagi ustida rohatlanib uxlab yotibdi. U haddan tashqari semiz, qo'pol. Tabiatan "tanbal"ning naqd o'zginasi.)

Lidi. Marton!

(Marton xurrak otadi.)

Marton deyapman! Qachongacha uxlash mumkin, axir? Marton!!

Marton *(cho'chigancha, uyqusirab).* Voy mushuk! *(ustidagi adyolni boshiga tortib oladi.)*

Lidi. Qanaqa mushuk?! Bu yerda mushukka balo bormi? Esingizni yig'ing, boqibeg'am. Bu men, xotiningizman.

Marton *(adyol tagidan boshini chiqarib).* E-e-e, senmiding? Men o'ylabmanki...

Lidi. O'ylamay qo'ya qoling! Turing o'rningizdan!!

Marton. Hozir, hozir...

Lidi. Marton! Turing deyapman! *(ustidan adyolni tortib oladi.)*

Marton. Lidi... hali tong otmadi-ku!

Lidi. Tong otishiga balo bormi? Hozir kechqurun, Marton, allamahal bo'lib qoldi. Kechki ovqat vaqtiyam o'tib ketdi.

Marton. Kechki ovqat. Nega meni oldinroq uyg'otmading? Shunda dahshatli tushni oxirigacha ko'rishga majbur bo'lmasdim...

Lidi. Ana, xolos! Kun bo'yi boshini uyqudan ko'tarmaydi-yu, yana meni ayblaydi. Bunaqasini quloq eshitmagan! Osh-ovqat tayyorlayman, kir yuvaman, uylarni supurib-tozalayman, u bo'lsa... Xo'sh, nega indamayapsiz? Yana qanaqa dahshatli tush ekan?

Marton. Oh, so'ramay qo'ya qol!

Lidi. Ha, yo'q, bunaqasi ketmaydi, bir gapning uchini chiqardingizmi, endi gapiring!

Marton. Hay, qo'ymading-quymading-da... (xo'rsinadi.) Tushimda, go'yo kichkinagina stol atrofida o'tirganmishman. Stolchaga top-toza dasturxon solinganmish, bo'ynimda esa oppoq sochiqcha emish... Birdan...

Lidi. Nima bo'ldi?

Marton. ...sen kirib kelding!

Lidi. Keyin-chi, keyin!

Marton. Kattakon shveysar pishlog'ini dumalatib kelayotganmishsan.

Lidi. Shunday tushni dahshatli deyapsizmi?

Marton. Shoshmay tur, oxirigacha aytishga qo‘yasanmi-yo‘qmi?! Nima deyayotgandim?

Lidi. Pishloq deyayotgandingiz.

Marton. Ohho!.. U shunday katta, dum-dumaloq pishloq ediki, uning har bir g‘ovagiga butun boshli sichqon oilasi joylashsa bo‘lardi.

Lidi. Voy-bo‘, juda zo‘r-ku!

Marton. Pichoqchamni to‘g‘rilab, endi pishloqdan bir bo‘lak kesib olmoqchi bo‘luvdim hamki, birdan...

Lidi. Nima birdan?..

Marton. ... oldimga bahaybat paxmoq mushuk chopib kelsa bo‘ladimi!

Lidi. Voy!

Marton. U senga o‘qrayib qarab, shu zahotiyoq changalladi...

Lidi. Menimi?!

Marton. Seni changallab boshiga uradimi? Bundan ham battari bo‘ldi.

Lidi. Battari bo‘ldi deyapsizmi?!

Marton. U pishloqqa chang soldi-da, olib ketdi!

Lidi. Rosa zo‘r bo‘pti-da! Sizning ko‘zingiz qayoqda edi?

Marton. Menda nima ayb? Qo‘limdan nimayam kelardi.

Lidi. “Qo‘limdan nima kelardi”, deganingiz nimasi? Shunday deyishga uyalmaysizam-a!.. Og‘zidagi oshini oldirib o‘tirgan manavi landovurga qaranglar-a! Naqd burnining tagidan pishlog‘ini olib ketisharmish-u, bu kishim ko‘zlarini lo‘q qilib o‘tirarmishlar!.. Oilaning g‘amini yeganingiz hali shumi?!

Marton. Hoy, Lidi...

Lidi. Nima, Lidi? Xo‘sh, nima, Lidi? Ertadan kechgacha faqat uxlashni bilasiz...

Marton. Quloq sol!..

Lidi *(u burchakdan bu burchakka yugurib).* Gapingizni eshitishni ham xohlamayman. Sizdan nima foyda? Hamma narsaga o‘zim balogardon bo‘lsam. Men bo‘lmaganimda allaqachon ochlikdan o‘lib ketgan bo‘lardik.

Marton. Ja-a haddingdan oshib ketmadingmi?..

Lidi. Shunaqami? Bu yerga, mana shu pishloqxonaga ko‘chish fikri kimdan chiqqandi? Balki, sizdandir?

Marton. Yo‘q sendan.

Lidi. Balli (to‘xtaydi). Voy, to‘xtang! Bola qani?

Marton. Shomami?

Lidi. Shoma-da! Albatta, Shoma! Nima, bizning boshqa bolalarimiz ham bormi?

Marton. Yo‘q.

Lidi. Hatto yolg‘iz o‘g‘limizni ham tarbiyalash qo‘lingizdan kelmadi. Mana bugun ham kechki ovqatda yo‘q.

Marton. Axir, men...

Lidi. Ikkalang ham boshga bitgan balo bo‘ldinglar. Siz uxlashdan boshqasini bilmaysiz, Shoma esa qayerlardadir tentiragani tentiragan... Voy-vuy! O‘lmagan mening jonim! Chordoqqa chiqib ketmagan bo‘lsin tag‘in, bolasi tushmagur?

(Ikkalovlari chordoqqa olib chiqadigan zinapoyaga qo‘rqa-pisa qarab, asta tislanishadi.)

Marton. Chor-chor-doqqa!

Lidi. To‘ppa-to‘g‘ri mushukning domiga-ya!

Marton. Voy! Nafasingni issiq qil-ey!

Lidi. Bechora Shoma! Nima qilish kerak? Voy-voy-ey!..

Marton. Shoshma, tinchlan...

Lidi. “Tinchlan” deysizmi! Yolg‘izgina o‘g‘limni falokat...

Marton. Ko‘p vaysama, nima bo‘pti unga?

Lidi *(umidsiz ahvolda o‘zini har yonga urib).* Bechora Shoma! Bechora o‘g‘lim! Shoma!..

(Eshik tuynukchasidan norg‘ul, beso‘naqay Shoma kirib keladi.)

Shoma. Shu yerdaman! Nima g‘alva?

Lidi. Qayerda eding?

Shoma. Qayerda bo‘lishim kerak bo‘lsa o‘sha yerda. Shaharda o‘ynab yuruvdim.

Marton. Mana ko‘rdingmi, Lidi! U shunchaki sayr qilib yurgan ekan...

Lidi. Shomajonim! *(uni quchoqlaydi.)* Tag‘in, Xudo ko‘rsatmasin-u, chordoqqa chiqmadimikan deb, o‘takam yorilib o‘tiruvdi...

Shoma. Xotirjam bo‘ling, oyijon! Hech qachon chordoqqa yaqin yo‘lamayman.

Marton. To‘g‘ri qilasan, bolajonim. Buyuk sehrgar mushuk rahm-shafqat nimaligini bilmaydi.

Lidi. Bu dunyodagi eng dahshatli mushuk!

Marton. U sehrgar!

Lidi. U hamma narsaga qodir!

Shoma. Bilaman, bilaman. Bu haqda ming marta aytgansizlar...

Lidi. Sen bu gapni qulog‘ingga quyib olgin.

Marton. Uning dastidan titrab-qaqshab yashashimizga to‘g‘ri keladi.

Shoma. Hammasi to‘g‘ri. Men faqat bir narsaga tushunmayman.

Lidi. Nimaga?

Shoma. Agar Sehrgar mushuk haqiqatdan hamma narsaga qodir bo‘lsa, nega biror martayam bizning pishloqxonamizga tushmaydi?

Marton. Bilmayman, bolajonim, bilmayman. Bizga, har kuni ovozini eshitib turganimiz ham yetarli.

Lidi. Dahshatli ovoz! Eslagan zahotim eng mazali pishloq ham tomog‘imga tiqilib qoladi.

Marton. Tinchlan, Lidi, hayajonlanma!

Lidi. Ha-ha, vahimali gaplarni bas qilaylik! Kelinglar, ovqatlanamiz. Shoma, dasturxonga o‘tir!

Shoma. Oyijon, bilasizmi...

Lidi. Ha, gapira qol!

Shoma. Shahrimizda judayam g‘alati sichqonlar paydo bo‘lishipti.

Lidi. Sichqonlar deysanmi?

Shoma. Tag‘in oddiy sichqonlar emas, balki...

Lidi bilan Marton. Nima?..

Shoma. Oq sichqonlar!

Lidi bilan Marton *(baravariga).* Oq sichqonlar?!

Shoma. Ha-ha, oppoq, xuddi...

Lidi. Davom ettirmay qo‘ya qol. Yolg‘onni ham yamlamay yutasan-da! Oq sichqonlar bo‘lmaydi.

Shoma. Juda bo‘larkan-da!

Lidi. Marton!

Marton. Labbay?

Lidi. Oq sichqonlar bo'ladimi?

Marton. Yo'q!

Lidi *(o'g'liga).* Aytmadimmi?

Shoma. Har holda, men ularni ko'rdim. Ularning shunaqangi chiroyli qizi bor edi...

Lidi. U ham oqmi?

Shoma. Xuddi yangi pishirilgan pishloqdek. Yo'q-yo'q! Xuddi yangi yog'gan qordek oq.

Lidi. Oq sichqonlar! Yangi yog'gan qor!.. Judayam haddingdan oshib ketding. Qani, ovqatga o'tir-chi!

Shoma. Ha, lekin...

Lidi. Stolga o'tir, dedim-ku! (likoplarni stol ustiga qo'yadi.) Rokfor, brinza, golland pishlog'i...

Marton. Kolbasasimon pishloq, suzmali pishloq...

Lidi. Nonga sariyog' surtib, sariyog' ustiga pishloq qo'yib yeng!

Marton. Pishloq ustiga pishloq qo'yilsa yanayam zo'r.

(Hammalari birgalikda kuylashadi.)

Uyda mo'l bo'lsa pishloq —
Ko'ngillar to'q binoyi.
Uyda mo'l bo'lsa pishloq —
Ziyofat zo'r-kiroyi!
Dilgirmiz-ey, chi-chi-chi!
Ilgirmiz-ey, chi-chi-chi!
Eh, pishloq g'ovagida-
Yosh o'ynar marjon-marjon...
Biz tole ardog'ida
Dilda yo'q zarra armon.
Dilgirmiz-ey, chi-chi-chi!
Ilgirmiz-ey, chi-chi-chi!
Yugurgan yetar tezroq,
Dunyo — bir stadion.
Pishloq yosh to'kar, biroq —
Sichqonlar kular shodon.
Dilgirmiz-ey, chi-chi-chi!
Ilgirmiz-ey, chi-chi-chi!

Ikkinchi ko'rinish

(Qor bosgan maydonda joylashgan uyning quyi qavati ko'rinadi, uning atrofida oq sichqonlar oilasi paydo bo'ladi. Albin — ozg'in, tik qomatli, xushbichim, qora frakda, asilzoda. Uning xotini Violetta — cho'pday ozg'in, o'taketgan takabbur, burmali to'r ko'ylak kiygan. Ularning qizi — Fruji juda yoqimtoy, lekin o'lgudek erka-tantiq.)

Albin. Tezroq bu yoqqa kelinglar! Mana bu yerdan pishloq hidi kelyabdi.

Violetta. Oh, Albin, bunga chidab bo'lmaydi! Uch soatdan beri bizni mana shu iflos shahar bo'ylab sarson qilib sudrab yuribsiz.

Albin. Ko'zlangan joyga yetib keldik, deyapman-ku. Hid mana shu yerdan kelyapti. Eshik ham shu yerda ekan.

Violetta. Hoynahoy, u berkdir.

Albin. Hozir qarab ko'ramiz-da.

Violetta. Qanday bexosiyat kun bo'ldi-ya! Nimagayam Zakariashnikidan qochib ketdik?

Fruji. Balki, qayta qolarmiz?

Albin. Hech qachon! *(eshikni tekshirib ko'radi.)* Aha, manavi yerda tuynukcha bor ekan. Qani, nima borligini bir ko'rib qo'yaylik-chi...

Violetta. Ehtiyot bo'ling, Albin!

Albin. Meni qo'rqitishni hojati yo'q, Violetta! Ketdim. *(tuynukchadan sirg'alib o'tib ketadi.)*

Violetta. Albin!

Fruji. Ketdi.

Violetta. Voy-voy-ey! Holimiz nima kechadi, qizalog'im, bordi-yu...

Fruji. Nima bordi-yu?

Violetta. Bordi-yu, otang qaytmasa!..

Fruji. Nima sababdan qaytmas ekan? Nega?

Violetta. Mana shunga o'xshash eshiklar ortida qanday xavf-xatar kutib turganligini kim bilib o'tiribdi deysan... Fruji, shunday qo'rqayapmanki.

Fruji. Tinchlaning, oyijon!

(Albin paydo bo'ladi.)

Albin. Ajoyib! Men nima degandim? Hammasi joyida!

Violetta. Albin, u yerda nima bor ekan?

Albin. Pishloq, Violetta! U yerda butun boshli pishloqxona bor ekan. Rakfor!

Violetta. Rakfor?

Albin. Kolbasasimon pishloq...

Violetta. Kolbasasimon pishloq-a? Men ketdim, Albin!

Albin. Biroz sabr qiling! Ostonada diqqatlaringni mana shu qadamning ahamiyatiga jalb etmoqchiman. Uzoq sarson-sargardonlikdan so'ng biz nihoyat bo'lajak makonimiz eshigi oldida turibmiz...

Violetta. Har qanday sharoitda ham eng mos va eng ajoyib so'zlarni topa bilish xususiyatingizni juda ham yaxshi ko'raman, Albin.

Albin. Rahmat, Violetta! So'zlarimning qadr-qimmatiga yarasha baho bera olish qobiliyatingiz menga nihoyatda yoqadi...

Fruji. Qani bo'la qoling, kirmaymizmi? Nimaga turibmiz?

Albin. Hovliqmay tur! Bu yerda bitta ishkal joyi bor.

Violetta. Qanday ishkal?

Albin. Manovi pishloqxonada yashaydigan bir...

Violetta. Mushukmi?

Albin. Mushuk emas, hurmatli Violetta, mushuk bo'lsa koshkiydi-ya! Undan battarroq!

Albin. Ikkita mushukmi?

Albin. Yo'q. Sichqon oilasi yasharkan.

Violetta. Buni qanday dahshatli joyi bor ekan? Ular ham bizga o'xshash sichqon-da...

Albin. Hamma gap shundaki, bizga o'xshamaydi. Ular kulrang, Violetta, eshityapsanmi, kulrang!

Violetta. Kulrang sichqonlar? Oh, hozir ko'ngil behuzur bo'lib qoladi!.. Nahotki ular anovi tegirmondagilarga o'xshash kulrang bo'lsa, axir...

Albin. Hamma gap shunda-da, Violetta.

Violetta. Ana shu sichqonlar bilan bir uyda yashamoqchimizmi-a, Albin? Kulrang sichqonlar bilan-a?

Albin *(xo'rsinib).* Boshqa iloj yo'q! Axir, biron-bir joyda yashash kerak-ku... Yuringlar!

Uchovlari tuynukcha orqali uyga kirib ketishadi.

Uchinchi ko'rinish

(Pishloqxona. O'sha oqshom. Kulrang sichqonlar ziyofatlarini davom ettirishyabdi.)

Lidi. Shoma, yana bir bo'lak pishloq yegin!

Shoma. Rahmat, oyijon!

Lidi *(to'satdan ovqat yeyishdan to'xtaydi).* Voy, anavi nima?

Marton. Qayerda?

Lidi *(qo'li bilan ko'rsatib).* Ana, huv anavi yerda. *(seskanib ketadi.)* Marton! Bu oq sichqonlar!

Marton. O'zingni bos, Lidiko. Doim senga har xil qo'rqinchli narsalar ko'rinadi-ya. Buning hammasi kam ovqat yeyishingning oqibati. Oq sichqonlar bo'lmaydi.

Lidi. Agar men oq sichqonlarni ko'ryapman deyayotgan ekanman, demak, rostdan ko'rayotgan bo'lsam kerak.

Marton. Axir, o'zing oq sichqonlar bo'lmaydi deganding-ku. Endi bo'lsa, gapirayotgan gapingni...

Albin *(ularga yaqinlashib).* Bezovta qilganimiz uchun kechirim so'rayman! Ming bor uzr!.. Osh bo'lsin!

Lidi *(tomog'iga nimadir tiqilib, yo'taladi).* Suv!.. Tezroq suv!

(Shoma unga suv uzatadi. Lidi suv ichadi.)

Shoma. Qalay, oyijon, tuzukmisiz?

Albin. Hm!.. Ma'zur tutasiz, har holda, o'zimni tanishtirib qo'yay! Mening ismim Albin. Bu xotinim Violetta.

(Violetta kalondimog'lik bilan bosh irg'aydi.)

Bu esa qizimiz Fruji.

Fruji *(tizzasini bukib ta'zim qiladi).* Xayrli kech!

Shoma. Salom! Pishloq yeysanmi, Fruji? O'tir!

Fruji. Jonim bilan.

(Shoma bilan Fruji bir-birlariga qarab pishloq yeya boshlashadi. Kattalar nima qilishlarini bilmay tang qolishadi. Oraga noqulay jimlik cho'kadi.)

Lidi. Marton!

Marton. Labbay, Lidiko?

Lidi. Axir, biron narsa desangiz-chi?

Marton. Nima deyishga hayronman.

Lidi. Ularga aytingki, birinchidan, oq sichqonlar bilan gaplashadigan gapimiz yo'q, ikkinchidan, biz ovqatlanyapmiz...

Albin. O-o, uzr so'rayman! Marhamat, ovqatlanishda davom etavering. Biz esa bu vaqtda...

Lidi. Hali gapimni tugatganim yo'q.

Shoma. Oyijon!

Lidi. Ovozingni o'chir! Uchinchidan esa, biz mehmonlarni, ayniqsa, chaqirilmagan mehmonlarni yoqtirmaymiz.

Albin. Siz bizni noto'g'ri tushunibsiz. Biz, umuman, mehmonga kelganimiz yo'q.

Lidi. Bu nima deganingiz?

Albin. Bu yerda joy bizga ham yetadi, deb o'yladik, axir, pishloqxona ancha-muncha keng ekan... Shu yerga ko'chib kelishga qaror qildik.

Lidi. Shu yerga?!

Albin. Xuddi shunday.

Lidi. Nima haqqingiz bor? Qanday qilib?

Albin. Xuddi sizga o'xshab, muhtarama xonim. Sizning qanday haqqingiz bo'lsa, meniki ham shunday.

Lidi. Marton! Nimaga serrayib turibsiz? Qani, bir kor-hol bo'lmasdan, hoziroq ularni haydang!

(Marton jur'atsiz tomoq qirib qo'ydi.)

Albin. Ogohlantiraman, taqsir: tishlarim o'tkirlikda siznikidan qolishmaydi, o'zimni himoya qilishga qurbim yetadi.

Violetta. Albin, o'zingizni bosing. Yaxshisi, boshqa joy qidira qolaylik. *(uni ko'cha tomonga tortqilaydi.)*

Albin *(qo'lini tortib olib).* Yo'q, qolamiz!

Violetta. Mana shu kulrang sichqonlar oldida o'zingizni pastga urmang!

Lidi. Nima?! Hali, seningcha, biz bilan gaplashsa, o'zini pastga urgan bo'ladimi? Voy yo'nilmagan tayog'-ey!..

Violetta. O'zingni bil, oxirat tarnovi.

Lidi. Men senga hali oxirat tarnovi bo'lib qoldimmi?! Hali mening sovunimga kir yuvmabsan! Hozir po'stagingni qoqib qo'lingga bermasammi!

(Violettaga tashlanadi.)

Shoma. Oyijon!

Marton *(uni ushlab qolishga urinadi).* Lidiko!

Lidi. Qo'yib yuboring meni!

Albin. Xo'sh deganda, shu gaplashib olganimiz yetar! Bo'lar-bo'lmas bema'ni gaplarni eshitishga tobi-toqatim yo'q. Tasaddug'ing ketadi, shu bugundan boshlab pishloqxonaning o'ng qismi bizniki bo'ladi.

Lidi. Nima-a-a?!

Albin. Agar qo'ni-qo'shnichilik yoqmasa, unda to'rt tomoningiz qibla.

(Oq sichqonlar pishloqxonaning burchagida turgan kattakon bochka ortiga yo'nalishadi, kulrang sichqonlar esa ularning orqasidan hang-mang bo'lgancha qarab qolishadi.)

Lidi. Marton! Nahotki qo'lingizdan hech narsa kelmasa?

Marton. Hozirmi? Yarim kechada-ya? Bunday vaqtda qo'limdan keladigani faqat uxlash. *(yotib oladi.)*

Lidi. Esingizni yig'ing! Hademay tong otadi.

Marton *(uyquga keta turib).* Tong otadi? Juda yaxshi. Tong otsa otaversin... *(qattiq xurrak ota boshlaydi.)*

To'rtinchi ko'rinish

(O'sha joyning o'zi. Derazadan oy nuri tushib turibdi. Hamma uxlayabdi. Pishloqxonaning o'ng burchagi to'siq bilan ajratilgan. O'z burchagidan Shoma paydo bo'ladi-da, to'siqqa yaqinlashib, ohista chertadi.)

Shoma. Fruji, hoy, Fruji!

Frujining ovozi. Kim chaqiryapti?

Shoma. Bu men, Shomaman.

Frujining ovozi. Shoshmay tur, hozir chiqaman.

Shoma. Uyg'otganim uchun jahling chiqmasin...

Fruji *(to'siq ortidan paydo bo'lib).* Xo'sh, demak, sening ising Shomami?

Shoma *(qizga tikilib).* Ha, shunaqa, shekilli.

(Bo'g'iq miyovlash eshitiladi.)

Fruji. Voy, bu nima?

Shoma. Mushuk.

Fruji. Sen bu haqda shunday osoyishta gapiryapsan-a? Qochdik!

(berkinmoqchi bo'ladi.)

Shoma *(uni to'xtatib qoladi).* Hech qayoqqa qochishning hojati yo'q!

Fruji. Lekin oyim bilan dadam har qanaqa mushuklardan, iloji boricha, nariroq yurish kerak, deyishgandi.

(Yana miyovlash eshitiladi.)

Eshityapsanmi? Vaqt o'tkazmay berkinaylik!

Shoma. Hadeb besaranjom bo'lib, dirkillayverma! Sen, axir, burga emas, har holda, sichqonsan-ku.

Fruji. Xuddi shuning uchun ham qo'rqyapman-da. *(Pauza.)* Shoma sendan ham qo'rqa boshlayapman, chunki mushukdan qo'rqmas ekansan!

Shoma. Qo'rqmayman, deb senga kim aytdi? O'lgudek qo'rqaman-da.

Fruji. Unday bo'lsa, yur, qochamiz!

Shoma. Agar qo'rqsam ham, bu hali orqa-o'ngimga qaramay qochaveraman degan gap emas-ku.

Fruji. Tushunmadim.

Shoma. Hozir tushuntiraman. Bu mushuk chordoqda yashaydi va hech qachon...

(Yana miyovlash eshitiladi.)

Fruji. Voy!

Shoma. Har daqiqada gapimni bo'lmay tur!

Fruji. Nima balo, pastga tusholmaydimi?

Shoma. Bu yerda qachondan beri yashayotganimizga qara-

may, u biror marta ham pastga tushmagan.

Fruji. G'alati mushuk ekan-ku!

Shoma. Judayam g'alati. Oti nimaligini bilasanmi? Buyuk sehrgar mushuk. Qisqacha aytganda, u sehrgar!

Fruji. Sehrgar dedingmi? Qo'lidan nima ish keladi?

Shoma. Hamma narsa. Agar, masalan, u ikkalovimizni pishloq qobig'iga aylantirishni xohlab qolsa, unda...

Fruji. Nima-a?

Shoma ...Unda manavi yerda allaqachon ikki bo'lak quruq-shagan pishloq po'stlog'i yotgan bo'lardi.

Fruji. Voy!

Shoma. Bo'lar-bo'lmasga titrayverasanmi? U hali-hozirgacha hech kimga tirnoqchalik zarar yetkazgan emas.

Fruji. Lekin yetkazishi mumkin-ku...

Shoma. Kim biladi tag'in! Har ehtimolga qarshi, qulog'ing-ga quyib ol: manavi narvon... bu narvon o'sha yoqqa... ya'ni chordoqqa olib chiqadi.

Fruji. Mana shu narvon-a?

Shoma. Xuddi shu. Hech qachon, aslo manavi narvonga oyoq qo'ymayman, deb va'da ber.

Fruji. Va'da beraman. Mening va'dam nima uchun senga ke-rak bo'lib qoldi.

Shoma. Chunki... chunki sen menga judayam yoqasan-da.

Fruji. Sen ham menga yoqasan.

Shoma. Fruji!..

Fruji. Nima?

Shoma. Kel, raqsga tushamiz!

Fruji. Esingni yeganmisan? Hamma uxlayabdi-ku.

Shoma. Nima bo'pti. Oyga qaragin!

Fruji. Xo'sh, nima qipti?

Shoma. Oy jilmayyapti.

(Ohista kuy yangraydi. Shoma bilan Fruji raqs tusha boshlashadi.)

Shoma *(kuylaydi).*

Pishloqxo'rman,
Jon-tanim pishloq.

Bu yurakning
Izhori biroq:
Yoqtirmasang,
Mayli, tek turay.
Qo'lim artib —
Qo'ltiqqa uray!

Fruji *(kuylaydi).*

Pishloqxo'rman,
Jon-tanim pishloq,
Uyalmasdan
Aytaman biroq:
Pishloqdan voz
Kechaman, ammo —
Seni deyman,
Deyman doimo!

(Violettaning ovozi.) Fruji!

Fruji. Labbay, oyijon?

Violetta *(to'siq ortidan chiqib).* Sen... voy o'lay... sen manavi bilan...

Shoma. Ma'zur ko'ring, qo'lchangizni o'paman!

Violetta. ...manavi kulrang sichqoncha bilan o'ynayapsanmi?

Fruji. Nima qipti, oyijon...

Violetta. Agar bu manzarani bechora otang ko'rsa bormi?..

Fruji. Oyijon, sizdan iltimos qilaman...

Violetta. Ovozingni o'chir! Uyga jo'na!

Fruji. Ketyapman... Hozircha xayr, Shoma!

Shoma. Xayr, Fruji! Umidsizlanma, ko'nglingni cho'ktirma!

Violetta. Voy-bo'y, qanday beadab ekan! Darvoqe, beadab, omiligi shundog'am ko'rinib turibdi.

(Fruji bilan Violetta to'siq ortiga o'tib ketishadi. Shoma ham o'z burchagiga ravona bo'ladi. Birmuncha vaqt sahna bo'sh turadi. Oy bo'zara borib, asta-sekin g'oyib bo'ladi. Tong yorisha boshlaydi. To'siq ortidan Fruji paydo bo'ladi-da, sahnadan biqingacha yurib borib, Shoma uxlab yotgan burchakdagi parda devorini taqillatadi.)

Shomaning ovozi. Kim taqillatyapti?

Fruji. Jim-m! Bu men, Frujiman.

Shoma *(o'rnidan turib).* Nima demoqchisan?

Fruji. Shunday o'zim... sensiz zerikib qoldim... Shuning uchun keldim...

Shoma. Axir, men, hatto pishloqni ham pichoq va sanchqisiz yeydigan oddiygina kulrang sichqonchaman-ku.

Fruji. Arazlashni bas qil! Kel, yaxshisi, o'yinga tushamiz.

Shoma. Jonim bilan!

(Fruji bilan Shoma birgalikda kuylashadi.)

Pishloqxo'rman,
Jon-tanim pishloq,
Uyalmasdan,
Aytaman biroq:
Pishloqdan voz
Kechaman, ammo —
Seni deyman,
Deyman doimo!

Lidining ovozi. Shoma!

Fruji. Onang! Qochdik!

Shoma. Kechikdik.

Lidi *(paydo bo'lib).* Shoma! Bu yerda nima bo'lyapti?

Fruji. Assalomu alaykum!

Lidi. Oho! Yangi qo'shnijonimizga bu yerda nima kerak ekan?

Fruji. Bilasizmi, Shoma bilan men...

Lidi. Nima?! Nima deding? "Shoma bilan men..." Bir-birlaring bilan qanday aloqalaring bor?

Shoma. Oyijon!

Lidi. Ovozingni o'chir, gapimni bo'lma! Bu oqbilak oyimtillani boshingga urasanmi? Nahotki senga birorta aql-hushli kulrang sichqon topilmasa?

Shoma. Lekin men...

Lidi. Miyang aynib qopti, o'g'lim. Mana shu oyimtilla haqiqiy uy bekasi bo'loladimi? Undan nima foyda? U shunchalik nimjon hamda erka-tantiqligidan, hatto yong'oqni ham u burchakdan bu burchakka dumalatolmaydi.

Shoma. Oyijon, men...

Lidi. Uning ko'zlari qandayligiga bir qaragin-a! Qip-qizil! Mushtday boshidan bo'yansa kerak! Dahshat!..

Shoma. Oyijon, agar u bilan shu alpozda gaplashadigan bo'lsangiz, men... nima qilishim mumkinligini o'zim ham bilmayman. Nahotki tushunmasangiz?

Lidi. Hammasini tushunib turibman, o'g'lim. Shuncha chidaganim yetar! Hoziroq uyga jo'na!

Violetta *(kirib keladi).* Fruji! Sen yana bu yoqqa keldingmi?

Lidi. Qo'shnijon, juda vaqtida keldingiz-da. Balki, o'zingiz qizingizga kechalari yigitlarnikiga mehmonga kelish odobdan emasligini tushuntirib qo'yarsiz!

Violetta. Nima, nima?! Mening qizim hech qachon bunday beodobgarchilikni o'ziga ravo ko'rmaydi! Agar bilsangiz, sizning o'g'lingiz birinchi bo'lib biznikiga keldi. Lekin... men... men hammasini basharasiga aytib soldim!..

Lidi. Masalan, nimani?

Violetta. Ya'ni... Yo'q, men boshqa chidolmayman! Albin! Qayerdasiz, Albin!

(Albin paydo bo'ladi. Shoma bilan Fruji bir chekkaga chetlanishadi. Shoma kattakon bo'lak pishloqni oladi, ikkalovlari atroflarida bo'layotgan voqealarga tariqchayam e'tibor bermay, ishtaha bilan pishloq yeya boshlashadi.

Albin. Nima bo'ldi. Violetta?

Violetta. Qizimiz...

Albin. Qizimizga nima bo'pti?

Violetta. Manavi kulrang behayo qizimizga shilqimlik qilgani qilgan.

Lidi. Kim kimga shilqimlik qilyapti, avval shuni aniqlab olish kerak. Behayo o'zingizning qizingiz. Mushtday bo'laturib ko'zlarini bo'yab olganiga o'laymi!

Violetta. Mening qizim behayomi?! Siz esa... siz baroq dumli naynovsiz!

Lidi. Sen bo'lsang-vio-vio-violonchelsan!

Violetta. Hali shunaqami? U holda, siz... siz...

Marton *(kiradi).* Nima g'alva?

Lidi. Kelganing juda yaxshi bo'ldi, Marton. Ularni tartibga chaqirib qo'ygin... mening hol-jonim qolmadi.

Marton. Ertangiz xayrli bo'lsin!

Lidi. Juda soz. Ular meni bu yerda haqoratlashsin-da, siz bo'lsangiz salomlashib o'tiribsiz. Haydab soling bularni!

Albin. Sizni ogohlantiraman: bu oppa-oson ish emas. Men o'zimni himoya qila bilaman.

Lidi. Buni biz hozir sinab ko'ramiz! *(unga tashlanadi.)*

Violetta. Oh, Albin, u yaramas sizni urdi-ku! *(Lidiga tashlanadi.)*

Lidi. Marton, nimaga xuddi poliz qo'riqchisiga o'xshab turibsiz? Xotiningizni do'pposlashyapti-yu, siz bo'lsangiz og'zingizni ochib...

Marton. Nima? Hozir, hozir... *(qovushmayroq mushtlashuvga aralashadi-da, shu zahoti o'zini chetga oladi.)* Voy-voy, la'nati tishlab oldi-ku!

Lidi. Siz ham uni tishlang! Chaqqonroq!

(Umumiy mushtlashuv davom etadi. Bir-biriga chirmashgan tanalardan hosil bo'lgan koptok dahshatli chiyillagancha yo'lida uchragan kastrulkalarni ag'darib, devorlarga urilib, sahnada u yoqdan bu yoqqa dumalay boshlaydi.)

IKKINCHI PARDA

Beshinchi ko'rinish

(Chordoq. Eshik tagida yig'lab, bir bo'lak pishloqni kemirganicha, Fruji o'tiribdi.)

Fruji. Boshqa chidolmayman! Chidolmayman, tamom-vassalom! Bunday hayotga ming la'nat! Hoziroq Buyuk sehrgar mushukning oldiga boraman, nima bo'lsa peshonamdan ko'rdim!.. Voy!.. Balki, bu yeyayotgan oxirgi bo'lak pishlog'imdir... endi bunday yasholmayman, axir! Yo'q-yo'q, orqaga yo'l yo'q. Kechir meni, Shoma! Yomonlab tilga olmasang, bas... *(miyovlash eshitiladi.)*

Voy, bu Buyuk sehrgar mushuk-ku... *(jazm etib.)* Hay, nima bo'lsa bo'ldi! Voy!

Sehrgar mushuk *(kiradi)*. Hoy, sen bu yerda nima qilyapsan? Haligacha birorta sichqon bu yerga kirishga jur'at etmagandi.

Fruji. O mehribon, qudratli Sehrgar mushuk! Men... men oldingga keldim.

Sehrgar mushuk. Oldimga kelganingni ko'rib turibman. Bo'lmasa bu yerda nima ham qilarding? Qulog'im senda, Fruji?

Fruji. Mening ismim senga qayoqdan ma'lum bo'ldi?

Sehrgar mushuk. Buyuk sehrgar mushuk hamma narsani biladi. Bema'ni savollarni berishni bas qil, jahlim chiqsa yamlab yutib yuborishim ham mumkin, holbuki bunday ish mening odatimga kirmaydi. Odatda, men avvaliga sichqonlar bilan o'ynayman.

Fruji. Meni yeyishing ham mumkin, menga baribir... *(yig'laydi.)* Men boshqa bunday yasholmayman!

Sehrgar mushuk. Bo'ldi-bo'ldi, qizaloq, xafa bo'lish kerakmas. Balki, sen uchun biror narsa qilishning uddasidan chiqarman.

Fruji. Shuning uchun ham oldingga kelishga jazm qildim-da. *(hiqillagancha.)* Yo meni yegin, yo menga yordam ber! Bo'lmasa o'zimni bir balo qilib qo'yishim hech gapmas.

Sehrgar mushuk. Tinchlan! Bunchalik kuyib-pishish yaxshimas. Albatta, sichqonning mushukka yordam so'rab murojaat qilishi, juda g'alati hol, lekin hozirgi vaqtda hayotda nimalar bo'lmaydi deysan!.. Xo'sh, qanday qayg'u seni bu holga soldi?

Fruji *(hiqillab)*. Shoma.

Sehrgar mushuk. Kulrang Shomami?

Fruji. Kulrang... Hamma gap shunda-da.

Sehrli Mushuk *(toqatsizlanib)*. Qulog'im senda.

Fruji. Sen rostdan ham menga yordam berolasanmi?

Sehrgar mushuk. Ha, rost, rost...

Fruji. Sen rostdan ham shunday qudratlimisan?

Sehrgar mushuk. Sen o'zi mendan nima istaysan?

Fruji. Oh, Buyuk sehrgar mushuk, meni kulrang sichqonga aylantirib qo'y!

Sehrgar mushuk. Kulrang sichqonga?

Fruji. Ha-da.

Sehrgar mushuk. Yaxshilab o'ylab ko'rdingmi buni?

Fruji. Bo'lmasam-chi.

Sehrgar mushuk. Nima ham derdim, xohishing. Faqat shuni unutma: bu tuslanish senga shodlik keltirishi dargumon. Oq sichqondan ko'ra kulrang sichqon bo'lish yaxshiroqligiga ishonchim komil emas.

Fruji. Oh, menga endi baribir. Men hamma narsaga roziman. Faqat tezroq!

Sehrgar mushuk. Xo'p, yaxshi. Ko'zingni yum! Qattiqroq!.. *(gapirgancha sehrli harakatlar qiladi.)*

Bir-ikki-uch,
Uchdan keyin puch.
Jodu qildim
Voh butkul.
Oq rang edi,
Bo'ldi kul.
Hamma hayron,
Olam guliston.

(Fruji kulrang sichqonga aylanadi.)

Bo'tam! Ko'zingni ochishing mumkin.

Fruji. Senga kattakon rahmat, Buyuk sehrgar mushuk!

Sehrgar mushuk. Hojati yo'q. Qani endi fikrim aynib qolmasidan bu yerdan chaqqon jo'nab qol-chi!

Fruji. Meni bu yerda yo'q deb hisoblayver.

Sehrgar mushuk. To'xta! Xayrlashish oldidan mushuklarning qadimiy hikmatini eslab qol: "Mushuk ikkinchi bor sichqonni changalidan chiqarmas!" Ana endi joning borida bu yerdan jo'na!

Fruji. Sog' bo'ling! *(chopib chiqib ketadi.)*

Sehrgar mushuk *(kuylaydi).*

Sichqonlarning sardori,
Sohibqiron, shopmo'ylov;
Jodugarmiz,
Sohirmiz,
Boshdan oyoq,
Mov-u mov!

(Kimdir eshikni tirnagani eshitiladi.)

Bu senmisan, Shoma? Sen ham ertami-kechmi oldimga kelishingni bilardim. Kir!

Shoma *(titrab-qaqshab kiradi).* Muhtaram Buyuk sehrgar mushuk, iltimos, meni yegin!

Sehrgar mushuk. Bunday bema'nilik bilan shug'ullanishga vaqtim yo'q. Agar xohlasang, kel, seni ko'z ochib yumguningcha oq sichqonga aylantirib qo'yaman, keyin yaxshilikcha xayr-xo'shlashamiz.

Shoma. Shunday qilish mumkinmi?! Oh, muruvvatli Buyuk sehrgar mushuk, naqd dilimdagini topding! Tezroq meni oq sichqonga aylantirgin, umrimning oxirigacha sendan minnatdor bo'laman.

Sehrgar mushuk. Minnatdor bo'lmay qo'ya qol. Yaxshisi, ayt-chi: sen shunday ishga qat'iy qaror qildingmi?

Shoma. Qarorim qat'iy va uzil-kesil!

Sehrgar mushuk. Har holda, kulrangligingcha qolsang yaxshi bo'lardi.

Shoma. Yo'q-yo'q!.. Hech qachon!

Sehrgar mushuk. Tag'in o'zing bilasan... Unday bo'lsa, ko'zingni yum, qattiqroq! *(yana gapirgancha sehrli harakatlar qiladi.)*

Bir-ikki-uch,
Uchdan keyin puch.
Mana, jodu
Qildim voh.
Kulrang edi,
Bo'ldi oq.
Hamma hayron,
Olam guliston!

(Shoma oq sichqonga aylanadi.)

Bo'tam! Ko'zingni ochishing mumkin.

Shoma. Buyuk sehrgar mushuk! Cheksiz minnatdorman...

Sehrgar mushuk. Bo'ldi, bas, yetar! Sichqonlar bilan be'mani safsata sotib o'tirishga vaqtim yo'q. Muroding hosil bo'ldimi, tuyog'ingni shiqillat!

Shoma. Xayr!

Sehrgar mushuk. Biroz sabr qil! Yaxshilab yodingda tut: "Mushuk ikkinchi bor sichqonni changalidan chiqarmas!" Uqdingmi?

Shoma. Uqdim. *(chopib chiqib ketadi.)*

Sehrgar mushuk *(xo'rsinadi).* Obbo befarosat sichqonlar-ey!

Oltinchi ko'rinish

(Pishloqxonaning oq sichqonlar egallab turgan qismi. Violetta kir yuvyapti. Albin tebranma kresloda o'tirib gazeta o'qiyapti. Fruji kirib keladi.)

Fruji. Xayrli kech!

Albin *(gazeta ortidan).* Haaa...

Violetta. Voy sho'rim, bu nimasi?! Albin, qizimizga bir qarang-a!

Albin *(gazeta ortidan).* Unga qarashdan boshqa ishim yo'qmi?

Violetta. Lekin u boshdan oyoq kulrang bo'lib qolibdi!

Albin. Balki, bolalar maydonchasida ifloslangandir. U yer shunaqangi ifloski! Uni cho'miltiring!

Fruji. Hech qayerim iflos bo'lmagan. Cho'milishni xohlamayman!..

Violetta. Qani yur-chi! *(uni sovun ko'pikli tog'oraga solib, cho'tka bilan ishqalay boshlaydi.)*

Fruji. Voy, sovun!.. Ko'zim achishyapti... Bo'ldi, qo'yvoring!

Violetta. Qayerda shunchalik iflos bo'la qolding? Yana anovi Shoma bilan...

Fruji *(pishillab, baqiradi).* Shoma! Shomajon!..

Violetta. Bizning uyda bu nomni tilingga olma! Qani, bir aft-basharangga qarab ko'ray-chi... *(Frujini tog'oradan oladi.)* Voy, voy tavba! Albin! Qizimiz cho'miltirmasimdan avvalgidan ham kulrangroq bo'lib qolibdi.

Albin. Kir yuvadigan kukun bilan yuvish kerak.

Violetta. Yordamlashvoring, Albin! Mening kuchim yetmayapti?

(Ikkovlashib Frujini yana tog'oraga tiqishadi-da, suvga kir yuvadigan kukun solib, qizni mochalka bilan ishqab cho'miltira boshlashadi.)

Fruji. Meni qo'yib yuboring!.. Qo'yvoring!.. Bas!.. *(Panjalari bilan suvni shaloplatib, ota-onasiga sachratadi, ular o'zlarini chetga oladilar.)*

Albin bilan Violetta. Voy yaramas! *(etaklarini qoqishadi.)*

Albin. Dahshat! Bu nima qiliq! Xuddi tarbiya ko'rmagan kulrang sichqonga o'xshab qopti-ya. Mana shu bizning qizimizmi-ya!

Violetta *(uni bir chekkaga tortib).* Albin, menga qarang!

Albin. Qulog'im senda, Violetta.

Violetta. Albin, balki adashayotgandirman, lekin menda negadir bu Fruji emas degan fikr paydo bo'lyapti.

Albin. Bu nima deganing? Aql bovar qilmaydi!

Violetta. Albatta, aql bovar qilmaydi, lekin u sira ketkazib bo'lmaydigan kul rangida-ku. Buning ustiga, qiliqlarini...

Albin. Ha, qiliqlari, aytishim lozimki... Mayli, hechqisi yo'q, hozir hammasiga oydinlik kiritaman. Menga ishonavering, jonginam. *(Fruji o'tirgan tog'oraga yaqin keladi.)* Katta bobongning ismi nima edi?

Fruji. Bilmayman va bilishni ham istamayman.

Albin. Yaramas! Bilmasmish va bilishni ham istamasmish... Endilikda ko'rib turibmanki, bu bizning qizimiz emas. Fruji hech qachon bunday ahmoqlikni o'ziga ravo ko'rmagan bo'lardi... Xonimcha, hoziroq bizning uyimizni bo'shatib qo'ying!

Fruji. Hoy, dadajon...

Albin. "Dadajon!" Endi kulrang sichqon meni dadajon, deb atashi kamlik qilib turuvdi! Yo'qol bu yerdan!

Fruji *(apchirib hamda pishillab tog'oradan chiqadi).* Hali o'zinglar bunga pushaymon bo'lasizlar!

Yettinchi ko'rinish

(Pishloqxonaning kulrang sichqonlar yashaydigan boshqa qismi. Sahnada Lidi bilan Marton.)

Lidi. Hammasiga siz sababchisiz, Marton... Hammasi sizning kasofatingiz!..

Marton. Hoy, Lidiko...

Lidi. Agar bema'ni safsatangiz bilan anovi la'nati oq sichqonlarga tirg'almaganingizda, hamma yoq tinch-osoyishta bo'lardi hamda o'g'limiz Shoma ham hech qayoqqa ketmasdi.

Marton. Lekin o'zing birinchi bo'lib anovi Violetta bilan janjallasha boshlading-ku, axir. Men keyin keldim...

Lidi. Hammasiga baribir sizning kasofatingiz urdi! Men bilan talashmang, iltimos!.. Har qancha gapirsangiz ham, hech narsani isbotlab berolmaysiz.

Marton. Menga ishon, Lidiko...

Shoma *(paydo bo'ladi).* Xayrli tun! Menga ko'zlaring uchib turmaganmidi!

Marton. Lidiko, anavini qara! Kim bu?

Lidi. Oq sichqoncha! *Endi shu kam edi...* Marton, nega uni kiritdingiz?

Marton. Uni men kiritmadim, o'zi kirdi.

Lidi. Qanday surbetlik! Jo'na bu yerdan!

Marton. Ketyapman, Lidiko, ketyapman!

Lidi. Hoy, sizga emas, anovi oq sichqonga aytayapman.

Shoma. Hoy, oyijon, bu men, o'g'lingiz Shomaman.

Lidi. Shoma?! Bo'lmagan gap... Marton, uni hidlab ko'r-chi!

Marton *(Shomani hidlaydi).* Pishloq hidi kelyapti.

Lidi *(u ham Shomani hidlaydi).* Hm!.. Pishloq hidi deyarli sezilmayapti. O'zim ham o'ylovdim-a! Undan biskvit pecheniysining hidi kelyapti. Hamma oq sichqonlardan biskvit hidi keladi, *chunki ular har doim* tegirmonda o'ralashgani o'ralashgan.

Shoma. Oyijon, nima farqi bor...

Lidi. "Oyijon?!" Meni oyijon deyishga qanday jur'at etding?! Yaramas! Marton, menga shvabrani uzatib yuboring! Shvabram qani?

Shoma. Xo'p, mayli, yaxshisi, men hozir ketaman. Lekin hali pushaymon yeysizlar.

Lidi. Oho, tahdid solishini qarang-a!.. Yo'qol bu yerdan, kimga aytyapman!

Sakkizinchi parda

(Shoma bilan Fruji pishloqxona orqasidagi podvalda uchrashishadi.)

(Nimqorong'ilik.)

Shoma. Fruji! *(Fruji alam bilan hiqillaydi.)*

Mana nihoyat seni topdim! Nega yig'layapsan?

Fruji *(hiqillagancha).* Meni uydan haydab yuborishdi.

Shoma. Meniyam. Hoy yig'lamasang-chi! Asosiysi, ikkalamiz yana birgamiz.

Fruji. Shuni aytgin-a...

Shoma. ...Endi hech qachon ajralmaymiz!

Fruji. Rostdanmi?

Shoma. Bo'lmasam-chi? *(nihoyat, Fruji kulrang tusdaligini sezib qoladi.)* Fruji! Senga nima bo'ldi?

Fruji. O'zingga-chi, Shoma?

Shoma. Men... men oq sichqonchaga aylanib oldim. Sen tufayli.

Fruji. Men ham, xuddi ko'rib turganingdek...

Shoma *(g'amgin).* Ko'ryapman...

Fruji. Shoma, nega menga bunaqa ajabtovur qarayapsan?

Shoma. O'zing-chi?.. Nega unaqa g'alati qarash qilyapsan?

Fruji. Hecham g'alatimas-da. Shunday... senga nima desamikin... Axir, men sen bilan tanishganimda, kulrang tusda eding... endi bo'lsa...

Shoma. Menga ham momiqday oqliging juda yoqardi, lekin... lekin bu unchalik dahshatli emas, Fruji... sen menga hozir ham juda, juda yoqasan... *(g'amgin kuylaydi.)*

Pishloqxo'rman,
Jon-tanim pishloq.
Bu yurakning
Izhori, biroq:
Yoqtirmasang...

Negadir qovushmayapti. Hamma so'zlarini esimdan chiqarib qo'yibman...

Fruji. Men ham eslolmayapman.

Shoma. *Endi nima qilsak ekan?*

Fruji. Bilmayman.

Shoma. Panjangni ber-chi!

Fruji. Yana uning oldiga boramizmi?

Shoma. Ha.

Fruji. Hatto agar?..

Shoma. Hatto agar "mushuk ikkinchi bor sichqonni changalidan chiqarmasayam".

Fruji. Ketdik.

To'qqizinchi ko'rinish

(Chordoqda Shoma bilan Fruji paydo bo'lishadi.)

Shoma. Sen uni ko'ryapsanmi?

Fruji. Yo'q.

Shoma. Balki, mushuk ko'rinmas qiyofaga kirib olgandir.

Fruji. Balki, u shunchaki yashirinib olgandir! Masalan, anovi sandiqning ortida o'tirib, bizni poylayotgandir...

Shoma *(baqirib).* Mushuk!

Fruji. Shovqin solma, birdan eshitib qolsa-chi!

Shoma. Uni axtarib keldik-ku, axir?!

Fruji. Baribir qo'rqyapman.

Shoma. Qo'rqma! Bo'lar ish bo'ldi! Kel, yaxshisi, uni birgalikda chaqiramiz!

Fruji bilan Shoma *(birgalikda).* Mushuk!

Shoma. Javob bermayapti.

Fruji. Shoma, hov anavi yerda...

Shoma. Qayerda?

Fruji. Sandiqning orqasida... o'sha yerda nimadir qitirlayapti.

Shoma. Aha. Hozir qaraymiz.

Sandiq ustiga kichkina Paskal nomli sichqon sakrab chiqadi.

Fruji. Voy!

Shoma. Oho, bu axir sichqoncha-ku!

Paskal. Sizlarga kim kerak?

Shoma. Buyuk sehrgar mushuk kerak. Sen uni qayerdan ham bilarding. U bilan tanishuv sen uchun fojiali tugashi mumkin-ku. Buyuk sehrgar mushuk qo'rqinchli va qudratli.

Paskal. Bilaman.

Fruji. Qayerdan bilasan?

Paskal. Mening o'zim Buyuk sehrgar mushukman.

Shoma bilan Fruji. Sen-a?!

Paskal. Nechun ajablanyapsizlar?

Shoma. Axir...

Paskal. Biroz sabr qiling!.. Odamlar aytganidek, yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi... Qaranglar! *(Mushukka aylanadi.)*

Fruji. Oh... Tezroq qochaylik!..

Sehrgar mushuk. To'xtanglar! *(yana sichqonchaga aylanadi.)* Qo'rquvga hojat yo'q. Ko'rib turibsizlarki, Buyuk sehrgar mushuk — bu oddiygina sichqoncha Paskalning o'zginasi. *(ta'zim bajo keltiradi.)* Xizmatinglarga tayyorman.

Fruji. Unda... nega shuncha vaqtdan beri mushukka aylanib yuruvding?

Paskal. Jo'yali savol. "Uyda bitta mushuk yetarli" degan qadimgi maqolni eshitganmisizlar? Boshqa mushuklarni zada qilish uchun sehrgar qiyofasiga kirgandim. Tushunarlimi?

Shoma. Demak, sen bizlarni himoya qilish uchun bularning hammasini to'qib chiqardingmi?

Paskal. Shunga o'xshashroq. Lekin, asosan, o'zimning tinchimni o'ylab qilganman. Shirin xayollarga berilganimda mushuklarning xalaqit berishini jinimdan battar yomon ko'raman... Darvoqe ishga kirishish vaqti bo'ldi.

Fruji. Azizim Paskal... men seni shunday deb atasam maylimi?.. Biz yana xohlardikki...

Paskal. Men ham xuddi shu niyatdaman. Qani, ko'zlaringni mahkam yuminglar-chi! Boshladik.

Sehrli kuy yangraydi.

Bir-ikki-uch-puch,
Yel qovuch...
Yel qovuch...

Shoma yana
Kulrang voh,
Voh, voh, voh!
Fruji ham
Bo'ldi oq.
Oq, oq, oq!
Bir-ikki... Bir-ikki,
Tamom-vassalom!

(Hammalari hayratlangancha oh urishadi.)

Paskal. Endi ko'zinglarni ochishlaring mumkin.

Shoma. Fruji!

Fruji. Shoma!

(Shoma bilan Fruji bir-birlariga yaqinlashishadi. Kuy eshitiladi. Shoma bilan Fruji birgalikda kuylashadi.)

Bodroq-bodroq
Yulduz-yoritgich.
Dunyo nurli,
Sokin, go'zal kech.
Bizga ayon,
Osmon mayog'i,
Bir karj pishloq —
Bu — Oy o'rog'i!

Paskal. Aftidan, hammasi joyida, shekilli... Ehha! Hali ota-onalaringiz o'rtasidagi munosabatlarni ham epaqaga keltirish kerak...

Fruji bilan Shoma *(baravariga).* Paskal! Azizim, bizning jajji Paskalimiz!

Paskal. Xo'p mayli, hoziroq urinib ko'raman. Sizlar hozircha shu yerda tura turinglar!

O'ninchi ko'rinish

(Pishloqxona. Albin, Violetta, Lidi, Marton o'zaro janjallashib turishibdi.)

Albin. Hammasiga siz aybdorsiz, deb ta'kidlayman. Kulrang sichqonlar butunlay kaltafahm bo'lishadi.

Lidi. Siz sababchisiz, faqat siz, siz! Tortishmang! Oq sichqonlar faqat ko'ngilsizlik keltiradi. Sizlardan o'zi, hatto tilga olishga ham irganaman... biskvit hidi keladi. Fuf!

Violetta. Sizlardan esa... sizlardan kuygan jizzaning hidi keladi!

Lidi. Marton, eshitdingizmi?! Nega tek turibsiz?

Marton. Men... men nihoyatda g'azabga minganimdan, tilimga gap kelmayapti.

Lidi. Gapirishning hojati yo'q! Bu la'nati oq sichqonlar gapga tushunisharmidi? Ular bilan boshqacha ohangda gaplashish lozim.

(Kulrang va oq sichqonlar tahdidli qiyofada bir-birlarining ustiga bostirib kela boshlashadi. Shu vaqt narvonda Buyuk sehrgar mushuk paydo bo'ladi.)

Marton. Bu-bu-buyuk sehrgar mushuk!..

(Sichqonlar qo'rqqanlaridan joylarida qotib qoladilar.)

Sehrgar mushuk. Aziz qo'shnijonlar! Nega qoqqan qoziqdek turib qoldinglar? Yaqinroq kelinglar, salomlashaylik.

(Sichqonlar duch kelgan tomonga qochishadi, lekin Sehrgar mushuk ularni dumlaridan ushlab oladi.)

Violetta. Yordam beringlar! Qutqaringlar! Yordam beringlar!

Lidi. Marton, biror narsa desangiz-chi, axir!

Marton. Aftidan, adoyi tamom bo'ldik, shekilli.

Albin. Bu qonunga xilof ish! Haqqingiz yo'q!.. Bizni hoziroq qo'yib yuboring!

Sehrgar mushuk. Jim! Undan ko'ra aytinglar-chi, nimani bo'lisholmay janjallashyapsizlar?

Albin. Biz... biz... ya'ni degandek...

Sehrgar mushuk. Duduqlanmay gapir! Xo'sh, nima gap?

Lidi. Gap shundaki, ya'ni biz, har holda, kulrang sichqonlarmiz...

Violetta. ...biz esa oq...

Sehrgar mushuk. Mushuklar uchun hammasi ham bir.

Albin. Bajonidil ishonaman... lekin bilasizmi... bizning qizimiz bor...

Violetta. Fruji! U qayoqlarda yurganikin, bechoraginam *(yig'laydi.)*

Lidi. Nima Fruji? Bu yerda Frujining qanday aloqasi bor? O'g'limiz Shoma qani? U qayoqqa ketdi?.. Hammasiga anovi la'nati oq sichqonlar aybdor...

Sehrgar mushuk. Bo'ldi, bas! Uyalsalaring bo'lardi! Faqat "oq"-u "kulrang", "kulrang"-u "oq" degan so'zlarni eshityapman... Shaxsan men kulrang va oq sichqonlarni birdek sevaman.

Albin. Meni kechiring-u, lekin siz xolis baho bermayapsiz. Siz bu masalaga mushukka o'xshab qarayapsiz.

Sehrgar mushuk. Ehhe, mushukka o'xshab deng?! Bo'lmasa, mana, qaranglar! *(sichqoncha Paskalga aylanadi.)*

(Hammalari ajablangancha oh tortib yuborishadi.)

Paskal. Ruxsat etsangiz, o'zimni tanishtirsam! Buyuk sehrgar mushuk, to'g'rirog'i, jozibador sichqoncha Paskal.

Lidi. Kim o'ylabdi deysiz!

Paskal. Gapimga xalaqit bermasligingizni o'tinaman, biror kor-hol bo'lmasin tag'in. Qisqasi, shu yerda birga, qo'shni yashayotganlaringdan beri sizlardan "kulrang"-u "oq", "oq"-u "kulrang" degandan boshqa gap eshitmayapman...

Albin. Lekin o'zingiz o'ylab ko'ring: oq sichqonlar yomon ekan-da.

Paskal. Bo'ldi, bas! Endi gaplarimga quloq solinglar. Men yaxshi-yu, sen yomon deb bahslashguncha, yaxshisi, o'zaro o'xshashligingiz, ko'pgina umumiy tomonlaringiz haqida o'ylang.

Albin *(ustamonlik bilan).* Balki, siz haqdirsiz. Shubhasiz, qandaydir umumiy tomonimiz bo'lishi kerak.

Fruji *(paydo bo'ladi).* To'g'ri, dadajon! Men hamisha sizni eng aqlli deb hisoblab kelganman.

Violetta. Fruji, qizalog'im!

Shoma *(paydo bo'ladi).* Mana men ham keldim.

Lidi. Shoma, o'g'lim! Qayerlarda yuruvding?

(Ota-onalar shod-xurramlik bilan bolalarini quchoqlaydilar.)

Shoma. Oyijon, sizga ba'zi narsalarni aytishim kerak. *(qulog'iga pichirlaydi.)*

Lidi *(Paskalga).* Yoshlar bir-birlarini yoqtirib qolishgan bo'lsa men nima ham derdim... Lekin, har holda...

Paskal. Nima, har holda?

Lidi. Bizning nimamiz oq sichqonlarga o'xshaydi?

Violetta. Biz kulrang sichqonlarga-chi?

Paskal. Hozir tushuntiraman. Diqqat qilib qaranglar-a! *(mushukka aylanadi va tahdidli miyovlaydi.)*

(Sichqonlar baqirib-chaqirgancha turli tomonga qochishadi. Sehrgar mushuk yana sichqoncha Paskalga aylanadi.)

Xo'sh, qalay?

Violetta. Voy-voy, yuragim chiqib ketay dedi-ku!

Paskal. Mana shunaqa. Birinchidan, oq-u kulrang bo'lsin, barcha sichqonlarni mushukdan birdek qo'rqishlari birlashtirib turadi.

Violetta. To'ppa-to'g'ri.

Marton. Ikkinchidan-chi?

Paskal. Ikkinchidanmi? H-m!.. Ijozatingiz bilan, men avval ozgina tamaddi qilvolsam. Chordoqda negadir qornim ochib qolibdi.

(Xuddi ko'z boylog'ichday har xil sehrli qiliqlar qiladi, shu zahotiyoq sahna ortidan kattakon pishloq bo'lagi dumalab chiqadi. Paskal unga tashlanib, hech kimga qaramay apil-tapil yeya boshlaydi.)

Lidi. Ishtahasi karnay-ku!

Albin. Voy-buy birpasda yarmini yeb bo'ldi-ya!

Marton. Lidiko, men ham ochiqqanga o'xshayman.

Paskal. Pishloqdan tatib ko'rishni xohlaysizmi?

Hammalari. Xohlaymiz!.. Albatta xohlaymiz!.. *(birgalashib pishloqqa tashlanishadi.)*

Paskal. Mana shunday qilib, ikkinchidan, bizni pishloqxo'r sichqonlar bo'lganligimiz birlashtirib turadi.

Parda

NASR

LASLO BYOTI

(1826–1857)

Laslo Byoti 1826–1857-yillarda yashab ijod qilgan atoqli venger adibi.

Uning adabiy nashrlardagi ilk chiqishlari 1840-yillarga to'g'ri keladi. U dastavval hajviy suratlar muallifi sifatida tanilgan. Keyinroq uning qisqa hikoyalari, hajviyalari mamlakatning taniqli jurnallarida tez-tez bosila boshladi. Birinchi kitobi — "Tirishqoq o'quvchi qiz" 1846-yilda nashr etilgan. 1853–1855-yillarda uning hikoyalari "Mushtumni ishga solib" nomli uch jilddan iborat kitob shaklida nashr etiladi. "Beva ayol va proletar" komediyasi 1856-yilda Pesht shahridagi Milliy teatrda sahnalashtirilgan. "Men aytaman" (1855), "Iblisning kundaligi" (1856), "Vaboning 101 tomchisi" (1856) nomli asarlari unga shuhrat olib keldi. Uning ko'p asarlari o'limidan keyin chop etilgan. "Xarid qilgan, qo'lga oladi" (1857), "Ko'k mushukka" (1858) hikoyalar to'plamlari, "Cho'l o'g'loni" (1857) romani shular jumlasidandir.

Uning asarlari dunyoning turli tillariga tarjima qilingan. Yozuvchi, yumorist Laslo Byoti asarlarini taniqli adib Olim Otaxon o'zbek tiliga o'girgan.

IQROR

(hikoya)

Mamlakat sharqida joylashgan N shaharchasini bilasizmi? Bilmasangiz, o'kinmang sira, o'kinishga arzimaydi. Bunaqa shaharlar tiqilib yotibdi, hammasi bir go'r, gugurt qutisidek bir xil. Bitta-yu bitta ko'chasi yozda bilq-bilq tuproq, qishda, ayniqsa, qishning oxirlari — fevral oyida loy, balchiq, markaziy may-

donida uchta cherkov qad rostlagan, uchta pivoxona erta-yu kech ochiq, kinoteatri oldidan nuqul odam arimaydigan fayzsiz shaharchani ko'z oldingizga keltiring. U yerlarda doim diqqating oshadi... yuraging siqiladi...

Men ana shunaqa shaharchada uzoq yashadim. Lekin siz meni mutlaqo tanimaganingiz uchun, bu maskanda yashab, qanchalar qiynalganlarimni tasavvur ham qilolmaysiz. Darvoqe, gap men haqimda emas, demak, mening shikoyatlarim noo'rin. Baxtimga, u yerdan ko'chib ketganimga ancha bo'lgan. Men mana shu ovloq, noobod makonda uchratib, hamon unutmagan chinakam inson haqida hikoya qilib bermoqchiman. Negaligini hozir tushunib olasiz.

U oddiygina injener edi. Ismini aytganim bilan biron nima o'zgarib qolmaydi. Biz u bilan juda inoqlashib ketdik, nima sababdan shunday bo'lganini hozir, hatto eslolmayman. Nafsilamrini aytganda, men aslida odamlar bilan chiqishib ketolmaydiganlar toifasidanman. Shuning uchunmi, nari borsa uch-to'rtta o'rtog'im bor, xolos —, ular ham uylanish iblis o'ylab topgan kashfiyot, deb hisoblaydigan ashaddiy eski bo'ydoqlar. Ular, ko'pincha, ayollar naslining tuzoqlaridan qanday hiyla-nayranglar bilan qutulib qolganlarini gapirib maqtanib yuradilar. Lekin injenerning benuqson oilasini ko'rib havasim kelganida, ba'zan, o'ttiz yil muqaddam bir qizni... tashlab ketib, juda katta xatoga yo'l qo'ymadimmi, deya o'ylab qolaman... E, nimasini aytay, endi foydasi bormi eslashdan. O'tdi-ketdi, qaytib kelmaydi baribir. Qolaversa, o'zim haqimda emas, injener haqida hikoya qilib beraman, degandim, shekilli.

Xullas, mening tanishim yo'l qurilishi boshqarmasida yetakchi mutaxassislardan bo'lib, olib borilayotgan ishlardan doim ko'zquloq bo'lib turishi lozimligi uchun shu shaharchaning o'zida istiqomat qilar edi. Tashqi ko'rinishidan u oddiy, bo'sh-bayov, o'rta bo'y, o'ttiz beshga chiqqan, ko'zoynakli, sochlariga oq oralagan yigit edi, o'zining sohasini suv qilib ichib yuborganidan tashqari, o'ta bilimdon, buning ustiga, kamtar va xushmuomala — nimasini aytasiz, tom ma'nodagi ziyoli kishi edi. Yanayam soddaroq aytadigan bo'lsam — haqiqiy inson edi.

Ikkovimiz ham "ijtimoiy taomil" degan narsani yomon ko'rardik. Biz doimo biron yerda ko'rishib, suhbatlashib o'tirardik va ochig'i, (chunki men ham o'zimga yarasha nimanidir bilar edim) bir-birimizni juda yaxshi tushunar edik. Men injener do'stimning uyiga deyarli har kuni borardim. Yashirib nima qilaman, shoirlar vasf etguvchi "oshiyon" nimaligini o'sha yerda his qildim. Injener, uning yoshgina mallasoch rafiqasi hamda do'mboqqina qizchalari havas qilarlik darajada ahil va hamjihat hayot kechirishar edi. Uyda osoyishtalik, xotirjamlik, o'zaro hurmat va yakdillik hukm surardi. To'g'risi, bu xonadonga kelib, yolg'izligimni unutar edim, bir kunlik hayotim menga olam-jahon ta'sir etardi, buning o'rnini boshqa hech narsa bosolmasdi.

Men ularning do'sti edim, deb bemalol ayta olaman. Faqat tan olishim kerak, qadrdon do'st deb bilishmasdi, shekilli. Chunki injener oilaviy sharoiti, turmushi haqida sira gap ochmasdi. Yolg'on bo'lmasin, faqat bir marta, o'shandayam tasodifan yuz bergan voqea tufayli biroz ko'nglini ochgan edi. Men ana o'sha voqea haqida gapirib bermoqchiman.

Aprelning oxirlari, havo biram yoqimli, go'zal edi. Ehtimol, mana shuning ta'sirida qulfi dilimiz ochilib ketgan bo'lsa ajab emas.

Men kechki payt injenerning uyida ovqatlandim. Yeb-ichib bo'lgandan keyin ham turib ketmay dasturxon atrofida o'tiraverdik. Odatdagidek o'tgan-ketganni eslab, hazillashib o'tirdik. Ko'p o'tmay, rafiqasi stolni yig'ishtirdi-da, qizlari bilan oshxonaga chiqib ketdi.

Injener bilan yolg'iz qoldik. Kaminda so'nggi o'tinlar yonib tugamoqda edi, alanganing shu'lasi quyuqlashib borayotgan oqshom qorong'isida odamga alohida xayoliy bir kayfiyat baxsh etardi. Biz bir necha daqiqa alanganing jilvakor o'yiniga maftun bo'lib tomosha qildik. Mening ko'nglimdan o'tmish bilan bugungi kunni bog'lashga undovchi fikrlar kechardi, hayajonlanardim, pirovardida so'zlar quyilib, mening ixtiyorimsiz to'lib-toshgan yuragimdan to'kila boshladi. Men hayotimning ma'lum damlari haqida gap ochdim; bu voqealar yigirma yashar yigitcha uchun fojia edi, qolaversa, keyingi o'n yil davomida xotira sifatida yolg'iz o'sha damlarda ko'rgan-kechirganlarim xayolim-

da muhrlanib qolgandi. Bir vaqtlari jism-u jonimga o't qo'ygan voqealar bugun azoblamasdi. Undan keyin adoqsiz hasratlarimni birov eshitayaptimi, yo'qmi, menga farqi yo'q edi. Men bu eski, siyqasi chiqqan, lekin o'zim uchun hamon yoqimli qissani so'zlab berayotgandim, chunki bu mening boshimdan o'tgan tarix edi. Nima desam ekan, siz bunga o'xshagan voqealarni minglab o'qigansiz kitoblarda, son-sanoqsiz odamlarning boshiga tushgan: boy-badavlat asilzodalar oilasi... latofatli, husnda tengi yo'q qiz... kambag'al yigit... Yashirincha uchrashishlar... hadik va xavotir ichidagi bo'salar... ota-onalarning taqiqlari... ayriliq... "Hech qachon!", "Bir umr!" degan qasamlar... Oxirida esa... tamom...

"Shu tariqa hamon bo'ydoqman, — deya hikoyamni tugatdim men, — o'shandan buyon uylangim kelmaydi — xohlamayman, tamom-vassalom!"

So'nggi so'zlarni qandaydir kibr-havo va yasama harakat bilan qo'shimcha qildim. Keyin, nafasimni rostlab: "Lekin siz bilan tanishgach esa..." deya davom ettirdim.

Men to'xtab, biroz tin oldim. Yana u oilaviy baxtimga havas qilayapti, deb o'ylab yurmasin... Oraga jimlik cho'kdi. Injener olovdan ko'z uzmay, churq etmay o'tirardi. Oxiri lablari: "Biz bilan?" deya pichirladi.

Uning bu so'zlari allanechuk g'alati, juda g'alati ohangda chiqdi. Bu savolda kutilmagan bir nima bor edi, go'yo mana shu ikki so'zdan iborat jumla zamirida alam va musibat yashirin edi. Men lom-mim demadim. Biz noqulay bir sukunat bag'rida indamay o'tirardik, daf'atan injener go'yo uyqusiragan odam uyg'onib ketgani kabi kerishdi-da, bir nima deb ingradi, so'ng tamaki olib tutatdi va boshidan o'tgan voqeani hikoya qilishga kirishdi. Avvaliga u shoshilmasdan, xuddi kerakli va ta'sirchan so'zlar izlayotgandek to'xtab-to'xtab gapirayotgan bo'lsa, bora-bora tobora ravon va ta'sirli ohangda so'zlay boshladi: "Demak, sening nazaringda men go'zal va baxtiyor hayot kechiryapman ekan-da?.. Ehtimol, shundaydir... Lekin baxt, deganda biz nimani tushunamiz?.. Men oilamni yaxshi ko'raman, ishimdan ko'nglim to'q... odamlar

bilan murosayi madora qilaman, nima ham derdim, baxt... mana shudir. Faqat bir paytlar..."

U bir narsani aytgisi keldi-yu, lekin ikkilandi, xuddi aytishini ham, aytmasligini ham bilolmay, boshi qotgan odamdek o'yga toldi, oxiri, og'ir so'lish oldi va uzuq-yuluq boshlangan, pirovardida to'xtay, deb qolgan hikoya ravon bir ohangda davom etdi: "Bilasanmi, talabalik davrimda, men oshig'-u beqaror edim. Hm, oshig'-u beqaror emish, shunaqayam ahmoqona ta'rif bo'ladimi? Odam yo sevadi, yo sevmaydi — bu tuyg'uning mezoni, o'lchovi yo'q. Falsafa so'qimayman deyman-u, baribir beixtiyor... o'zim ham sezmay qolaman, men injenerlikka o'qirdim, u — til va adabiyot fakultetida tahsil olardi. U mendan bor-yo'g'i ikki yosh kichik edi. Qayerda, qachon tanishganimizni... eslolmayman. Talabalik davrida ikki yoshning tanishib qolishidan oson ish bormi dunyoda?.. Xullas, biz bir-birimizga ko'ngil qo'ydik.

Uni mohitobon, sohibjamol deyolmayman. Kursdoshlarim, hatto mening xushtorligimdan kulishardi. Lekin u qiz juda boshqacha edi, hech kimga o'xshamaydigan bir fazilati bor edi. Ko'ngilchan, qandaydir o'ziga jalb etadigan ohanrabosi bordek... men buni tushuntirib berolmayman, hatto o'sha paytda ham tushuntirib berolmasdim." U kulimsirab qo'ydi.

"Men injenerlikka o'qirdim... Qisqasi, uni sevib qoldim, birgina men emas, ko'pgina talabalar mening ko'yimga tushishgan edi, lekin u meni tanladi, holbuki, o'sha paytda ham ko'rinishim bir ahvol edi.

Biz tez-tez uchrashib turardik, birga sayr qilardik, to'g'risini aytsam, adoqsiz suhbatlarimizdan bironta jumla esimizda qolmasdi, shart ham emasdi, bu suhbatlar bir bahona edi, biz bir-birimizga to'ymas edik... yashirib nima qildim, totli bo'salardan boshim aylanib ketardi... Men go'yo osmonda yurardim, u meni sevgani uchungina emas, balki mendan ko'ra kelishganroq yoki aqlliroq boshqa yigitni emas, aynan meni sevganligidan faxrlanardim, bo'lmasa qancha yigitlar unga oshig'-u beqaror edi.

Ikki yil shu taxlit davom etdi, oxiri ikkovimiz ham Budapeshtdan ketadigan vaqt yetdi. Keyingi o'quv yilining boshlanishini intizor bo'lib kutardim, kunlarni sanardim.

Bu juda g'alati, men shu choqqacha his qilib ko'rmagan tuyg'u edi! Men o'sha paytda ham xuddi hozirgidek edim, endi she'rlar yoza boshlaganimni tasavvur qil! She'r deyishga arzimas edi aslida. Biroq unga manzur bo'lardi, ular haqida hech kim hech narsa bilmasdi. Bundan bexabar kursdoshlarim meni logarifmlar jadvali-yu o'zgarmas miqdorlar dunyosidan boshqa dardi yo'q, deb hisoblashardi. Men bo'lsam ijod qilar, she'r yozar, yoddan o'qib yurardim... Ularni yolg'iz ko'nglimni rom etgan o'sha dilbargagina berardim, u esa, bu she'rlar birinchi bo'salar kabi, faqat ikkovimizga tegishlidir, derdi.

Biz istiqbol haqida zarracha tashvish chekmasdik hali, shuning uchun bu mavzu bizga yot-begonaligicha qolgandi. Oila qurish haqida gaplashish xayolimizga ham kelmasdi, shunday bo'lishi tabiiy — qachon ikki yosh bir-birini sevsa, o'zgacha bo'lishi mumkin ham emas, to'g'rimi?! Avvalo, men durustroq ish topishim, u esa o'qishni tugatib olishi kerak edi. U istiqomat qilayotgan talabalar shaharchasidagi yotoqxonani yaxshi bilardim, chunki unga ko'plab xat-xabar yuborganman.

Dorilfununni tugatgan kezlarim, men bir yerda muqim yashamaganligim tufayli xatlarimga javob yozib yuborishning iloji yo'q edi.

Muhabbat vaqt va masofaga teskari tarzda susayib boradi, deyishadi. Ehtimol, biroq bu menga taalluqli emas, men bundan mustasnoman. Chunki mening hislarim kamayish tugul, zarracha o'zgarmadi, balki kuchayib borardi, men ilgari uni qanday sevgan bo'lsam, shunday sevardim, faqat bunga bir qadar ko'nikib ketdim, shekilli. Men bu tuyg'u bir lahza bo'lsin yuragimni tark etganini eslolmayman. Qolaversa, unga shunchalik o'rganib qolgan edimki, u har kuni gazeta o'qish, ovqat yeyish, yuz-qo'lni yuvish singari hayotimning bir qismiga aylanib qolgandi. O'ylashimcha, agar odamlar tish og'rig'i bilan tug'ilganda edi, hayotlari davomida hech kim tish og'rishi mumkinligiga ishonmagan bo'lardi. Aksincha, agar og'rimasa bunga biron bir kasallik belgisi sifatida qaralardi. G'alati-a, to'g'rimi?" U pashshani haydayotgandek qo'l silkitdi.

"Yana falsafa so'qiyapmanmi?.. Nima deyotgandim? Ha... Yillar o'tdi, men ishga kirdim, u haqda o'ylaganim o'ylagan,

ishonchim komilki, u ham men haqimda o'ylardi. Keyin, esingda bo'lsa, "oltin davr" deb nom olgan yuksalish yillari boshlandi. Menga o'z yurtimda yaxshi ish taklif qilishdi. Ko'nglimdan shuni unga xabar qilish fikri o'tdi. Uni deyarli bilmasligimni ana o'shanda anglab yetdim. Uning yuz-ko'zini juda yaxshi eslayman — rasm chizishni bilganimda edi, rasmini fotoapparatdan ham tiniqroq, aniqroq qilib chizib bera olardim. Biroq uning turar joyini, tug'ilgan manzilini bilmasdim. Faqat tug'ilgan shaharchasining nomini bilaman. Ko'chasining nomi, qaysi uyligini ko'rsatmay xatni yuboraverdim. Tabiiyki, javob ham, maktubim ham kelmadi. O'zim borib qidirishga vaqtim yo'q, bitta-yarimtasini yollashga esa pulim yo'q edi. Men topolmasligimga ko'zim yetib taqdirga tan berdim: o'zi shunaqaman: kurashish zarur paytda, jon-jon deb taslim bo'lib qo'ya qolaman.

Ittifoqo, gazetada "Bahor ilhomlari" tanloviga yuborilgan she'rlarni o'qib qoldim. Bunday tanlov o'tkazish odat tusiga kirgan, eng yaxshi she'rlarni saralab gazetalarda bosishardi. Gazetani qanday o'qishimni bilasan... sidirg'asiga... Xullas, uchinchimi, to'rtinchimi she'rdan keyin birdan o'zim yozgan she'rga ko'zim tushdi-yu, hang-mang bo'lib qoldim. Yanglishmog'im mumkin emas — men o'z she'rlarimni yoddan bilaman. "Iqrornoma" degan bu she'rimni behad yaxshi ko'rar edim...

She'rni tahririyatga kim yuborganini, albatta, topishim shart edi. Agar u yo'llagan bo'lsa, nihoyat uni topaman. Boshqa odam bo'lsa-chi?.. Baribir nimadir oydinlashadi-ku!

Tanlov shartlariga binoan she'rlar muallifi e'lon qilinmagandi.

Men tahririyatga xat yubordim, keyin o'zim bordim, biroq bosh muharrir to tanlov natijalari ma'lum bo'lmaguncha, shoirning ism-sharifi hamda turar joyi oshkor qilinmaydi, deb turib oldi — aytishdan bosh tortdi. G'olibni O'rta dengiz bo'ylaridagi mamlakatlar bo'ylab ikki kishilik sayohatga yo'llanmalar kutmoqda edi. Yana besh-o'n kunga emas, naq ikki oyga! Meni shashtimdan qaytarishi mumkin bo'lgan yirik mukofot ekan. Lekin men ortga chekinmadim... Oxir-oqibat, muharrir mening maktubimni she'rni yuborganga berib qo'yishga ko'ndi. Men o'sha zahotiyoq o'tirib yoza boshladim. Ishq dardida o'rtangan yurak

tug'yoni to'g'onni o'pirishga qodir toshqinga o'xshaydi. Maktub, asosan, dil izhori, o'tinch, gina va yana izhori muhabbatdan iborat edi.

Xat jo'nab ketdi. Men ikki oycha devonadek yoki telbakezik odamdek es-hushimni yig'ishtirolmay javob kutib yashadim. Javobga intizorman, lekin negadir qo'rqaman — yuragim bezillaydi: bekor qilayotgandirman, balki endi foydasi yo'qdir?! Hayotim o'zaniga tushib olgan jilg'adek bir tekis oqyapti-yu... Ehtimol, uning turmushi ham iziga tushib ketgandir... Endi nima bo'ladi? Hammasi ostin-ustun bo'ladimi? Kutishga arzirmikan? Unaqada maktub jo'natmaslik lozim edi..."

Injener do'stim bir nimani eslashga uringandek jim bo'lib qoldi. Tamakisini ketma-ket tortdi-da, burqsib havoga ko'tarilayotgan tutunning yuqoriga jimjimador o'rlashini kuzatib xayol surib qoldi. Men sabrsizlik bilan hikoyaning davomini kutardim, hatto: "Xo'sh, o'sha ekanmi?" deya dag'dag'a qilishimga oz qoldi. Lekin istihola qildim. Injener xo'rsinib hikoyasini davom ettirdi: "Ikki oy o'tgach, javob xati keldi. Konvertdagi tanish dastxatni ko'rib yuragim qinidan chiqib ketay, dedi. Konvertni ochishga, ochig'i, yuragim dov bermay bir necha soat o'tirgan bo'lsam kerak! Ha, bu o'sha. O'sha, u — o'sha! Tahririyatga she'rni o'sha yuborgan ekan, mening she'rlarimni tabarruk xotiralar kabi hamon ko'z qorachig'idek asrab, ardoqlab yurar ekan. U meni unutmabdi, hech qachon unutmasa kerak, u meni kutgan, hatto hozir ham kutayapti, meni chin ko'ngildan sevadi. Hatto biznikiga kelmaysanmi, deb so'rayapti?"

Bo'pti, mayli, yetar. Men bu voqeaning nima bilan yakunlanganini bilaman-ku! Albatta, tole yor bo'lgan, ko'rdim-ku ularning turmushini — bir so'z bilan aytganda, baxtli oila!

"Do'stginam, bu yog'ini aytmasang ham bo'ladi. Haqiqiy, chinakam ishq-muhabbat tarixi! Demak, oxir-oqibat, sen o'z yoringni topding, sevganing o'zing bilan — yoningda. Bundan ortiq baxt bormi dunyoda, oshna?.."

Butun hikoyasi davomida bir marta ham qaramagan injener ilk bor mening ko'zlarimga tikildi. U yana tamaki tutunini huzurlanib tortdi-da, yonib bitayotgan kaminga qaradi. Qorong'ilik

quyuqlashdi, menga uning yuz-ko'zi arang ko'rinardi. Men nima uchundir o'zimni behuzur sezardim. Hozirgina jo'shib aytgan dil so'zlarim quyuqlashayotgan qorong'ilik qo'yniga singib ketgandek edi. Men yana so'z qotishga botinolmadim, do'stim esa lom-mim demasdi.

Shu vaziyatda birmuncha vaqt o'tirdik. Men hozir g'aroyib bir hodisa yuz beradigandek indamay kutardim. Nihoyat, do'stim qaddini rostladi, o'chay deb qolgan tamaki qoldig'ini kaminga uloqtirdi-da, hirqiragan ovozda so'z qotdi: "Maktub... O'sha maktub... U kecha keldi".

FRIDESH KARINTI

(1887–1938)

Fridesh Ernyo Karinti — Vengriyaning eng ko'zga ko'ringan yozuvchilaridan biri. 1902-yili Jyul Vernga o'xshatma tarzda yozilgan "Yer markaziga to'y sayohati" asarini ilk marta taqdim etgan.

Vengriya modernistlarining "Nyugat" ("G'arb") jurnali bilan hamkorlik qilgan. Fridesh Karinti bir qancha she'rlar, parodiyalar, hikoyalar, fantastik-hajviy qissa va romanlar, dramalar yozgan. Alan Miln, Jonatan Svift asarlarini venger tiliga tarjima qilgan.

Asarlari: "Qiyshiq oyna" (1912, hikoyalar), "Siz shunday yozasiz" (1912, parodiyalar), "Yosh yigit bilan uchrashuv" (1913, hikoyalar), "Fa-re-mi-doga sayohat" (1915, parodiya), "Kechiring, hurmatli ustoz" (1916, hajviy roman), "Sehrli kreslo" (1918, pyesa), "Xristos va Varrava (1918, felyetonlar), "Kapillariya" (1921, ""Fa-re-mi-doga sayohat"ning davomi), "Sim ustida raqs" (1923, roman), "Buni hech kimga ayta olmayman" (1930, she'rlar), "Jannatdan xabar" (1937, hajviy roman), "Bosh suyagim uzra sayohat" (1937, roman-grotesk), "Idishdagi maktub" (1938, tamomlanmagan she'rlar).

SIRK

Men sirk va skripkani butun vujudim bilan yaxshi ko'rar edim. Qiziqishlarim evaziga menga skripka olib berishdi. Ammo sirkka yaqin yo'latishmadi. Shu sababli bo'lsa kerak, tushlarimga faqat sirk kira boshladi. Bir safar uni tepalik ortida ko'rdim. Kimdir meni u yoqqa yetaklab ketayotgandek tuyuldi. Boshqa safar shaharning markaziy maydonidagi sirk yoniga, uning ikki tarafi vestibulli kirish eshigi oldiga kelib qoldim. Menda bilet ham bor edi.

Biroq hamma narsa avvalgi tushlarimdagi kabi chalkashib ketdi va men ichkariga kira olmadim.

Kunlarning birida tushimni oxirigacha ko'rdim. Men kirish eshigi yonida turardim. Yonimda soqolli, oqsoq bir odam kuymalanib yurardi. Aftidan, u direktor edi. U bir qo'li bilan pardani ushlab olgan holda: "Sirkka keb qoling, hozir boshlaymiz, marhamat, marhamat, kiring!.." — deb takrorlar edi. Askarlar, xizmatkorlar, shlapa kiyib olgan xonimlar, po'rim janoblar, xullas, turli xildagi odamlar o'zaro kulib gaplashgan va bir-birlarini turtgan holda ichkariga oqib kirmoqda edilar. O'ylaganimdek, direktor qo'limdan ushlab oldi va norozi ohangda: "Marhamat, marhamat... qani chipta bormi? Bor bo'lsa, marhamat, yo'q bo'lsa, qani marsh!" — dedi. Qo'rqinchdan yuragim shuvullab, gaplarim chalkashib ketdi. "Men tomoshaga kirmoqchi emasman, men xohlaymanki... mana, mening skripkam". O'zimni butunlay yo'qotib qo'ygan holda, qo'ltig'imga qistirib olgan skripkamni ko'rsatdim. Direktor egilib og'zimga termilgancha chiptam yo'qligi haqidagi g'udranishlarim qachon tugashini kutib turdi. Men ichkariga kirib, o'zim yaratgan kuyni mana shu skripkamda tomoshabinlar oldida chalib berishni xohlayotganimni amallab tushuntirdim. Buni eshitgan direktor og'zini karnaydek ochib, tomog'ining to'rini ko'rsatib xaxolab kuldi: "Ey esi yo'q bola! Sen bilan pachakilashib o'tirishga vaqtim bor deb o'ylaysanmi?!". Men ushbu kichkinagina musiqamni favqulodda ajoyib musiqa deb hisoblab, zavqlanib gapirishim direktorning ko'ngliga o'tirganini darrov sezdim. U biroz yumshab dedi: "Mayli, sen bolakay, biroz kutib tur, balki, biror narsa o'ylab toparmiz... Ketib qolma, hali gaplashib olamiz".

Birozdan so'ng u meni qoldirib ketgan qorong'i yo'lakka keldi. Titrog'im hali bosilmagan edi. U quvnoqlik va ochiqko'ngillik bilan: "Skripkada kuy chalish bu silliqqina bir ish", — dedi. Gaplaridan skripkada biror yaxshi natijaga erishishimga unda ishonch yo'qligini angladim. Men esa Xudoni o'rtaga qo'yib qasam icha boshladim. Shundan so'nggina u jilmayishdan to'xtadi. "Unda sinab ko'rish mumkin, biroq avval harbiy qo'mondonlikka xabar berish kerak, ular imperatorlik yoki qirollikka a'zolik to'g'risida

nishon berishadi", — dedi. Bu ishlar bitguncha sirk nimaligi va tomoshabinlarga nima kerakligi haqida fikrga ega bo'lishim uchun sirkning hamma joyini — aktyorlarni, yirtqichlarni ko'rsatadigan bo'ldi.

Sirkka kirish imkoniyati paydo bo'lganidan va ayni paytda qo'rqayotganimdan yuragim qinidan chiqayozdi. Men skripkamni qo'ltig'imga qisgan holda besaranjom bo'lib bor kuchim bilan o'zim to'qigan musiqani unutib qo'ymaslikka harakat qila boshladim. U meni turli-tuman rasmlar chizib tashlangan son-sanoqsiz pardalar orasidan olib o'tdi. Men artistlarni yoki chavandozlarni ko'raman deb o'ylagan edim. Biroq tepada ishlab yurgan qizil kiyimli kishilardan boshqa hech kimni ko'rmadim. Biz to'satdan juda ham uzun zinapoya oldidan chiqib qoldik. Direktor zinadan yelib keta boshladi. Men unga żo'rg'a yetishib yurardim. Keyin biz hamma joyiga baxmal qoplangan xonadan o'tdik. Men tasodifan bir eshikni turtib yubordim. Ichkaridan kuchli shovqin chiqardi, chayqalib turgan juda ko'p boshlar ko'rindi. Direktor menga qo'pollik bilan baqirdi: "Hoziroq yop, tomoshabinlarning ko'zlari bu yoqqa tushmasligi kerak!"

Keyin u uncha katta bo'lmagan temir eshikni ochdi: pastda yarim doira shaklidagi katta zal ko'zga tashlandi. Bu ajoyib zalning o'rtasida qadd-u qomati kelishgan bir erkak tishlarini g'ijirlatib, ko'zlarini olaytirib bir ayolni bo'g'moqda edi. Ayol esa og'ir xirillab fig'on qilmoqda, xullas, qo'rqinchli tomoshaga ortiq toqat qila olmadim. Men bor kuchim bilan baqirib, hammani la'natlagan ko'yi ayolni hoziroq ozod qilishlarini talab qilishga tushdim. Biroq direktor qo'limdan mahkam ushlab olib pishqirdi: "Ahmoq, bu mening aktyorlarim-ku, bularning hammasi bir o'yin, buning ustiga, ular haqiqiy emas, mumdan yasalgan qo'g'irchoqday gap". Men yaxshilab qarab, ayolning yuzi g'ayritabiiyligi va ko'zlari shishadan ekanligini payqadim.

Xijolatga ko'milganimdan gapni boshqa tomonga burishga harakat qilsam ham, yuragimning bezovta urishi bosilmadi. Direktor meni xuddi maktabdagi kabi partalarga o'tirib olgan, olachipor kiyimdagi, yuzlari bo'yalgan o'g'il va qiz bolalarga to'la besa-

ranjom bir xonaga olib kirib, ular qatoriga o'tqizib qo'ydi. So'ng hammani navbatma-navbat minbarga chiqara boshladi. Bolalardan biri qo'li bilan yurib ko'rsatdi. U harakati davomida bir necha marta boshini yerga urib olgani bois direktor uni mashqni qayta bajarishga majbur qildi. Keyin bir katta yoshli kishini chaqirishdi. U pichoq bilan o'z ko'kragini yorib tashladi. Yaradan qon otildi. Ko'krak qafasida o'pka ochilib qoldi. U qattiq ingranib yerga yiqildi. Direktor boshini mamnun silkidi.

— Ma'qul, — dedi u, — bu hammaga yoqadi.

U kishi o'rnidan turib joyiga o'tirdi. Partadan igna va ip olib og'riqdan yuzlarini burishtirib, jarohatni tika boshladi. Men uning ko'kragi shunday tikilgan chandiqlarga to'lib ketganini ko'rdim.

Sahnaga boshqalar ham chiqishib o'z tomoshalarini ko'rsatishdi. Ular orasida lablarini qimirlatmagan holda odamlar va hayvonlar tovushlarini chiqaruvchilar ham bo'ldi. Ularning tovushlari shunchalik ishonarli ediki, men, hatto quloqlarimga ishonolmay qoldim. Ulardan biri og'zini ochmasdan, lablarini qimirlatmasdan jon berayotgan chaqaloq ovozini shunday ishonarli va ta'sirchan chiqardiki, bu tovushni eshitib ko'zlarim yoshlandi. Yana biri la'natlar yog'dirib bo'zlayotgan ayol tovushini, boshqalari ayollarning turli xil tovushlarini chiqarib berishdi.

Direktor oldida turgan kitobga bir qarab olib mening ismimni aytdi. Men o'rnimdan turdim. U menga qarab tezda so'radi:

— Sening qo'lingdan nima keladi?

Men skripkamni oldinga uzatgan holda tilim tutilib yana o'zim to'qigan kuy haqida g'udrana boshladim. Xonada kulgi tovushi eshitildi. Direktor norozi holda stolni mushtladi:

— Yana skripkangni o'rtaga tiqyapsanmi! — jahl bilan baqirdi u. — Buning bir pulga qimmat!

Men kuyim o'ziga xos ekanligini, chalib berishga ruxsat berishlarini iltimos qilmoqchi bo'ldim. Biroq direktor qandaydir bir bolani chaqirib, u bilan borishimni, menga har xil asboblar ko'rsatishini aytdi.

Meni boshqa xonaga olib o'tishdi. Bu yer turli xil mashina va mexanizmlar bilan to'la ekan. Hammasi musiqa asboblari edi. Bu yerda bosqon yordamida puflanadigan, puflanganda momaqaldi-

toqdek tovush chiqaradigan, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan darajada ulkan karnaylar bor edi.

Bundan tashqari, kattaligi xonadek keladigan uchburchak moslama mavjud bo'lib, uning bug'da ishlaydigan bolg'asi ham bor edi. Qulochga sig'maydigan baraban ustida qo'lda yasalgan fillar harakatlanib oyoqlari bilan uni dupurlatar, boshqa bir elektr toki bilan ishlaydigan g'ayritabiiy moslama bir vaqtning o'zida o'ttizta klavish va mingta karnayni ishga tushirar edi. Karnaylardan eng kattasi zavodning trubasicha kelar edi.

Dirijor baland minbarga chiqib olib, qo'lini silkishi bilan orkestr bor ovozda gumburladi. Kitobdan ko'zlarini uzmay turgan ko'zoynakli musiqachilar oldidagi klavishlar harf teradigan mashina kabi tez ishlay boshladi. Zalda girdob paydo bo'lgandek tuyuldi. Bunday musiqa asboblari-yu bunday g'aroyibotlarni ko'rib meni bu yerdan uloqtirib tashlashlariga gumonim qolmadi.

Direktor o'tirgan xonaga qayta boshlaganimizda boshim aylanib, qulog'im shang'illab qolgan edi. Men bu asboblarni avval ko'rmaganim va ularni chalishni bilmasligimni aytdim. U esa yelkasini qisib afsusdaligini va mening ishlarim pachava ekanligini aytdi. Bu paytda men arenaga olib chiquvchi parda bilan to'silgan ikki eshik yonida turgan edim. Turlicha grimmdagi artistlar shu eshiklar orqali shoshilib kirib ketishar, har safar parda surilganda ichkaridagi turli rangdagi lampalar yog'dusi ko'zimni qamashtirar edi. Men ham ular ortidan bormoqchi bo'ldim, biroq direktor hech narsa qo'lingdan kelmasa, boshlanishiga o'likxonani ko'rganing ma'qul dedi. Biz boshqa eshikka kirdik. Eshik ortidagi qorong'i yo'lak yerto'laga olib tushar ekan. Yo'lakning ikki tarafida har-har joyda eshiklar bo'lib, ulardan ko'kimtir yorug'lik tushib turar, bu yorug'likda u yoqdan bu yoqqa o'tib turgan, oq xalat kiyib olgan, biroq yuzlari kir xizmatchilar ko'zga tashlanar edi. Qo'rquvning zo'ridan ichkariga kirishga o'zimda kuch topa olmadim. Yo'lakning oxiriga yetganimizda direktor to'xtab kim bilandir gaplasha boshladi. Men yashirincha u yoqqa qarab, devor bo'ylab terib qo'yilgan temir bilan qoplangan uzun stollarni, ularga yotqizib qo'yilgan har xil odamlar — bolalar, qariyalarning tanalarini, ba'zi joylarda esa tana qismlarini ko'rdim. Nafasni

bo'g'uvchi formalin hidiga to'lib ketgan bu joydan pastga qarab yana ham qorong'i boshqa bir yo'lak boshlangan edi.

Direktor men haqimda gapirmoqda — meni shu yerda qoldirishni maslahatlashmoqda edi.

Doktor qorong'i yo'lak tomon ishora qildi.

Shunda men bu yerda qolmaslik chorasini ko'rishga kirishdim, arenaga chiqish uchun zarur bo'lgan har qanday narsani o'rganishga tayyor ekanimni aytdim. Ular boshlarini silkitishdi. Doktor tomoshabinlar akrobatikaga intiqligi va bu yaxshi mashg'ulot ekanligini uqtirdi.

Meni tomi baland bir xonaga olib kirishdi. Kichik bir teshikka ko'zim tushib, undan shaharni ko'rdim. U ancha pastda edi. Xonada arqon, espander va to'rlar sochilib yotar, devorlariga suyab qo'yilgan ingichka va uzun narvonlarda qizil triko kiyib olgan bolalar mashq qilishmoqda edi. Narvonlardan birini ro'paramga qo'yishdi. Men unga chiqishim kerak edi, asta tepasiga ko'tarilar ekanman, ilkis pastki uchini ko'chaning narigi tarafiga uloqtirishdi. Men bor kuchim bilan unga yopishib pastga qaradim. Pastda butun shahar, ko'chalarda yurgan chumolidek mayda odamlar ko'rindi. Men sekin ingranib hushimdan ketdim.

Biroq men shu zahotiyoq yana sirkda paydo bo'lib qoldim va uzoq vaqt haftalar, oylar davomida narvonga chiqish-u tushishni mashq qildim va bu mashg'ulotga ancha o'rganib qoldim. Asta-sekin narvon tepasida muvozanatimni ushlab turishni, keyinchalik esa narvonga ikki va uch stulni qo'yib uning ustiga chiqishni o'rgandim. Uzundan uzoq kunlar shu tarzda o'tdi.

Nihoyat, kutilgan vaqt keldi. Men arenaga chiqdim. Faqat bu paytda sirkning barcha burchaklari yaxshi tanish bo'lib qolgandi, yuzim men birinchi marta ko'rgan bolalarnikidek, bo'yalganidan tashqari, ajin bosib qiyshayib ketgan, yoshim ulg'ayib qolgan edi. Endi men qizg'ish triko kiyib olgan holda xira tortgan dekoratsiyalar oldida beparvo yuraman. Oldimdan gilam ko'tarib o'tib qoladigan maxsus kiyim kiygan sirk xodimlari va boshqalarga ham e'tibor bermayman. Agar nimadir zerikarli va bo'g'iq ovoz chiqarib qolsa, u bilan qiziqishga ham o'zimda kuch topa

olmayman. To‘satdan ro‘paramdagi baxmal parda ochilib chidab bo‘lmaydigan darajada tiniq yorug‘lik taraldi. Parda ortida ko‘plab boshlar ko‘rindi. Bir muddat qarsak chalindi va keyin pashsha uchsa eshitiladigan sukunat cho‘kdi.

Men arenada: gilam ustida, yorqin nurda suzmoqchidek oldinga harakatlanaman, nur menga ergashadi, ilondek har ikki tarafga — lojega ta’zim qilaman. Keyin narvonni ushlab, yengillik bilan o‘z og‘irligimni ham sezmagan holda tepaga — besh qavatli bino darajasidagi balandlikka ko‘tarilaman. Narvonning oxirgi zinasiga chiqib, bir soniya muvozanatimni ushlab turaman. Menga uzun tayoqda temir oyoqli stul uzatishadi. Men stulni olib uning ikki oyog‘ini narvonning oxirgi yog‘ochiga qo‘ydim. Bu oson kechmadi. Keyin bir sakrab stulning ustiga chiqdim. Muvozanatimni saqlagan holda tik turdim. Shunday tarzda ikkinchi stulni, keyin oyog‘ini osmonga qilib uchinchi stulni o‘rnatdim. Uning bir oyog‘iga katta kubni joylashtirdim. Tagimdagi butun “inshoot” tirik jonzot kabi qaltirar, tomir urishim bu inshootning yerdagi uchigacha yetib borayotgandek tuyular edi. Keyin menga langarcho‘p uzatishdi: Men uni kubning yuqori burchagiga o‘rnatgunimcha bir necha daqiqa vaqt o‘tdi. Men sekin uning ustiga chiqa boshladim. Va nihoyat, langarcho‘pning ustiga chiqib qaddimni rostladim. Tanamdagi har bir muskulim zo‘riqib tortilgan kamon ipidek qaltirar, yuzimdan shovullab ter oqmoqda edi. Men ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan ushbu qurilma qachon qaltirashdan to‘xtashini kutib turib qaddimni rostladim va trikomga qistirib qo‘yilgan skripkamni oldim...

Qaltirayotgan qo‘llarim bilan skripka tayog‘ini oldim va ohista langarcho‘pdan qo‘limni bo‘shatdim. Shu ko‘yi oldinga intildim. Bir necha daqiqa chayqalib turgandan so‘ng... ommaviy qo‘rquvdan va cho‘kkan jimlikdan foydalanib, bir paytlar jaranglagan, qalbimni larzaga solgan o‘sha qadrdon kuyimni ehtiros bilan chala boshladim...

ARON TAMASHI

(1897–1966)

Mashhur venger adibi Aron Tamashi 1897-yil Avstriya-Vengriyaning Farkishlak degan qishlog'ida tug'ilgan. 1912-yilda u Sekeyidvarxey shahridagi katolik gimnaziyasiga o'qishga kiradi. Gimnaziyada tahsil olayotgan yillaridayoq hikoya yozishni mashq qila boshlagan. Kaluj-Napoka universitetining Huquqshunoslik fakultetiga o'qishga kirgan, biroq u yerda tahsil, asosan, rumin tilida olib borilgani uchun, ko'p o'tmay, u yerni tark etgan. Shundan so'ng tijorat akademiyasiga o'qishga kirib, uni ikki yilda bitirgan.

1923-yilda AQSHga safar qilgan va u yerda ijod bilan faol shug'ullangan, o'z vataniga hikoyalar jo'natib turgan. 1925-yilda Kaluj shahrida uning ilk asarlar to'plami "Ruhim yo'lga otlandi" degan nom bilan nashr etilgan.

Adib 1926-yilda o'z vataniga qaytgan, taniqli venger yozuvchilarining Ruminiyadagi "Erdey Gelikoni" deb ataluvchi erkin hamkorlik tashkiloti yig'ilishlarida qatnashgan. Mazkur ijodiy tashkilot sharofati bilan Tamashining o'z yurtida yozgan asarlari bosmadan chiqqan.

1932-yilda adibning eng yaxshi asarlaridan biri — "Abel ovloq o'rmonda" nomli romani e'lon qilingan. Shundan so'ng ushbu romanning mantiqiy davomi bo'lgan yana ikki asar bitgan. Aron Tamashi romanlari Vengriyada dong taratib, iste'dodli adib sifatida tanilgan. Mamlakatning Baumgarten nomli nufuzli mukofoti bilan taqdirlangan. Hayoti davomida Tamashi o'nta hikoyalar to'plamini nashr etgan.

Aron Tamashi Vengriyaning oliy mukofoti — Koshut mukofotiga sazovar bo'lgan.

Adib xastalik sababli qo'lyozma yozolmay qolgani uchun o'zining "Na'matak butasi" nomli so'nggi asarini xotiniga aytib turib yozdirgan.

Aron Tamashi 1966-yili 26-may kuni Budapesht shahrida vafot etgan.

Yozuvchining badiiy yuksak asarlari dunyoning ko'pgina tillariga tarjima qilingan. "Ildiz bilan yovvoyi gul" qissasi Moskvaning "Raduga" nashriyotida "Mastera sovremennoy prozi" seriyasida 1989-yil nashr etilgan. Asar ushbu tanlangan asarlar to'plamidan o'zbek tiliga tarjima qilindi.

ILDIZ BILAN YOVVOYI GUL

(qissa)

Viloyat ahli oddiygina Tima deb atashadigan Timoteus Bayko yovvoyi daraxtlar shoxlaridan tayoq yo'nishga juda ishqiboz edi. Chol, ko'pincha, inson qo'li emas, balki tabiatning o'zi burab-burab arqondek pishiq qilib eshgan yovvoyi butoqlar va chayir ildizlarni izlab topar, ularni kesib olib quritar, so'ng san'at asaridek avaylab-asrab qo'yar edi.

Tima bobo asodek silliqlangan bu tayoqlarni ikki derazasi Alp tog'lari etaklaridagi bepoyon o'tloqqa qarab qurilgan peshtoqli uyning hamisha top-toza qilib yig'ishtirilgan boloxonasi poygagida saqlar edi. Havo unchalik bug'lanmagan, maysalar uzra tuman tushmagan paytlarda uyning bir juft derazasidan tezoqar tog' irmog'i Bayokashning chegaralari shundoqqina ko'rinib turar edi. Irmoqning egri-bugri yo'lini ikki qirg'oq bo'ylab bir tekis saf tortgan, suvning sokin so'zlarini tinglab osmonga bo'y cho'zgan baland qandag'och daraxtlari orqali bemalol payqash mumkin. Uyning sharqqa qarab turgan uchinchi derazasi tagidan esa ham o'tloq, ham o'rmon boshlanib ketar, bu quyuq yovvoyi daraxtzor shimol tarafdan tog' kengliklari ustiga bosib tushgan edi. Ha, aynan bosib tushgan edi, bu holatni boshqacha atash mumkin emas, ulkan daraxtlar ishq-muhabbat hissiyotidan aqlini yo'qotib, ehtiros bilan o'tloqni bag'riga bosib olgan edi. Bu holatdan hayron bo'lishning hojati yo'q, chunki, bu joy nomining asl ma'nosini boshqalar umuman anglashmaydi, ammo Tima bobo esa bu

nomning teran mazmunini o'rmonning qilig'i bilan bog'liq deb biladi. Chunki bu tog' go'shasining nomi — Bagzosh[1].

Timoteus bu yerda o'z qo'rg'onini qurganidan buyon oradan juda ko'p suvlar oqib o'tdi. Tomi yupqa taxtalardan qoplangan mustahkam uy soldi, somon g'aramli molxona qurdi, quduq qazib, chelakda suv tortib chiqarish uchun uzun zanjirli g'ildirak va qopqoq o'rnatdi, bu quduq undan suv ichgan bukri odamning beli to'g'rilanib ketadigan darajada karomatli edi. Birinchi jahon urushining oxirlarida navqiron Timot bu yerda o'zi uchun jannat qurib olgandek shashti baland edi. Biroq, ko'p o'tmay, xuddi palapondek ozg'ingina, yengilgina xotini vafot etganida uning Edemiga ilk bor qahraton sovuq tushgandek bo'ldi, qirq birinchi yilda yakka-yu yagona jondan ham aziz qizi olamdan o'tganida esa uning jannat bog'i umuman tashlandiq holga kelgandek bo'ldi, yana biroz vaqt o'tib, ellik birinchi yilda qo'rg'oncha va bir parcha tomorqadan boshqa hech vaqosi qolmaganida u o'rmon chekkasiga chiqib, o'sha yerdan g'aribgina uyiga boqib shunday dedi:

— Mana, nihoyat, o'rmon qo'rg'onni bosib qo'ydi...

Yolg'izgina tinib-tinchimas nabirasi to'qqizga kirgan edi. Qulog'i notanish so'zni ilib olib, takrorladi:

— Osib qo'ydi, deysizmi, bobojon?

— Osib qo'ydi, oltinim, osib qo'ydi.

U kulib qizaloqqa boqdi, shiringina nevarasiga qarab sira to'ymas edi. Bolalarcha beg'ubor soddalik bilan bobosining so'zini o'zicha tushundi. Mana endi esa bobo o'sha nabirasi bilan yolg'iz yashamoqda, bu yil kuzda qiz yigirma uchga to'ladi. Qora popukli qizil tuflicha, xuddi o'tloqqa sochilgan yer tutlardek qizil xol-xol gulli yashil yubka, oppoq kofta, yelkasiga esa yung nimcha kiyib olgan edi. Ko'zlarining gavhari xuddi lola urug'idek qop-qora va tog' ko'lidek teran; sochlari esa — kuzgi quyosh nurlarida tovlanayotgan yovvoyi nokning yaproqlaridek. Quyib qo'ygandek onasiga o'xshaydi. Kutilmagandan hech qanday sababsiz qovog'idan qor yog'ib qoladi va yana hech qanday sababsiz oftobdek nur socha boshlaydi; fe'li shunday — bir zumda

[1] **Vengercha "bagz"** — "qo'shilmoq", "juftlashmoq" so'zidan olingan.

qorong'ida shu'la taratib porlaydi-yu, yana bir zumda kunduzi bulut yopirilgandek zulmat qoplab qolar edi; nogahon o'z-o'zidan ko'zyosh to'kib yig'laydi, yana kiprik qoqishga ulgurmasingdan xandon otib kuladi; gohida butun qonun-qoidasini ado etib shunday ibodat qilardiki, hammaning rahmi kelib ketar, bir daqiqa o'tmasdan — qo'yni egarlab mingan yalmog'izdek chavondoz bo'lar edi.

— Nega menga bunday qarayapsiz? — deb so'radi qiz; uning ismi Tezi edi.

— Shundoq o'zim, — dedi Tima bobo.

— Men sizning joningizga tegib ketdimmi?

— Hoy-hoy.

Tezining ko'zlari yonardi. Chimirilgan qoshlari ostida yashiringan araz va alamni oshkor etib, nigohlaridan to'q yashil rangli o't chaqnardi.

Cholning yuzlari ufqqa botayotgan quyoshdek yoqimli jilmayar edi.

— Gohida shunday bo'ladi, oqshom osmonga boqib parvo qilmayman — shundoqqina boshim uzra barcha yulduzlar yonib turadi. Mana, jonimga tegib ketdi, deb o'ylayman.

— Men ham shundaymi?

— Shunday.

Tog' ko'lining to'q yashil tusda xiralashib turgan suvlari birdaniga oynadek zangori bo'lib tiniqlashib ketadi.

— Gaplaringiz g'alati-ya!

— Nimasi g'alati? O'z bilganimcha gapiraman.

Mitti eshikchali cho'yan pechka ichidan olovning "xirillagani" eshitiladi. Pechka ancha kattagina bo'lib, duxovkasi va plitalari ham bor edi. Tezi pechkaning qopqog'i ustidan ikki temir gardishni otashkurak bilan ilib olib ochdi va o't lovullayotgan tuynukka cho'yan choygumda suv qo'ydi. U o'zida yo'q xursand edi, choygumni beixtiyor hayajonlanganidan qalqitib qo'ygani tufayli qizigan pechka ustiga pishillab suv sachradi, munchoqdek o'ynab-o'ynab tushgan tomchilar bir zumda bug'lanib ketdi.

— Hozir bunaqa gapirishmaydi, — dedi qiz.

— Bugungi odamlarmi?

— Ha.

To‘g‘ri, vaqt o‘tishi bilan hamma narsa o‘zgaradi, — deb xo‘rsindi bobo. — Ammo hamisha ham vaziyat yaxshi tomonga evrilavermaydi.

— Men bilan hali hech kim bunday gaplashgan emas.

— Birovning senga gapirishiga yo‘l qo‘ymas eding.

— Ha, yo‘l qo‘ymas edim!

Tezining ko‘zlari yana charaqlab ketdi, nigohlaridan yana olovli paykonlar otildi, biroq bu safar qahr-g‘azab emas, balki erkalik bilan sho‘xlik o‘t ochgan edi, qiz qo‘shiq kuyladi:

Qiz yorining shalvarini yuvayotgan payt,
Hech kim uni zerikyapti demasin hech vaqt.
Bir savol bor, zerikishga yo‘l qo‘ymas aslo,
Qiz qo‘lida bo‘lsa agar yigit shalvari,
Uning o‘zi qayda bo‘lar, shudir masala.

Qo‘shiqning birinchi misrasini eshitgandayoq chol boshini chayqadi, oxirgi misrasi yangraganda esa uyatdan qizarib, shunday dedi:

— Hoy-hoy!

— Nima “hoy-hoy”?!

— Har holda, ertaga Cho‘qintirish bayrami!

Tezi o‘zidan sho‘xlikni nari haydaganidek qo‘llarini silkitib, yuziga mo‘min-qobil tus berib, tez-tez so‘zlay boshladi:

“Quddus, qo‘zg‘al va shodlan, modomiki sening nurli davring keldi. Sening boshing uzra porlayotgan nurga qarab xalqlar, podshohlar intiladi. Ularning hammasi birlashib, sen tomonga keladi. Sening yoningga oltin, xushbo‘y mushk-anbar olib kelishadi va Xudoga sig‘inishadi”.

Shu so‘zlarni aytib bo‘lib, qiz bobosiga tikilib qaradi: axir, Iso payg‘ambar so‘zini yod olib, suv qilib ichib yuborgan. Bundan hayron bo‘lishning hojati yo‘q, deb o‘yladi chol. Tezi roppa-rosa uch yil ayollar monastrida tarbiyalangan. Ibodatxonadagi hayot bu qadar qiyin va mashaqqatli bo‘lmaganida duppa-durust rohiba bo‘lishi mumkin edi, Tezi esa — besabrligi tufayli alaloqibat igu-

meniya Felitsiyaning sochlariga chang solganidan so'ng monastrni tark etgandi. Qiz boboga shunday tikildiki, vajohatidan go'yo uning ham soch-soqolini yulib olgudek edi.

— Buning uchun javob berish kerak bo'ladi, axir!

Qariya Tima bunday holatda nima deyishni nabirasidan kam bilmasdi; bolaligida boshlang'ich maktabda o'qiganida ruhoniy bilan muqaddas suvda cho'qintirish marosimiga borishganini yaxshi eslaydi. U titroq tovushda xirgoyi qildi:

— "Va biz Uning o'sha yulduzini ko'rdik, Xudoni sharaflash uchun qurbonlik, ehsonlar keltirdik. Alliluyya!"

— "O'sha yulduzni" emas, — deb tuzatish kiritdi Tezi, — oddiygina qilib "yulduzni" deyish kerak.

— Yo'q, "o'sha yulduzni!" — deb turib oldi chol.

— Yo'q, unday emas, axir! ·

— Xuddi shunday! Chunki, aniq eshitganman, ba'zilar haddan oshganida, umuman "Huv o'sha yulduzni" deb aytishadi.

Tezi qo'l siltab qo'ya qoldi, axir, bobosini bahsda yengolarmidi! Umuman, uning bu ishorasi choygumdagi suvga qaratilgan bo'lishi ham mumkin, ayni paytda choygumning jo'mragidan qaynagan suv to'kilayotgan edi. Qiz epchillik bilan choygumni olov ustidan nariga surdi, Tima bobo esa yig'ib qo'ygan tayoqlaridan birini tanlash uchun poygak tomonga yurdi. U tayoqlarni birma-bir ushlab ko'rdi. Mana bu tikanakli butadan, bunisi esa yovvoyi olchadan; qorasi — suv ichida o'sgan ulkan daraxtning chayir ildizi, uning yonidagisi do'lanadan. Oxiri u yovvoyi atirgul — na'matakning mustahkam novdasidan yo'nilgan tayoqni qo'liga oldi. Bu tayoqni chol boshqalaridan ko'ra ko'proq yaxshi ko'rardi: tog'da o'sgan bu sarkash buta bilan yovvoyi tabiatli nabirasi biri-biriga judayam o'xshaydi: unda ham, bunda ham keragidan ortiq darajada gul ko'p, keragidan ortiq darajada tikan ko'p.

— Bir aylanib kelay, — dedi chol.

— Shunday dahshatli tumandami?

— Hartugul, adashib qolmasman.

— O'rmonda bo'rilar bor.

Tezi "bo'rilar" degan so'zni aytmadi, tilini sekingina qimirlatib, xushbo'y nafas taratgandek bo'ldi, yovvoyi atirgul yaprog'i

shamolda shitirlagandek yana bir nozik tovush eshitildi: — Axir, ertaga Cho'qintirish bayrami bo'lsa.

— Mayli, mayli, bu uyda o'zing malikasan.

— Yana qayerda?

— Yana qo'ling bilan ishora qilib, quyoshga yerga tush deb buyurgan joyingda.

Kuzdan buyon, asosan, Rojdestvo bayramidan keyin chol mana shunday topishmoqli iboralar aytadigan bo'lib qoldi. Goho ish shu darajaga yetardiki, qandaydir qora, isqirt, qo'ng'ir qanotli allakim ko'ziga ko'rinar, u olov ichidan chiqib kelib Timoteus Bayko qachon, qanday holatda narigi dunyoga ravona bo'lishini mo'ljallayotgandek tuyulardi. Shunday bo'lishi ham tushunarli, bu yil yanvarda chol yetmish beshga to'ladi. Xudoga shukurki, bordi-yu baqaloq Igumenya Feletsiyani sochlaridan sudrab monastrdan tashqariga chiqarib tashlashga to'g'ri kelib qolsa, chol kuchi bemalol yetadigan darajada baquvvat edi.

— Nima bo'pti, axir, Iisus Navin[1] quyoshni to'xtatgan-ku! — dedi Tezi.

— Sen ham bir urunib ko'rmoqchimisan?

Qizning ko'zlari dunyodagi barcha betakror nurlarni o'zida jamuljam etgan qimmatbaho toshlardek porlab ketdi.

— Mening ham sehrli qudratim bor! — dedi qiz qat'iyat bilan.

— Ha, haqiqatan ham, to'g'ri aytasan, — deya uning so'zini ma'qulladi bobo.

Chol jimgina ro'parasiga boqdi; uning yuzlarida balqqan tabassum, ko'zlarida qalqqan yosh rostdan ham nabirasida sehrli qudrat borligini mehr va iftixor bilan ifodalar edi. Aks holda, Xudoning o'zi kechirsin, bu qizi tushmagur bir boqish bilan har qanday odamni ham, vahshiy hayvonni ham afsunlab qo'yishini qanday izohlash mumkin, axir. Biroq bu dilbarning o'zi hech kimga bo'ysunmay yovvoyi guldek ruhan yolg'iz bo'lib qolaveradi. Axir, yovvoyi atirgulning ham sehrli qudrati bor-ku; aslida u kun-

[1] **Iisus Navin** — Yusha ibn Nun, "Injil"da yozilgan avliyolardan biri. Unda yozilishicha, Yusha ibn Nun quyoshni to'xtatgan. U Muso alayhissalomning jiyani bo'lgan.

duzi bokira ko'rinadi, oqshom esa jon-jon deb turmushga chiqib ketishga shay bo'lib, osmondan o'z yulduzini qidiradi.

Chol uydan tashqariga chiqdi.

Qiz dahshatli deb atagan tuman o'sha zahotiyoq cholni yutib yubordi. Tuman dahshatli emas edi, faqat dengiz kabi bepoyon edi, ha, bamisoli dengiz edi. Hovlining to'ridagi molxona tuman ichida elas-elas ko'rinadi. Tomlari, devorlari arang ko'zga tashlanganidan go'yo dengiz tubida horg'in mudrab yotgan ulkan nahangga o'xshaydi. Tog' yonbag'irlaridan boshlanib ketgan o'rmon tomonda — uydan chap tarafda tuman qalinroq va quyuqroq edi. U yoqda daraxtlar xuddi maysalardek ingichka ko'rinadi, undan ham narida esa — hatto ko'zlaringni teshilgudek qilib qarasang ham, atrofdagi hech vaqoni payqay olmaysan.

Chol tayoqqa suyanib dengiz tubida suzayotgan nahangdek ko'ringan molxona tomonga yurdi. Avval mol-holdan xabar olmoqchi bo'ldi. Umuman olganda, mol-holdan deyarli nom-u nishon ham qolmagan edi. Faqat Chako nomli boyaqish qari sigirni aytmaganda. U ellik beshinchi yilda, juda yaxshi eslaydi, ayni gilos gullagan paytda tug'ilgan edi. Holbuki, sigirni unchalik qari deb ham bo'lmasdi, to'qqiz yoshga kirgan, xolos. Yuvvosh, avvalgidek baquvvat, hozir ham agar sog'dirganida edi, uch-to'rt yoshli sigirdan ham ko'p sut bergan bo'lardi. Ha, buzoqlagan sog'in sigir bo'lganida edi. Mana, ikki yildan buyon qisir. "Qochmaydi". Buqani o'ziga yaqinlashtirmaydi — vassalom; to'g'risi, ustiga buqa irg'iganida madori yo'qligidan beli mayishib ketardi, oyoqlari nimjon, xuddi nozikkina nastarin novdasidek yerga teguncha egiladi. Boyaqishning ahvoli ma'lum, kuzdan to bahorgacha ozuqaning mazasi yo'q. Yem, yemish kam, xashak oltmish bosh suruvdan qolgan bor-yo'g'i beshta sovliq va Morday nomli qo'chqorga arang yetadi. Ularni yaxshilab boqmasa bo'lmaydi: qahraton qish kunlari ro'zg'orning tomog'iga shu qo'ylar yaraydi, beminnat pishloq bilan qatiq, kiyim uchun jun beradi; yilida sakkiz-to'qqiz bosh qo'zi tug'adi. Morday unchalik ham zo'riqmaydi, uning beshta sovlig'idan uchtasi har yili egiz tug'adi, eng kamida shunday; ortiqcha qo'zilarni, dangalini aytganda, kamtarlik uchun, hukumatdan yashirishga to'g'ri keladi.

Og'ilda yana tovuqlar ham bor.

Chol yaqinlashganida tovuqlar pastda mudramas, xo'rozning qoqog'lagan buyrug'i bilan pirr etib uchib, og'ilning o'ng yonidagi har qancha payvandlansa ham qurib qolgan yovvoyi olma daraxtining shoxlariga qo'nib olishgan edi. O'n ikki tovuqning hammasi oyoqlarini parlari bilan yopib, shoxga qo'nib o'tirardi. Ular xo'jayinni tanib darrov tinchlanishdi, faqat xo'roz molxona ostonasida posbondek turib olib, norozi tovushda qichqirar edi.

— Qo'rqma, sening tovuqlaringga tegmayman, — dedi chol.

— Tov-vuq, qu-qug', — deb qichqirdi xo'roz.

Kulging keladi; xo'roz shunday ohangda qichqirardiki, go'yo bu bilan: mayli, agar tovuqlarimni olib ketmasang, ichkariga kira qol, lekin tovuqlarimga qo'lingni tegiza ko'rma, deyayotgandek edi. Chol o'zicha mamnun bo'lib kulib qo'ydi, biroq og'ilga kirib, ozg'in sigirga ko'zi tushishi bilanoq ushbu shodligidan nom-u nishon qolmadi. Agar Chakoni oppoq choyshabdek o'rab olgan tuman bo'lmaganida sigirning qovurg'alarini birma-bir sanash mumkin edi; biqinidan turtib chiqqan ustuxonlari ayriday cho'ngqayib turar, ularga bemalol to'rva ilib qo'ysa bo'lardi. Mung to'la ko'zlari xuddi suvi sasib ketgan tashlandiq quduqdek chuqur va irkit edi.

— Bu ahvolingda endi seni nima qilsam ekan-a? — deb xo'rsindi chol.

Uning bu savoliga bamisoli Buddaning o'zi javob bergandek, och qolgan sigirni nima qilish kerakligi haqida quloqlariga shivirlagandek bo'ldi; cholning tomog'iga yig'i tiqilib keldi, noiloj oxurga qaradi. U yerda tunov kuni Tima bobo Rojdestvo ayyomida ertalab, yemasa ham, kavshab turar deya kasal eman tanasidan yulib kelgan ikki qism chirmovuqdan boshqa hech vaqo yo'q edi.

Chako tekinxo'r chirmovuq barglarini yemabdi.

Undan ko'ra ochlik azobiga chidashni ma'qul ko'ribdi.

— Ha, bezabongina muqaddas jonivor-a! — dedi unga rahmi kelib Tima.

Agar, haqiqatan ham, sigir muqaddas bo'lsa, dedi o'ziga o'zi chol, faqat muqaddaslikning o'zi bilan qorin to'ymaydi, kun o'tmaydi. Seni to'ydirishga hech nima yo'q, yemish, muqaddas

bo'lmasa ham, qo'ylarga, qo'chqorga kerak, ulardan foyda bor. Ey Xudo, nima bo'lsa ham, g'amlangan pichan, ilk maysa nish urib chiquvchi mart oyigacha yetsin-da, ishqilib.

Ey Xudo, nima qilish kerak?

Chol o'yga cho'mib siyrak mo'ylovini siladi, go'yo shundoq qilsa, savoliga javob topiladigandek. So'ng birdan orqasiga qayrildi-yu, molxonadan chiqib, to'g'ri butun molqo'ra hududining o'rtasida qurilgan bostirma darvozasiga tomon dadil yurdi. Darvozadan chap tomonda besh sovliq va Morday nomli qo'chqorning bor-yo'qligi deyarli bilinmaydigan keng-mo'l qo'yxona bor edi. Xodalar bilan to'silgan yo'lakni qo'radan ajratib turgan joydan boshlab bostirma tagida qo'yxonaning bor bo'yiga somon tom shiftidagi tarnov ichiga biroz beda solib qo'yilgan edi.

Tima chol boshini ko'tarib, ma'yus ko'zlarini tepaga tikdi.

Uning ko'zlari olazarak bo'lib uzun narvonni izlardi. Sutdek tuman ichida darrov payqash amri mahol edi, narvon shundoqqina devor tagida yotgan ekan. Chol narvonni ko'tarib tomdagi tarnov yoniga qo'ydi, tepaga chiqib, bedani titkilay boshladi, qurigan o'tlar oppoq tumanni yam-yashil ranglarga belab shift teshiklaridan pastga to'kila boshladi. Qo'ylar bedaning shitirlaganini eshitib, quruq maysa to'kilayotganini sezib, bezovta bo'ldi, tog' giyohlarining hidini olgan qo'chqor ham "ba-ba" deb yugura boshladi.

— Keyin-keyin, — dedi ularga chol, — qo'zilar tug'ilganidan keyin beraman...

U bor-yo'q xashakni ag'darib-ag'darib, uch quchoq beda tushirdi, hammasini Chakoning oxuriga soldi. Oxirgi uchinchi quchoq bedani keltirganida sigirning juni tushib ketgan bo'ynini silab, shunday dedi:

— Ye, jonivor, mazza qilib yegin-da, mening yaxshiligimni eslab yurgin.

Keyin yovvoyi atirgul novdasidan yo'nilgan tayog'iga suyanib, og'ildan, iloji boricha, tezroq uzoqlashmoqchi bo'ldi, ammo chiqaverishda to'xtab qoldi. Narvonni tushirib, avvalgi joyiga, devor tagiga qo'ymoqchi bo'ldi. Biroq qo'llari muzlab qolgandek sira o'ziga bo'ysunmadi. Mayli, deb o'yladi u, tarnovga mana

shunday suyanib turaversin. Bir qarasang, tong otganda Yoqub (a.s.) keladi-da, osmon toqiga intilgan narvonning tayyor turganini ko'radi-yu, oyoqlarini qo'yib yuqoriga ko'tariladi va Xudodan cholga rahm qilishni so'raydi. Farishtalar esa Temoteus Baykoni osmonga olib ketayotib, uzun narvon tayyor turgani tufayli o'zlarining nimjon og'aynilari bilan "qani, bir-ikki, ko'tardik" deb qiynalmaganlari uchun cholni yaxshi odam edi, deya xotirlashadi. Ehtimol, farishtalardan biri narvonning to'qqizinchi pog'onasiga o'tirib olib, Tima cholning sha'niga diniy oyatlardan qo'shiq kuylar.

— Qo'y, narvon shunday turaversin, — dedi chol o'ziga o'zi.

So'ng u tuman oralab o'rmon tomonga ketdi. Tuman go'yo sekin tarqalayotgandek, osmonga uchib ketishga shaylanayotgandek tuyulardi. Tima chol tumanga burkalgan butazorlar, tumanga o'ralgan dalalar oralab hozirgina sertahlika hayotida ulkan va serbutoq shoxlaridan ajralib qolgan bug'u singari tishini tishiga qo'yib noiloj qadam tashlab boraverar edi.

Chol hademay o'rmon qa'riga singib ketdi.

— Juda uzoqqa ketganga o'xshaydi, — dedi Tezi o'ziga o'zi so'zlab.

Bobosi har safar o'rmon ichiga daydib ketganida — u deyarli har kuni o'rmon orasida izg'ib kezishni kanda qilmas, yolg'iz sayr qilish unga odat bo'lib qolgan edi — chol hozir ayni paytda qayerda, qanday olislikdagi masofada yurganini va uyga qachon qaytishini Tezi xayolan hisoblab chiqar edi. Uyda uzoq vaqt yolg'iz qolishdan Tezi aslo o'kinmasdi. Aksincha, kimsasiz, yakka qolgan bunday soatlarda qiz o'zini mutlaqo emin-erkin his etardi. Bunday vaqt-soatlarda qizning botinida g'unchadek ochilgan gullar o'z bilganidan qolmaydigan darajada naqadar qaysar, naqadar o'jar bo'lardi. Turfa rang va turfa iforlar girdobida bu gullar yig'lar, kular, goh bir-birini qattiq quchib bo'sa olar va goh bir-birining bargini ayovsiz yulib tashlar edi.

Qiz pechka-o'choq boshida turib, molning eng totli biqin qismidan tanlab olingan ulkan umurtqa bo'lagining qozonda biqirlab qaynayotganiga afsunlangandek tikilar, go'shtning qaynoq suvda pishayotganini ko'rib huzur qilar edi. Uning miyasi va bu-

tun a'zoyi badanini larzaga solib, qandaydir tushunarsiz tuyg'ular junbushga kelar, allaqanday sezgilar, fikrlar, xohish-istaklar, qiyofalar olovdek chaqnab paydo bo'lar, bir-biriga aralashib ketar, so'ngra so'nib qolar edi. Xuddi o'rmonda tutab yonayotgan gulxan misoli. Yoki bosh ustidan o'qdek uchib o'tayotgan tezuchar qushlar galasidek. Go'yo galaning ichidan bir olovrang-qirmizi qush ajralib chiqadi-da, qizga qarab ishq-muhabbat navosini sayraydi, bu kuy qizning ko'nglidagi istakni yanada alangalatib, qonini qizdiradi, yuragini qozonda qaynayotgan biqin go'shtidek biqirlatib pishiradi. Biroq qushcha uchib ketishi bilanoq, qo'rqinchli fikrlar qizni shaytonlar qozonda biqirlayotgan suvda biqin go'shtini emas, behayo ayollarni qaynayotayotgan do'zaxga eltadi. Bir soniyada qiz ulardan birini ko'rishga, hatto quloqni teshib yuboradigan azobli chinqirig'ini eshitishga ham ulguradi. Bu chinqiriq Tezini bokira qizlar sho'xlik bilan bir-birini chimchilaydigan, qiqirlab bir-biri bilan sirlashadigan, oydin tunlari yumshoq to'shakda to'lg'onib, oh-voh tortib chiqadigan monastrga qaytarardi.

Tezi titrab ketdi, yuzlari lov-lov yonardi.

Cho'g'dek badanidan bug' chiqib ketgandek bo'ldi.

U tezda ko'ylagini yechib tashlab, sovuq suvda yuvindi. Asta-sekin qoni sovudi, fikri tiniqlashdi, kabob qilguvchi hovurli xohish-hissiyot o'rnini bahor yomg'iri egalladi. U terlab ketgan badanini artayotib, beixtiyor oynaga qaradi. O'zining ko'zgudagi aksiga mahliyo bo'lib boqdi, qancha uzoq termilsa, shunchalik kuchliroq hissiyot jo'sh urardi — bu sezgi o'z-o'zidan zo'rayaverardi. Yo'q, yo'q, bu tuyg'u qaydandir paydo bo'lgan erkaklar muallaq turgan havoga chaqmoqdek, momaqaldiroqdek guldirab urildi. Qizning guldek xushbo'y, ammo olovdek issiq nafaslari sur'atiga hamohang tarzda bu erkaklar ketma-ket paydo bo'lar, ketma-ket ko'zdan g'oyib bo'lar edi. Ularning hammasi notanish, faqat bittasigina qizga tanish edi, bu yigitning ismi Firko Kolokan.

Tezi ko'zgu yonidan birdan ohuday hurkib orqaga chekindi va baqirib yubordi:

— Daf bo'l, shayton!

U yalang'och yelkasi va ko'kraklarini sochiq bilan to'sdi, biroq butun tanasida tinka-madori qurigandek shunday charchoqni sezdiki, hatto oyoqlari chalishib ketdi. Bir amallab xona to'ridagi divangacha bordi, divan qizning sepiga mo'ljallangan uy anjomlaridan biri bo'lib, uning ustiga yo'g'on yung kalavadan to'qilgan sariq yopinchiq to'shalgan edi. Tezi divanga behol cho'zildi, mumdek oqarib ketgan yuzini yopinchiq bilan to'sdi. Uning o'ng oyog'i titradi, keyin titroq jimir-jimir qilib o'rmalab beliga o'tdi, so'ng o'ng qo'li, undan keyin yuzining o'ng tomoni asabiy titray boshladi.

Qiz yig'lab yubordi.

O'pkasini bosolmay ho'ngrab-ho'ngrab, achchiq-achchiq yig'ladi.

Tima bobo o'rmondan qaytganida nabirasining shu holati ustidan chiqdi. U yovvoyi atirgul novdasidan yo'nilgan tayoqqa suyanib, uyga kirdi. Qo'lida qanotlari jonsiz shalviragan chiroyli qushcha bor edi.

— Senga nima bo'ldi? — deb so'radi.

Tezi indamadi.

— Kimdir xafa qildimi?

Qiz asta-sekin o'pkasini bosib olib, ho'ngrab yig'lashni bas qildi. Qushni avaylabgina ushlab turgan chol qizga so'zsiz tikilib qaradi. Qush ham shu tobda xuddi Tezidek tez-tez hansirab nafas olardi.

— Yana bir balolar xayolingga kelib, qo'rqdingmi?

Tezi ko'z yoshlarini burnidan shilq-shilq tortib, eshitilar-eshitilmas javob berdi:

— Men emas.

— Sen bo'lmasang, kim, axir?

— Mening ichimga kirib olgan kimdir, begona.

Chol divan chekkasiga jimgina o'tirdi, qizning oyoqlarini mehr bilan siladi va mayingina so'z qotdi:

— Gulg'unchaginam mening, doktor sen haqingda nima deganini bilasanmi? U sening yuraging tez jarohatlanadi, shuning uchun bir nimalarni tasavvur qilib, kuchli hayajonlanishing mumkin emas, degan. U aqlli odam, shuning uchun senga orzu-xayolga

kamroq berilishingni tayinlagan, fe'ling qanaqaligini o'zing yaxshi bilasan-ku. Gugurt chaqqandek lov etib yonib ketasan. Hatto osmonda kamalakni ko'rib qolsang ham yuragingda dovul xuruj qiladi. Boyaqish onaginang ham xuddi shunday ruhiy beqarorlik, o'ta ta'sirchanlik dardidan azoblanar edi. Meni uni ehtiyotkorlik bilan asrab-avaylashga qancha harakat qildim, necha bora ogohlantirdim. Qayoqda deysan, barchasi behuda, ko'zlari yulduzdek charaqlardi-yu, o'z xayolida kechgan, ammo boshqalarning ko'ziga ko'rinmagan holatlarni rost deb turib olardi. O'shandan keyin oxiri ko'nglimdan shunday o'ylar kechdi, agar biz o'z taqdirimizni avvaldan bilsak, hayotimizning turgan-bitgani fojia bo'lar ekan. Sen nima deb o'ylaysan, chirog'im?

Bu savol bilan chol nabirasini ovutmoqchi edi, ammo kutilmagan bu so'z shunday eshitildiki, Tezi yotgan o'rnidan turib, divanga o'tirib oldi. Beixtiyor biroz uyalib, yelkasidagi sochiqni tortib o'radi. Ko'zlarida shodlik chaqnadi; xuddi bulutlar tarqalib ketgandan keyin osmonda ikkita yorqin yulduz porlaganidek edi.

— Ha, nima bo'ldi, bolajonim?

— Men sizni o'ylab, qo'rqdim.

— Menday qari cholga hech balo bo'lmaydi-ku?

— Bo'ri yeb ketadi deb qo'rqdim.

Tima bobo kulib yubordi-da, o'rnidan turdi. Serrayib turgan joyida shunday kuldiki, o'rmonda yuziga qo'ngan pashshani haydayman desa-yu, lekin ikki qo'li band bo'lganida qanday kuladi, xuddi shunday kuldi.

— Turaqol endi, yur, tushlik qilamiz! — dedi nihoyat.

Chol oshxona tomon yurdi, pechka yonidagi stolga dasturxon yozilgan edi. Tezi oradan shuncha vaqt o'tgan bo'lsa ham, qushni endi payqadi.

— Bobo, qo'lingizda nima bor?

— Oh, esim qursin, qizim! — deb o'zini aybladi chol orqasiga qarab yurib. — Axir, men buni senga olib kelgandim-ku, berish esimdan chiqibdi.

Chol qushni sariq yopinchiq ustiga qo'ydi. Qush muzlab qolgani uchun yig'ib ololmagan qanotlarini sudrab, mayda qadam bilan tez-tez yugurdi.

— Voy, qumri! — deb shodligidan qichqirib yubordi qiz.

— Ha, qumri.

— Qumrilar kuzda uchib ketishadi-ku.

— Buning yo'lini burgut to'sganga o'xshaydi.

Issiq uyda qushga biroz jon kirdi. Qumrining bo'z parlari orasida ko'kish-kumush ranglar jilvalanar; u munchoq ko'zlarini pirpiratib, mitti boshchasini u yoq-bu yoqqa tez-tez tebratardi.

— Unga nima qilgan?

— Biroz sovuq urgan.

— Men malham qo'yib davolayman.

Chol ko'nglidan o'tgan so'zdan miyig'ida kulib qo'ydi: hali ko'ramiz, kim kimni davolaydi, qushcha qiznimi, qiz qushchanimi? Tima bobo yovvoyi atirgul tayog'ini bebaho tayoqlar xazinasi ichidagi o'rniga olib borib qo'ydi. Qo'shquloq xumni olib, suv olish uchun quduqqa bordi. Hovlida oppoq qordan ko'zi qamashdi, darrov boshini yuqoriga ko'tarib, osmonga qaradi; tuman yo'q, xuddi Tezining yuzidan bir zumda tarqalib ketgan qayg'udek g'oyib bo'lgan; momiq-momiq ipakdek laylakqor yog'ayotgan edi. Qiz ayni damda qumrining sovuq urgan mitti panjalariga malham moy surib bog'layotgan doka ham ipak kabi oppoq va mayin edi. Qiz qushni boqish uchun qor ostidan kavlab, bultur yerga to'kilgan kandir urug'lari, bug'doy mashog'i va lola tuxumlarini topdi.

Tushlikda bobo bilan nabira biqin sho'rva ichishdi.

— Bunday shirin ovqatni ko'p vaqtdan beri yemagan edik.

— Hech qachon yemagan edik, — dedi Tezi.

— Nahotki, yemagan bo'lsak! O'tgan yangi yilda-chi?

Bu gapga qiz hech nima demadi, chol hayron bo'lib ancha vaqt jim kutib turdi-da, yana qaytadan so'radi:

— Esladingmi?

— Esladimmi? Hech qachon eslamayman ham!

Ikkisi ham gap nimadaligini juda yaxshi bilishardi. Bobo ham, nabira ham ayni damda xuddi o'tgan yilgiday to'kin Yangi yil dasturxoni atrofida ikkalasidan tashqari yana bir uchinchi kishi — Firko Kolokan o'tirganini xayolan tasavvur qilib turishardi. Chol — ikki yoshning baxtidan umidvor bo'lib bezovtalanar, qiz — yovvoyi atirguldek nishtar tikanaklarini yigitga

sanchib olishga tap-tayyor turar, Kolokan — ishq-muhabbatga to'la nigohlari bilan termilib, qizning yuragini pinhon o'rtardi.

Firko ko'nglini shunday izhor qilgandi:

— Men Teziga uylanishni istar edim.

Yigit Tezini yaxshi ko'rib, shunday xushomad qilar, lekin bunday so'zlar bilan qizning ko'nglini erita olmas edi.

— Xo'sh, ha-ha... Xo'sh, ha-ha... — dedi chol o'ylanib.

— Nima buncha "ha-ha"lab qoldingiz? — dedi qiz qizishib.

— A?.. O'sha Yangi yilni, oltmish ikkinchi yilni esladim, mana, essiz vaqt suvdek oqib o'tdi... Uning so'zini chin yurakdan qabul qilganingda edi, ko'rib turganingdek, hozir...

— So'z? Qanaqa so'z?

— Senga uylanishni istar edim, dedi-ku.

— U xotinboz, bildingizmi!

Tezi nafrat bilan uzil-kesil gapirdi. Jahlidan o'rnidan turib ketib, dasturxonni yig'ishtira boshladi, idish-tovoqlar, qoshiq-sanchqilar darg'azab bo'lgan qizning qo'lida qattiq shaqur-shuqur qilib, "Voy, dod!" degandek odamning rahmini keltirardi. O'zi ko'targan to'polondan o'zi xunob bo'lib, yanada qattiqroq qichqirdi:

— Menga shilqimlik qilishini istamayman!

— Sen nimani istaysan o'zi?

— Mard bo'lsa, menga yuragini bersin!

— Lekin sen uni yaxshi ko'rmaysan-ku.

Tezining ko'zlari cho'g'dek yonar, nigohlarida nafrat va alam yashnar edi.

— Hali shunaqami?! — dedi qiz zahrini sochib. — U hammasini oldindan mo'ljallab qo'ygan, deng! Men uni sevamanmi, yo'qmi, paypaslab ko'rishni istaydimi hali. Taqdirimni shunga qarab hal qilmoqchimi u: menga uylanishi uchun unga avvaldan yuragimni, qalbimni ochishim kerakmi hali. E, yo'q! Unaqa bo'lmaydi. Sevgi, u o'ylaganidek, kelajakda olinadigan hosilni oldindin xomcho't qiladigan va ko'proq foyda-manfaat ko'rishga harakat qiladigan qishloq kengashi emas. Ko'krakni ikkiga bo'lib ochish, ko'ngilni yorish kerak — yurakni qovurg'alar orasidan tashqariga chiqarib ko'rsatib qo'yish kerak. Sajdagoh oldida gunohkor tiz cho'kkandek sevgisini tan olsin; agarda chin dildan

rahm-u shafqatni istasa, bokira qiz oldida jonini ham ayamay qon to'kib, fido bo'lishini isbotlasin!

— Kel endi, bu ishga bokira Bibi Maryamni aralashtirmaylik, — dedi chol.

— Men o'zimni nazarda tutyapman.

— Unda bu boshqa gap, — dedi bobo boshi bilan tasdiq ishorasini qilib.

Oraga sukunat cho'kdi. Bunday sukunatda gulxanda yongan ko'mirlar so'nadi, biroq shamol sal qo'zg'algan ilk soniyadayoq ular yana lovullab yona boshlaydi. Tarang tortilib, xohlagan lahzada o'qni otib yuborishga shay yoy kabi qiz jim qotgan; chol esa aksincha issiqqina momiq bulut ustida bemalol o'tirgandek o'ychan va sokin edi. Tezi kutilmagan savol bilan xotirjam cholni bezovta qilib qo'ydi:

— Haligi baqbaqasi bor doktor menga nima deganini bilasizmi?

— Uning oldiga sen bilan birga borgandik-ku...

— Sizning chiqib turishingizni so'raganidan keyin, yolg'iz qolganimda aytdi.

— Unda bilmadim.

— U mening badanimdek chiroyli badanni hayotda hali umuman ko'rmaganini aytdi. Har holda, u ko'pni ko'rgan keksa odam.

Tima bobo shoshib qoldi. Dastlab qiz bilan bunday narsalar haqida ochiqchasiga gaplashish uyat bo'ladi deb o'yladi, so'ngra nevaramning ruhiy kechinmalarini hech bilmaganimdan ko'ra, ko'proq bilganim yaxshi, degan xulosaga keldi. Qiziquvchanlik bilan, biroq hovliqmasdan so'radi:

— Xo'sh, demak, sen uning ko'z o'ngida yechindingmi?

— Belimgacha.

— Shu yetarli bo'ldimi?

— Unga yetarli bo'ldi.

— Senga-chi, yetarli bo'lmadimi?

Tezi birdaniga kulib yubordi, kutilmaganda yovuz va beshafqat sovuqqonlik bilan dedi:

— Afsuski, naryog'iga uning jur'ati yetmadi.

Chol darg'azab bo'lib o'rnidan turdi, boshini norozi chayqadi, nimadir deb g'uldiradi. Bu qizni qanday baxtsizlik kutayotganini

o‘ylab, qo‘rqib ketdi. Kimningdir boshini aylantirib, xohlagan paytda gunoh qilib qo‘yishi mumkin. Doktorni yo‘ldan urishni o‘ylabdi-ya — uning qonini qizdirib, aqldan ozdirib, hirsli istagini qo‘zg‘amoqchi bo‘libdi-ya, bu shayton. Firko haqidagi qamchidek botib ketadigan so‘zlari-chi? Ko‘kragini yorib, yuragini ko‘rsatsin, keyin bokira qiz oldida jonini ayamasdan qon to‘kib, sevgisini isbotlasin. Chol shundagina Tezining so‘zlaridan nima uchun qo‘rqib ketganini anglab yetdi.

— Voy-voyey! — deb uh tortdi chol.

— Unga rahmingiz keldimi?

— Kimga?

— Doktorga-da.

— Men negadir shu tobda Firkoni o‘yladim, — dedi chol, ichida o‘ylaganini bildirib qo‘ymaslik uchun mujmal ohangda davom etdi: — Bu odamga nega Kolokan degan familiya berishganini tushunmayman. Bu so‘zning ma’nosi nima o‘zi?

Tezi birovni emas, shaxsan o‘zini xafa qilishganidek titrab ketdi.

— Bir gulning nomi shunday, — dedi u.

— Kolokanmi?

— Ha, shunday. U ko‘lda o‘sadi, oq nilufardek, ammo suv tagida, soya joyda bo‘ladi. Faqat ochilganida suv yuzasiga chiqadi, xuddi bo‘z surpdek oppoq ochiladi.

— Sen bu gul haqida qayoqdan bilasan? — deb hayron bo‘ldi chol.

— Ruhoniy aytdi.

— Sen hali ruhoniy huzuriga qatnaysanmi?

— Ha, tavba qilganimda so‘radim.

Tima bobo butun gavdasini silkitib astoydil kuldi; buni qarang-a, qizalog‘im nimalar qilib yuribdi. Kula-kula sevimli tayoqlari jamlanmasi yoniga bordi, odatdagiday ularni birma-bir ushlab ko‘rib ma’qulini tanlay boshladi. Tanlab-tanlab yovvoyi olcha tayog‘ini oldi, qalin paxtali kalta paltosini yelkasiga ildi.

Kutilmaganda kiyinganidan qiz xavotirga tushdi:

— Bobojon, yana ketyapsizmi?

— Borishim kerak, qizalog‘im.

— Qayoqqa?

— Qishloqqa.

Bobosi polga tiralgan tayog'iga suyanib, vaqt g'animatligini, shamol istagan bir soniyadayoq Chako nomli sigirni chirigan to'sindek yerga qulatishi mumkinligini, darhol buning bir chorasini ko'rish zarurligini tushuntirganida Tezi yanada battar hayratlandi. Pichan deyarli qolmagan. Sotib olishga ham hech qayerda yo'q. Bahorgacha faqat sigirning o'zini oz-ozdan boqishga yetadi. Unda qo'ylar-chi. Pichanni yo sigirga, yo qo'ylarga berish kerak —tanlash zurur. Har holda, qo'ylarni tanlagan to'g'riroq bo'ladi.

— Sigirga nima bo'ladi?

— Topshiraman.

— Koopirativgami?

— Ha.

Tezi boshini egib, teskari o'girilib oldi. Bobosining qaroridan jahli chiqdi. Shunday yaxshi, shunday beozor jonivorga qanday qilib ichi achimasin, axir, uni shuncha yildan buyon Tezining o'zi sog'gan bo'lsa; monastrdan uyga qaytgan kunlarini esladi: bobosi ikkalasi do'stlashsin deb, sigirning ustiga mindirardi, jonivorning yelkasi shunday mayin, shunday iliqqina ediki, qizaloq shodligidan qiyqirardi. Qadrdon sigiridan ajralish naqadar og'ir. Qizning ushbu ma'yus xotiralariga kutilmaganda kolokan guli o'sadigan tiniq suvli ko'l haqidagi xayol qo'shildi.

— Qishloq kengashiga ham kirasizmi? — deb so'radi qiz.

— Albatta, kirish kerak.

— Kim bilan gaplashasiz?

— Muammoni kim hal qilsa, o'sha bilan.

Qishloq kengashida chorvachilik masalalari bilan Ferens Kolokan shug'ullanishini ikkalasi ham yaxshi bilishardi. Hamma, hatto tirnoq ostidan kir qidiradiganlar ham, uning yomon rahbar emasligini tan olar, o'zi yo'l nazoratchisining o'g'li bo'lsa ham, chorvani yaxshi bilishini gapirishar edi.

— Faqat men haqimda bir og'iz ham so'z aytmang! — deb ogohlantirdi Tezi.

— Bo'pti, bo'pti, qo'rqma, men g'iybatchi emasman-ku, — dedi chol.

Ular xuddi koptokni bir-biriga otib o'ynagan kabi, ko'pincha, ishoralar, yarim-yorti iboralar bilan gaplashar, ammo bir-birini juda yaxshi tushunar edi. Qizning g'alati ogohlantirishi, cholning ranjib javob qaytarishi tag ma'nosida Firko Kolokandan o'zga hech kim nazarda tutilmagan edi. Mabodo uchrashib qolishganda Firko Tezi haqida churq etib og'iz ochsa, Tima chol o'zini qo'ng'iroq sadosini eshitgandek, ammo bu jaranglash qayerdan kelayotganidan bexabardek tutishi zarur.

— Qachon qaytasiz, bobojon?

— Bir zumda, qizalog'im, oyog'imni qo'limga olib chopib borib kelaman.

Chol tashqariga chiqib, eshikni mahkam yopdi, shu ondayoq osmondan siyrak-siyrak tushayotgan momiq qorlarni tili bilan yalayotgan qish quyoshining o'tkir nurlariga belandi; u tomdan tushib, eriyotgan muz nayzalardek bir qator sumalaklar uchidan yomg'irdek tomchilayotgan bo'g'ot ortiga o'tib ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Qiz qushdan xabar olish uchun to'rdagi xonaga o'tdi. Qumri patini hurpaytirgancha yopinchiq ustiga qo'nib o'tirar, ko'zlarini quyosh nurlari sirg'alib tushayotgan derazadan uzmas edi. Tezini ko'rib, qattiq pitirladi, ammo uchmadi, faqat ko'zlarini tez-tez pirpiratardi.

— Voy bechora yetimchaginam!

Qush munchoqdek ko'zlari bezovta, biroq boshchasini baland tutgancha mag'urur boqardi. Biroq Tezi o'ziga tegajaqlik qilmoqchi bo'lgan odamga qanday hurkib qarasa, qushning nigohi ham xuddi shunday yovvoyi edi. Qanotini deyarli yig'ib olgan, malham surib doka o'ralgan oyoqchalarida tik turib, bo'ynini cho'zib, go'yo gulxandan sakrab o'tishga hozirlangandek dikkayib turardi. Qiz vujudida g'alati sezgi jo'sh urdi. Bu yovvoyi jonivorni bag'riga bosib erkalagisi keldi; biroq o'sha zahotiyoq nigohlari yirtqichning ko'zlaridek yondi, qushchani ushlab, bo'ynini uzib tashlagisi keldi.

Qizib qaynayotgan qon qizning tomirlarini yorib chiqqudek zarb bilan urilardi.

U titragancha bir-biriga qarama-qarshi ikki tiyiqsiz istagining qay birini amalga oshirishni bilmasdan qushga yeb qo'ygudek tiki-

lib turganida deraza tagidan qattiq-qattiq ovoz eshitildi. Tezi sochlarini butalarning shoxlari tutib qolganida boshini silkib-silkib, xalos bo'lganidek ilkis tebranib, g'alati sezimlardan qutuldi.

Derazani ochdi.

Kunning xira nurlarida eriyotgan qor shu'la qaytarar; ochiq darvoza yonida bobosi ikki yigit bilan suhbatlashib turardi. To'g'rirog'i, ular o'smir yigitchalar edi, undaylar haqida hali er yetmagan, ammo bola ham emas, deyishar edi. Tezi yigitchalarni yaxshi tanirdi. Ularning biri qishloq kengashida chopar edi, ikkinchisi esa zootexnikka shogird tushgan, ish o'rganish o'rniga vaqtini sigirlarning dumini qayirib choptirish va qarg'alarni sanash bilan o'tkazardi. Ikkisi ham qo'lida gullar va rangli tasmalar bilan bezalgan aso tutgan edi; choparning tasmalari — qizil, shogirdniki — chipor rangda.

— Ularga nima kerak ekan? — deb qichqirdi Tezi.

— Mana, kelishdi, — dedi chol.

— A, ularga nima kerak ekan, axir?

Chopar hassani baland ko'tardi, unga bog'langan qizil tasmani to'g'rilab qo'ydi.

— Biz xabarchilarmiz! — deb ming'irladi u.

Shogird bu yerga bekorga kelmaganini ta'kidlash uchun atayin chipor tasma bog'langan asoni silkitib, qo'shiq aytdi:

Barcha jonivorlardan mushukcha go'zal,
Barcha dilbarlardan Katusha go'zal.

Ikkala yigitchaning ham tili eshilib ketar, aftidan, ularning kayfi taroq edi.

Tezining jahli chiqib ketib, ularga baqirdi:

— Biznikida ularga pishirib qo'ygan ekanmi?

— Biz xabarchilarmiz!.. — deb takrorladi chopar.

— Yurakning xabarchilari! — deb aniqlik kiritdi shogird.

Shu payt ochiq derazadan qanotlarini parillatib, qumri uchib chiqdi, u Teziga urilib ketishiga sal qoldi.

— Modomiki kelgan ekansiz, ichkariga kiringlar! — dedi chol yigitlarga.

Tezi chol bilan ikki yigitcha uy ostonasiga qarab yurishganini ko'rdi. Asolarga rangli tasmalar va gullar ilib olishganidan Tezi qaysidir yigit qaysidir qizga uylanmoqchi ekanini xabar qilayotganini sezdi. Biroq qaysi yigit qaysi qizga? Tezi ko'nglidagi gumoni xuddi quyondek butalar orasiga berkinib turgan bo'lsa ham, uni oshkor qilishga qo'rqar edi. Quyon butalar orasida ko'rinmay turibdi-yu, biroq shoxlarning qimirlayotgani uni sotib qo'yayotgandi. Badanidan, shabada esgandek, yengilgina titroq o'rmalab o'tdi. Qiz qumri qayrilib ham qaramagan likopchadagi donni qorga sochdi-yu, derazani yopdi. Ko'ylagi bilan yubkasini to'g'riladi; kutilmaganda ko'ksi yoqimli zirqiradi va beli taranglashdi.

Qiz xonasidan chiqib, eshik ro'parasida poylab turdi. Unchalik ko'p kutmadi, eshik ochilib, bezatilgan aso ko'tarib olgan yigitchalar, ularning izidan bobosi ichkariga kirdi. Ichib olgan sharobimizning oshqozonimizda g'uldurashini qiz eshitib qolmasin, deb ostonada dovdirab turgan yigitchalarga Tezi bir-ma-bir boshdan oyoq razm soldi. Qiz tikilib qaraganida o'ng tomonda turgan chopar yigitchaning yuzi bezatilgan asosidagi alvon tasmadek qip-qizarib ketdi; zootexnik shogirdining ahvoli ham xuddi shunday edi, faqat uning yuzidagi sepkillar qo'lidagi asoga ilingan tasma tusiga mos edi.

Yigitchalar tapir-tupir qilishib Tezining ro'parasida yelka-ma-yelka turishdi; biroq ularning oyog'i ostidagi pol kema misoli suzayotgandek goh u yonga, goh bu yonga tinimsiz chayqalishardi. Keyin birdaniga cholga qarab o'girilishdi-da, gapirishga ijozat so'rayotgandek tikilishdi.

— Bo'pti, bo'pti, gapiringlar, — deb ularga dalda berdi chol.

Faqat shundan keyin yuzi ham, gullar bilan bezatilgan asosining tasmalari ham xo'rozning tojidek qip-qizil chopar yigitcha qo'lidagi tantanali matohini bir ko'tarib qo'ydi-yu, so'zlay boshladi. Biroq oldindan chala yodlab olingan, ushbu uyda istiqomat qilayotgan oila a'zolari yoppasiga uy ichi bilan to'yga taklif etiladi, degan gapni aytish nihoyatda amri mahol bo'ldi; so'zlar sakrar, berkinar, xuddi burgadek qochar, kutilmagan joyda paydo bo'lar, ba'zan umuman g'oyib bo'lib qolar edi. Yuzlarini sepkil bosgan boshqa yigitcha esa sherigi zarur so'zni topolmay tutilib,

jim bo'lib qolganida yordam berishga harakat qilar, chipor tasmali asosini polga do'qillatib urib, nuqul:

— Chin yurakdan! — degan so'zni takrorlar edi.

Nihoyat, chopar o'zining tantanali nutqini bir amallab tugatdi, biroq kim kimga uylanmoqchi ekani haqidagi asosiy gap aytilmay qoldi.

— Kuyov bo'lmish kim ekan?

— Uni aytmadimmi?

— Yo'q.

— Bo'lishi mumkin emas!

Zootexnik shogirdi asosini yana bir marta polga to'q etib urdi-da qichqirdi:

— Ferens Kolokan!

— Chorvachilik bo'yicha kotib, — deb qo'shib qo'ydi o'ziga kelgan chopar.

Tezi ko'zlarini ayyorona qisib jilmaydi, uning nigohlari yigitchalarga tikandek sanchildi.

— Kelin-chi? — deb so'radi u.

— Katalina Chyudi, — deb javob berdi chopar.

Tezining ko'zlari yanada kuchliroq jilmaydi, u yirtqich hayvon o'ljasiga sekin yaqinlashib borgandek qo'llarini gullar, rangli tasmalar bilan bezatilgan asolarga cho'zdi; so'ng yashin tezligida hamla qilib, yigitchalarning qo'lidan ularni tortib oldida tizzasiga bir urib sindirdi, bo'lak-bo'lak bo'lib ketgan asolarni polga irg'itdi.

— O'sha Chyudingizning oldiga daf bo'linglar!

Tima bobo aso siniqlarini terib olib, yigitchalarning qo'ltig'iga qistirdi, to'y xabarchilariga uydan chiqib ketishga ishora qildi. Ularning orqasidan eshikni yopgach, mehr bilan qizning yelkasidan quchdi, uni xonaga olib kirdi, divan yonida to'xtab, yumshoqqina so'z qotdi:

— Birpasgina yotib dam ol, qizalog'im. — Bu so'zlarni aytayotganda cholning ko'zlari tonggi shudring tushgan o'rmon yong'og'idek ho'l edi. — Tinchlan, men tezda qaytaman, — dedi u.

Chol uydan chiqib, qor qoplangan yo'l bo'ylab qadamlarini tezlatdi, ko'p o'tmay, yigitchalarga yetib oldi-da, o'rtada keta boshladi.

— Yigitlar, tuya ko'rdingmi, yo'q, tushundingizmi? — dedi.

— Ha, bunga hech kim ishonmaydi, — dedi chopar mung'ayib.

— Ha, to'g'ri, — tasdiqladi zootexnik shogirdi.

— Xo'p, bo'pti, — dedi chol. — Xafa bo'lmanglar, sizlarga avvalgidan ham yaxshiroq yangi aso yasab beraman, ularga gullaringiz, rangli tasmalaringizni ilib qo'yamiz, maylimi?

Yigitchalar ovungandek ko'rinsa ham, cholning so'zlariga ishonmadi: "him", bunday chiroyli aso bo'ladigan daraxtni hozir topib bo'ladimi?! Ular qalin qor qoplagan yo'ldan ketib borishardi. Quyosh nuri tushgan joylarda qor atalaga aylangan, soyada esa oppoq, bokira edi. Ochiq dalada shamol ilib, qorlarni eritishda quyoshga yordam berar, quyoshning oyog'i, qo'li, hatto ko'zlari ham yetmagan daxlsiz mulklarda esa beshafqat va sovuqqon posbonga aylanar, o'rmon va qalin butazorlar orasidan qattiq xushtak chalib, bedor esib yurar, qor uchqunlarini bir zumda muzlatar, oppoq qorning bokiraligini qattiq asrab-avaylar edi.

— Qani, to'xtanglar-chi, — dedi chol kutilmaganda.

Yelkasini qisib borayotgan yigitchalar to'xtab, cholga savol nazari bilan tikildi. Aftidan, ular haddan ortiq ko'p ichib qo'ygan, Tezining g'alati qilig'i biroz hushiga keltirgan bo'lsa ham, sharob yana xurmachadan toshmoqda edi.

— Hali siz mushukcha nimaga go'zal, dedingiz? — so'radi chol.

Chopar:

— Mushuk sichqonni... — deya boshlagan edi, biroq Tima bobo unday emas, deganday boshini chayqadi.

Uy yonida qo'shiq kuylagan sepkilli yigitcha chol nimani so'rayotganini anglab, kuldi.

— Barcha jonivorlardan mushukcha go'zal! — deb bidirladi u.

— Xo'sh, Katusha-chi? — so'radi chol.

— Hamma qizlardan go'zal!

— Uh, naqadar go'zal! — deb gapga qo'shildi chopar.

Hazil ularning yana dimog'ini chog' qildi. Chol endi bu yigitchalar bilan bemalol bo'tqa pishirsa ham, chipta to'qisa ham bo'lishini sezdi, ularni hali tagida qor erimagan serbutoq daraxt sari ergashtirdi. Yigitchalar bir-birining yuzlariga qor ishqalab, yoqasiga qor tiqib, sho'xlik qilib qiyqirishayotganda chol yong'oq daraxtidan yo'g'on o'qlovdek ikkita shoxni kesib oldi.

— Qani, ketdik, — dedi bobo.

Qor yigitchalarni tetiklashtirgandi, yurib borayotib yangi asolarga gullar, rangli tasmalarni bog'lab olishdi. Yana yarim soatlar yo'l yurishgach, cholning o'rmon chekkasidagi kulbasidan uch kelometrlar uzoqlikda joylashgan qishloqqa yetib borishdi.

To'ppa-to'g'ri qishloq kengashi tomon yurishdi. Shanba kuni bo'lsa ham, yigitchalarning ishonch bilan qadam tashlashlariga ko'ra Ferens Kolokanning idorada ekani aniq edi. Tima bobo qo'lida gullar, rangli tasmalar bilan bezatilgan aso tutgan yigitchalarni o'rmonda quvib ushlab olgan va oldiga solib qishloq kengashiga haydab kelayotgan qari bug'i kabi oyog'ini horg'in sudrab bosar edi. Ular ochiq turgan darvozadan kirishdi. Kolokan, aftidan, to'yga aytuvchilarning qaytishini kutayotgan edi, biroq ularning o'rtasida kelayotgan cholni ko'rgach, yigitchalarning bor-yo'qligini unutdi.

— Salom! — deb darrov qo'l uzatdi u.

Tima bobo shoshilmay, beparvo so'z qotdi:

— Salom, o'g'lim.

Qo'l berib ko'rishishdi; Kolokan miyig'ida kulib yigitchalardan so'radi:

— Xo'sh, hammasi joyidami?

— Hozircha.

Ularga ko'zini qisib qo'yib, chol tomonga imo qildi.

— Timoteus Baykoni ham oila a'zolari bilan aytdingizmi?

— Ha-ha, aytdik!

U yigitchalarni jo'natib yuborgach, tabassum bilan Tima bobo-ga boqdi. Lekin u hammaga kulib qaraydimi yoki hozir faqat unga shunday qilyaptimi, tushunish qiyin edi; uning odati shundaymi yoki bu tabassum mato ko'ylagining sadaf tugmalaridek noyob hodisami? Uning ko'zlari ulg'aygan bo'lsa ham, hamon to'po-

lon qilishni tashlamagan kuchga to'lgan yosh kuchukning qiliqlaridek o'ynab turar edi; bu unga odat bo'lib qolgan bo'lishi ham mumkin. Jingalak sochlari paxmoq hayvonning yunglaridek qalin edi, uzun va kuchli oyoqlari esa jarliklarmi, butazorlarmi, farqi yo'q, yo'l tanlamasdan yurib charchoq nima ekanini sira bilmasdi. Kaftlari xuddi qor kuraydigan kurakdek katta, yonoqlari keragidak ko'proq bo'rtib chiqqan, iyagi esa, aksincha, kichikroq edi. Pahlavon yigitning kuchli, yirik gavdasida tabiatan yuvoshlik va kamsuqumlik barq urib turar edi, holbuki hayotda yuvoshlik har doim ham omad keltiravermaydi.

— Keling, o'tiring, Tima bobo! — dedi u.

— Rahmat, bir zumga kirdim, — dedi chol stulga o'tirayotib.

Chol eshikdan kirgandanoq Kolokon faqat Tezi haqida o'ylar, Temoteusning esa ko'z o'ngida kundan kunga oriqlab borayotgan sigir turar, jonivor harom qotib qolishi mumkin edi.

— Ko'rishmaganimizga ham ancha bo'ldi, — dedi o'ychan Kolokan.

— Roppa-rosa bir yil-u bir hafta.

— Ha, vaqt tez o'tadi.

— Tez o'tadi-yu, charchamaydi.

Ferens Kolokan bunday suhbat juda-juda olis davom etishi mumkin, deb o'yladi, xuddi kuzda ikkita yong'oq daraxti bir-biri bilan bemalol gurunglashayotgandek: kutilmaganda biri to'p etib yerga yong'oq tashlaydi, birozdan so'ng ikkinchisi unga javoban baland shoxlari va yaproqlari orasidan pastga yong'oq otadi — to'pp...

— Tima bobo, nabirangiz bilan birga to'yga keling, kutaman.

— To'y qachon?

— Anavi ishyoqmaslar sizga aytmadimi, axir?

— Eski g'alvir ichida don turmaydi.

— Kelgusi hafta, shanba kuni.

— Umuman, hali bemalol vaqt bor ekan.

Kolokan chol uchun bu mavzu — faqat nurni to'sgan bulutdek ekanini sezdi. Nimadir uning ich-etini kemirib, hamma fikrlarini chalkashtirib yubormoqda edi; bilib bo'ladimi, ehtimol, kimdir uning nevarasi atrofida o'ralashib, ilintirish uchun o'rgimchakdek

to‘r to‘qiyotgandir, chol shuning uchun o‘yga botib, yuragi muzlayotgandir. Biroq shu zahoti Kolokan xayolidan kechgan bunday so‘zlar uchun uyalib ketdi: bas, bunday bo‘lmag‘ur fikrlar bilan boshini qotirish kerak emas, axir, bir haftadan keyin to‘y.

— Balki, uyingizning tomi uzra bir yulduz porlagandir? — deb so‘radi o‘zini tiyolmasdan.

Firko Kolokan cholning oilasini yorlaqayotgan farishta yoki muqaddas ruh haqida gapirmayotgandi, balki biron-bir yigit qizga og‘iz solmayotganmikin, degan shubha-gumonini so‘rayotgan edi. Biroq Tima bobo o‘zini uning nimaga shama qilayotganini tushunmagandek tutdi.

— Qanday qilib porlamasin, axir, ertaga Cho‘qintirish ayyomi-ku, — dedi u.

Kolokan chol muhabbat yulduzi haqidagi gapni ustalik bilan farishtalar homiylik qiladigan ilohiy yulduzga burib yuborganidan hayratga tushdi. Oh, bu Timoteus bobo naqadar ayyor-a: qil sig‘maydigan chakalakzor orasidan tulkidek o‘tib ketadi-ya, hatto bir yaproq ham shitirlashga ulgurmay qoladi. Xuddi shaytondek chaqqon, shaytondek sirli, sen uning jumbog‘ini topolmay yorilib o‘lasan, u esa beparvo.

— Xo‘sh, siz mening oldimga biron ish bilan keldingizmi?

— Albatta, sizga-da, agar bezovta qilmagan bo‘lsam, — dedi chol.

— Chorva bilan bog‘liq muammo bormi?

— Shu, sigir...

— Bilaman, bitta sigiringiz bor.

Tima bobo arz qilganday tez-tez boshini qimirlatdi.

— Ha, bittagina. O‘tgan Yangi yil kuni qiyom yegandingiz, “Qush suti” torti bilan. O‘sha sigirning suti-qaymog‘idan bo‘lgan edi.

— Undan buyon ancha vaqt o‘tdi.

— Ancha vaqt o‘tdi. Vaqt o‘tganini sigirga qarab darrov sezasiz.

— Qarib qoldimi?

— Shamol sal qattiqroq essa — yiqilib, o‘rnidan turolmay qoladi.

— Hech narsa yemayaptimi?

— Yo‘q.

— Nimaga?

— Yemish yo‘q.

Ferens Kolokan yoqimsiz jilmaydi, oyog‘i bilan polni tepdi.

— Siz unga tort bering, pishirib beradigan u-bu kim bor-ku.

Chol xuddi kuzgi shamol xazonlarni uchirganida ko‘ziga cho‘p kirgandek ko‘zlarini chirt yumib oldi. Kolokan esa bu gapni aytishga aytdi-yu, lekin surbetlik qilgani uchun shu zahoti pushaymon bo‘ldi. Uning fe’li, odatda, yuvosh bo‘lsa ham, chiday olmadi, jahl qildi. Hammasiga o‘sha yovvoyi qiz aybdor: xuddi tog‘ ko‘lidek teran ko‘zlari bilan chaqib olmaganida edi. O‘sha uchrashuvdan buyon bir yil o‘tdi, lekin qizning o‘sha tikandek nigohlari zahmidan yuzlari hali-ham lovullab kuyib, achishib turibdi. Xo‘sh nima bo‘pti?! Bu o‘ch olish uchun sabab bo‘la olmaydi; qiz ko‘nglida muhabbat va izzattalablik tuyg‘ulari aralashib ketgan, xolos, uning bor-yo‘q aybi shu.

U cholning yelkasiga qorkurakdek panjasini qo‘ydi, uzr so‘ragandek egildi:

— Xafa bo‘lmang, hazillashdim.

— Bu haziling bilan sigirimning ahvoli yengillashmaydi.

— Demak, uni topshirib yuborish kerak.

— Demak, topshirish kerak. Kooperativga.

Kolokan boshini irg‘ab, uning gapini ma’qulladi: albatta, boshqacha bo‘lishi mumkinmas, ammo og‘zidan boshqa gap chiqdi:

— Kuzda qabul qilish mumkin edi.

— Hozir u g‘animat, yo‘qsa, harom qotadi.

— Shunisi yomon-da.

— Shu darajada oriqlab ketganki, og‘ilning eshigini ochib o‘tirish kerak emas, sigir tirqishdan kirib ketadi.

Trubka tortayotgan Kolokan og‘zida chaqirtikan chaynayotgandek labini jiyirdi, boshini sarak-sarak qildi.

— Yo‘q, yo‘q.

— Nima yo‘q?

— Mol boqadigan odam yo‘q.

— Unda sigirni so'ydiraman.

— Mumkin emas.

— Bo'lmasa, pulga sotib olishga bo'lsa ham yemish bering.

— Undan ko'ra tekinga shakar berish oson.

Timoteus boboning aytadigan boshqa gapi qolmadi. Og'zida shunday taxir ta'm his etdiki, tupurib yubormaslik uchun tilini tanglayiga bosdi. Go'yo boshiga issiq tuman quyildi, ko'z oldi xiralashdi. Cholning zori bor-u, zo'ri yo'q edi, biroq ori bor edi. Tomog'iga tiqilgan taxir so'lakni yutdi-yu, o'rnidan og'ir qo'zg'aldi. Xayrlashayotib nimalar dedi, ketayotib Kolokanga qo'l berdimi-yo'qmi, eslay olmaydi. Deyarli behush ahvolda eshik tomon yurdi, o'ng qo'lining barmoqlarini qovushtirib, qandaydir yo'q narsani paypaslab ushlagandek ketaverdi. Shuurini endi bechoragina Chakoga nima bo'ladi, degan og'ir o'y chulg'ab olgan edi.

Eshik bo'sag'asida orqasiga qayrildi.

— Unda sigirni bo'rilarga yediraman! — dedi chol.

— Og'ildami?

— O'rmonga olib borib, daraxtga bog'lab qo'yaman.

— Sizni jazolaydi!

— Kim?

Ferens Kolokan javob bera olmay, yelkasini qisdi. Axir, sigirini o'z ixtiyori bilan bo'rilarga yedirgan odamni, haqiqatan ham, kim jazolay olardi, degan savolga nima deb javob berishni bilmas, balki bu haqda o'ylashni ham istamas edi. Kolokan sukut saqlab qolganida Tima bobo qavog'ini uyib, o'zi javob berdi.

— Faqatgina Xudoning o'zi.

Shunday deb orqasidan eshikni yopdi.

G'amgin o'yga botib, qishloq ko'chasida daydidi. O'ng qo'li bilan havoda nimanidir ushlashga urinar, nimanidir izlar, bo'shliqni paypaslar — topolmas edi. Ba'zan biron narsa esdan chiqmasligi uchun ro'molcha uchini tugib qo'yasan — tugunni yechaman-u, lop etib eslayman deb o'ylaysan; ammo qayoqda, tugunchani ushlaysan, aylantirasan, yechishga urinasan, bahuda, xiralashgan xotirangning bir chekkasida bir nuqtacha tuman ichra elas-elas ko'rinib turaveradi. Tima boboning xayolida bir allanarsa ko'rinayotgandek, hattoki uning harorati sezilib turar, ammo aniq ko'rinmas, faqat

noaniq timsollar to'lg'anar, o'ynar, maftun etar edi. Chol boshini ko'targanida edikdo'zning eshigi ro'parasida turgan ekan.

Ichkariga kirdi.

— Ustaxona qani? — deb so'radi yalang'och devorlarga alanglab.

— Bor edi, endi yo'q, — deb javob berdi etikdo'z.

— Siz endi xuddi ertakdagidek yashayapsiz, shekilli.

— Shunday, shekilli.

Tima bobo bu qishloqning noyob mehmonlaridan edi; mezbon unga hurmat ko'rsatib, o'tirishga undadi, o'rmondagi kulbada darveshdek uzlatda yashashning afzalligi, bu gavjum qishloqda kun kechirishdan ko'ra ming bora yaxshi bo'lgan erkin turmush haqida nimalardir gapirdi. Mabodo ustaxona joyida bo'lganida chol qanday xizmat buyurishi mumkinligiga qiziqdi.

— Etigimning tovoni biroz yeyilganga o'xshaydi, — dedi chol.

Etikdo'z shu zahoti tiz cho'kib, etik ultonini ko'zdan kechirdi va poyabzal hali mustahkam, yana bir necha yil tinmay yo'l yurishga, hatto suv kechishga ham qilt etmay turib beradi, degan xulosaga keldi. Faqat tovonga kattaroq, oyoq uchiga kichikroq nag'al qoqilsa, bas — etik umuman to'zmaydi.

— Uydan chiqayotganimda etigimni ustaga ko'rsatish esimda edi, — dedi chol. — Mana, hozir uyga qaytayotganimda esimdan chiqdi. Yaxshiyam sizni ko'rib qoldim.

— Chunki, xotira ham asta-sekin to'zib boradi, — dedi etikdo'z.

Timoteus qarilik xotirasini to'zdirayotganiga o'kindi; umuman, gap yoshda emas, uning es-hushi joyida, aqli tiniq ekanini butun qishloq, hatto butun viloyat ahlining yosh-u qarisi yaxshi biladi, buni Tezi ham tasdiqlashi mumkin. Faqat Firko va so'yloq tishlari bilan sigirni tilka-pora qilayotgan bo'rilar — ko'z o'ngidan sira ketmasdan fikr-u xayolini chalg'itmoqda edi.

Chol etikdo'z etikning tovoniga kattaroq, oyoq uchiga kichikroq — xuddi yong'oq mag'zining yarim pallasidek nag'al qoqayotganini ko'rmay, hech qanday tovushni eshitmay, suhbatdoshi so'zini tasdiqlayotgandek kallasini liqqillatib o'tiraverdi.

— Muzda ehtiyot bo'lib yurasiz endi! — deb ogohlantirdi etikdo'z.

Chol uning so'zini eshitdimi yoki yo'qmi — har holda, javob qaytarmadi. Etikdo'zning so'zlari Tima boboga daraxt tanasi yonidan uchib o'tayotgan qushlar qanotining pirillashidek eshitildi. Shu vaqt chol o'sha daraxt shoxlaridan biri, ya'ni o'ng qo'lini qayta-qayta sermab havoda nimanidir ushlab olishga urindi.

U tashvishlanib boshini u yoq-bu yoqqa o'girib, o'tirgan stuli tevaragidagi bo'shliqqa sinchiklab termilar edi.

— Nimanidir yo'qotdingizmi? — deb so'radi etikdo'z.

— Tayoqni.

— Qanday tayoqni?

— Yovvoyi olcha shoxidan yasalgan tayoqni.

— Bu yerga kelganingizda qo'lingizda tayoq yo'q edi.

— Qo'limda tayoq yo'q edimi?

— Yo'q edi.

Tima bobo o'rnidan turdi, peshanasini tirishtirib, boshini qotirdi — qanaqasiga bunday bo'lishi mumkin? Uydan tayoqni olib chiqqani aniq. Keyin Kolokanning idorasiga bosh suqdi, Firko uni o'tirishga taklif qildi, o'shanda tayoqni stul chetiga suyab qo'ygan bo'lishi kerak. Ha, o'sha yerda unutib qoldirgan, chunki qishloq kengashi idorasidan chiqib, ko'chada ketayotganida o'ng qo'lini g'alati sezgandi-ya. Demak, qo'lida tayoq yo'qligi uchun bo'm-bo'sh barmoqlarini qimirlatgan ekan. Etik tovoniga nag'al qoqtirishni emas, tayog'ini unutib qoldirganini hech eslay olmayotgan ekan. Baribir, etikdo'znikiga kirgani qaytanga yaxshi bo'ldi, anchadan buyon nag'al qoqtirishni niyat qilib yurgan edi; agar Kolokan yonida tayoqni unutib qoldirmaganida, bu ish ham esidan chiqib ketgan bo'lar edi.

Peshanasidagi g'ijim tekislandi, nigohi tiniqlashdi.

— Ha, o'sha yerda qoldirganman.

— Qayerda?

— Kolokanning idorasida.

— Unday bo'lsa, qaytib borib, tayoqni oling.

Cholning ko'zlari qo'rda changdekkina kul qo'ngan ko'mirga shamol ufurganida qip-qizil cho'g' bo'lib lovullagandek yonib ketdi. Bu otashda alam, afsus-nadomat va qaysarlik bor edi.

— Endi uning bo‘sag‘asiga oyog‘imni bosmayman! — deya cho‘rt kesdi.

Chol ko‘chaga chiqdi-yu, to‘ppa-to‘g‘ri o‘z qo‘rg‘oniga qarab yo‘l oldi.

Izg‘irin shamol yuzini yalab esar, yonoqlarini achishtirardi; osmonni sharqdan g‘arbga tomon ko‘chayotgan bulutlar qoplagan edi. Qiyom pallasi quyosh nurlari otash nayza otgan yerlarda irmoqchalarning shildirab oqishi eshitilar, chuqur joylardagi ko‘lmaklar girdida esa muz aylanasiga yupqagina gulkashtalar to‘qiyotgan edi. Atrof jimjit; jonivorlar va qushlar iniga shoshilar, shamol ham shoshilib qaygadir uchar, borgan sari tezlashar, u bilan birgalikda ayoz ham tobora kuchayar edi.

Chol uyiga yetib borganida qosh qoraygan edi.

— Bobo, ahvol yaxshi emasmi?

— Yaxshilik topilmaydi, bolam.

— Shamol ham juda qattiq uvullayapti.

— Ha, to‘rt tomondan qisib esyapti.

Shu paytgacha bobomning kayfiyati bunday tushkun bo‘lmagan edi, deb o‘yladi Tezi. Bu umr kuzining o‘zgacha qayg‘usi edi, ob-havo yomon bo‘lsa, cholning ham kayfiyati buzilar edi. Aftidan, ahvol judayam yomon. Nihoyatda qo‘rqinchli va ko‘rinmaydigan bir narsa yaproqlarni, shoxlarni ham emas, ildizni chiritayotgan edi. Bunday bo‘lmaganda, ahyon-ahyonda nigohlar charaqlagan payt g‘am bir lahza chekinar edi. Avvallari chol biroz g‘amgin bo‘lib qolganida yoki sal xafa bo‘lganday ko‘ringanida qiz sho‘xlik bilan uni kuldirishga harakat qilar, bu qilig‘idan o‘zi ham beixtiyor kulib yuborar edi. Mana, hozir ham qiz qo‘ng‘iroqdek jaranglab kuldi — biroq cholning avzoyidagi muz erimadi. Qiz jim bo‘lib qoldi.

— Kechki ovqatni pishirib qo‘ydim, suzaymi? — dedi.

— Rahmat, yemayman.

— Paxtali paltongizni yeching, keling, yordamlashaman.

— Kerak emas.

— Sovqotyapsizmi?

— Molxonadan xabar olaman.

Bobom bugun naqadar g'alati: hali uyga kirmay ostonada turib — shu zahoti molxonaga boraman, sigir bilan qo'ylarni ko'rmasam, o'lib qolaman, deydi-ya.

— Men ularga suv berib, yemish solganman.

— Men yemish berish uchun bormayapman.

— Unda nima uchun boryapsiz?

— Boshqa ishim bor.

U nimanidir, qandaydir muhim sirni yashiryapti, deb o'yladi qiz. Bu qanaqa sir ekan-a? Chakoni o'zi aytganidek kooperativga topshirdimikin? Agar topshirgan bo'lsa, sigirdan ayrilganiga o'kinayotgani turgan gap. Axir, u yoqda sigirga yaxshi bo'ladi-ku, og'ilxonada ochlikdan o'lib qolishi aniq edi.

— Choy ham ichmaysizmi?

— Choy bo'lsa, mayli, ichaman.

Chol stol yoniga kelib o'tirdi, telpagini yechib, tizzasiga qo'ydi.

— Etigingiz chaq-chaqq qiladi-ya! — dedi hayron bo'lib Tezi.

— Nag'al qoqtirdim, — dedi chol.

Qiz yanada battar hayratlandi, bobosi o'zgarib qolibdimi? Ilgari paxtali ust kiyimining tirsagi uvada bo'lib to'zib ketsa ham, yamoq solmasdan haftalab bemalol yuraverar edi. Mana bugun bus-butun etigiga nag'al qoqtiribdi, tavba! Bahorda emas, yozda emas — ayni qirchillama qishda, hamma yoq muzlab yotibdi — sirpanchiq, bo'g'ot tagiari tarnovlardek muz sumalaklaridan erib tomchilagan suvdan oynadek silliq, ehtiyot bo'lmay nobop qadam bossang, yiqilasan. Shunday payt esi bor odam nag'al qoqtiradimi etigiga!

Bobomni qanday jin urdi?!

— Musallasdan quyaymi, bobo?

— Quyaqol, bo'talog'im. Faqat chernikadan bo'lsin, qop-qoragina.

Tezi idishga musallas quyib keldi. Bobosining yoniga o'tirdi, uning ko'zlariga termilib kuldi, tabassum bilan tinchlantirish uchun, shamolda miltirab yonayotgan shamdek qaltirayotganini sezdirmaslik uchun. Qo'llarini musht qilib tugib, o'zini quvnoq va xotirjam ko'rsatishga harakat qilar, o'z-o'ziga tayinlar edi: bardam bo'l, bor kuching bilan kul!

— Qo'ng'iroqni keltir, — dedi chol.

Qiz quloqlariga ishonmadi.

— Qo'ng'iroqni?!

— Ha, ichkari uyning tokchasida turgan eski qo'ng'iroqni.

Tezi qattiq xavotirlandi, bo'lishi mumkin emas. Bobosi qo'ng'iroq yoki boshqa narsaning qayerda turganini hech qachon eslatmagandi; qiz uydagi bor narsaning qayerdaligini besh qo'lday bilar, chol esa buni juda yaxshi anglar edi. Oltmishinchi yilda ro'za kunlari Chako tug'ganida unga beda maydalab berish uchun Tezi qayerdandir jodi topib kelgan edi. Somon g'aramining ichidan ignani topish mushkul bo'lgandek paytda qiz boshqa mayda-chuydalarni ham juda tez topardi. Bir kuni taqa qoqish uchun mix izlab qolishdi. Agar Tezi bo'lmaganida uydagi mixni hech kim topolmas edi. Bobosi — tejamkor edi, bugun kerak bo'lmagan narsani ehtiyotlab yashirib qo'yadi, ertasi kuni esa o'sha narsani qayerga qo'yganini unutadi.

Tezi xavotirga tushganini bildirmadi, lom-mim deb e'tiroz bildirmay, uyga kirib qo'ng'iroqni olib chiqdi.

— Mana shumi?

— Xuddi shu, bo'talog'im.

— Bu sizga nimaga kerak bo'lib qoldi?

Chol javob bermadi; chap qo'li bilan qo'ng'iroqning tutqich halqasidan, o'ng qo'li bilan — jiringlab ketmasligi uchun tilidan ushlab yuqoriga ko'tarib, uni jimgina ko'zdan kechirdi, keyin pastga tushirdi.

— Bu mening otamdan qolgan, — dedi o'ylanib chol.

— Demak, men uchun u bobokalonimdek ekan. Bobokalon-qo'ng'iroq! — deb kuldi Tezi.

— O'sha zamonlarda uni lyutnya, ya'ni cholg'u asbobi deyishar edi.

— To'g'ri lyutnistlar uni bo'yniga osib yurishardi.

— Qanaqa lyutnistlar?

— Darvesh musiqachilar. Qishloqma-qishloq daydib, mana shunday qo'ng'iroqlar bilan, qahramonlar haqida qo'shiq kuylab yurishgan.

Tima bobo boshini qimirlatdi, go'yoki ko'zlaridani yosh chiqib ketadiganday tuyuldi, chunki boshini qimirlatayotganda kipriklari tez-tez pirpiradi.

— Bu qo'ng'iroq ham kuylaydi, — dedi u.

— Nima haqida, bobo?

— Qahramonlar haqida.

— Qanaqa qahramonlar? Men sizni tushunmayapman, — deya ajablandi Tezi.

— Bo'rilar va Chako haqida, — dedi chol.

Kutilmagan zo'r to'lqinlanishdan Tezi o'rnidan turib ketdi. Bobosi qishloqqa borganida qandaydir yomon voqea sodir bo'lgani mana endi kunday ravshan bo'ldi. Balki, izg'irin ayozda cholning boshi shamollab qolgandir, shuning uchun uning ko'ziga butun dunyo qop-qora ko'rinmoqda. Qiz oyog'i kuygan tovuqday bir joyda turolmay, kichkina xonani aylanib bo'zchining mokisiday yurdi va birdaniga stulda o'tirgan bobosini quchoqlab oldi. Issiqina kaftlari bilan uning boshini ushlab, ko'zlariga iltijoli boqdi.

— Bizning sigirimiz ularga kerak emas ekanmi?

— Kerak emas ekan.

— Shuning uchun sigirni bo'rilarga yedirmoqchimisiz?

Tima bobo o'rnidan turdi, ich-etini nimadir og'ritib uzib olganini sezdi, bunday og'riqni his etmaganiga ancha bo'lgan edi. Balki, bu derazadan tashqarida uvullab quturayotgan, qattiq hushtak chalgani, hatto uyning ichida ham quloqni teshib yuborayotgan shamoldandir. Balki, bu kun bo'yi to'plangan, oxiri sabr kosasidan toshib to'kilgan asabiy toliqishdir. Bo'lishi mumkin, lekin cholni bir so'z hali og'izdan chiqib ulgurmasdanoq ziyrak anglaydigan, fikrlarini oldindan o'qiydigan, ko'radigan nabirasini hayron qoldirdi.

— Sigirning bo'yniga qo'ng'iroqni bog'lab qo'yaman, — dedi u.

— Undan keyin-chi?

— Keyin sigirni o'rmon chetidagi daraxtga qantarib kelaman.

— Xo'sh, undan keyin nima qilamiz?

— Keyin lyutnyaning yig'lashini kutamiz.

Bu so'z jimjitlikda muzlab qolgandek qotdi; bobo bilan nabira bir-biridan ko'z uzmay termilib qolishdi. Cholning nigohida

alam va og'riq, qizning nigohida — alam va iltijo balqdi. Nogahon Timoteus qo'ng'iroqni tebratdi, u umidsiz va bo'g'iq jarangladi — xuddi ko'milayotgan tobutning ustiga tuproq uyumi tushayotgandek.

Bu tovushdan Tezining oyoqlari chalishib ketdi, madori qurib stulga o'tirib qoldi va yuzini qo'llari bilan to'sib oldi.

— Qo'ng'iroqning qo'shig'i xuddi mana shunday yangraydi, — dedi chol.

— Axir, Xudo hammasini eshitadi-ku! — boshini ko'tarmasdan alam bilan iltijo qildi qiz.

Bu so'zlardan Tima bobo bir lahza sarosimaga tushib qoldi, biroq darrov o'zini tutib olib, keskin so'zladi:

— Hammasi uning xohish-irodasi bilan bo'lyapti.

Shundan so'ng chol uydan chiqdi.

Qorong'i tushgan edi, qovog'i soliq, zulmatli tunda bo'ron izg'irdi. Aqldan ozgan shimol shamoli o'rmon ichidan shiddat bilan uchib chiqar, qo'rg'on hovlisiga bostirib kirib, uyga urilib to'xtar, deraza tagida uvullab telbalarcha raqsga tushar va iziga qaytib g'oyib bo'lar edi. Bulutlar uyuri ufq ortidagi qo'raga kirib ketgan. Yulduzlar charaqlab porlar, gardishining yarim pallasidan ko'prog'ini quyosh Yer yuzining teskari tomonidan turib yoritib turgan oy shoshilmasdan falak gumbazining toqiga ko'tarilib borardi. O'rmon aniq-tiniq ko'rinib turar, hatto chekkadagi daraxtlarning qor qoplagan shoxlarigacha ko'rish mumkin edi; lekin o'rmon to'riga tomon tobora ichkari ketgan sari sershox daraxtlar qiyofasi bir-biriga chirmashar, asta-sekin zulmatli ko'lankaga singib borar edi. Faqat tom ostida, molxonaning somon bilan yopilgan bo'g'otida uzun saf tortib osilib turgan sumalaklar oy shu'lasida yalt-yult etib jilolanardi.

Qo'ng'iroq olisdan bir-ikki marta og'ir-bosiq, qisqa-qisqa jarangladi.

— Olib ketdi! — dedi Tezi.

Biroq boshini ko'tarmadi.

U hamon stulda bukchayib o'tirgan ko'yi boshini qo'llari ustiga qo'ygancha stolga bag'rini berib yotardi; uyga qaytganida bobosi uning stolga shunday parchinlanib yotganini ko'rdi. Chol

chuqur uh tortdi — u chekkan ohi yerga tushgan xazon yaproqlar orasidan kelgandek bo'ldi — biroq bir so'z ham aytmadi. Telpagini stol chetiga qo'ydi, paxtaligini egnidan yechib, stul yelkasiga ildi va nabirasining ro'parasiga o'tirdi.

Birpas ikkalasi ham jim o'tirishdi.

— Telpagingizni nega ilmoqqa ilmadingiz? — deb so'radi Tezi biroz jim o'tirgach.

Chol qiz qaramayotgani bilan hamma narsani ko'rib o'tirganidan hayratlangani sababli qotib qoldi.

— Paltongizni ham?

Chol javob qaytarmadi. Tezi boshini ko'tarib, go'yo uni tanimayotgandek cholga tikilib qaradi. Aslida tanimayotgani ham to'g'ri edi — Timoteus birdaniga qarib qolgandek ko'rindi. Mung to'la ko'zlari xira tortgan, muzday qotgan qorachiqlari baroq qoshlari ostiga chuqur botgan, yuzi tirishgan, burni qanqayib chiqqan edi.

— Bu oqshom uxlamaymiz, — dedi u.

— Hm-m... — qizning pastgina tovushi eshitildi, xolos.

Deraza tagida shamol darg'azab o'kirar, goh izillar, goh uvullar, dardi xuruj qilgan telbadek o'rtanib to'lg'anardi; uydagi sukunatni pechkadagi olovning pishillashigina buzar edi. Chol ham, qiz ham faqat bir narsani o'ylardi: hozir ro'y berayotgan hodisalar nega hayotda aynan sodir bo'lishi shart? Tima boboning bu borada shubha-gumoni yo'q edi: shunday bo'lishi muqarrar. Chunki qonunlarni muhtojlik paydo qiladi va uning o'zi o'sha qonunlarni bajarishga majbur qiladi. U ham, bo'rilar ham shu qonunlar izmida harakat qilmoqda. Muhtojlik oppoq qorga bo'rilar uchun buyruq yozadi, uchqur shamollar bu buyruq xabarini yetkazadi; muhtojlik buyurar ekan — ular, albatta, yetib kelishadi. Qo'rg'on bo'rilarni chorva isi bilan chaqiradi, buning ustiga, sigirning bo'yniga qo'ng'iroq ilingan — sal qimirlasa, sovuqdan goh u oyog'ini, goh bu oyog'ini biroz ko'tarib bossa, bas — jaranglab ketadi.

Yuz berayotgan voqealarning to'g'riligiga chol o'zini shunday ishontirar edi. Biroq qiz boshqacha o'ylar edi, axir, bu gulning hayot g'unchasi endigina ochilgan edi. Bedani qayerdan bo'lsa ham topish shart edi, hatto o'g'irlab bo'lsa ham olib kelish zarur

edi. Agar molning egasi buni ham, uni ham uddalay olmadimi, o'rmondan yetarli darajada qo'ziqorin, yertutlar terib, daraxtlarning suvli, yumshoq po'stloqlarini shilib kelishiga kim ham qarshilik qilardi; sigir ochlikdan nimalarni yemaydi deysiz! Endi befoyda. Baribir bo'rilar kelmaydi, hozir urg'ochilar iliqqan payt. Kelsa ham, sigirni farishtalar himoya qiladi: axir, ertaga Cho'qintirish ayyomi-ku.

Bunday o'ylardan qizning ko'ngli yorishib ketdi.

— Qani, musallasdan quy-chi, — buyurdi chol.

— Xo'p bo'ladi, bobojon, — javob berdi nabira.

— O'zingga ham.

— Chernikadanmi?

— Menga olvolidan sol. U qondek qip-qizil.

Tezi bobosiga ham, o'ziga ham musallas soldi; o'ziga bir ho'plamgina quydi — bobosining ko'ngli uchun. Qadah urishtirishdi, bu odat ularning oilasida urf emasdi. Ko'tarilgan qadahlar uzra bir-birlari bilan ko'z urishtirishar ekan, ular bu o'tkinchi dunyoda ham, buyuk va abadiy hayot — oxiratda ham jisman va ruhan bir butun, yaxlit va ajralmas ekanligini his etishdi, hamisha shunday edi va shunday bo'lib qoladi.

Chol qip-qizil qondek olvoli musallasini bir ko'tarishda ichib yubordi; musallasning rangi va nomi Kolokanning idorasida unutib qoldirgan yovvoyi olcha tayog'ini eslatdi. Bu haqda Teziga aytsammi, aytmasammi, deb ikkilandi, ammo oxiri qizdan hech nimani yashirmaslikka ahd qildi.

— Men uydan qo'limda tayoq tutib chiqib ketgandim, — deb so'z qotdi u.

— Ha, yovvoyi olcha tayog'ini, — deb ma'qulladi Tezi.

— Ana-ana.

— Uyga qaytganingizda esa qo'lingiz bo'm-bo'sh edi.

— To'g'ri.

U shishaga ishora qildi — yana jindakkina quysang-chi, — jo'rtaga gapni aylantirib, iloji boricha, Kolokanning otini eslatmaslikka harakat qildi, lekin uddalay olmadi, oxiri dangal aytdi:

— Firkoning oldida unutib qoldiribman.

— Kimning oldida? — qizishib ketdi qiz.

Shu zahoti ko'zlari chaqchayib o'rnidan turdi. Uning butun a'zoyi badani, yelkasi, oyoqlarining mushaklari kamon toridek tarang tortildi, xuddi mushtlashish bellashuviga chiqqan kurashchiday ko'zlari darg'azab yonib turardi. Biroq keyin bobosi boshqacha o'ylamasligi uchun bor irodasi bilan jahlini jilovlab, o'zini qo'lga oldi. Joyiga qaytib o'tirdi. Keyin zo'rma-zo'raki iljayib gapirdi:

— Tavba, tayoqni pishirib yermidi?

— To'g'ri aytasan, pishirib yemaydi.

— Nimanidir tuzatishga ishlatadimi?

— Yo'g'-ey.

— Unda nima qiladi?

— Olib kelib beradi.

Tezi xuddi yubkasiga lovullagan cho'g'day toshko'mir tushganiday sapchib turib ketdi, ayni shu payt tun qa'ridan qo'ng'iroq ovozi eshitildi — juda past, deyarli tovushsiz. Buloq suvi yer tagidan shunday balqib chiqadi, suv tubidan yuzaga ko'tarilgan havo shunday toshadi, ko'piradi, pufak bo'lib yoriladi. Qiz turgan joyida qotib qoldi.

Ikkalasi ham nafasini ichiga yutib, quloqlarini ding qildilar.

— Bu sigir, shunchaki, — dedi chol, — zerikkanidan bezovta bo'lmoqda.

Shu zahoti Tezi sigirni ham, qo'ng'iroqni ham unutdi, tomirlarida avvalgi g'azab ko'pirib toshdi.

— Olib keladimi?! — qichqirdi qiz.

— Shunday deb o'ylayman.

— Qachon?

— Vaqt topadi.

Qiz jar oldiga kelgan yovvoyi echkiday ikkilanib qoldi, jardan sakrab o'tish kerak, lekin qo'rqinchli; keyin qayrildi-yu, chopib xonasiga kirib ketdi, ichkaridan qichqiriq eshitildi:

— Xotinboz u!

U divanga yotib jim bo'lib qoldi. Qizning holatini turlicha tushunish mumkin edi: qiz, balki, agar yovvoyi olcha tayog'i yigitning qo'liga tushibdimi, buyursin, sadqayi sar, bobosining boshqa tayoqlari ko'p-ku, faqat Firko bu yoqqa kelmasa bo'ldi,

deb o'ylagandir; ehtimol, bu sukut shuni anglatardiki, agar Kolokan eshikdan bosh egib shu uyga kirsa, u o'zi uchun javob bera olmaydi, tish-tirnog'i bilan g'ajib tashlaydi, yeb tashlaydi. Qiz yurganda egilib g'ijirlaydigan polga oyog'ini osiltirib o'tirdi, qizil tuflichasi bilan polni tepib taqqillata boshladi — tobora tez-tez tepdi, keyin birdaniga o'rnidan sakrab turdi-yu, bobosining yoniga yugurdi.

— Agar kelsa, uni chavaqlab tashlayman! — dedi tishlab uzib olguday tishini tishiga qattiq bosib. — Ko'zlarim bilan tilka-pora qilaman, so'zlarim bilan uzib olaman! U o'zini kim deb o'ylayapti?! Shunday osongina xotin qilib olib ketaveraman, deb o'ylayaptimi? Qo'limdan ushlaydi-yu, ketdik, yuraqol, deydi. Shu bilan bo'ldimi? Men unga bir xushtak chalganida quvonganidan dumini likillatib chopib ergashib ketaveradigan kuchukcha emasman. Sha'nini, or-nomusini o'rtaga qo'ysin, kerak bo'lsa. Agar chin yurakdan sevsa, men uchun fido bo'la olishini qoni bilan isbotlasin!

Qiz iziga qaytib, xonaga kirib ketdi, yana oyoqlarini osiltirib divanga yotdi, yana oyoqlarini likillatib qo'shiq ayta boshladi:

Barcha jonivorlardan mushukcha go'zal,
Barcha dilbarlardan Katusha go'zal.
Katalina Chyudi!

Bu Katalina Chyudi deganlari — atirgul butoqlaridagi o'tkir tikan ekan: Tezi uning nomini tilga olishi bilan tikan ustiga o'tirib olganday sakrab o'rnidan turib ketdi; to'lg'onib, o'rtanib bobosi yoniga quyunday yeldi.

— Xotinboz! Suyulib xushomad qiladi, bo'ldi — gah deydi-yu, qizlar kaftiga qo'nadi. Shunga o'rganib qolgan u. Faqat men unaqa qiz emasman, mening yuragim bor, dastavval meni tushunishi, ko'nglimga qarashi kerak. U esa birdaniga gulni uzmoqchi bo'ldi — xohishingdan o'rgildim sening! — qo'liga gul tikanlari shartta kirdi-yu, shu zahoti iziga qaytdi, xuddi ketiga juvoldiz sanchilgan kuchukday vangillab yarasini yalab qochib qoldi. Endi esa to'yiga taklif qilibdi, rangli tasmalarga o'rab

churvaqalarni jo'natibdi. Uyati, vijdoni yo'q ekan! Hamma qizlar Chyudiga o'xshaydi deb o'ylaydi: barmog'i bilan imlaydi-yu, yugurib boramiz! Tushingni suvga ayt!

Qiz ho'ngrab yig'lab yubordi.

— Bo'ldi, o'zingni bos, o'zingni bos. Albatta, tushini suvga aytadi, — dedi chol mehribonlik bilan, qizni sekingina stol yoniga yetaklab kelib ro'parasidagi o'ringa o'tqazdi. Tezi yuzini qo'llari bilan to'sib oldi, uning a'zoyi badani qaqshab titrar edi: peshonasidan ko'm-ko'k tomirlari bo'rtib chiqdi.

— Qo'y endi, qo'ysang-chi... — deb ovutdi chol nabirasini.

Qiz boshini chayqadi.

— Nega "qo'ysang-chi" deysiz?! — ho'l kipriklarini pirpiratib so'radi qiz.

— Sen doktorning aytganini qilmayapsan, shu yig'i-sig'ingni qo'ysang-chi, deyapman. U sen hayajonlanmasliging, tinch bo'lishing kerak degan.

— U boshqa gapni ham aytgan.

— Ha, ha. Sen gulg'unchadek chiroylisan degan.

— Ana, ko'rdingizmi?

Hozirgina yig'lab o'tirgan Tezi birdaniga kulib yubordi, xuddi qisqa vaqt yomg'ir yog'ganidan so'ng quyosh charaqlab nur sochgani kabi; bu shodlikni bobosi bilan baham ko'rish uchun unga yana musallas quydi. Chol devordagi soatga qaradi, pushti siferblat ostida langar tebranar edi. Chol stakanni ko'tarib:

— Vaqt yarim tun bo'ldi, Cho'qintirish ayyomi kirib kelayapti.

Bir-ikki qultum yutib, qo'shib qo'ydi:

— Oyat o'qish kerak.

Tezi xonaga kirib, kichkinagina kitobcha olib chiqdi, muqovani ochdi. Kitobni varaqlab cho'qintirish haqidagi bobni izlar ekan, chol stulga qulayroq o'tirib olib, ko'zlarini yumdi — bamisoli yer yomg'irni kutayotgandek.

Qiz o'qidi:

— "Yulduz shu'lasi bilan bizga yo'l ko'rsatuvchi Yaratgan Egam. Senga munojot qilamiz, faqat O'zingga ishonamiz: yaqin borishimizga, O'zingning jamolingni ko'rishimizga imkon ber".

Qiz jimib qoldi.

Tima bobo qimirlamay o'tirar, uning ko'ngli xotirjam, ko'zi nurli edi. Qushdek mizg'idi, qiz sekingina o'rnidan turib kitobni joyiga eltib qo'yishni o'yladi, biroq bir qadam bosishi bilan chol uni sokin va uzoqdan kelayotgandek ovoz bilan to'xtatdi:

— Yevangeliyani o'qi. Matfeydan.

Qiz iziga qaytdi, deyarli so'zlarni sekin nafas olayotgandek talaffuz qilib, Yevangeliyani o'qiy boshladi. Irod farishtalardan mo'jizaviy yulduz haqida surishtirib bilayotgan joyiga yetganida yana bobosiga qaradi; u bir maromda sokin nafas olar edi.

— Eshityapsizmi? — deb sekingina so'radi Tezi.

Chol javob bermadi; bolalikdan tanish bo'lgan Ilohiy bitiklar ta'sirida go'dakday uxlab qolgan edi.

Qiz xonaga chiqdi, kitobni joyiga qo'ydi. Uyda hukm surgan sukunat shovqinli harakatni kishanlagan edi; shuning uchun xona ichi nimqorong'i edi; faqat bobosi uxlab o'tirgan stol uzra xira yongan chiroq nurlari ochiq eshikdan ichkariga kirar va deraza orqali oshib o'tib, oppoq qorga singib ketardi. Tezi xonada u burchakdan bu burchakka yurar, goh eshik yoniga, goh deraza tagiga borib qolar, egnidagi libosining rangi goh bo'zarar, goh tovlanar edi. Uni qarama-qarishi tuyg'ular chulg'ab oldi; bir sezgidan eti tirtab ketar, bir sezgidan tomog'i bo'g'ilib, yuragi qisilar edi. Doimo chiroyli bezatib qo'yiladigan, nikoh kechasini sabr bilan kutayotgan baland karavot yoniga borib to'xtadi, yostiqlarni sanadi, ular to'qqizta edi, qo'llari bilan yumshoq adyolni siladi; bu xonadagi har bir narsa uning shuurida qandaydir kun va voqea haqidagi xotiralarni uyg'otar edi. Qiz bir necha mayda qadam tashlab ko'zgu yonida to'xtadi. Xuddi yovvoyi echkicha buloqning tiniq suviga termilgani singari qiz ko'zguga tikildi, oynadagi aksida ko'zlari katta-katta zumrad javohirlardek jilolanib nur sochar edi. O'zini ko'zguga soldi, yuragi sevinchga to'ldi, xuddi buzoqcha tuz yalayotganda tilini chiqarib o'ynaganidek o'z aksiga tilini chiqarib kuldi, aylanib qomatini tomosha qildi. Nihoyat, ko'ylagini yechdi, badanini ko'rib uyalganidan qizarib ketdi, lekin yalang'och qomatidan ko'z uzolmasdi, sehrlanib qolgandi, chiroqning sarg'ish va qorning oppoq shu'lasida tap-tarang bo'lib dirkillab turgan katta-katta ko'kraklariga mahliyo bo'lib termildi.

So‘ngra bor bo‘yi bilan o‘zini divanga tashladi.

Vaqt sho‘x irmoq kabi yugurar, suv tubidan toshgan ko‘pikdek xotiralar ko‘pirar edi; so‘zlar sharqirar, chaqnoq nigohlar lovullab yonar, so‘ng yana so‘nar, tiyiqsiz qaysarligi bilan qizning tinka-madorini quritgan orzu-xayollar, xohish-istaklar uyg‘onar edi; dimoqni qitiqlaydigan hidlar anqir, ularning ichida eng kuchli hid erkak hidi edi, bu hiddan qizning badani qizir, o‘rtanib yonar edi.

Tezi hansirab, tez-tez nafas olar, bezgak tutgandek qaqshardi.

Qiz tushunmay qoldi, elas-elas ko‘ringan bu voqealar chindan ko‘z o‘ngida ro‘y beryaptimi yoki xayolidami, yoki bu hissiyot shunchaki tushmi? Hamma yoq jimjit edi, faqat nimqorong‘ida devor soati chiqqilar, vaqt tovushiga hamohang bo‘lib, faqat biroz sekinroq maromda Tima boboning xurillagan xurragi yangrardi.

Tong yaqin edi.

Butun dunyo uxlar edi; allaqachon yo‘lga otlanishi kerak bo‘lgan farishtalar ham mizg‘irdi. Ular yulduzlar sochilib yotgan osmon ostida nur kukunlariga belangan yalang oyoqlarini osiltirgancha dunyo bexabar bo‘lib dong qotib uxlashar edi. Shu payt Arshi a’lodan tushgan bir maloyika ularning quloqlari ostida qo‘ng‘iroqni jiringlatdi: uyg‘oninglar, vaqt bo‘ldi, axir!

Tezi shu zahoti uyg‘onib, ko‘zlarini ochdi.

Aslida qo‘ng‘iroq farishtaning qo‘lida emas, Chakoning bo‘ynida jaranglar edi. Qo‘ng‘iroq sukunatni tilka-pora qilar, qo‘ng‘iroq bo‘zlab yig‘lar edi; bu oh-u nola ichidan sigirning “mo‘”lagani va xuddi kraxmallangan choyshabni g‘ijimlagandagi kabi bo‘g‘iq “qars-qurs” etgan tovushlar eshitilar edi.

— Bobo! — deb qichqirdi Tezi.

Katta jun sholro‘molini yelkasiga tashlab, Tima boboning yoniga chopib bordi-yu, yelkasidan turtdi.

— Bobo, qo‘ng‘iroq! Bo‘zlayapti!

— Kim bo‘zlayapti?! — seskanib uyg‘ondi chol.

— Qo‘ng‘iroq...

— Sigirmi?

— Sigir ham, men eshitdim.

Tima bobo zo'rg'a o'rnidan turdi, paxtali paltosini kiydi, stoldan telpagini oldi. Keyin, odatda, o'tin yorishda ishlatiladigan dastasi uzun boltani qo'liga oldi.

— Ketdik, borib ko'ramiz, — dedi.

Eshik oldida to'xtab o'ylanib qoldi, balki, Tezining uyda qolgani ma'quldir; agar qarashga qo'rqmasa, uyning sharq tomonga ochiladigan derazasidan turib tomosha qilishi mumkin.

— Sen uydan chiqmasang bo'lardi, — dedi.

— Meni qo'rqoq deyapsizmi? — xafa bo'ldi qiz.

— Bo'pti, ketdik!

Ular tashqariga chiqishdi, ehtiyotkorlik bilan eshikni berkitishdi: oldinda bobo, uning yon tomonida, sal orqaroqda — qiz olg'a qadam bosdi. Uy peshayvonining emandan yasalgan, oy yorug'ida sarg'ish rangda ko'ringan to'rt pog'onali zinapoyasidan pastga tushishdi, devor bo'ylab derazalar tagidan sekin yurishdi. Yaqin atrofda hamma yoq tinch edi. Ulardan sal o'ngroqda, o'n besh qadamlar narida tarnov chekkasiga suyalgan narvon aniq ko'rinib turar; molxona devorlarini oy shu'lasi yoritar edi. Chap tarafda esa shimoli-sharqqa qarab, qo'rg'on biqiniga qadalib tiralgan holda qalin o'rmon cho'zilib yotardi.

Hammasi joyida edi, go'yo hech qanday muammo yo'qdek.

Biroq nimadir ogoh bo'lishga, u yoq-bu yoqqa ziyraklik bilan qarashga majburlar edi.

— Eshityapsanmi?! — shivirladi chol.

— Depsinyapti... — deb javob berdi qiz.

Tima bobo bo'ynini cho'zib o'rmon tomonga qaradi. Nihoyat, u bo'z ko'lankalarning goh ko'rinib, goh g'oyib bo'lib turgan allaqanday oq narsa — ehtimol, bo'g'izlab yerga ag'darilgan sigir atrofida aylanib irg'ishlayotganini ko'rdi. Bobo oyoq uchida ko'tarildi; uning yelkasi osha qarab turgan qiz ham o'rmon chekkasida qanday hodisa ro'y berayotganini ko'rish uchun bo'ynini cho'zib qaradi.

Qo'llari qaltirar edi, ovozi titrab chiqdi:

— Qor bug'lanayapti.

— Qo'rqayapsanmi? — deb so'radi chol.

— Qo'rqayapman.

Ular guvoh bo'lgan voqea nihoyatda dahshatli edi — atrof qorong'i edi, nimalar bo'layotganini ko'rish uchun nigohlarni zo'riqtirib, ko'z teshilib ketgudek qarash kerak edi, — qorning shiddatli g'arch-g'urch etgani, yana chiyillagan, irillagan tovushlar aralashib ketgan edi.

— Sen shu yerda tur, men yaqinroqqa borib ko'ray-chi, — dedi chol.

Biroq qiz uning qo'llaridan mahkam ushlab olib, qo'yib yubormadi.

— Yoki birga boramiz, — deb turib oldi qiz.

Chol labini tishlab oldi — ahvol yaxshi emas. Har holda, nimalar bo'layotganini ko'rish zurur, yirtqichlar yaqiniga nevarasi bilan birga borishga qo'rqar edi. Qiz, yaxshisi, ulardan uzoqroqda, xavfsiz joyda yoki uy ichida derazadan qarab turgani ma'qul.

— Ketdik, narvonga chiqamiz! — dedi chol.

Ular ko'rinmaslikka harakat qilib, molxona yoniga o'tishdi, Tezi narvonga oyog'ini qo'yib, xashak solingan tarnov ustiga chiqdi. U narvonning oltinchi yoki yettinchi zinasiga ko'tarildi. Chol narvon yonganasida turar, qiz qizil tuflisini zinaga emas, bobosining yelkasiga qo'yib turganday ko'rinar edi.

Ikkalasi ham qo'rquvdan titrar, nafasi ichiga tushib, shivirlab so'zlashar edi.

— Ular olisdami? — deb so'radi Timoteus.

— Yigirma qadamlar narida, — deb javob qaytardi qiz.

— Agar bizni sezib qolishsa, tomning ustiga chiqib ket!

— Siz-chi?

Bu savolga Tima bobo javob qaytarmadi; hamon bo'ynini cho'zgancha ziyraklik bilan o'rmon tomonga tikilar edi. U yoqda bo'z-kulrang yumshoq narsa bilqillab qimirlardi, o'rmon yaqinida tep-tekis bo'lgan yer sathi qo'rg'on atrofida ko'pgan xamirdek do'mpayib turgani uchun qimirlayotgan narsaning tepa qismigina ko'rinardi.

— Ular nechta?

— Bir, ikki... Besh!

— Hozir nima qilayapti?

— Do'mpayib turgan oppoq narsa girdida g'uj bo'lib talashib yotishibdi, dumoloq narsaning ichiga tumshuqlarini tiqishyapti. Tillarini chiqarib yalashayapti... U-u-u, ularning tili qondek qip-qizil ekan. Burinlari bilan ham turtayapti, ham hidlayapti!

— Nimani hidlayapti?

— To'rtta kichikrog'i — sigirni, kattaroq, beshinchisi — anavi to'rtalasini.

— Bo'rilarni-da?

— Ha.

— Demak, u — arlon bo'ri! — dedi chol.

Cholning so'zi bo'g'zida qoldi, chunki o'rmon tomondan tez-tez hansiragan tovushlar eshitildi, bir necha soniya o'tmay, odamning qonini to'nglatib yuboradigan dahshatli irillash, xirillash ovozlari yaqinlashdi.

— Ular bir-biri bilan olishyapti! — dedi qiz bir zina yuqoriga ko'tarilib.

— Mayli, olishaversin, — dedi chol.

Boltani ko'tarib, qadam tashlamoqchi bo'ldi, lekin molxona bo'g'otidagi qator sumalaklar kunduzi quyoshda erib, devor tagiga tomchilagan suvdan hosil bo'lgan muzga sirpanib yiqilishiga sal qoldi. Yaxshiyam og'ir boltaning uzun sopini langar qilib, muvozanatini saqlab qoldi. Iziga qaytib, u ham narvonga chiqdi, zinalarni bosib nevarasining yoniga ko'tarildi, tashvishlanib o'rmon tarafga qaradi.

— Ketyapti-ku, — dedi u.

— Ikkitasi qoldi, — deb aniqlik kiritdi qiz.

— Arloni bilan urg'ochisi.

— Ha, to'g'ri!

"To'g'ri!" Bu murakkab dunyo naqadar uyg'un yaralgan. Sayr etishdi, bazm qilishdi, keyin tishlashishdi, oxiri arloni yelkasidagi junini hurpaytirib, o'ziga bir urg'ochini tanladi, qolganlari esa ketdi.

— Arlon bo'ri qanjiqni tishlayapdi! — deb hayron bo'ldi qiz.

— Xushomad qilyapti.

— Shunday qo'polmi?!

— Ular ortiqcha mulozamatni bilishmaydi, — dedi chol.

Arlon, haqiqatan ham, mulozamat qilmoqchi emasdi, sassiq tumshug'ini urg'ochisining qalin juniga tiqib turtib-turtib, hidlab-hidlab, dam-badam tishlar edi. Keyin so'lak oqayotgan jag'ini katta ochib, beso'naqay sakrab, urg'ochi bo'rining ustiga mindi, jazavaga tushib tebrandi.

Tezi shu damda nima bo'layotganini juda yaxshi tushunardi, yirtqich hayvonlar bu qadar quturib juftlashishini hali umuman ko'rmagan bo'lsa ham, bu voqeaning nima deb atalishini bilar edi. Kuchli hayajondan titragan ovozda so'radi:

— Ular nima qilishyapti?

— Juftlashyapti, — dedi chol.

U sekin narvondan tusha boshladi, pastga tushgach, nabirasini chaqirdi:

— Ketdik!

— Men, hozir.

— Men senga ketdik deyapman!

Nabirasi bo'rilarning nikoh kechasini bu qadar qiziqib tomosha qilayotganidan or qilib, baqirdi. Uning jahli chiqqanining yana bir sababi: shundoqqina uning uyi oldida yirtqich hayvonlarning bu qadar surbetlik qilayotganida edi. Bo'rilar bu qilig'i bilan uni haqorat qilayotgandek tuyuldi.

Boltani qo'lida mahkam qisib, o'rmonga qarab yurdi.

— Qayoqqa?! — jon achchig'ida qichqirdi Tezi.

— Men ularni o'ldiraman! — dedi chol uzil-kesil.

Tezi narvondan sakrab tushib, uning yengidan ushlab oldi.

— Yo'l qo'ymayman!

— Meni avaylayapsanmi?

— Sizni ham.

— Yana nimani?

— Axir, ular juftlashyapti-ku!

Tima bobo Tezi hali bokira qiz bo'lsa ham, har doim ham aqlga quloq tutavermaydigan ayol ekanini unutgan edi. Afsus, qiz bekorga cholning yo'lini to'sdi, yirtqichlarning har ikkisini osongina yer tishlatar edi: bo'rilar juftlashayotganda atrofida nimalar bo'layotganini umuman ko'rmaydi, bunday payt ularni quruq qo'l bilan ham o'ldirsa bo'ladi. Biroq Tezi yaxshi qiz-da: tabiat

yoki inson, tanlash zarur edi, qay biri muhim! Qiz o'ylab ko'rishni ham istamay, tabiatni tanladi — uning butun yovvoyi uyatsizligi bilan, uyg'unligi va azaliy qonuni bilan. Xo'sh, nima bo'pti?! Axir, qiz ham tabiatning bir bolasi-da. Chol o'rmonda bo'rilar turgan tomonga qarab bor kuchi bilan boltani otdi; bolta aylanib uchib borib qorga tushdi, bo'rilar ko'zlari yonib bir qarab qo'ydi-da, shoshilmasdan yurib, tezda chakalakzor ichiga kirib ketdi.

— Qani, uyga ketdik, — dedi chol.

Osmonda bulut yo'q edi. Tong yorishib kelardi.

Uyga kirgach, oshxonada chol paltosi bilan telpagini devordagi mixga ildi, stolga o'tirib, ikki stakanchaga to'ldirib qondek qip-qizil musallas quydi; Teziga ol demadi, ikki qadahni ham birin-ketin o'zi bo'shatdi. Nabirasi bilan gaplashmadi, u ham gaplashadigan ahvolda emasdi. Qiz· xonasidagi divanda yuragining tez-tez tepishini, tomirlarida qonning lo'qqillab urishini eshitib yotardi. Nogahon uning xayoliga issiq o'lkalardan ko'ra o'z yurtidagi qahraton qishni afzal bilan qumri keldi.

Derazaning ortida oppoq tong otgan edi.

Quyosh uyg'ongan, ufqdan boshini ko'tarishga taraddudlanayotgan edi.

— Chiroqni o'chir, — dedi chol.

Tezi xonasidan chiqdi, stulga chiqib, fonus ichida lippillab yonayotgan olovni o'chirdi. So'ng polga tushdi, stulni joyiga olib borib qo'yish uchun egilganicha qotib qoldi.

Qo'ylar "ba-ba" degandek tuyuldi.

— Eshitayapsizmi?

— Eshitayapman.

Qo'ylar qo'rqqanidan iltijo istab chaqirishardi. Hammasi bir ovozdan bo'zlar edi.

— Boltani ber! — dedi chol o'rnidan turib.

— Siz boltani bo'rilarga qarab otib yubordingiz-ku, — deb eslatdi qiz.

— Unda tayoqni ber!

Tezi xonaga qaytib kirdi. Yuragi qinidan chiqib ketgudek urar, tomirlaridagi qon esa tez, yanada tez oqardi. Vaqtni iloji boricha cho'zishga harakat qilib, bobosini uy ichida ko'proq ushlab qolish

niyatida tayoqlarni bir joydan ikkinchi joyga qo'yar, o'rnini almashtirar edi.

— Tayoqni keltir dedim! Qora ildizdan yasalganini ol! — deb baqirdi chol.

Bobosi aytgan tayoqni olib berishga to'g'ri keldi.

— Men ham siz bilan birga boraman! — dedi qiz.

Tima bobo bu gapga hech nima demadi: balki, eshitmagandir ham. Tayoqni qo'lida mahkam tutib, dahlizga chiqdi, peshayvondagi zinalardan pastga tushib, molxona tomon yurdi. Biroq u yoqdan bu yoqqa qarayman deguncha vaqt o'tmasdan yerga mixlanganday turgan joyida qotib qoldi, tomga tiralgan narvon orqasida, undan to'rt-besh qadam narida bo'rilar hurpayib turardi. Bo'rilar ikkita edi — gavdasi yirik jundor arloni va bo'yi sal pastroq urg'ochisi. Ular tishlarini ko'rsatib irillar, bir-birini hidlab chetan eshik oldida uymalanar, qo'ra ichida esa yorib tashlangan qo'ylar qonga belanib yotardi. Dahshat.

— Mana bular ham juftlashibdi, — dedi chol.

— Bo'rilar bizni sezmadi! — dedi qiz ovozi titrab.

— Orqaga qayt, tez!

— Siz ham!

Biroq Tima boboning orqaga qaytish niyati yo'q edi. U qahr-g'azabdan qaltirab, bo'rilar ustiga bostirib borar, har qadam bosganida jon azobida baqirib, o'zini bor bo'yi bilan oldinga tashlardi:

— Senlarga sigirimni berdim! Nafslaring qonmadi! Endi qo'ylarimni ham yeysanlarmi?! Zahar margingga ye! Ye!

Tezi bobosining belidan ushlab orqaga tortar, biroq kuchi yetmasdi. Chol kuch bilan uning qo'llarini bo'shatib, olg'a intilar edi. Yana bir qadam oldinga tashlab, orqasiga qayrildi-da, qizga qattiq baqirdi:

— Uyga ket!

Biroq kech bo'lgan edi, ular narvon yoniga kelib qolishgan, qiz Tima bobodan bir qadam ham orqada qolmagan edi. Tezi narvon zinasiga yopishib toshday qotdi.

Chor atrof ko'zni qamashtiradigan darajada oppoq edi.

Ko'zni so'qir qiladigan o'sha oppoq yog'duning o'rtasida ikkita jondor turardi. Tima bobo bilan yuzma-yuz kelib qolgan arlon

bo‘ri hamlaga tayyorlandi, yoyday egilib, baquvvat orqa oyoqlariga tiraldi; u nihoyatda katta so‘yloq tishlarini ko‘rsatib, irilladi. Undan sal nariroqda urg‘ochi bo‘ri chol tomonga emas, sal xavf tug‘ilsa, qochib qolish uchun o‘rmon tomonni mo‘ljallab jim qotgan edi.

Qizning nigohlarida kuchli uchqun yonib sachrar va yana so‘nar edi.

— Narvonga chiq, tez bo‘l! — ko‘zlarini bo‘ridan uzmay, tishlari orasidan buyurdi chol.

Vahimaga tushib qalt-qalt etib Tezi narvonga tirmashib chiqar ekan, ikki ko‘zi bobosida edi. Chol qora tayoqni ko‘tarib arlon bo‘rining boshiga kuch bilan qattiq urmoqchi bo‘lib harakat qilganida qiz yettinchi yoki to‘qqizinchi zinaga chiqib ulgurgandi. Shu payt cholning temir nag‘al qoqilgan etigi sumalak tomchilaridan oyoq ostida tepacha bo‘lib qolgan muzga sirpanib ketdi, tayoq bo‘rining manglayiga tushib qarsillab sindi, Tima bobo esa yerga yuztuban yiqildi. So‘yloq tishlari irjayib turgan arlon bo‘ri shu zahoti cholga tashlandi va qarsillatib bo‘ynini uzib oldi.

Tezi chinqirib yubordi; lablari pirpirab uchar, o‘ng oyog‘i qaltirar, narvonni ushlab olgan o‘ng qo‘li esa tirishib qotib qolgan edi.

Bo‘rilar ketdi.

Hamma yoq suv quyganday jimjit bo‘lib qoldi.

Tez orada o‘rmon ortidan, daraxtlarning baland shoxlariga tirmashib, alvon quyosh chiqib keldi.

Bagzosh qo‘rg‘oni bu nurli sukunatni simirib ichar edi, shu payt bir arava g‘iyqillab kelib uy oldida to‘xtadi. Aravada Ferens Kolokan kelgan edi, u yovvoyi olcha tayog‘ini olib kelgan edi. Aravadan tushib, uyga kiraverishda peshayvon zinasi tagiga bordi, qo‘rg‘on bo‘ylab cho‘mgan og‘ir sukunatdan hayron bo‘lib qarasa, uy eshigi ochiq ekan, sekin chaqirdi:

— Tima bobo!

Uning chaqirganiga hech kim javob bermadi. Uy ichi jimjit edi, hech qanday ovoz, hech qanday harakat yo‘q. Kolokan uy egalarining ikkalasi ham molxonadadir, deb o‘yladi, balki sigirga nimadir bo‘lgandir. U og‘il tomonga yurdi, sal yaqinroq borganida kutilmaganda narvon ustida turgan Tezini ko‘rib qoldi. Qiz

narvonda turgan emasdi, esidan ketib osilib qolgan edi, egnida uy kiyimi, sochlari shamolda hilpirardi. Shu topda yuragi bir yomon voqeani sezdi, bu dahshatni shuurida anglab ulgurmasdan nafasi bo'g'ziga tiqilib, jon-poni chiqib ketganday bo'ldi: Tima bobo yerda g'ujanak bo'lib yotar edi.

— Yo, Xudoyim! — deb bo'zlab yubordi Firko.

Gangib qolgan boshini tepaga ko'tarib, narvon ustidagi Teziga qaradi.

— Tezi! — deb chaqirdi.

Tezi gapira olmasdi; boshini sarak-sarak qilib chayqar, tinimsiz titrar, qizil tuflisi qorga tushib ketgan yalang o'ng oyog'ini narvonning yana bir yuqori pog'onasiga qo'ymoqchi bo'lganday qaqshab-qaqshab tepaga ko'tarar edi. Kolokan yovvoyi olcha tayog'ini uloqtirib yuborib, qizni tushirib olish uchun jon holatda narvonga yugurdi. Bu ishni uddalash amri mahol bo'ldi. Qizning narvon pog'onasiga yopishgan qo'li sira yozilmas, tayoqday tirishib qotib qolgan edi. Kolokan ne bir mashaqqat bilan qizning qo'lini bo'shatdi, nihoyat, uni ko'tarib sekin yerga tushirdi va uyga olib kirdi.

Uni xonadagi divanga yotqizdi.

— Tezi, gulim... — dedi yigit.

Qiz hech so'z demadi, uning es-hushi hali o'ziga kelmagan edi. Ko'ldek moviy ko'zlarining nuri bamisoli qalin balchiq ichidan sizib chiqqan so'nik shu'ladek xira va loyqa edi. Yigit uni o'ziga keltirish uchun silab-siypalar, biroq Tezi hamon chuqur entikib, tez nafas olar, hissiz va tumanli nigohlari shiftga qadalgan edi. Biroq tutqanoq to'xtagan, qo'llari divanga sokin cho'zilgan, oyoqlari endi avvalgidek qattiq titramas edi. Har holda, qizni doktorga olib borish kerak, deb o'yladi Kolokan va uni kuchli qo'llarida opichib aravaga olib bordi. U bo'g'ot ostidan o'tayotgan mahal tasodifan shunday holat ro'y berdi, ko'z o'ngida bir ulkan sumalak yaltirab ketdi-yu, yerga tushib chil-chil sindi. Kutilmagan bu voqeadan Kolokan yerga parchinlangandek qotib qoldi. Shu payt qiz hushiga kelib, baqirdi, tipirchiladi, yigitni tirnab tashladi, tishladi.

— Borishni istamaysanmi? — deb so'radi Kolokan.

— Qumri, qumri! — deb qichqirdi qiz.

Ferens Kolokan o‘z vatanini jondan sevuvchi, o‘zga issiq yurtlarga uchib ketishdan ko‘ra o‘z yurtining qahraton qishini afzal ko‘ruvchi qumri haqida hech nimani bilmasdi, lekin har holda, qiz Bagzoshdagi uyasini tashlab ketishni umuman istamayotganini sezdi.

Shuning uchun iziga qaytib, qizni uyga olib kirdi va divanga yotqizdi.

Yonida o‘tirib, qizning tilga kirishini sabrsizlik bilan kutdi. Balki, uni hali tanimagandir, shuning uchun sukut saqlayotgandir? Timoteusga nimalar bo‘lganini bu qizdan boshqa hech kim ko‘rgan emas. Yoki Kolokan haqida nimalar o‘ylayotganini, nima bo‘lsayam gapirsin, faqat jim turmasin.

— Nimadir de, gulim!

Qiz asta-sekin o‘ziga keldi, nigohlari tiniq tortdi, biroq ko‘zlari g‘azabli chaqnab, chiroyli yuzlari qizib bo‘g‘riqib ketdi.

— Ular juftlashdilar! — dedi qo‘rquv bilan.

Kolokan uning gapini ma’qullab boshini qimirlatdi: gapir, jonim, nimani bo‘lsayam gapir, faqat jim turma. U qizning yuzidagi terni artdi, shu holatda ham bu qiz shunday go‘zal, deb o‘yladi, shunday go‘zalki, ko‘zingni aslo uzolmaysan.

— Men keldim, Tezi, qo‘rqma! — deb o‘zini eslatdi u.

— Sen sharqdan keldingmi?

— Sharqdan keldim, sharqdan.

— Savadanmi?

— Ha, xuddi o‘sha yoqdan.

— Demak, sen — qora shahzodasan!

— To‘g‘ri, gulim, — dedi Kolokan.

Yigit shunday degandan keyin, ko‘zlari bilan tabassum qilib, Tezi birdan unga yopishdi, bo‘ynidan quchoqlab, jarangdor qiqirladi, yuzlarini o‘pichga ko‘mib tashladi; qiz qo‘yib yuborgandan keyin Firko uni avaylab divanga yotqizdi, deraza yoniga borib, romlarni ochdi, baland tovushda chaqirdi:

— Jiga, bu yoqqa kel!

U karavotdan oppoq choyshabni oldi va xonadan chiqib, dahlizda hamrohi, ya’ni kucheriga ro‘para bo‘ldi.

— Labbay! — deya buyruqni kutdi xizmatkor yigit.

— Sen yaxshilab quloq sol!

— Eshitaman.

— Ot bilan tez yelib doktorning yoniga bor, ayt, tezda bu yoqqa kelsin. Tima bobo o'ldi. Bo'rilar hamla qilganga o'xshaydi. Militsiyadan ham kimnidir chaqir.

Jiga kafti bilan bo'ynini siladi.

— *Hozir, bir zumda!*

— Shoshmay tur, — deb davom etdi Kolokan, — yaxshisi avval cholning ustiga mana bu choyshabni yopib qo'y. U qo'yxonaning chetan eshigi yonida yotibdi. Ha aytganday, devor yonida yotgan yovvoyi olcha tayog'ini topib, bu yoqqa olib kel.

Jiga Timoteus boboning ustiga oq choyshabni yopib qo'ydi, yovvoyi olcha tayog'ini olib keldi. Kolokan qarasa, yigitning yuzi sham mumidek oqarib ketibdi. Jiga hech narsa demay, eshikka yo'naldi.

— Hoy! — deb qichqirdi unga Kolokan. — Yigitlarni oyoqqa turdir, haligi xabarchi bolakaylarni aytayapman, ularga tayinla, qishloqni boshqatdan aylanib chiqishsin, hamma taklifnomalarni qaytarib olishsin. Bizning Katalina bilan to'yimiz bo'lmaydi.

Jiga ketdi.

Firko esa yovvoyi olcha tayog'ini boshqalarining yoniga, o'z joyiga qo'yish uchun xonaga olib kirdi. Xilma-xil tayoqlarni birma-birma ushlab, aylantirib tomosha qilar ekan, chuqur xayolga toldi: inson taqdiri ham naqadar burama va serbutoq. Xona burchagida hayot haqidagi fikr-mulohazalarga berilib o'tirganida divanda yotgan Tezi unga qarab o'girildi, xuddi sovuq o'rmondan qutqarib olib kelingan qumridek bezovta bo'lib bo'ynini cho'zdida xuddi uzoq va shirin uyqudan uyg'ongandek shunday dedi:

— Uning tayoqlari ko'p!

— Ko'p, — deb uning gapiga qo'shildi Firko.

Haqiqatan ham, Temoteus boboning tayoqlari ko'p edi: lekin ularning ichidan faqat bittasi — birozgina vaqt avval bo'ri bilan yuzma-yuz turganida cholning qo'lida bo'lgan qora ildiz tayoq endi yo'q edi.

IMRE KERTES

(1929–2016)

Imre Kertes — 2002-yilga qadar jahon adabiyotida deyarli tanilmagan nom edi. Biroq dunyodagi eng sara avtobiografik asarlar qatorida e'tirof etilgan yozuvchining "Qismatsiz" romani ingliz tiliga o'girilishi bilan butun jamoatchilik nazari Osvensimu Buxenvald dahshatini boshidan kechirgan, shunda ham yashashdan maqsadini yo'qotmagan adib ijodiga qaratildi. Dunyo yozuvchi ijodini yuksak baholadi va 2002-yilda unga Nobel mukofoti topshirildi. Imre Kertes nafaqat Vengriya, balki jahon adabiyotida tarixdagi shafqatsiz tuzumga nisbatan nozik qarashlarni o'ziga xos uslubda tasvirlay olgan yuksak mahoratga ega mashhur yozuvchilardan hisoblanadi. Kertesning "Qismatsiz" romanida Buxenvald va Osvensimda o'tgan bolakayning og'ir hayoti tasvirlangan. Asar fojiа emas, balki mehr-muhabbatdan mosuvo olamning dahshatli qiyofasini aks ettirgan, desak yanglishmaymiz. Uning keyingi ikki asarlari "Tanazzul" va "Tug'ilmagan go'dakka aza"da yozuvchining falsafiy qarashlari o'z aksini topgan.

Imre Kertes 1929-yil 9-noyabrda Budapeshtda dunyoga keldi. Otasi mayda savdogar, onasi esa ishchi edi. 1944-yil ko'pgina yahudiy bolalari qatori 15 yoshli o'spirin Imreni ham qamoqqa olishdi va Aushvitsga jo'natishdi. So'ng u Osvensim va Buxenvalddagi qamoqxonalarga ko'chirildi. Kontratsion qamoqxonadan ozod qilinganidan keyin Imre Vengriyaga qaytdi va mamlakatning mashhur gazetalaridan biri "Vilagossag"da muxbir bo'lib ishlay boshladi. Biroq mamlakat tepasiga kommunistlar kelganidan keyin uni ishdan bo'shatishdi va Kertes zavodga oddiy ishchi bo'lib joylashdi. O'shandan buyon yozuvchi siyosatdan uzoqroq yurishni ma'qul ko'radi va asosan, tarjimalari hisobiga kun ko'radi. Tarjimonlik faoliyati orqali u Alber Kamyu asarlari bilan tanishdi va bu tanishuv uning ijodiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Faqat 1980-yilga kelibgina mamlakatda yozuvchi sifatida tanil-

gan va tan olingan Kertesga shuhrat 73 yoshida nasib etdi hamda 2003-yilda u Berlindagi San'at akademiyasi a'zosiga aylandi.

Kertes o'z asarlarida, asosan, odamning jamiyat oldida qanchalar ojizligini tasvirlaydi. Jamiyat adolatli bo'lsa xo'p-xo'p, biroq yovuz va shafqatsiz bo'lsa-chi? U istasa odamni qo'l-oyog'idan, es-hushidan yoki hayotidan ayirishi mumkin. 1975-yilda dunyo yuzini ko'rgan "Qismatsiz" romani ko'plab tanqidchilarning e'tirofiga sazovor bo'lgan Vengriya adabiyotining nodir durdonalaridan hisoblanadi. Kontratsion qamoqxonada insonning vahshiy qiyofasini ko'rgan bolakay shunday ulg'aydiki, u baxt-u quvonch hissini abadiy yo'qotdi. Har qancha achchiq, har qancha azob bo'lmasin, odamzod yashashga intiladi. Bu tuyg'u hali aqlini tanimagan besh yoshli go'dakdan tortib, sakson yoshli qariyaga ham begona emas. Dunyoni hali tuzuk-quruq anglamagan bolani mahbusga aylantirgan, uning qalbidagi ezgulikka ishonchini o'ldirib, bir umr nogiron qilib qo'ygan shafqatsiz tuzum qiyofasi ushbu asarda bor bo'yicha tasvirlangan. Eng yomoni, panjaradan ozod bo'lgan bola yagona aybi uchun tag'in eng oliy jazo — vijdon azobiga mahkum. Uning gunohi — tirik qolishi! Ushbu dahshatlarni bola ko'zi bilan ko'rgan qahramon voyaga yetgan inson singari idrok qiladi. Qismatning bu zarbalaridan ado bo'lgan yurakdagi chuqur jarohatlar bir umr bitmaydi. Imrega o'xshaganlarning tanasi tirik qolgani bilan u o'sha tuzum o'ldirgan mahbus bo'lib qolaveradi. 1990-yilda dunyoning o'nta tiliga tarjima qilingan ushbu roman — xolokost, ya'ni Ikkinchi jahon urushi davrida yahudiylarning ommaviy qirg'ini haqida oshkora hikoya qiladi. Olti milliondan ortiq odamning fojiali o'limi, boz ustiga, ular orasida ayollar-u bolalarning bo'lgani qalblarni larzaga soladi. Bu faqat "Qismatsiz"da emas, balki "Tug'ilmagan bolaga aza" asarida ham tilga olingan. Imre Kertesning Nobel mukofotini olish chog'ida so'zlagan nutqi ham badiiy asar kabi kishi e'tiborini jalb etadi. Ushbu ma'ruzani Shahnoza Rahmonova o'zbek tiliga tarjima qilgan. Garchi ma'ruza badiiy asar bo'lmasa-da, uning ushbu to'plamga kiritishni lozim topdik. Kelajakda atoqli venger adabining ko'plab asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinishiga umid qilamiz.

Imre Kertes 2016-yilning 31-martida Vengriya poytaxti Budapesht shahrida vafot etdi.

STOKGOLM MA'RUZASI

Ehtimol, biroz g'ayritabiiy, biroq batamom samimiy iqrordan boshlashim kerakdir. Ushbu yilda adabiyot bo'yicha topshiriladigan Nobel mukofotini olish uchun jo'nab ketayotib, samolyot bortiga ko'tarilganim hamon ortimda sovuqqon kuzatuvchining pinhon nigohini sezdim. Mana shu tantanali lahzalarda o'zimga o'zim kutilmaganda jamoatchilik e'tiboriga tushgan, jahon tanigan yozuvchiga emas, balki sovuqqon kuzatuvchiga o'xshab tuyulyapman. G'oyat muhim daqiqalarda dunyoga murojaat qilish imkoniyati nasib qilgan ekan, umid bog'laymanki, nutqim botiniy dunyomda mavjud ikki qiyofani birlashtirib, bu hardamxayollikni bartaraf etishga yordam beradi.

To'g'risini aytganda, hozircha bu nufuzli mukofot-u yozuvchilik hayotim o'rtasidagi men his qilayotgan ziddiyat mohiyatini anglaganimcha yo'q. Ehtimol, uzoq vaqt diktatura sharoitida yashaganimdan bo'lsa kerak, balki faqat buginamasdir, tabiatimga mutlaqo zid, bedavo, begona muhit tufayli o'zimni yozuvchi sifatida topmagandirman, buni qarangki, shu chog'gacha bu haqda o'ylamagan ham ekanman. Boz ustiga, menga hayajonga soladigan "mavzu" atalmish narsalar ahamiyatsiz va qiziqarsiz, deb tushuntirishgan. Bir so'z bilan aytganda, aynan shu sabab bilan men yozuvchilikni shaxsiy ish, deya anglaganman, ustiga ustak, bu e'tiqodimga mos tushardi ham.

Shaxsiy degani jiddiy emas ma'nosini anglatmaydi, albatta. Garchi jiddiyat doim yolg'onning ahamiyati yuqori sanalgan bu olamda biroz kulgiliday tuyulsa ham. Axir, falsafiy aksiomaga binoan, dunyo bu — mavjud reallikka bog'liq bo'lmagan obyektiv tushuncha. Men 1955-yil bahorning ajoyib kunida yagona haqiqat borligiga imon keltirdim. Haqiqat bu — men, mavhum muddatga qadar kaminaga tuhfa etilgan nozik hayot. Uni begonalar o'zlariniki qilib oldilar, o'zlashtirdilar, o'zlariga moslashtirdilar va buni

muhrladilar, biroq men tarix deb atalmish bu baloyi ofatdan uni tortib olishim joiz, negaki iste'dod-u hayot yolg'iz o'zimga tegishli va uni o'z xohishimga ko'ra boshqaraman.

So'zlashga ne hojat, bunday vaziyat obyektiv bo'lmasa-da, shubhasiz, real muhitni menga qarshi qo'ydi. Kundan kun "sog'lom va go'zal" sotsializm-u kommunistik Vengriyani nazarda tutyapman. Agarda dunyo bizga bog'liq bo'lmagan obyektiv haqiqat bo'lsa, u holda inson shaxsiyati ham o'zi uchun — obyekt, o'tmish hayoti esa o'zini hayratga solishi mumkin-u, biroq ularga hech qanday aloqasi yo'q tarixiy tasodifdir. Bu hayotni butunligicha tasavvur qilish foydasiz, negaki insonning subyektiv "men"i mas'uliyatni bo'yniga olishi uchun nihoyatda obyektiv lahzalarga duch kelishi mumkin.

Bir yildan so'ng 1956-yilda Vengriya inqilobi shiddat bilan boshlandi va shunday qisqa tarixiy muddat ichra mamlakatda subyektivlik hukm surdi. Biroq sovet tanklari darhol voqealarning obyektiv tartibini tikladilar.

Men zinhor kesatmayapman, agarda gaplarimda zarracha kinoya ohangi sezilayotgan bo'lsa, u holda "yigirmanchi asrda" iborasi mavjud til qismati xususida bir mulohaza yuritib ko'ring-a. Barcha ehtimollarga ko'ra, davrimiz yozuvchilari uchun eng asosiy, g'aroyib kashfiyot shundaki, til — bizga qadimgi ajdodlardan merosligiga qaramay, real jarayonlarni va nomutanosib tushunchalarni ta'riflashda keraksiz. Bu o'rinda Kafkani xotirlaylik, Oruellni eslash kifoya, ularning qo'lida til sochilib ketdi. Ular bizga shu chog'gacha tushunarsiz, yangi, notanish belgilardan iborat kulni taqdim etmoq niyatida uni gulxanga tiqdilar.

Biroq men o'zimning shaxsiy ishim — yozuvchilikka qaytishni istardim. Kaminaning vaziyatidagi odam, qoidaga binoan, u bilan bog'liq yuzaga kelayotgan savollar borasida bosh qotirib o'tirmaydi. Masalan, Jan Pol Sartr "Biz kim uchun yozyapmiz?" degan birgina savolga butun boshli kitobni bag'ishlabdi. Bu savol qanchalar qiziq bo'lsa, shu qadar xavfli hamdir, qismatimga hech qachon bu haqda o'ylash bitilmagani uchun shukr qilaman. Chindan ham uning qanday xavfli tomoni bor ekan? Masalan, biz burchimizni jamiyatning u yoki bu toifasiga shunchaki estetik

zavq bag'ishlashdan iborat deb bilmay, balki ularga ta'sir ko'rsatishimiz kerak, deya tan olsak, u holda, eng avvalo, qo'limizdagi qalam kerakli ta'sir kuchiga egami-yo'qmi, shu haqda chuqur mulohaza yuritib, uslubimizga baho berishga to'g'ri keladi. Shubha-gumonlar iskanjasida qolgan yozuvchi bor diqqat-e'tiborini yakkash o'ziga qaratishga majbur bo'ladi. Aks holda u o'quvchilarga nima yoqishi haqida qayerdan biladi? Axir, u har bitta odamni savolga tutmaydi-ku? Bu nima ham berardi? Bu faqat kitobxon haqidagi yozuvchi tasavvuri va odamlarga, shuningdek, o'z-o'ziga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgani-yu istaklarini yozish ehtiyoji asosida kelib chiqadi. Xo'sh, yozuvchi nima uchun yozadi? Javob bitta: o'zi uchun!

Nima bo'lgan taqdirda ham, shuni alohida aytishim mumkinki, bu javobga orqavorotdan yetib kelmadim. To'g'risini tan oladigan bo'lsam, menga hamisha oson bo'lgan, negaki tuzuk-quruq o'quvchilarim yo'q edi va men hech kimga ta'sir ko'rsatishni xohlamasdim. Maqbul fikr-mulohazalarimni qog'ozga tushirish uchun yozishni boshlamadim, men shunchaki yozardim, yozganlarim esa birovga atalmagandi. Mabodo, bu ishim qandaydir maqsadga qaratilganida ham ijod tili va shakllar nuqtayi nazaridan shuni aytishim mumkinki, u yagona maqsad — haqiqatga asoslanishdan iborat bo'lardi. Davlatning adabiyotni jilovlashga uringan davri qanchalar kulgili va shuning bilan birga ayanchli bo'lganini aniqlash — men uchun zinhor ahamiyatsiz ish emas.

Biroq bir olam shubha-gumonlarni tug'diradigan haqqoniy savolga javob berish mushkulroqdir: biz nima uchun yozamiz? Shaxsan menga omad kulib boqqanligini tan olaman, negaki mazkur jumboq javobini topish uchun ortiqcha bosh qotirishimga to'g'ri kelmagan. Darvoqe, aytishim kerakki, bu voqea mening "Fiasko" romanimda batafsil tasvirlangan. Navbatdagi ish sodir bo'ldi: davlatga tegishli idoraning bo'm-bo'sh yo'lagida turibman. Kaminaga ko'rinmaydigan yon tomondagi yo'lakdan baland oyoq tovushi eshitildi. Butun vujudimni g'alati tuyg'u qamrab oldi: qadamlarning aks sadosi yaqinlashardi. Garchi yo'lakdan bir kishi yurib kelayotgan bo'lsa-da, go'yo minglab odamlarning odimlayotganini eshitayotganday edim. Xayolimda butun kolonna yaqin-

lashardi. Kutilmaganda bu qadamlarga va bu kolonnaga tiyiqsiz mayl sezdim. Ayni shu daqiqalarda Nitshe mazkur nutqqa mutanosib tarzda "Dionisiy[1] kechinmasi" deya atagan o'zidan kechish jazavasi, idrokda erib, qo'shilib-qorilib ketuvchi mastlik huzuri nimaligini angladim. Go'yo qandaydir kuch o'rab-chirmab olganday edi, u meni o'sha muhitga quyilib ketishim uchun ortimdan itarardi. Joduga berilmaslikka tirishib, devorga qapishishimga to'g'ri keldi.

Men hayotimdagi unutilmas lahzada boshdan kechirganlarim haqida qanday bo'lsa shunday hikoya qilib beryapman. Uning bulog'i go'yo mening ichimdan emas, balki tashqaridan otilib chiqqanga o'xshardi. Mahorat odamlariga bunday lahzalar tanish, biroq kechinmalarimni estetik tuyg'ular jumlasiga kiritish amrimahol. Buni ko'proq qalb ko'zining ochilishiga mengzagan bo'lardim va bu ko'zning ochilishi uslublari ustida uzoq vaqt ish olib borganim mahoratga yo'l topib bermadi, shunchaki yo'qotilgan hayotimni qaytardi. Men hayotdagi eng og'ir tuyg'u, yolg'izlik hissini tuydim. U meni hozirgina sizga so'zlaganim, o'ziga tortuvchi safdan chiqish va o'zligingdan ayirishga qodir qismat — tarix changalidan xalos bo'lish uchun intilishga olib keldi. Natsistlarning konslageridan qaytgach, bor-yo'g'i o'n yil o'tib, hali bir oyog'im Stalin terrorining vahimali tushlaridan uzilmagan bir paytda men barini dahshat ichra tushundim. Yodimda bular haqida g'ira-shira xotiralardan qolgan uzuq-yuluq bir necha latifalarni saqlaganman, xolos. Go'yo bularning bari men bilan sodir bo'lmagan... har holda, shunday deyish kerak.

Aftidan, bunday ajoyib daqiqalar o'ziga xos tarixga ega, ehtimol, shu o'rinda Zigmund Freyd qandaydir idrokka ta'sir etuvchi taassurotlardan boshlagan bo'lardi. Kim biladi, balki u bu bilan to'g'ri yo'l tutarmidi? Men hayotga aql ko'zi bilan qaraydigan odamman. Kaminaga har qanday tasavvur va har qanday zavqlanish tuyg'usi begona. Hissiyot borasida so'zlaganda ham, eng avvalo, qandaydir ratsional, biroq ilohiy shaklda ifodalangan fikrni nazarda tutaman. Bu kutilmagan anglash tuyg'usi allaqachon in-

[1] **Areopagit Dionisiy** — qadimda Vizantiyada yashagan avliyo. U o'z-o'zini qiynab, avliyo darajasiga erishganligi bilan mashhur.

qilobiy gulxanga aylanib ulgurgan, qadimgilar "Evrika!" ("Men topdim!") deya ifodalagan hayqiriqqa o'xshaydi. Lekin men nima topdim?

Bir vaqtlar sotsializm Marsel Prust uchun qanday ma'noni anglatgan bo'lsa, menda ham xuddi shunday taassurot uyg'otadi, ya'ni choyga bo'ktirilgan "madlen" shirinliklariday yo'qotilgan vaqt ta'mi va iforini eslatadi. 1956-yilda inqilob bostirilgach, o'z tilimni yo'qotishni istamaganim uchun Vengriyada qolishga qaror qildim va diktatura ta'sirini endi bola nigohi bilan emas, balki kap-katta odam nazari bilan kuzatish imkoniga ega bo'ldim. Men xalqni o'z ideallaridan voz kechishga qanday majbur qilishganini ko'rdim. Ilk marotaba odamlar tuzumi[1]ga jur'atsiz tarzda moslashayotgan tana harakatlarining guvohi bo'ldim va tushundimki, umid bu — iblis quroli, axloq-odob — qat'iy buyruq hoshiyasi — bor-yo'g'i o'z jonini saqlashning itoatkor cho'risi.

Cheklangan, boz ustiga holdan toygan, xarob bo'layotgan diktatura sharoitida yozuvchining erkinligidan ulkanroq erkinlikni tasavvur qilish mumkinmi? Oltmishinchi yillarda Vengriyada diktatura kuchlarini birlashtirish darajasiga yetildi, uni, hatto jamoatchilik konsensusi[2] deyish mumkin edi. Keyinchalik G'arb uni muloyim marhamat bilan "gulyashkommunizm"[3] deya atay boshladi. Avvalida Vengriya kommunizmiga G'arb qandaydir norozilik bildirgan bo'lsa, keyinchalik ular uchun suyukli tuzumga aylandi. Bunday konsensus botqoqligida odam kurashishdan yo butkul voz kechadi, yo bo'lmasam ichki erkinlikka olib keladigan barcha aylanma so'qmoqlarni izlab topadi. Yozuvchilik hunari katta xarajatlarni talab qiladigan ish emas, qog'oz-qalamdan bo'lagiga ehtiyoj yo'q. Har tong ko'ngilda nafrat bilan tushkun kayfiyatda uyg'onganim sabab zudlik bilan yozuvchilik

[1] Vengriyada o'rnatilgan 41 yillik kommunistik tuzumga ishora. Bu vaqt davomida mamlakatda 600 nafardan ortiq ziyoli qatl qilingan. 1956-yildagi inqilobda qatnashganlarning 2500 nafari vafot etgan. 44 ming kishi konsentratsion qamoqxonaga yuborilgan. 450 ming kishi siyosiy mahbus sifatida qayd etilgan. 1,5 mln odam esa maxsus kuzatuv ostiga olingan.

[2] **Konsensus** — mojarolarni bartaraf qilish uslubi.

[3] 1956-yildan 1988-yilga qadar Vengriyadagi Yanosh Kadar hukmronligi yillarini "gulyashkommunizm" deb atashgan.

dunyomga g'arq bo'lardim. Men totalitar mantiq tazyiqidan azob chekayotganni boshqa totalitar tuzumga o'tkazib, o'sha odam holatini tasvirlayotganimni tezda tushundim, bu esa romanim tilini ikki haqiqatning gipnoz mediatori[1]ga aylantirdi. Men o'sha paytdagi vaziyatimni ochiq baholar ekanman, agarda G'arbdagidek erkin jamiyatda yashaganimda Shved akademiyasi yuksak bahoga loyiq topgan "Qismatsiz" romanini yoza olgan bo'lishimga ishonmayman.

Yo'q, men balki boshqacha tarzda yozishga intilgan bo'lardim. O'shanda ham haqiqatni, biroq boshqacha haqiqatni... Ehtimol, hozir kitoblar va g'oyalarning erkin bozorida romanning yangicha, qiziqarli va yorqin shaklini yaratish borasida bosh qotirgan bo'larmidim. Masalan, nihoyatda ta'sirlantiruvchi epizodlarni ko'rish uchun roman yoziladigan vaqtni qo'ldan boy berishim tayin edi.

Hikoyam qahramoni o'ziga tegishli davrda yashashdan mosuvo, hamma-hammasidan — vaqtdan, tildan va shaxsiyatdan mahrum, konslagerga tashlangan mahbus. U faqat mavjudligini eslolmaydi. Shu sabab baxtsiz, ilojsiz qahramonim uchun uzluksiz, bema'ni hikoyalar so'zlashdan bo'lak zavq qolmagan, biroq hikoyalardagi uqubatli tafsilotlarni chetlab o'tishning imkoni yo'q. U musibatli va muazzam daqiqalarni boshdan kechirishga mahkum, bu esa bir zaylda davom etayotgan hayotning o'zidanam og'irroq.

Biroq bu mahorat menga hayratlanarli saboqlarni berdi. Hikoya qilishning uzluksiz aks ettirish prinsipi barcha vaziyatlarni uzilishsiz tasvirlashni talab qiladi. Aytaylik, go'yo jigarimning qabriday qandaydir vahimali o'ra ko'z oldimda namoyon bo'ldi-yu, yigirma daqiqa nafas rostlashga to'g'ri keldi, biroq o'sha yigirma daqiqa yengil parvoz qilgani qo'ymasdi. Birkenau yo'qotish qamoqxonasining temiryo'l platformasidagi yigirma daqiqa haqida so'zlayapman. O'limi oldidan vagonlardan chiqishga uringan odamlar "seleksiya"ga mas'ul zobit qarshisida turishga majbur bo'lishardi. Men-ku o'sha yigirma daqiqani umumiy qir-

[1] **Mediator** (noxin) — tanbur, rubob chaladigan asbob.

ralarda eslab qolganman, biroq roman mendan o'z xotiramga ishonishni talab qilardi. Qancha hisobotlar, ko'rsatmalar-u xotiralarni o'qimay, ularning barida voqealar shiddat bilan rivojlanardi va biror nimani tushunishning chindan ham iloji yo'q edi: kutilmaganda vagonlarning eshiklari ochilar, baqir-chaqirlar, itlarning vovullashlari eshitilar, erkaklarni xotinlardan ajratishar, bu telba to's-to'polonda odamlar, nihoyat, zobit qarshisida turishar, u bo'lsa yuguruvchi nigoh bilan ularni boshdan oyoq kuzatib, qayergadir borishlarini qo'li bilan ishora qilar va asirlar ko'z ochib-yumguncha mahbus kiyimida paydo bo'lishardi.

Mening xotiramda bu yigirma daqiqa boshqacha tarzda gavdalanardi. Asl manbalarni izlarkanman, birinchi navbatda, Tadeush Borovskiyning shafqatsiz hikoyalaridan birini o'qidim, u "Gaz kamerasiga marhamat qiling, xonimlar va janoblar!" deb ataladi. Keyin qo'limga amerikaliklar tomonidan ozod qilingan Daxau qamoqxonasida olingan birtalay rasmlar tushib qoldi: askar Birkenau temiryo'l stansiyasida tirik "tovar"larni suratga olgan. Ezgu ishlarni qilish uchun yordamga shay ayollarning kulib turgan chiroyli chehralari, serharakat yoshlarning ko'zlari... Men sharmandali ilojsizlik va ojizlik daqiqalari, o'sha yigirma daqiqa qanday qilib ularning xotirasidan o'chib ketganligini tushundim. Bularning bari shunday shaklda kundan kun, haftama-hafta, oyma-oy, uzoq yillar davomida takrorlangani haqida o'yladim va ko'z oldimda dahshat texnologiyasi ochildi. U menga qay yo'l bilan insoniyat hayotiga insoniyatning o'zini qarshi qo'yish mumkinligini anglatdi.

Shunday qilib, qarshimda qadam-baqadam tuganmas kashfiyotlarning yo'li paydo bo'ldi. Bu agar shunday izohlash mumkin bo'lsa, mening evristik[1] uslubim edi va kim uchun yozayotganim, hatto nima uchun yozayotganim muhim emasligini fahmladim. Kaminani faqat birgina savol qiynaydi: o'zi meni adabiyot bilan nima bog'laydi? Chunki menga adabiyotdan nima kerakligi ravshanlashdi. Adabiyot tushunchasi bilan bog'liq o'sha ideallar-u ma'naviyatdan meni bartaraf etib bo'lmas chegara ajratib

[1] **Evristika** — fikrlashning eng oddiy usuli orqali borliqni anglash.

turadi. U hayotimdagi ko'pgina boshqa narsalar qatori Osvensim[1] deb ataladi. Agar Osvensim haqida yozadigan bo'lsak, shuni anglashimiz kerakki, Osvensim tom ma'noda adabiyotni imkonsiz darajaga olib keldi. Osvensimda boshlangan va bugungi kungacha davom etib kelayotgan voqealar haqida faqatgina qop-qora roman yozish mumkin. Osvensimdan keyin hali rad qilib bo'lmas biror mudhish voqea yuz bermadi. Asarlarimda xolokost hech qachon o'tgan zamonda gavdalanmagan.

Ba'zida meni maqtashadi, ba'zida esa birgina mavzu — xolokostni yorituvchi yozuvchi deya mensimay qarashadi. Men nima ham deya olardim, muayyan shartlar bilan kitoblarim kutubxonalarning menga muvofiq keluvchi javonlaridan munosib o'rin egallagan bo'lardi. Xolokostning yozuvchisi bo'lmagan birorta zamonaviy yozuvchi bormikan? Fahmimcha, o'n yillar davomida zamonaviy Yevropa madaniyatida hokimlik qilgan o'sha dilabgor ovozni odamlar eshitishi uchun, menimcha, ijod mavzusi tariqasida xolokostni tanlash aslo shart emas. Takror va takror aytaman: dahshatli tushlar ta'qib etgan vahimali tundan so'ng abgor-u nochor nazar bilan atrofga boqadigan odamzodning ovozini eslatuvchi bu xasta nido eshitilmagan hech qanday asl mahoratni bilmayman. Xolokost tushunchasini birlashtiradigan savollar majmuasini men hech qachon nemislar va yahudiylar o'rtasidagi qandaydir yechimi yo'q nizo deb qaramaganman. Shuningdek, xolokostni yahudiylar uqubatlarining yangi bobi deb hisoblamaganman. Nazarimda, bu voqea tarixda yuz bergan tasodifiy xato emas, avvalgilaridan masshtablari bilan farq qilgani uchun yahudiylarning ommaviy qirg'ini deb tushunmayman yoxud yahudiy davlatining barpo etilishi uchun bir zamin edi, deb ham o'ylamayman. Men xolokostda o'zining ikki ming yillik axloq-odob madaniyati bilan yevropalik odam degan nomga erishish yo'lidagi sayohatning eng quyi nuqtasida "odamiylik" qanday bo'lishini tasvirlab berdim, xolos.

Bunday yuk bilan qayerga harakatlanishimiz mumkinligi haqida o'ylashimiz kerak. Osvensim muammosining asl mohiya-

[1] **Osvensim** — 1945–46-yillarda Germaniyada tashkil qilingan qamoqxonalar majmuasi. U Osvensim shahri yaqinida joylashgan.

ti — unga tegishli ma'lumotlarni ma'ruzamda keltirish, xotirada saqlash, yo bo'lmasam, tarixning eski sandig'i tubiga yashirish-u, o'ldirilganlarning yodiga yodgorlik qo'yish, agar qo'yilsa, uning qiyofasi qanday bo'lishi kerakligini aniqlashtirib olishda emas. Osvensimning haqiqiy fojiasi uning mavjudligi, bu dahshatlarning yuz berganligi, qayg'uli, uqubatli xotiralarni uyg'otuvchi tarixiy faktlarni aslo o'zgartirib bo'lmasligida. Bu og'ir vaziyatga vengriyalik shoir Yanosh Pilinskiy g'oyat munosib ta'rifni berolgan — "Sharmandalik". Aftidan, u insoniylik nuqtayi nazaridan kelib chiqib, nasroniylik madaniyatida sodir bo'lgan bu mudhish, tuzatib bo'lmas xatoligi uchun ham tarixiy voqeani shunday baholagan bo'lsa kerak.

Yuz bergan mudhish voqealar bizga Xudo o'lgan deydi. Shubhasiz, Osvensimdan keyin yolg'iz qoldik. O'z boyligimizni endi o'zimiz yaratishimiz kerak. Mayli, boshqalarga mehnatimiz aslo bilinmasin, biroq sabr-matonat bilan qilingan mehnat oxir-oqibat mevasini beradi. Bir kun kelib biz yig'gan boylik yangi Yevropa madaniyatini yaratishga asos bo'lishiga ishonaman. Ehtimol, bugun Shved akademiyasi Osvensimning, xolokostning guvohi bo'lishiga, o'sha azoblarni his qilishiga to'g'ri kelgan yozuvchining mehnatini qadrlab, uning urinishlarini Yevropa madaniyati uchun muhim sanab, yuksak baho tariqasida taqdim etayotgan mukofoti bunga yorqin misoldir. Bunday vaziyat, agar shunday deyish mumkin bo'lsa, katta jasorat va hatto tavakkalchilik. Negaki, mana shu tribunaga chiqib, so'zlashimni istaganlar nima haqida ma'ruza qilishimni avvaldan bilishgan.

Biz barini tushunishga majburmiz. "Konsentratsion olam" orqali yuzaga chiqqanimizni fahmlashimiz shart. Quyi nuqtani tan olish esa yaratuvchi kuchlarni saqlab, yashab qolishimizning yagona kafolati. Axir, aniq hissiyotlar foydali emasmi? Buyuk anglashlarning tubida garchi ular fojialar asosida yuzaga kelgan bo'lsa-da, har doim erkinlikning urug'i mavjud. Erkinlik — Yevropaning ulkan boyligi, u bizga borligimizni va uning uchun mas'ulligimizni anglatib, hayotimizga mantiq bag'ishlaydi.

Ona tilim — vengerchada bularning barini siz bilan bo'lishayotganimdan boshim osmonda. Men asli butapeshtlikman,

yahudiylar oilasida tug'ilganman. Onam Kolojvardan, otam janubi-g'arbiy Balaton taraflardan. Buvim va buvam juma oqshomini kuzatib shanba[1] tongini qarshilab, shamlar yoqishardi-yu, biroq o'z ism-shariflarini vengerchaga almashtirgandilar. Ular yahudiylarning e'tiqodi bilan Vengriyani Vatan bilib yashashni tabiiy deb qabul qilishardi. Onamning ota-onasi xolokost gulxanida vafot etishgan. Otamning volidasi va padari buzrukvorini Budapeshtdagi qariyalar uyini Vengriyaning Shimoliy chegarasiga ko'chirgan Rokoshi[2]ning kommunistik diktaturasi narigi dunyoga ravona qildi. Xayolimda bu bir kichik oilaning qismati yangi davrga vatanimning tarixiy kechmishlari va uqubatlaridan so'zlaydi. Bu qayg'ular ortida, nafaqat alam, balki katta ma'naviy potensial bor. Yahudiy bo'lish? Menimcha, bizning davrimizda bu vazifa, eng avvalo, axloq-odob masalasi. Agarda xolokost bugungi madaniyatni yaratishga qodir bo'lganda, bor e'tibori yagona maqsadga qaratilardi: idrok kuchi bilan inkor etib bo'lmas haqiqat oldida gunohni yuvish — katarsis. Aynan mana shu intilish meni ilhomlantirgan.

To'g'risini aytganda, men aytmoqchi bo'lgan gaplarning barini aytib bo'ldim, biroq ochiqcha tan olishim kerakki, baribir o'z hayotim, yozuvchilik olami va Nobel mukofoti orasidagi o'zim istagan muvozanatga erisholmadim. Ayni daqiqalarda hayotimni saqlab qolgan va yashashimga kuch bergan muhabbatga chuqur minnatdorchilik his qilyapman, xolos. Nima bo'lganda ham, tan oling, "hokimiyat"da qandaydir hayratlantiruvchi, qandaydir bema'ni, qandaydir tushunarsiz, qonunlarning haqqoniy tartibiga ishontiruvchi ilohiy taqdir-u mavhum adolat borday tuyuladi, boshqacha so'zlar bilan aytganda, bu o'z-o'zini aldash vasvasasi, xolos. Bu yo'lda yashirin qoyalarga urilib, o'lib ketish xavfi mavjud. Unga erishilganda dunyoda shafqat borligini anglamay, olamdan o'tgan millionlar bilan o'sha azobli aloqa yo'qotiladi. Istalgan daqiqada o'qqa tutishga shay jamoa vahshiy hukumat-u dahshatli diktaturalarning asiriga aylangan hayotimiz ustidan hukm chiqarsa, bunday

---

[1] Iudizmda bu kun muqaddas sanaladi.

[2] Matyash Rakoshi (Matyash Rozenfeld) — vengriyalik siyosatchi, Vengriya kommunistik partiyasining birinchi kotibi (1945–1948) Vengriya Xalq Respublikasining Vazirlar kengashi raisi (1952–1953).

taqdirdan qutulib qolish mushkul vaziyatda qonunlarning bema'ni tartibi bilan hisoblashishga majbur bo'larkansan.

Nima bo'lganda ham, men ma'ruzaga tayyorlanayotganimda bir muddat ruhiy muvozanatimni tiklashga yordam bergan voqea sodir bo'ldi. Men pochta orqali jigarrang xatjild oldim. "Buxenvald" yodgorliklar majmuasining direktori doktor Folkxard Kniggedan. Xatjildda chiroyli tabriklar yozilgan nomadan tashqari yana bir kichkinagina xatjild bor edi. Doktor Knigge menga uni alohida jo'natgandi. Xatda 1945-yilning 18-fevralida qamoqxona tarkibi to'g'risida bitilgan maxfiy hisobotning nusxasi bor ekan. Bu hujjatda ("Abgdnge", ya'ni "o'ldirdim" degan ma'noni anglatadi) men № 64921 raqamli mahbus 1927-yilda tug'ilgan zavod ishchisi, yahudiy Imre Kertesning o'limi haqida o'qidim. Tug'ilgan yil va faoliyat to'g'risidagi yolg'on ma'lumotlar qamoqxona statistikasiga tasodifan tushib qolgan emas. Buxenvald idorasida men haqimdagi ma'lumotlarni yozib olishayotganda voyaga yetmaganlar qatoriga tushib qolmaslik uchun yoshimga ikki yosh qo'shib aytgandim. Ular meni foydasi tegadiganlar ro'yxatida qayd etishlaridan qo'rqib, o'qiganimni yashirganman va o'zimni zavod ishchisi sifatida tanishtirganman.

Demak, men bir marta o'lganman — yashab qolishim uchun o'lganman. Ehtimol, hikoyamning asl haqiqati ham shundadir. Bir bolaning o'limidan boshlangan kitoblarimni ro'shnolik ko'rmay bu hayotni tark etgan o'sha millionlarning ruhiga bag'ishlayman. Akademiyaning fikriga ko'ra, gap adabiyot haqida borar ekan, ehtimol, yozganlarim kelajak uchun ahamiyatsiz bo'lmas, boz ustiga, men asarlarim u uchun xizmat qilishini chin dildan istayman. Negaki ularda Osvensimning jarohatlari tasvirlangan. Zamonaviy insonning ijodiy imkoniyatlari va yashash qobiliyati masalalari xususida mulohaza qilganimda faqat Osvensim xayolimga keladi. Mantiqqa zid bo'lsa ham aytay, men o'tmish emas, balki kelajak haqida o'ylayman.

2002-yil 7-dekabr, Shvetsiya akademiyasi

LASLO KRASNAXORKAI

(1954)

Taniqli venger yozuvchisi Laslo Krasnaxorkai 1954-yilda tug'ilgan. "Dilgirlikka qarshi kayfiyat", "Iblis raqsi" romanlari uchun 2015-yilda Xalqaro Buker mukofoti laureati bo'lgan.

Seged va Budapeshtda huquqshunoslik bo'yicha tahsil olgan. 1983-yilda Budapesht universitetini tamomlagan. U ko'plab sayohatlarga borgan: 1990-yilda Mo'g'uliston va Xitoy, 1992-yilda Yevropa va AQSH mamlakatlari, Atlantika ummoni bo'ylab sayohat qilgan (1992–1998), Bosniya (1996), Yaponiyada (1997, 2000, 2005) bo'lgan. Sayohatlari uning yangi asarlari uchun material bo'lib xizmat qilgan.

Ijod namunalari ilk bora 1977-yilda nashr etilgan. Yozuvchining roman va qissalarida dunyodan uzib, taraqqiyot yo'llari kesib qo'yilgan mamalakatlar aholisining hayot tarzi tasvirlangan. Kinorejissor Bela Tarr bilan hamkorlikda o'zining romanlari, qissalari va ssenariylari asosida xalqaro miqyosda e'tirof etilgan bir qancha filmlarni suratga olgan. "Shaytoniy tango" (1985), "Qarshilik melanxoliyasi" (1989), "Urush va urush" (1999), "Shimoldan — tog', janubdan — ko'l, sharqdan — yo'l, g'arbdan — daryo" (2003), "Oxirgi bo'ri" (2009) romanlari, "So'nggi yaxshilik" (1986), "Urga asiri" (1992) qissalari uning eng mashhur asarlari hisoblanadi.

Krasnaxorkaining kitoblari jahonning ko'plab tillariga tarjima qilingan. Asarlari bir qancha nufuzli adabiy mukofotlarga sazovor bo'lgan. Attila Jozsef (1987), Tibor Deri (1992), Gyula Krudi (1993), Sandor Marai (1998), Koshut (2004) nomdagi mukofotlar shular jumlasidandir.

Laslo Krasnaxorkai bugun ham faol ijod bilan mashg'ul.

AKROPOL SARHADLARIDA

(hikoya)

Taksi haydovchilar rasvo bo'lishadi-da juda, tiqilinchda odamning hol-joniga qo'ymay xira pashshadek yopishib olishgani-chi, nega shunaqa qilishadi-ya, ko'rib turishibdi-yu, ahvol-tirikchilikni — haydasang ketmaydi, boshida, yo'q, kerakmas, qo'yasanlarmi-yo'qmi, bo'ldi-da endi, deya javob qilib charchamayotgan odamning oxiri indamay, namoyishkorona yuzini burib olishdan o'zga chorasi qolmadi, ular shunchalik shilqim bo'lib ketganidan uning g'ijinayotgani, ko'zlarida chaqnagan g'azabni sezmasdilar, tavba, qochib ham qutulib bo'lmasa ulardan, yaxshi gapga — iltimosga ko'nishmasa, qo'ysalaring-chi, shunchalik ham bo'lasizlarmi, degani bilan tinch qo'yish u yoqda tursin, Sintagma, Akropol, Monastiraki, Pirey, Agora, Plaka[1] yoki to'xtovsiz ravishda mehmonxona, mehmonxona, deb to'tiqushday takrorlayversa, yana "very niçe" bilan "very good"ga[2] balo bormi, otasi karnaychi o'tganmi bularning, quloqni qomatga keltirib shang'illashini qarang, ishshaygani hammasidan o'tib tushadi, biram yoqimsiz, surbetlarcha ko'zini lo'q qilib ishshayadi, bunisidan qutulsang, undan o'tadigan so'xtasi sovuqrog'i ortingdan kelib tiqiladi, jomadoningni narigi qo'lingga olib, teskari burilib olishdan o'zga chora topolmaysan, lekin ular lop etib oldingdan to'sib chiqadi, bularning epchilligini — bir nafasda goh ortingda, goh oldingda paydo bo'lishadi, butun aeroport kelib ketish manziliga emas, balki adashib qolganlar makoniga aylanganini anchadan keyin — g'oyat katta kutish zalidagi berahm olomon orasiga kirib borganingdagina fahmlab qolasan, har tarafdan odamlar to'da-to'da bo'lib yoki yakka-yolg'iz so'ppayib kirib kelishadi, bolalar ota-onasini chaqirib qichqirgan, uzoq ketma, yonimdan jilma, deb tanbeh berganiga qaramay, tentirab ketgan kichkintoylarini izlab onaning fig'oni falakka ko'tarilgan, darmonsiz qariyalar oyoqla-

---

[1] **Sintagma, Akropol... Plaka** — Afina va uning yaqinidagi diqqatga sazovor maskanlar *(tarj.)*.

[2] **"Very nice", "Very good"** — "Juda yaxshi", "Juda soz" *(ing.)*.

rini sudrab bosadi, maktab o'quvchilaridan tuzilgan guruh rahbari bolalarning o'takasini yorgudek ovozda qichqiradi, Yaponiyadan kelgan sayyohlarning tarjimoni bayroqchasini silkitib, bejirimgina karnaychalari orqali quti o'chgan hamyurtlarini chaqiradi, hamma qora terga botgan, chunki kun yonayapti, buning ustiga, dim, iloj qancha, yoz yozligini qiladi, faqat mana shu shovqin ortiqcha, chidash qiyin, go'yo dunyoning barcha shang'i, befarosat odamlari bir yerga to'planib olgandek, amallab shaharga olib chiqadigan yo'lga chiqib olasan-da, xayriyat, deb tashqariga oshiqasan, holbuki, u yerda ahvol beshbattar ekani xayolingga ham kelmaydi, ana shundagina u Afina avji yoz pallasida tandirdek yonajagini tushunib yetdi, taksi haydovchilarning uch-to'rttasi haliyam uning ortidan ergashib yurardi, qo'yib bersa ular ortidan jahannamgacha boradigan, biri ishshayadi, boshqasi iljayadi, yana bittasi jomadonga qo'l uzatib bezor qiladi, oxiri bu qiy-chuv, to's-to'polondan xayriyat, qutuldim, deganda butunlay holdan toydi, aeroport binosidan chiqaverishda kutib turgan taksilardan biriga shartta o'tirdida, saqich chaynayotgan lanj haydovchiga: "Sintagma yonidagi Erma va Eola ko'chalari chorrahasida joylashgan mehmonxonaga", — dedi, haydovchi bu aljiragan chol nima deyapti, degandek ma'noli qarab qo'ydi, so'ng indamay bosh qimirlatdi, u esa o'rindiqqa behol suyanib ko'zlarini yumdi, garchi "Taksi haydovchilar aldab, patingni yulishmasin", — deb grek tanishlari oldindan ko'chalarning tarhini chizib bergan qog'oz yonida bo'lsa ham, olib o'qimadi, mashina qayoqqa ketayotganini aniqlash uchun qaramadi, "Baribir to'rt tanga qo'shib aytishmasa, yeganlari harom bo'ladi, yozilmagan qonun bu, sen ham ular bilan tortishib yurma, busiz ularga hayot tatimaydi", — do'stlarining shu taxlit ko'rsatmalariga binoan, u talashib-tortishmadi, azbaroyi nima qilishni bilmagani, holi yo'qligi, asablari qaqshayotgani uchungina emas, balki parvozdan keyingi voqealar: topolmayotgan yuklarining tasodifan hech kutilmagan yerdan chiqib qolishi, xira-xandon haydovchilar, issiq, dim havo uni shoshilishga majbur etdi. Jomadoni yo'qolgani haqida xabar berishga chog'langanida yuki begona lash-lushlar — to'rt soat avval Kiyev aeroportida yo'lovchilar yuklarini joylashtirganda ko'zi tushgan qop-xaltalar

orasidan chiqdi, bu mayli, uchrab turadigan hodisa, biroq taqiqlangan giyohvand moddalar izlab o'sha la'nati jomadonini tit-pit qilib tekshirishganda bu ko'ngilsizliklar yana davom etdi va nihoyat, kutish zalidagi sarsongarchiliklar, bular odamman deganning sabr kosasini to'ldirib yuborar, buning ustiga, uni Gretsiyaga taklif etgan tanishlaridan birontasi kutish zalida ko'rinmasdi, kim aybdor, ular kutib-kutib qaytib ketgan bo'lsalar-chi, odamlar orasida o'ralashib yurgani yetmagandek, taksi haydovchilar yopishib xiralik qilishganda ular bilan adi-badi qilib o'tirgani uchun o'zi aybdordir, balki, qisqasi, ana endi sillasi qurib, taksining orqa o'rindig'iga o'zini tappa tashlab, tong qorong'isidagi kimsasiz ko'chalarga ma'nosiz qarab, yozib berishgan bironta xiyobon yoki ko'chaning nomi yo kinoteatrni ko'rmasa ham, ahamiyat bermagani tugul, bir qancha vaqt qayerga ketayotgani va hisoblagich shaqillatib qancha yozib qo'ygani bilan zarracha qiziqmagani ham oqlash mumkin bo'lgan narsalardek tuyuldi, avvaliga bu xususda o'ylash xayoliga ham kelmadi, biroq haydovchi qisqa yo'ldan emas, butun boshli nohiyani aylantirib olib ketayotgani uchun hisoblagich ko'rsatkichi besh yevroga yaqinlashib, bir daqiqa o'tar-o'tmas undan ham osha boshlaganida bekorga aytishmaganini fahmladi, tanishlari shunchadan ko'p yo'lkira so'rashsa, sira to'lamagin, deb tushuntirgan edilar, u ingliz tilida bir nimalar degandi, haydovchi avval eshitmaganga oldi, keyin o'zini ovsarlikka solib mashinani dam o'ngga, dam so'lga burib ketaverdi, nihoyat, allaqaysi chorrahaga kelgach, qizil chiroqda to'xtadi-yu, yo'lovchi uzatgan bir parcha qog'ozdagi ko'chaning nomiga chertib-chertib, bir nimalar dedi, lekin yo'l haqi xususida g'ing demadi, qisqasi, insof qilish u yoqda tursin, hozirgina o'tib ketishgan joyning nomini aytishni ham ep ko'rmadi, zero, bu yerdan Sintagma maydoni tugul, shahar markaziga ham juda olis edi, ana shunda uning jahli chiqib, tepa sochi tikka bo'ldi-da, noroziligini bildirish maqsadida o'shqirdi, qo'lini paxsa qilib jazava ichida soatini, so'ng qog'ozdagi "Sintagma maydoni" degan yozuvni ko'rsatdi, baribir foydasi bo'lmadi, taksi haydovchi pinagini buzmay, saqich chaynab o'tiraverdi, unga hech nima ta'sir qilmaydiganga o'xshardi, u go'yo adashishi mumkin emasdek, to'g'ri

yo'ldan ketayotganiga ishonchi komil ekanini namoyish etish uchun beg'am-beparvo o'tirgandek tuyulardi, oxiri hammasi joyida, qo'rqmang, deya uni xotirjam qildi, bu ham yetmagandek, ortiga o'girilib, be happy[1], dedi yana, pirovardida haydovchi allaqanday odam gavjum chorrahada keskin tormoz bosganda, yo'lovchining tomiri tortishib, qornini changallagancha bukchayib qoldi, haydovchi eshikni ochdi va so'ljayib qo'llari bilan ishora qildi, mana, marhamat, Sintagma maydoni, axir shu yerga deganmidingiz — u esa dastlab tanish bilishlari qat'iy belgilab bergan pulni uzatdi, haydovchi pulning ozligini ko'rib unga baqira ketdi, yelkalaridan ushlab siltadi, u endi mashinadan tushgan edi, bir to'da greklar kelib bularni qurshab olishdi, birovi u dedi, boshqasi bu dedi, xullas, bularning ishiga aralashib ikkovini kelishtirib qo'yishdi, ming la'nat, bu korchalonlar ham yo'l haqini grek tanishlari hisoblab berganidan ikki hissa ko'proq undirib berishdi, ammo to shu chog'gacha yuz bergan to'ntiboziiklar joniga tegib ketganidan, "tupurdim o'sha Afinangizga!" deb baqirdi u o'zini o'rab olgan greklarga, ammo ular xafa bo'lish o'rniga uning yelkasiga qoqib, ishshaygancha yupatishdi, hammasi joyida, no problem, yur, undan ko'ra qittak-qittak olamiz birgalikda, sizlar bilan birgami, ko'zim uchib turgani yo'q, degancha u jingalak soch, moviy ko'zli, nazarida suyuq tuyulgan bu yigitlar chet ellik mehmonning bor-budini qoqishtirib olish uchun emas, balki taksi haydovchisi bilan bo'lib o'tgan mojaroda yengib chiqqanini yuvish, nishonlash maqsadida chin dildan taklif qilishayotganiga fahmi yetmay, ularning qurshovidan chiqib ketmoqchi bo'ldi, greklar esa, o'zingni bos, haydovchilarning bari bir go'r, ularga tushuntirolmaysan, ular yuho-ku, puling tugul teringni ham shilib olishadi, ayniqsa, bunaqa paytda, undan ko'ra yur biz bilan, sal ko'ngling yoziladi, deya ko'chaning narigi betidagi hozirgina o'zlari o'tirgan restoranning oldiga o'rnatilgan ixchamgina stollarni ko'rsatishib, uning yelkasiga qoqib qo'yishdi, biroq u shunchalik qo'rqib ketgan ediki, jomadonini ola solib, orqa-oldiga qaramay, son sanoqsiz mashinalar qalashib yotgan chorraha to-

[1] **"Be happy"** "Shod-xurram bo'ling" *(ing.)*. 2 "No problem" — "Hechqisi yo'q" *(ing.)*.

mon yugurdi, uning ko'ziga hech narsa ko'rinmasdi, ko'chani kesib o'tayotganida mashinaning tagiga kirib ketishi mumkinligini xayoliga ham keltirmay, ketma-ket yangrayotgan signallarga ham ahamiyat bermadi, vaholanki, ko'chaning narigi tarafiga o'tib olguncha, uch marotaba mashina urib ketishiga oz qoldi — yaxshiyamki, qo'lidagi jomadon yengil edi, lekin yengil bo'lgani bilan baribir emin-erkin yurishga xalal berardi, uni yana Xudo asradi, yugurib ketayapti-yu, ko'nglida tanishlarga qo'ng'iroq qilsammi, qayerdaykin ular, yordam so'rasammi, degan o'y-xayollar g'ujg'on o'ynaydi, qo'ng'iroq qilish qayerda, boyagi taksi haydovchisi bor pulini olib qo'ydi-yu, yaramas, qo'ng'iroq qilishga naqd puli bo'lmasa, shuning uchun u to'xtab, shinavanda grek yigitlari tomonga bir ilinj bilan qaradi, ular bundan chamasi besh-o'n daqiqa avval yeb-ichishgan restoran oldidagi stollarga borib o'tirishgandi, shu o'tirishda ular yo'lto'sar-yulg'ichga ham, o'g'ri-firibgarga ham o'xshamasdi, shu bois birozdan keyin sal o'ziga kelgach, ularning oldiga borib, maslahat so'rashga qaror qildi, aloha, shunday xayol bilan yo'lni kesib o'tish uchun bir-ikki qadam yurdi, u ko'p narsani tushunmasdi, ro'paradagi svetofor-ning yashil chirog'i yonib turgani bilan o'ziga, yon-atrofidagi yo'lovchilarga aloqasi bormi-yo'qmi — bilmasdi, nihoyatda ehtiyot bo'lish kerak ekan, chunki zum o'tmay yana chalkashib ketdi, yashil chiroq yonib turgani bilan, mashinalar oqimi to'xtay demasdi, bahaybat yuk mashinasidan qochaman, deb orqasiga tisarilgan edi, qoqilib yiqilishiga oz qoldi, bu ham yetmagandek, o'qdek uchib kelayotgan odam to'la avtobus uni turtib yuboray dedi, svetoforning yashil chirog'i o'chib, bir daqiqadan keyin qayta yonganida u to'rt-besh nafar yo'lovchilarning panasida esonomon o'tib oldi, hech kimga e'tibor bermay, restoran ayvonchasida betashvishgina musallas ichib o'tirgan haligi yigitlar davrasiga borib qo'shildi, uning qaytib kelishiga ishongan ekanmi, yigitlar do'stona kutib olish tugul, yonlariga taklif etib, bitta qo'shimcha stul keltirib berishdi, hammasining yuzida boya aytmadikmi, biron qarorga kelishdan avval, eng yaxshisi, aqlni peshlash uchun bir stakan musallas ichib olish kerak edi, degan ifoda zuhr etardi, ular nima ichasiz, pivomi, musallasmi, deb so'rashdi, e, yo'q, deya rad

etdi u, men, yaxshisi, qahva ichaman, grekcha qilib damlasin, ular ofitsiantni chaqirib qahva buyurishdi, shu asno gurung qizidi, grek yigitlari unchalik yosh emas — o'ttiz-o'ttiz beshlarda edi, inglizchani yaxshi bilishgani bilan talaffuzlari biroz g'alati ekan, o'zining talaffuzi ham havas qilarli darajada emasdi, shunga qaramay, ular bir-birlarini yaxshi tushunishardi, gapga berilib ketganidanmi yo bir tashvishi arigani uchunmi, qayerda kimlar bilan o'tirganini ham unutib, tili yechilib, qayerdan va nima maqsadda kelgani, bu dunyoning ishlari ko'ngliga zig'ir yog'dek urgani, keyingi paytda, hatto o'ziga o'zi yoqmay qolganlari, xullas, Afinaga borib kelsammi deb ahd qilganlari haqida bir boshdan oqizmay-tomizmay aytib berdi, lekin ochig'ini aytganda, u ancha yillardan buyon chindan ham Afinani bir borib ko'rishni orzu qilardi, yigitlar indamay bosh qimirlatib tinglab o'tirishdi, hech kim uning gapini bo'lmadi, gapdan gap chiqib bu yangi tanishlari, kutib olish uchun aeroportga chiqmagan "do'stlari"ga qo'ng'iroq qilish va ularni izlab topish niyatidan uni qaytardilar, xo'p, mayli, bir sabab tufayli kechikkan bo'lishlari mumkin, nega u holda Ermi ko'chasining chorrahasida ertalab soat to'qqizda ko'rishamiz, degan so'zlarida turmay, haliyam kelishmadi, hozir to'qqiz qoliptimi, undan ko'ra biz bilan qol, modomiki, taqdir taqozosiga ko'ra uchrashib qolgan ekanmiz, bu bejiz emasdir, nima bo'ladi sizlar bilan qolsam, deya qiziqsinib so'radi u, biron taklifingiz bormi, nima, taklif, greklar bir-biriga qarab olishdi, uning savoliga kulgilari qistadi, qanaqa taklif — hech qanaqa taklif yo'q hozircha, mana shu yerda o'tirganimiz yetmaydimi, pivo, musallas ichib o'tiribmiz-u, bu taklifga kirmaydimi, uning soddaligidan miyig'ida kulib qo'yishdi, kechadan beri shu yerda dam olib o'tiribmiz, hech kim hech narsani o'ylamaydi, puling bo'lsa bas, hammasi o'z-o'zidan chiroyli taklifga kiraveradi, dedi o'zini Adonis deb tanishtirgan novcha yigit, to'g'risini aytganda, es-hushli, yoqimtoy yigitlar ekan, u grekcha damlangan qahvani ichgach, daf'atan agar ularning taklifiga rozi bo'lib, shu yerda ular bilan birga qolsa, Afinani tomosha qilish nima bo'ladi, deb o'yladi, axir, bu tomonlarga shuning uchun kelgan emasmi, hozirgina shu fikrini aytganda nega hammalari ma'noli ko'z urishtirib, indamay

o'tirishdi, u chindanam ajablandi, shuning uchun yana ko'nglidagi niyatini aytdi, qani, nima deyisharkan, biron yangi taklif eshitarmikanman, deb umidlandi, Afina to'g'risidagi bunaqa gaplar taniqli rassomga mo'yqalam nimaligini tushuntirishga urinishdek gap, to'g'rimi, Iorgos, dedi yigitlardan biri, uning so'zlari negadir o'zini Jorj deb tanishtirgan yigitga ham yoqmaganligi sezildi, u qo'l siltab, hafsalasi pir bo'lgan odamdek, buni qara, Afinani tomosha qilmoqchiman emish, Afinaning nimasini tomosha qiladi — hayronman, dedi-da, krujkasini shart ko'tarib qolgan pivoni ichib yubordi, yigitning gaplarida qandaydir alam, norozilik bor edi, ammo nega Iorgos bunaqa deyapti, deb dabdurustdan so'rolmadi, keyinroq, sohildagi qumloqqa chiqarib tashlangan baliqlar, beozor, yoqimtoy yalqovlar, deya ta'rifladi ularni ichida, ammo ular bilan birga o'tirish yoqayotgani, o'zini bemalol, erkin tutishiga shu ko'ngli toza yigitlar sababligini tobora chuqurroq his qilardi, zotan, bu tuyg'uning yomon jihati ham bor edi, bu xavfli, domiga tortib ketsa qutulishning iloji yo'q xatarli mashg'ulotga o'xshaydi, to'g'rirog'i, bekorchidan Xudo bezor — kun bo'yi o'tirib, ularning falon estrada guruhi narigisidan yaxshiroq deganini eshitish, o'tgan-ketganni alang-jalang qilib kuzatish, shu issiq va qo'lansa havoda Sintagma maydoni va unga tutash ko'chalarda u yoqdan bu yoqqa g'izillab o'tayotgan son-sanoqsiz mashinalarni tomosha qilish, bo'lar-bo'lmas, keraksiz, puch hangomalardan charchamay, og'izga kelgan mayda gaplarni dudlangan, yog'siz, sho'r baliqning dumini chaynagandek tamshanib, takrorlashlar joniga tegib ketmagani-chi bularning deb o'ylardi u, agar hoziroq shartta o'rnidan turib ketmasa, o'zi ham shu botqoqqa botishi mumkinligidan cho'chidi, ana unda kech bo'ladi, orzu qilgan hayotidan butunlay mahrum bo'ladi, keyin... u kutilmaganda o'rnidan turdi-da, jillaqursa bolaligidagi eng ardoqli, aziz orzusi — Akropolni bir marta bo'lsin ko'rishi shart ekanligini ma'lum qildi, bir vaqtlar o'lsam ham boraman degan edim, mana, yoshim o'tganda nasib qilibdi, endi ko'rmasam bo'lmaydi, shuning uchun uzr, dedi, ana xolos, demak, loaqal Akropolni ko'rsang bo'ldi ekan-da, deya ko'zini qisdi Adonis, qisqasi, Akropol, piching qildi Iorgos, o'zing bilasan, deyishdi oxiri ular, bi-

rinchi kelishing ekan, ko'rganing ma'qul, o'ta bema'nilik, dedi Iorgos, men ham fikringga qo'shilaman, dedi Adonis, bo'pti, boraqol, faqat gapimga quloq sol, dedi bularning orasida o'tirgan bitta-yu bitta qiz — uni Ela deyishardi — manavi dardisarni ko'tarib yurmay, shu yerga qo'yib ketaver, mabodo, zarur bo'lib qolsa, kelib so'rasang, olib berishadi, mabodo, biz yo'q bo'lsak... hozir, shoshmay tur, qani u, Ela atrofga alangladi, Maniopulosning oldida bo'lsa kerak, dedi Iorgos, Maniopulos deganlari sotuvchi bo'lib, kichkina do'konchada kompyuterning ehtiyot qismlarini sotarkan, pardani ko'tarib ishora qilishgandi, uning gumashtasi kelib jomadonini olib ketdi, xohlagan paytingda kelib o'sha boladan olasan, shundan so'ng unga yo'lni ko'rsatib yuborishdi, jazirama issiqqa qaramay, ular nima uchundir piyoda borishni taklif qilishganiga u ajablandi, biroq ularning aytishlaricha, birinchidan, hozir sayyohlar kam va qolaversa, shaharning eski qismidagi Plaka mavzesini yo'l-yo'lakay tomosha qilib borishi mumkin emish, qaysi tomondan borsa qulayroq ekanini Iorgos hijjalab tushuntirdi, hatto tushuntirayotganda qo'li bilan ko'rsatib turdi, hammalari restoranga darhol kirib keta qolmay, uning ortidan qarab turishdi, u ko'chaning narigi tomoniga o'tib, Plakaning tor jinko'chalari og'zigacha bordi-da, o'girilib qo'l silkidi, bunga javoban ular ham do'stona xayrlashdilar, u yengil xo'rsinib qo'ydi-da, yo'lga tushdi, bir zumgina yuragi hapriqdi, negaki, u ayni daqiqalarda ko'pdan ko'p orzulari ichida hamisha ohanrabodek o'ziga jalb etib kelgan ma'vo — Akropol ostonalarida turardi, bir ko'rsam armonda qolmasdim, deya ko'nglidan o'tkazdi va bolaligida rangli kitob sahifalarida ko'rib xotirasiga muhrlanib qolgan xira suratlar ko'z oldidan o'ta boshladi, bir jihatdan xursand bo'ldiki, boyagi yigitlar uning qat'iyati oldida chekindilar va yo'ldan qaytara olmadilar, agar chini bilan aytsa, bir zamonlar tasavvur qilgan Akropol aslida xayoliy, yuksak, hapriqtiruvchi emas ekan, shekilli, hozir boshqacharoq ko'rinmoqda edi, axir, u Akropolning bunchalik katta masofani egallab olganini bilarmidi — bilmasdi, binolarini qarang, Propileya yo'lagini aytmaysizmi, Panteon ibodatxonasi qanday muazzam va ulug'vor ekan, greklar temenos, deb ataydigan Afinadagi tabarruk maskanlar sil-

silasining benazir mahobati va ko'lamini hikoyalar, xotira va suratlar orqali tasavvur qilib bo'lmas ekan, nafsilamrini aytganda, bu suratlar va hikoyalar Akropolning buyukligi haqida hech narsa demas ekan, Akropol ko'lamining o'ziyoq tasavvurga sig'mayapti, uni mana shu narsa hayratga soldi, u sendvich sotib oldi, qorni ochganligidan narxi nega bunaqa qimmat ekanini surishtirib o'tirmadi, muzdek kolaning narxidan odamning, ayniqsa, sayyohning ko'ngli ozardi, nima degan gap bu, qorni ochsa ochibdi — nima bo'pti, shunga ham ota go'ri qozixonami, muhimi, uni hozir boshqa narsa tashvishlantira olmasdi — jaziramaga qaramay, Akropolga tobora yaqinlashib kelayotgan edi, ayni chog'da mana shu narsa hammasidan muhimroq va ahamiyatliroq ekanini his qilardi, yana ozginadan keyin Niki va Erexteon ibodatxonalarini, oxiri yodgorliklarning gultoji bo'lmish benazir Panteonni o'z ko'zi bilan ko'radi, qisqasi, tez orada u Akropolning eng yuqorisiga ko'tariladi, bu uning doimiy orzusi bo'lib kelgan, greklar 2439 yil avval qurgan, qurish qayoqda, yaratgan buyuk obidalarni tezroq ko'rish ilinjida yuragi hapriqa boshladi.

U Plaka mavzesiga kirib borganida, boya aytishganidek, sayyohlar ko'p emasdi, u shuncha yurib nari borsa, sakson-to'qson chog'li sayyohni uchratdi, ro'paradan kelayotgan sayyohlar guruhi uni aylanib o'tganda u xursand bo'ldi, bir o'zi tomosha qiladi — hech kim xalal bermaydi, so'ngra u Flessa ko'chasi bo'ylab ketdi, notanish shahar — adashib qolishi hech gap emas, boshi gangib Erexteon ko'chasi bo'ylab yurgan yaxshimi, yomonmi — ikkilanib turdi-da, har ehtimolga qarshi, to'g'ri ketaverdi, Stratonos ko'chasidan Frozzilono ko'chasiga burilgach, kutilmaganda keng, odam gavjum Dionis Areopagita shohko'chasidan chiqib qoldi va shuning barobarida yuksakda viqor bilan qad rostlab turgan Akropolga ko'zi tushdi, tepalik shu chog'gacha tor ko'chalar aro bir on ko'rinib qolayotgan edi, biroq loshlanib turgan butun mahobati ila endi yaqqol ko'zga tashlandi, bu umrida ilk bor niyatiga erishishi mumkinligidan darak berardi, boshqasining nima keragi bor, axir, u Akropol ostonalarida-ku, bunday ne'matdan bahramand bo'lish arafasida nechuk quvonmasin, quyosh ayovsiz qizdirardi, katta ko'chada qatnov o'ta xavfli, soat o'n-o'n birlar

bo'lsa kerak, lekin anig'ini aytolmaydi, chunki soati hali samolyotdayoq to'xtab qolgandi, vaqtida batareyasini yangilamaganining oqibati, endi buning qizig'i ham yo'q, deya xayolidan o'tkazdi u, men manzilga yetib kelgan bo'lsam, u sayyohlarning shubhali darajada kamligidan hayron bo'ldi, ularning safi tobora siyraklashardi, biroq bu ham uning dilidagi zavqni, g'ayratini susaytirmadi, aksincha, ruhi yuksalib borayotgandek tuyuldi, axir, mana, o'ng tomonida Akropol qad rostlab turibdi, ertami-kechmi, o'sha yerga olib chiqadigan so'qmoqni topadi, buning uchun butun tepalik etagini aylanib chiqishdan erinmaydi, bunga bardoshi yetadi, ming qilsa ham topadi, u shunday xayollar bilan o'ziga o'zi dalda berardi, ammo yo'l hali veri tugay demas, aksiga olib issiq havoda qandaydir badbo'y hid kuchayib borardi, ko'chaning shovqini quloqni qomatga keltiradi, u endi birinchi ro'baro' bo'lgan odamdan u yerga qanday boriladi deb so'rashni diliga tugib qo'ygan mahal birdan ohaktosh plitalar bilan mustahkamlangan ilonizi yo'lga ko'zi tushdi, bu ilonizi so'qmoq tepasida allaqanday qorovulxona bor ekan, u o'sha yoqqa chiqib bordi, qarasa, qorovulxona emas, chiptaxona ekan, o'n ikki yevro to'laysiz, deyishdi, u jahl bilan qo'lini paxsa qilib dag'dag'a qila boshlagan edi, olti yevroga tushirishdi, shu tariqa u olti yevroga chipta olib, ichkariga kirdi va boshini tepaga ko'tarib qaradi: demak, mana Akropol qanaqa ekan, biroq o'sha zahoti quyosh nuridan ko'zi qamashib, boshini quyi solishga majbur bo'ldi, ko'z oldidan qora-jigarrang dog'lar bir necha soniya ketmay turdi, ko'zlariga dam berish uchun oftob nuri tushmayotgan yerga qaramoqchi bo'ldi, biroq harakati zoye ketdi, chunki oyog'i ostidagi marmartosh yarqirab, unda aks etayotgan nur chaqindek ko'zlariga sanchildi, zina pillapoyalari oq marmardan ishlangan bo'lib, uning orasidan bironta maysa yoki giyoh o'smagan edi, u Akropolga eltguvchi asosiy darvozaxona ostonasida ekanini bilardi, xolos, bundan chiqdi, so'l tomonida Pinokoteka deb atalmish suratlar galereyasi, o'ng qo'lda esa mudofaa minorasi, undan yuqoriroqdagi maydonda to'rt ustunli Niki ibodatxonasi joylashgan bo'lishi kerak, buni u Akropol xaritasi orqali esida saqlab qolgandi, ilgari ko'rmagan, qayerda ko'radi, u to'xtamasdan ketaverdi, ko'zlarini

ocholmay, zina panjarasini ushlab chiqib borar ekan, o'zini o'zi yupatardi, mayli, hechqisi yo'q, vaqtinchalik shunday, lekin zinapoya tugagach, biron daraxt soyasida nafasimni rostlab olaman, keyin sal o'zimga kelgach, bu yerga qaytib tushaman-da, Propileya yo'lagini yaxshilab tomosha qilaman, deya xayol qildi, shuning uchun to'xtamay ketaverdi, ketaverdi, lekin Propileyadan o'tgach, yurish yanayam qiyinlashdi, sababi, obida boshdan oyoq ohaktoshlardan iborat qoyaga qurilgan edi, pastga enib ketgan yo'l ham ko'zni oladigan ohaktosh bo'laklari oralab o'tgandi, bundan chiqdi, o'sha dong'i ketgan Akropol boshdan oyoq yaxlit, tap-taqir toshlar ustiga qurilgan ekan-da, degan xulosaga keldi va shu asno mudrab qolishdan qo'rqib, kiprik qoqmay ilgarilab boraverdi, quyosh tandirdek qizdirar, boshi, yelkasi, qo'l-oyoqlari, a'zoyi badani, qo'ying-chi, ich-u tashi kuyardi, chidamay qayoqqa boradi, faqat bir narsani u kutmagan edi, ana shu narsa uni gangitib qo'ydi, bu quyosh nurining marmartoshlarga tushib qaytayotgan shu'lasining aksi edi, buni u aslo kutmagandi, bilmaganligi tufayli bundan saqlanish choralari haqida o'ylab ham ko'rmabdi, qayerdan bilsin, qachonki, bironta yo'llanma, san'at tarixi bo'yicha yozilgan bironta tadqiqotda ogohlantirilmagan bo'lsa, Akropol tepasida quyosh shunchalar yarqiroq nur sochadiki, ko'zi noziklar, albatta, ehtiyot choralarini ko'rib qo'yishi zarur deb ochiq-oydin ogohlantirishsa asakalari ketarmidi, mana shunaqa ko'zi noziklardan bittasi hech qanday chora ko'rmagan, oqibatda, hozir ham biron narsa o'ylab topolmadi, chunki qo'lidagi jomadonidan bo'lak hech vaqosi yo'q, bilganda o'zi bilan bir nimalar olgan bo'lardi, shu payt jomadoni shaharda, Maniopulos degan yigitda qolgani lop etib esiga tushdi, quyosh ham aksiga olib ayovsiz o't purkamoqda, tevarak-atrofda tangadek soya beruvchi na daraxt, na shiypon, na devor bor, quyosh naq boshdan urardi, butun boshli Akropol otashda qovurilayotgandek edi, Xudoning marhamatini qarangki, u shimining orqa cho'ntagida dastro'moli borligini eslab qoldi va o'shani olib ko'ziga bosdi, ammo qo'lro'molchaning oppoq enlik hoshiyasi ko'ziga malol keldi, ana shunda u qo'lro'molchasi ustidan kaftlarini bosib turdi, biron-bir salqin soya yer chi-

qib qolar, o'ldimi, degan umidda yana olg'a yurdi, aloha, u bolaligidan ko'rishni orzu qilgan Akropol bo'ylab borar edi, shu narsa ma'lum bo'ldiki, er-u xotin nemislarni hisobga olmaganda, bu maskanda undan boshqa tirik jon yo'q edi, bu nemislar ham ancha narida, Panteonda edi, ana o'shalar puxta ish qilgan ekanda, deb o'yladi u, sayohatga chiqishdan avval tayyorgarlik ko'rishgani sezilib turibdi, boshlarida issiqda kiyadigan soyabonli, suv o'tkazmaydigan maxsus bosh kiyim, ko'zlarida qora ko'zoynak, yelkalarida rukzak, rukzakning yarim ochiq og'zidan bir litrli mineral suvning idishi ko'rinib turardi, suv idishni eslab uning tashnaligi ortdi, lekin nima bilan qondiradi bu istakni, vaholanki, bu yo'llarda na tamaddixona, na muzdek ichimliklar do'konchasi bor edi, qisqasi, Akropolda Akropoldan boshqa hech vaqo yo'q edi, bu vaqtga kelib, uning toqati toq bo'layozgandi, shunga qaramay, bir zamonlar Afinaga haykal o'rnatilgan yerga yetib keldi va Erexteon tomonga yurdi, u ko'zi ojiz odamlardek timirskilanib borar, yuqoriga qarash tugul, jillaqursa, bir boragina ko'z qirini tashlay olmasdi, holi kelmasdi, mabodo, shunday qilsa ko'zlari yoshlanardi, yaxshiyamki, hali og'riq sezmayapti, hammasi Erexteonga yetib kelganida boshlandi — ko'zlari qurib, yorug'ga qarolmay qoldi, u obidaga kirolmadi va hatto bir qur ko'z yugurtirib chiqolmadi ham, chunki purviqor ustunli ayvon juda balandda bo'lib, u yoqqa chiqishning sira iloji yo'q edi, u noumid bo'lib atrofga alangladi, ana shu lahzada ko'zlari achishib og'ridi, qoya tepasida hali u yerda, hali bu yerda bahaybat o'ymakor toshtaxtalar yotardi, bu toshtaxtalar arxeolog Dyorpfeld olib borgan qazilma ishlardan qolgan Afina mehrobining qoldiqlari edi, yana kim bilsin, lekin, har holda, ko'zlarini amallab ochib qaraganida shu narsalarni ko'rishga muyassar bo'ldi, daf'atan unga ma'budlardan birining rahmi keldimi, Erexteonning orqa tarafida o'sgan bir daraxtni ilg'adi, ey Xudoyim-ey, daraxt, Akropolning basir muxlisi shu zahotiyoq o'sha tomonga oshiqdi, lekin yetib borib daraxt tanasiga yelkasi bilan suyanib, ko'zlarini ochishga uringan edi, hech qanday o'zgarish sezmadi, sababi, bu yerda ham quyosh nurlari ko'zini ochirmadi, bu kichkina, quriyozgan zaytun

daraxti edi, poyasi nozik, tepasidagi zaif shoxlari hamda butoqlarini bazo'r ko'tarib turganga o'xshardi, quyosh nurlarini to'sishi mumkin bo'lgan yaproqlardan deyarli nishon yo'q, u hayron bo'lib oyoqlari ostiga qaragandi, bu daraxt mador bo'larli soya solmasligini payqadi va ey, Xudo, uning axiyri bir narsaga fahmi yetdi: nimani deb kelgan bo'lsa, o'sha narsani ko'rolmas ekan-da, o'-o', deya alam bilan o'yladi u, Akropolning ko'lamini bilish hech qachon nasib etmasligi tugul, shu yerda bo'la turib ham Akropolning o'zini ko'rish nasib etmas ekan, biroq ma'budlar unga yupanch uchun daraxtdan tashqari, Erexteonning shimoliy darvozaxonasi devorlarini ham tayyorlab qo'ygan edi, zero, kunning shu qismida devorning quyuq soyasi najotbaxsh edi, u orqa-oldiga qaramay, o'sha yerga yugurdi, er-xotin nemislar bu yerga allaqachon yetib kelishgan, ularning qiyofasida quvonch balqir, o'zlari bardam va tetik ko'rinardi, eri fotoapparatga yangi plyonkani joylashtirish bilan mashg'ul, ikki yonog'iga quyosh rasmini chizdirgan xotini esa suratga tushishga hozirlanardi, ikkovi ham gavdali, baquvvat va sog'lom edi, nimayam qilardik, deya ko'nglidan kechirdi u, bunaqalarga Xudoning marhamati cheksiz, uyida bo'lganida u bunday shakkok xayollarga bormasdi, zotan, ma'budlar uni chetda qoldirishmagani xayoliga kelmadi, axir, u qanday qilib bu ahvolda shunaqa og'ir va uzoq yo'lni bosib o'tdi, unga bunchalik sabr-bardosh, kuch-quvvatni kim berdi, kim yo'l ko'rsatdi — yo'l chetidagi belgilar, ko'rsatkichlarmi, yo'l-yo'lakay og'riy boshlagan, achishgan ko'zlarini qanday qilib ocha oldi, kimning sharofati bilan, to'g'ri, minba'd to'g'ri, bu yerdan turib qaraganda, qadimgi Akropol deb atalgan osori atiqadan Parfenon ibodatxonasi ustunlarining poydevorlaridan boshqa hech vaqo ko'rinmasdi, umr bo'yi mana shu manzarani ko'rish orzusida yashadimi, bu yerda qandaydir anglashilmovchilik bor, uning achchig'i chiqdi, umidlari puchga chiqqanini u sira tan ololmadi, nemislar suratga tushishni davom ettirish uchun Parfenonga ketishdi, u esa Erexteon devorlari ostidan bir qadam jilsa nimalar bo'lishini his qilgani uchun shu yerda qoldi, shu yerda biroz bo'lsin mizg'ib olishni xayol qildi, kun qaytguncha shu yerda dam olsam-chi, deb o'yladi, biroq o'sha zahoti bu o'y-xayollari xato ekanini, ming qilsa

ham, baribir, soya-salqin bo'ladimi, shabada esadimi, bir qultum suvsiz bu otashxonada uzoq qololmasligini tushunib yetdi, u boshini sarak-sarak qildi, suv ola kelish esiga tushmaganini qarang-a, nomard, derdi o'ziga o'zi xayolan, bir shisha suv kimni o'ldiribdi, uning miyasi g'ovlab ketdi, shu keraksiz xayollardan o'zini chalg'itish uchun devorga suyangancha Parfenonni qurgan me'morlar Kallikrat va Iktin haqida o'ylab ketdi, keyin mana shu san'at namunasiga yanayam ko'rk bag'ishlagan Afinaning ulug'vor haykalini tilla va fil suyagidan ishlagan haykaltarosh Fidiy haqida o'yladi, u zo'r berib shu muqaddas makonni yaxlit, to'laligicha tasavvur qilishga va shu tariqa ko'z oldida to'la gavdalangan tabarruk qadamjo bilan xayolan xayrlashmoqqa va pirovardida g'arb olamining ulug' kashfiyotini mana shu taxlit xotirada saqlab qolishga urindi, ajabo, uning yuragi yumshab, ko'ngli buzildi, ochig'i, u bemalol ko'nglini bo'shatib olsa arzirdi, chunki birinchidan, orzu qilgan makonga yetib keldi, ikkinchidan, yo'q, u yetib kelgan bo'lsa ham, orzulari amalga oshmagan edi.

Akropoldan tushish o'ta mushkul edi, shuning barobarida bachkana, arzimas ikir-chikirni, deb uning butun Afina bilan bog'liq intilishlari barbod bo'lganini his qilish undanam og'ir edi, u ikkala kafti bilan ko'zlarini pana qilib olgan ko'yi, qoqilib-suqilib, oyoqlarini sudragancha tushib kelar, chiptaxona oldiga kelganda, mana shu qo'qqayib turgan shumshuk taxta uyani yakson qilib tashlashdan o'zini zo'rg'a tiydi, ko'nglida bir dunyo armon bilan quyosh tobida jizg'anak bo'lib yonayotgan so'qmoqdan gandiraklab pastga tushib kelar edi, nihoyat, gavjum, jo'shqin hayot qaynayotgan serqatnov yo'lga, Dionis Areopagita ko'chasiga yetib keldi, endi Akropolga sira qaragisi kelmas edi, loaqal shu yerda, pastda ko'zlari quyosh nuriga xiyla ko'nikdi va u o'zini birmuncha tetikroq his qilayotganiga qaramay, dilida kelgan yo'lidan iziga qaytib borib tomosha qilishni davom ettirishga zarracha rag'bat uyg'onmadi, unga hech narsaning keragi yo'q va uni ayni chog'da na Milliy muzey, na Zevs ehromi, na Dionis teatri, na Agora maydoni qiziqtirardi, ochig'ini aytganda, Afinasi ham, demakki, yuqoriga qarasa, yaqqol ko'zga tashlanadigan Akropoli ham endi e'tiborini jalb qilmasdi, tupurdim

o‘sha Akropolga, deya to‘ng‘illadi u xayoli parishon bo‘lib, biroq ko‘rganlari bir ro‘yo bo‘lib chiqqanidan afsus chekkani uchun shunday deyayotganini tushundi — avvaliga u sodir bo‘lgan voqealardan shu tariqa o‘zi izlagan va kutgan teran ramziy ma’noni topdi, afsus, ming afsus, mag‘lub bo‘lganida topdi, ana endi besh-olti soat ichida barini mushohada qilib ko‘rgach va tushunib yetgach, orzularidan nega voz kechmoqchi bo‘layotganini izohlamoqqa urinardi, buning ma’nosi endi-endi uning shuurida ham ifodasini topmoqda edi, u oyog‘i ostidan ko‘zini uzmas, a’zoyi badani, ayniqsa, ko‘zidagi og‘riq to‘xtamas, oyoqlari qaqshar, ikkala tovoni qavarib, har qadam bosganda zirqirar, tovoni poyabzaliga botmasin, deb barmoqlarini oldinga cho‘zib og‘irligini goh o‘ng, goh chap oyog‘iga solar, bu ham kamlik qilgandek, og‘riqdan boshi yorilay derdi, qorni ham o‘lgudek och edi, oshqozoni sanchib-sanchib qo‘yardi, axir, qachondan beri tuz totmayotgan bo‘lsa — yanayam chidab kelyapti, u Dionis Areopagita ko‘chasida sudralib borar ekan, bu yo‘l unga yanayam uzoq, chidab bo‘lmas darajada uzoq tuyular, iloji boricha, yuqoriga qaramas, sababi, yuqorida — shu bugundan e’tiboran, hatto nomini ham tilga olmaslik uchun Akropolni shunday deb atardi — ertaga yoki bugun kechki payt qarashga arzigulik hech narsa qolmagandi, u endi batamom tushunib yetgani shu bo‘ldiki, qaytib borgani bilan ro‘yoga aylangan Akropoldan boshqasini topolmaydi, bugun, bevaqt, xosiyatsiz kunda kelib qoldi, umuman olganda, o‘zi dunyoga bevaqt keldi, nega tug‘ildi o‘zi, balki boshidanoq hammasi egri-bugri yo‘lga kirib ketgandir, bugun ham, ertaga ham nobop kun ekanligini bilishi, his qilishi kerak edi, chunki qulay kun istiqbolda yo‘q va bo‘lmasligi aniq, zero, ilgari ham bo‘lmagan, bu yo‘ldan yuqoriga odamga o‘xshab chiqish mumkin emas ekan, nega burnini suqib yuribdi, bo‘lmaganga bo‘lishma deyishadi axir, u labini tishladi, shoshma-shosharlikning oqibati shunaqa bo‘ladi, u o‘zini koyidi va boshini quyi soldi, ruhi tushib, la’nati poyabzalida tovonlari yorilib, Akropol etagida kalovlanib yurardi, tongda kelib qolgan ko‘chaga qaytib borishi uchun ham juda uzoq yurishi kerak edi, ko‘chaning nomi Stratonos edi, keyin u Erexteos ko‘chasiga o‘tdi, u yerdan Apollon

ko‘chasi orqali Ermi ko‘chasining chorrahasigacha ikki qadam edi — mana, nihoyat, u maydonning narigi tomonida, ertalab tanishgan yigitlar turganini ko‘rdi yu, ko‘zlariga ishonmadi, Ela degan qizdan bo‘lak yigitlarning bari o‘sha yerda o‘tirishardi, yigitlar ham uni payqab qo‘l silkishdi, ularning ko‘rinishi unga jazirama issiqda esa boshlagan salqin shabadadek ta’sir qildi, yuqorida shuncha chekkan qiynoqlaridan keyin, xayriyat, ularning yoniga qaytishning o‘zi mo‘jizadek tuyuldi, yigitlarni ko‘rgan zahotiyoq yuragi gup gup ura boshladi, ertalab bu yigitlarning nimasi yoqib qolganiykan unga, bekorga emasdir, ha, ularning hech narsa qilmasliklari, hech narsani istamasliklari, shuningdek, ehtimol, ko‘ngilchanliklari manzur bo‘lgandir, deya o‘yladi u ulardan ko‘z uzmay turib, so‘ng, charchash alomatimi, javob tariqasida horg‘in qo‘l siltab qo‘ydi, ertalab ulfatlari unga bir-dek lutf qilishdi, grekcha qahva buyurib shu yerda ular bilan o‘ti-raversa bo‘lmasmidi, nima keragi bor edi bema’ni sayohatning, bunaqa ko‘ngilsiz tentirashdan keyin ertalab qalbida jo‘sh urgan xohish-istaklari hozir o‘ziga erish tuyuldi, agar shu yerda qolgani-da edi, bunaqa betayin ishlar yuz bermasdi, nima qilasan o‘zingni o‘qqa-cho‘g‘ga urib, o‘tir qahvangni ichib, o‘tgan-ketgan qiz-ju-vonlarni suqlanib tomosha qil, u qattiq toliqqanini his etdi, bundan buyon nima qilishini u endi yaxshi bilardi, yangi tanishlari bilan birga o‘tiradi, ularga o‘xshab xushhol va xushchaqchaq kayfiyat-ning qadriga yetadi, yeydi, ichadi, sovutilgan grekcha qahvadan so‘ng mas’ud damlarga ichida shukronalar aytib, ko‘zlarini chirt yumgancha orom oladi, hushiga kelsa poyabzalini yechib, oyoq-larini uzatib o‘tiradi, birov mushugini pisht demaydi, aloha, xayo-lan o‘zini o‘zi askiya qilib tepada nimalar ro‘y bergani haqida so‘zlab beradi, yozning qoq o‘rtasida Afinaga kelib, ilk kuniyoq jazirama issiqqa qaramay, Akropolga chiqqan va u yerda hech qanaqa Akropolni ko‘rmaganidan hayratga tushgan telba sayyoh haqida kula-kula gapirib beradi, ana shunisiga dog‘man, deb hammani kuldiradi Iorgos, rostdanam telba, yana nima deb atash mumkin uni, qo‘shimcha qiladi Adonis, quyosh tig‘ida Akropolga chiqayotib qora ko‘zoynak olishga fahmi yetmaganiga o‘laymi, deganda yigitlardan bir-ikkitasi tizzasiga shapatilab o‘rnidan tu-

rib ketadi, shularni xayolida tasavvur qilar ekan, ehtimol, u mana bunday javob beradi: sayohatga qora ko‘zoynaksiz chiqqanining sababi — ko‘zoynak orqali tomosha qilingan Akropol bu endi Akropol emas, uning gapidan ensalari qotgan yigitlar achinib qarashadi o‘zlaricha, ana shularni o‘ylab turgan paytida yigitlar qo‘l siltab, yo‘ldan o‘ta qolmaysanmi tezroq, cho‘zib o‘tirasanmi, bo‘laqol, deb qichqirishdi, u sog‘-salomat shu yerga, salkam qadrdon bo‘lib qolganlar oldiga yetib kelganidan quvonganicha hovliqib narigi tarafga o‘tish uchun yugurdi va o‘qdek uchib kelayotgan mashinalar oqimi orasida qoldi, katta tezlikda kelayotgan yuk mashinasi uni urib, majaqlab ketdi.

MUNDARIJA

Ildizlari mushtarak xalqlar. *(G'ayrat Majid)* 3

NAZM

Aron Yanosh. "Ajoyib suyg'unning hikoyati".
Is'hoq Ibrohim tarjimasi 7
Shandor Petyofi. She'rlar. *Davron Rajab tarjimasi* 20
Layosh Kashshak. She'rlar. *Davron Rajab tarjimasi* 25
Atilla Yojef. She'rlar. *Fayzi Shohismoil tarjimasi* 27
Karoy Chex. She'rlar. *Davron Rajab tarjimasi* 37
Yanosh Sentmartoni. She'rlar. *Davron Rajab tarjimasi* 39

DRAMA

Yenyo Xeltai. "Soqov ritsar". *Abdulla Oripov tarjimasi* 42
Dyula Urban. "Pishloqxo'rlar".
Hikoyat Mahmudova tarjimasi 149

NASR

Laslo Byoti. "Iqror". *Olim Otaxon tarjimasi* 179
Fridesh Karinti. "Sirk". *Manzura Shams tarjimasi* 188
Aron Tamashi. "Ildiz bilan yovvoyi gul".
Rustam Musurmon tarjimasi 195
Imre Kertes. "Stokgolm ma'ruzasi".
Shahnoza Rahmonova tarjimasi 248
Laslo Krasnaxorkai. "Akropol sarhadlarida".
Olim Otaxon tarjimasi 261

V 41 Venger adabiyoti namunalari [Matn]: nasr va nazm/to'plovchi va nashrga tayyorlovchi G'ayrat Majid. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 280 b.
ISBN 978-9943-8721-7-2

UO'K 821.511.141-3
KBK 83.3(2Ros=Veng)

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

VENGER ADABIYOTI NAMUNALARI

100-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Dildora Abduraimova*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Munisa Ismoilova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 17,5. Nashriyot-hisob tabog'i 15,41
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 166-1/22 Buyurtma raqami № 22-383

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

VENGER ADABIYOTI NAMUNALARI